

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Z.O. KUVANDIKOV**

**TADBIRKORLIK(BIZNES)  
HUQUQI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
tomonidan 5380100 yurisprudenstiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi  
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**SAMARQAND – 2023**

UDK: 347:334.72

BBK: 67.99(5Uz)3

**Kuvandikov, Zokir Oblakulovich.**

**Tadbirkorlik huquqi. Z.O. Kuvandikov. O'quv qo'llanma.** - Samarqand, SamDU nashri, - 2023. – 420 bet.

*O'quv qo'llanmada tadbirkorlik huquqining predmeti, nazariy-huquqiy va qonuniy tushunchasi, tadbirkorlik huquqining o'ziga xos belgilari va xususiyatlari, tadbirkorlik huquqining manbalari, tadbirkorlik faoliyatining turlari, ularning umumiy xarakteristikasi, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining mulk huquqi va boshqa ashvoviy huquqlari, tadbirkorlik faoliyatida shartnomaviy munosabatlar, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining fuqarolik huquqiy javobgarlik asoslari xamda ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlik huquqi soxasidagi manbalari keltirilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv va iqtisodiy inqiroz sharoitlarida O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga doir masalalar yoritilgan.*

*O'quv qo'llanmadan Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari yuridik ta'lim yo'nalishi va boshqa Oliy ta'lim muassasalarining iqtisod va biznes yunalishlari bo'yicha taxsil olayotgan talabalar va o'quvchilar uchun hamda tadbirkorlik huquqi soxasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan izlanuvchilar shuningdek tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan yoki ushbu faoliyatni yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga foydalanish uchun tavsiya etiladi.*

**Taqrizchilar:**

Yu.f.d. Prof. **F.Yu. Shodmanov.**, yu.f.n. Prof.v.b. **A. Gulomov.**

**Mas'ul muharrir:**

yu.f.d. Prof. **O. Oqyulov**

*SamDU Kengashining majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.(2022-yil 30 dekabr, 6-sonli qarori)*

**ISBN 978-9943-9350-9-9**

@ Z.O.Kuvandikov, 2023.

## KIRISH

Darhaqiqat, *Prezidentimiz Sh. Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz kerak: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash – fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirishning eng samarali yo'li, Yangi O'zbekistonni barpo etishning pirovard maqsadidir*<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va uning huquqiy asoslarini yanada mustaxkamlash maqsadida Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan O'zbekiston respublikasida *Tadbirkorlik kodeksini* qabul qilish, "*Kichik va o'rta biznes to'grisida*"gi qonun loyihasi tayyorlash, lisenziyalash va ruxsatnomalar berish tartibini qayta ko'rib chiqishni, tadbirkorlarga ruxsatnomalar berish sonini 2-3 baravarga kamaytirishni, yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyekti a'zolariga „*jinoiy uyushma*“ degan ayblov qo'yib, ularga ogir jazo tayinlash kabi allaqachon umrini o'tab bo'lgan tartiblarni bekor qilishni, buning oqibatida respublikamizda o'z faoliyatini yuritayotgan yuzlab tadbirkorlar qanchadan-qancha aziyat chekib, moddiy zarar ko'rayotganliklari va boshqa shunga o'xshash muammolarni tezda bartaraf etish yo'llarini ta'kidladilar. Mazkur muammolarni qisqa muddatlarda bartaraf etish maqsadida Prezidentimiz respublika Oliy sudi, Bosh prokuratura, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda Adliya vazirligiga 2020 yil 1 aprelgacha ana shu masalalar bo'yicha tegishli qonun loyihasini puxta ishlab chiqishi lozimligi kabi asosiy ustuvor vazifalarni belgilab berdilar<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz Prezidenti Respublikada tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha yanada qulay sharoitlar yaratish haqidagi o'z fikrlarini davom ettirib, "*Bir narsani alohida ta'kidlash kerak, ya'ni pandemiya davrida iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun tadbirkorlar davlat bilan teppa-teng hissa qo'shdilar. Shuning uchun barchamiz tadbirkorlarga elkadosh bo'lib, ularni doimo qo'llab-quvvatlashimiz*

---

<sup>1</sup><https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>

<sup>2</sup><https://www.gazeta.uz/uz/2020/01/24/president-speech/>

*shart. Bu borada ishbilarmonlarning haq-huquqlarini, ayniqsa, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash – barcha darajadagi davlat organlarining asosiy vazifasi bo'lishi lozim*” dedi.

Yuqorida ta'kidlangan vazifalarning ijrosini ta'minlash natijasida respublikamizda bugungi kungacha qo'yidagilar amalga oshirildi. *Birinchi*dan, “Soliqchi – ko'makchi” tamoyili asosida tadbirkorlar uchun ularning biznes hamkorining soliq qarzdorligi haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratildi. *Ikkinchi*dan, tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta listenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilindi, 115 tasi bo'yicha tartib-qoidalar soddalashtirildi. *Uchinchi*dan, Pandemiya sharoitida aylanma mablag tanqisligiga duch kelgan tadbirkorlarimiz “*oyoqqa turib olishlari*” uchun ularga ko'mak berishni davom ettirish natijasida, turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalariga berilgan imtiyozlar uzaytirildi. *To'rtinchi*dan, 20 mingga yaqin tadbirkorning 400 milliard so'mlik yer va mol-mulk soligini to'lash muddatini yana bir yilga uzaytirildi. Bundan tashqari, 1 milliard so'mgacha davlat xaridlari doirasida avans miqdori 30 foizga etkazildi. *Beshinchi*dan, tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni davom ettirish maqsadida, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida respublikamiz tadbirkorlariga 2021 yilda 6 trillion so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Shuningdek, Hukumat tomonidan Jahon banki bilan birgalikda boshlangan qishloqlarda tadbirkorlikni rivojlantirish dasturini kengaytirish uchun qo'shimcha 100 million dollar yo'naltirildi. *Oltinchi*dan, tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib, ularning soni qisqartirildi hamda Tadbirkorlik kodeksi loyixasi ishlab chiqildi va keng omma muxokamasidan o'tkazilib, ushbu kodeksni qabul qilish uchun Oliy Majlis qonunchilik palatasiga kiritildi.

Xususan, bundan 4 yil oldin tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlar o'tkazishga moratoriy e'lon qilgan edi, buning natijasida o'tgan davrda tadbirkorlar soni 2 barobar ko'payib, 400 mingtaga etdi. Shuning uchun moratoriy muddatini 2021 yil oxirigacha uzaytirildi.

*Bozorda teng raqobat muhitini yaratish va halol-pok tadbirkorlarni – takror aytaman (Prezident so'zi) – zamonaviy texnologiyalar asosida*

*ishlayotgan vijdonli tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "yashirin iqtisodiyot"ni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlar<sup>3</sup> joriy etilmoqda.*

Joriy yilning birinchi yarmidagi iqtisodiy natijalar tahlili hamda yil yakuniga qadar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasiga bagishlangan videoselektor yigilishida, Prezident mamlakatda jami 53 mingta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 14 foiz oshganligi haqida ma'lumot e'lon qilindi<sup>45</sup>. Respublikada 2021 yilda yoshlarning biznes loyihalarini kreditlash, ularni kasb-hunarga o'qitish uchun 1 trln so'm va 550 mln dollar ajratilishi belgilandi<sup>5</sup>.

Respublikada tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini mustaxkamlash yo'lida Prezident farmon va qarorlari muxim hisoblanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustida "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PQ-1604-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish choratadbirlari to'grisida" 2019 yil 15-martdagi PF-5690-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida" 2020 yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'grisida"gi 2022 yil 27-iyuldagi PF-178-sonli xujjatlar shular jumlasidandir.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-178-sonli farmoni asosida "business.gov.uz" portalini "Tadbirkor virtual ofisi" portaliga aylantirildi. Mazkur portal orqali tadbirkorlarning murojaatlari

---

<sup>3</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

<sup>4</sup> <https://kun.uz/news/2021/08/03/yilning-1-yarmidagi-iqtisodiy-natijalar-tahlil-qilindi>

<sup>5</sup> йил 29 декабрдаги Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

kechayu kunduz qabul qilinib hal etiladi va ushbu jarayonlar nazorat qilib boriladi.

2022 yil ikkinchi kvartaldan boshlab, “buzines.gov.uz” portaliga quyidagilar tomonidan murojaatlar kiritilishi mumkinligi belgilandi. Xususan, tadbirkorlar, Savdo-sanoat palatasi huzuridagi “Coll-markaz” xizmati, Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Vakil), hokim yordamchilari. Murojaatlar avtomatik yoki Vakil tomonidan vakolatli organlarga ko‘rib chiqish va hal etish uchun yo‘naltiriladi, vakolatli organlar murojaatlarni ko‘rib chiqib natijalari to‘grisida axborotni portalga kiritadi, Vakil murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi va muddati ustidan raqamli nazorat o‘rnatadi hamda qonunbuzilish holatlari bo‘yicha tegishli ta’sir choralari qo‘llaydi.

Vakil har yili 1 mart oyigacha Prezidentga davlat organlari tomonidan tadbirkorlarning huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish to‘grisidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishining holatiga doir yillik hisobot taqdim etadi.

Adliya vazirligiga 2022 yil 1 sentyabrgacha umumiy ovqatlanish va chakana savdo sohalariidagi talablarni soddalashtirish hamda ushbu sohalardagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash choralari nazarda tutuvchi hujjat loyihasini Hukumatga kiritish vazifasi topshirildi.

So‘nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan “*Har bir oila — tadbirkor*”, “*Yoshlar kelajagimiz*” va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 13 trln so‘mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi.

Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi kredit olish imkoniyatidan iborat bo‘lgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, ushbu farmonda aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, kambagallikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom

ettirish maqsadida aholini, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorlikni davlat tomonidan qoʻllab quvvatlashning quyidagi asosiy yoʻnalishlarini amaliyotga joriy etish koʻzda tutildi:

➤ aholining tadbirkorlik bilan shugullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish;

➤ aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan oʻqitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat taʼlim tashkilotlarini keng jalb qilish;

➤ tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan mikroreditlash tizimini institustional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish;

➤ aholi tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uygun va muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqish;

➤ tadbirkorlik koʻnikmasi va tajribasiga ega boʻlgan aholini va boshqa kichik biznes vakillari salohiyatini roʻyobga chiqarish orqali ular faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan toʻlaqonli tizimni yaratish;

➤ tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yaxlit tizimni tashkil etish va yagona davlat tashkiloti tomonidan amalga oshirilishini va muvofiqlashtirib borilishini yoʻlga qoʻyish kabi vazifalar belgilandi.

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga boʻlgan eʼtibor, nafaqat hukumat doirasida balki keng omma oldida xususan, ilmfan namoyondalari oʻrtasida xam aloxida axamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, Abdusalomov M.E, Azizov X.T, Anortoev I., Boboqulov S.B, Baratov M.X, Gulyamov S.S, Zokirov

I.B, Matkurbanov R.J, Nasriev I.I, Ibratov B, Oqyulov O, Rahmonqulov H.R, Rustamboev M.X., Roʻzinazarov Sh.N., Roʻziev R.J., Shodmanov F.Yu, Karaxodjaeva D.M., Samarxodjaev B.B, Sindarov K.O, Topildiev V.R, Turebekov

T.M, Hamroev S.S, Egamberdiev E.E, Ergashev V.Yo., Z.O.Quvondiqov., R.T.Berdiyarov <sup>6</sup> va boshqalar <sup>7</sup> . Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining fuqarolik huquqiy asoslari Hamdo‘stlik va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan o‘rganilib borilmoqda. Jumladan, Mankovskiy I.A, Suxanov E.A, Jilinskiy S.E, Laptev V.V, Puginskiy B.I, Fokov A.P, Gorfikel V.Ya, Polyana G.B, Paraцuk S.A, Serebrovskiy V, Karapetov A.G, Prozorov V.F, Oleynik O.M, Zenin I.A, Oygenzixt V.A, Zalesskiy V.V, Rassola M.M, Grishaeva S.P, Gafarli M.S, Golovanov N.M, Ershova I.V, Ivanova T.M, Magaziner Ya.M, Malein N.S, V.V. Vitryanskiy va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan<sup>8</sup>.

Yuqorida nomi tilga olingan o‘zbek olimlari va boshqa xorijiy davlatlar olimlarining darslik, o‘quv qullanmalarida xamda ilmiy asarlarida bayon qilingan fikrlar, takliflar va tavsiyalar, mamlakatimizda tadbirkorlik huquqi fanining metodologiyasini xamda manbalarini yanada boyitishga xizmat qilmoqda.

### **Fanning mazmuni**

“Tadbirkorlik (Biznes)huquqi” o‘quv kursini o‘rganishda talabalar Tadbirkorlik huquqi alohida huquq sohasi, bozor va tadbirkorlik, biznes, biznesmen, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik huquqi, tadbirkorlik huquqining predmeti, tadbirkorlik huquqining boshqa huquq sohalaridan farqi, tadbirkorlik huquqining asosiy printsiplari, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish printsiipi, Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tushunchasi va belgilari, tadbirkorlik huquqining subyektlari, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘risida”gi qonun, tadbirkorlik huquqining subyektlarining

---

<sup>6</sup> Тошкент давлат юридик университети мустақил изланувчиси Бердияров Рахматжон Тожиновичнинг “Тадбиркорлик субъектларини солиқ органларининг қонунга ҳилоф ҳаракатларидан фуқаролик-ҳуқуқий ҳимоя қилиш” мавзусидаги юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган автореферати. Т.:2021.49-б.

<sup>7</sup> Раҳмонкулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. Корпоратив ҳуқуқ. ТДЮИ, – 2007. –116 б; С.74-75; Окюлов О. Правовой статус индивидуального предпринимателя. //Вестник Высшего хозяйственного суда Республики Узбекистан. 2005. -№ 7. –С.56-61; Синдоров К.О. Қишлоқ хўжалигида шартнома муносабатларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш муаммолари: юрид. фан. докт. дис... – Тошкент, ТДЮИ. 2004.-284 б; Шодманов Ф.Ю. Бозор иқтисодиёти шароитида шартнома мажбуриятларини бузганлик учун фуқароликҳуқуқий жавобгарлик муаммолари: юрид. фан. докт. дис. ...Автореф. – Тошкент, ТДЮИ, 2002. – 44 б;

<sup>8</sup> Манковский И.А. Правовой статус частных коммерческих юридических лиц как субъектов предпринимательской деятельности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Минск, 2002. - 17 с;



o'ziga xos belgilari, tadbirkorlik huquqi subyektlari tasnifi, tijoratchi tashkilot, jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish. Kabilarni o'rganadi. Bu yurisprudensiya yoki tarmoq soxalari bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning o'qish davomida, kelgusi ishida hamda ushbu olgan bilm, kunikma va malakalarini real vaziyatlarda hayotda qo'llay olishini ta'minlaydi.

## I BOB. TADBIRKORLIK(BIZNES) HUQUQI FANI TUSHUNCHASI

1. Tadbirkorlik(biznes) huquqi tushunchasi, predmeti va tamoyillari.
2. Tadbirkorlik huquqining boshqa huquqiy fanlardan farqi.
3. Tadbirkorlik(biznes) huquqining manbalari va uning turlari.
4. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va tarkibiy qismlari.

Tadbirkorlik(biznes)huquqi (inglizcha - enterprise, enterprising, Ruscha -predprinimatelstvo) – foyda olish maqsadida fuqarolar va yuridik shaxslarning o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyatidir.

Sohibqiron Amir Temur tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlab va tadbirkorlarni ulug‘lab, ularning nafaqat o‘zi balki jamiyat uchun ham katta nafi tegishini, inson doimo faol bo‘lishini ta’kidlab, o‘z tuzuklarida *“Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”*, deb ko‘rsatadi.

Tadbirkorlik va biznes tushunchalari o‘zaro bogliq tushunchalar bo‘lib, bir birini to‘ldiradi. “Biznes” - so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so‘z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik sohasida biznes foyda beradigan iqtisodiy faoliyat bo‘lib, ushbu faoliyat bilan shuullanuvchi shaxslar biznesmen sifatida mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga, yalpi ichki mahsulotning ko‘payishiga, aholi faravonligining oshishiga xizmat qiladi. Biznesmen (tadbirkorlik) so‘zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo‘lib, u “mulk egasi” degan ma’noni bildiradi.

Biznes (inglizcha – business; ruscha – delo, anteprenerstvo – ish, mashulot) – tavakkalchilik va o‘zining javobgarligi ostida xususiy yoki qarzga olingan vositalari hisobidan amalga oshiriladigan, asosiy maqsadi foyda olish va o‘z faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuskor iqtisodiy faoliyatdir.

Ishbilarmonlik – biznes yuritish uchun amaliy qulay sharoit tudirib berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rabatlantirish real iqtisodiyotni isloh etishning navbatdagi eng muhim yo‘nalishidir.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I. Karimov qayd etganidek “...Soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirilib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferentsiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatilayotganligini ta’kidlash lozim”.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq jarayonlar Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, Yer kodeksi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisida”, Mulkchilik to‘grisidagi, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘grisida”, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘grisida”, “Fermer xo‘jaligi to‘grisida”, “Dehqon xo‘jaligi to‘grisida”gi va boshqa qonunlar va qonunosti hujjatli asosida tartibga solinadi. Ushbu huquqiy munosabatlarni tadbirkorlik huquqi modul fani o‘rganadi, u bozor iqtisodiyotining shakllanish jarayonida muhim huquqiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizning mustaqil davlat sifatida shakllanganiga xam o‘ttiz yil to‘ldi. O‘tgan davr moboynda Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilib borilmoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatining ilmiy-nazariy tushunchalari va huquqiy asoslari tobora rivojlanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan jamiyatni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri, davlatning iqtisodiy salohiyatini tadbirkorlik asosida mustahkamlab, unda mulkdorlar sinfini tobora kengaytirishga qaratildi. Ayrim manbalarga ko‘ra, tadbirkorlik tushunchasi uzoq tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, uni Amir Temurning quyidagi so‘zlari bilan izohlash mumkin: *“ishbilarmon mardlik va shijoat sohibi bo‘lgan azmi qatiy, tadbirkor va xushyor bir kishi, ming-minglab*

*tadbirsiz loqayd kishilardan afzaldir*”<sup>9</sup>. Shuningdek, tadbirkor-biznesmenlik faoliyati asosan XVII asrda paydo bo‘lib, ko‘pincha “mulkdor” degan tushuncha bilan tenglashtirilgan. Xususan, A. Smit biznesmenni foyda olish uchun biror bir tijorat goyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish ko‘ruvchi mulkdor, deb ta’riflaydi<sup>10</sup>.

Tadbirkorlik huquqiga oid tushunchalar va goyalar xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, Angliyalik iqtisodchi olim F. Xayk tadbirkorlik asosida biror bir iqtisodiy imkoniyat natijasida o‘z maqsadiga erishib, ma’lum bir daromad foyda olish tushuntiradi<sup>11</sup>. Tezpur universiteti Professori S.Xanka bu sohaga tarixan nazar solib, Hindiston davlatining hozirgi kunda ogir va engil sanoatida yirik tadbirkorlik faoliyatining eng faol ishtirokchisi bo‘lib kelayotgan korxonalaridan Tata, Birla, Modi, Dalmia va boshqalarni keltirib o‘tib, ushbu subyektlar dastlabki faoliyatini eng kichik biznesdan boshlab yirik tadbirkorlarga aylantirilganligini ta’kidlaydi<sup>12</sup>.

Yuridik lugatlarda tadbirkorlik faoliyati tushunchasi mustaqil o‘z mulki asosida tavakkalchilik bilan amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, o‘z mulkidan mahsulot sotishdan, ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatishdan, uzluksiz doimiy ravishda daromad oluvchi hamda davlat ro‘yxatidan qonuniy tartibda o‘tgan faoliyat tan olinishi belgilangan<sup>13</sup>. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari Konstitustiyamizning 36, 53, 54 va 55-moddalarida mustaxkamlab qo‘yildi.

Tadbirkorlik faoliyatiga ilk bor qonuniy tushuncha “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisida’gi O‘zR qonunning 3-moddasida berildi. Unga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat<sup>14</sup>.

---

<sup>9</sup> Темур тузуклари. Тошкент, Нашриёт-матбаа бирлашмаси. – 1991. -57 б.

<sup>10</sup> Жилинский С.Э. Предпринимательское право. – М.: Норма, 2002. – С. 67- 68.

<sup>11</sup> Предпринимательство в АПК (Агропромышленных комплексах). С.И.Грядов. – М.: Колос.

<sup>12</sup> Khanka S.S. Entrepreneurial development. New Delhi –2005.-15 p

<sup>13</sup> Большой юридический словарь. 3-ое изд. Под ред. Проф.А.Я.Сухарева – М. Инфра, 2006 – С.579-580.

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000, 5-6 сон. 140-модда.

Fuqaro (jismoniy shaxs) ning tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanish huquqi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 24-moddasida mustaxkamlangan bo‘lib, unda, fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishga haqlidiri.

Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasiga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar, Respublikamizda tadbirkorlik huquqi faninng asoschilaridan biri hisoblangan olim B. Ibratov tomonidan olib borildi. U tadbirkorning barcha harakatlari asosan bozor imkoniyatlarini tahlil qilish, undan foydalanish, novatorlik goyalarini amalga oshirishdan iborat ekanligini asoslab, tadbirkorning kapitalistik ekspluatatorlik mohiyatiga olib keluvchi an’anaviy sinfiy ta’rifi emas, balki, uni inson faoliyatining shu sohadagi funkstiyasi bo‘lib, uning jamiyatdagi tutgan o‘rni va ijtimoiy ahamiyatiga e’tiborni qaratish lozimligini tushuntirdi. Shuningdek, tadbirkor bozor iqtisodiyotining alohida bo‘ginlarida takror ishlab chiqarish borasida xizmat ko‘rsatuvchi tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa xo‘jalik munosabatlarining majmuidir<sup>15</sup>, degan ta’rifni ilgari surdi.

Demak, tadbirkorlik faoliyati deganda, har qanday mulkdor tomonidan o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulki asosida yoki o‘zga shaxsning mulkini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, tavakkalchilik asosida tadbirkorlikni amalga oshirishga, undan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olishga, yangilik yaratuvchi, o‘z mulkiy javobgarligi hamda mustaqil ish yurita oladigan tashabbuskor jismoniy yoki yuridik shaxs tushuniladi.

Tadbirkorlik faoliyati bevosita xususiy mulkka asoslanib, taraflarning huquqiy jihatdan tengligiga amal qiladigan mustaqil faoliyat hisoblanadi. Xususiy mulk fuqarolik huquqining asosiy ob’ektlaridan biri bo‘lib, ushbu mulk fuqarolik oborotida erkin muomalada bo‘ladi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar, fuqarolik huquqiy munosabatlarning mustaqil ishtirokchisi sifatida, ular o‘z mulkidan

---

<sup>15</sup> Ибратов Б. Тadbirkorlik huquqi. –Тошкент, Молия, 2001. - 26 б.

qonunda belgilangan tartibda cheklanmagan miqdorda foyda yoki daromad olishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi har bir shaxsda iqtisodiy, fuqarolik huquq va muomala layoqatiga ega bo‘lishi, aqli raso, o‘z mulki asosida majburiyatlar yuzasidan butun mol-mulki bilan javob berishligi talab qilinadi. Shu bilan birga ushbu faoliyatni boshlovchida ishbilarmonlik, boshqaruvchilik, qat’iy fikrlilik, bozor qoidalarini tushunadigan, o‘z faoliyati asosida davomli foyda oladigan, ish muomalasi odobi talablariga amal qiladigan shaxsni tushunish lozim.

Respublikamizning ayrim olimlari tadbirkorlik faoliyatining umumiy tushunchalarini qo‘yidagicha izoxlaydilar. Xususan, B.A. Erkaev va G.I.Karimovalar – tadbirkorlik so‘zining lugaviy ma’nosini tahlil qilib, *predprinimatelstvo* - enterprise - foyda olish maqsadida fuqarolar va korxonalarining o‘z tashabbusi asosida mustaqil faoliyat yuritishini tushuntiradi<sup>16</sup>. Prof. B. Ibratov, tadbirkorlik – biznesmenlik faoliyati asosan XVIII asrda paydo bo‘lib, u ko‘pincha “mulkdor” degan ma’noga ega ekanligini ta’kidlaydi. B. Ibratov tadbirkorlik tushunchasiga faylasuf olim A. Smitning fikrlarini quvvatlab, tadbirkorni ya’ni biznesmenni foyda olish uchun biron-bir tijorat goyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish ko‘ruvchi mulkdor, degan fikrni ilgari suradi<sup>17</sup>.

Prof. O. Oqyulovning fikricha, tadbirkorlik faoliyati bu har qanday mulkdorning tashabbusi asosida faoliyatni olib boruvchi bo‘lib, unda shaxs o‘z harakatini o‘z xohish - istagini mustaqil holda amalga oshirishini va u tadbirkor sifatida ishtirok etuvchi subyektlarning o‘z xohish istagini va o‘z harakatini mustaqil belgilab, harakat qiluvchi shaxs deb tushuntiradi<sup>18</sup>. Prof.S. Boboqulov esa bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy kuch deb ta’kidlaydi<sup>19</sup>.

---

<sup>16</sup> Эркаев Б.А., Каримова Г.И. Бозор иқтисодиёти-изохли луғат. – Тошкент: Шарқ. 1997.

<sup>17</sup> Ибратов Б. Тadbirkorlik ҳуқуқи. –Тошкент.: Молия, 2001. 6-б.

<sup>18</sup> Оқюлов О. Понятие и основные признаки предпринимательской деятельности. //Хозяйство и право, №5. –Тошкент: 2004. – С 74-75.

<sup>19</sup> Бобоқулов С. Иқтисодий ислохотлар жараёнида ижара муносабатларини ривожлантириш ва такомиллаштиришнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари: юрид. фан. докт. дис. ... ТДЮИ. -17 б.

Yuqorida keltirilgan ilmiy fikrlar asosida, biz tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati deganda, har qanday mulkdorning o'z xoxish istagi bilan qonun hujjatlar asosida tadbirkorni mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishni, o'z faoliyati natijasidan cheklanmagan foyda olishni, o'z faoliyatini tavakkalchilik va tashabbuskorlikka asoslanib ish ko'ruvchi shaxs sifatida anglab, uni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi asosiy faoliyat deb tushunish mumkin.

Tadbirkorlik huquqi jismoniy va yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishining **ikki muhim jihatini qamrab oladi. Birinchisi** tashkiliy-huquqiy, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tkazish va x.z bo'lsa, **ikkinchi jixati** esa uning faoliyatni bevosita yuritishi, ya'ni shartnomaviy munosabatlarga kirishish, ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishni amalga oshirish hisoblanadi.

Ba'zi manbalarda keltirilishicha, tadbirkorlik keng ma'noda shaxsiy va ijtimoiy manfaatni qondirishga asoslangan aqliy faoliyat hamdir<sup>20</sup>.

Ayrim olimlar tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlarini o'rganishida – ushbu faoliyat qonun hujjatlar doirasida korxonalar, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish bilan shugullanuvchi faoliyat ekanligini ta'kidlaydilar<sup>21</sup>. Xususan, prof.U. Tadjixanov tadbirkorlik faoliyatini - puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar asosida ish tutadigan faoliyatdir deb ta'riflaydi. Prof.K.Sindorov tadbirkorlik shaxsiy manfaatni qondirishga asoslangan, o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan hamda tavakkalchilik va tashabbuskorlik faoliyatini amalga oshiradigan, boshqa ijtimoiy subyektlar topshirigi bilan amalga oshiriladigan faoliyatdan farqli o'laroq, yangilikka intiladigan shaxslarning tashabbuskor faoliyatidir<sup>22</sup>, deb ta'kidlaydi.

Prof.I.B. Zokirov tadbirkorlik faoliyati yuridik shaxslar, fuqarolar yoki fuqaro tomonidan o'z tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari

---

<sup>20</sup> Қаранг. Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Тошкент: 1998.- 204 б.

<sup>21</sup> Мирсаидов М.С. Тadbirkorlik asoslari. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. - 185 б.

<sup>22</sup> Қаранг. Юридик энциклопедия. – Тошкент: 2001. 418-419-б; К.О.Синдоров, И.Жуманазаров. Тadbirkorlik субъектларини текширишнинг ҳуқуқий асослари. (қонунчилик ва суд амалиёти) – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 11-12-б.

asosida shaxsiy daromad (foйда) olish maqsadida qonunlar doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyati degan ta’rifni ilgari suradi<sup>23</sup>. Ustozning ushbu fikrlarida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining xarakterlarida sof fuqarolik-huquqiy mazmunga egaligini xisobga olib, tadbirkorlik huquqi fani tadbirkorlikning o‘ziga xos belgilari va xususiyatlarini yanada chuqurroq tadqiq etish lozimligini anglatadi.

Huquqshunos olimlar I.V. Yershova va T.M. Ivanovalar tadbirkorlik faoliyatida quyidagi belgilar mavjudligini ta’kidlaydilar<sup>24</sup>. Jumladan, mulkiy va tashkiliy mustaqillik, tavakkalchilik, davomli daromad (foйда) olish, daromadlarni mulkdan foydalanish orqali mahsulot yoki tovar sifatida sotishdan, ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatishdan hamda tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish orqali harakat qilishini tushuntiradi. Bundan tashqari ayrim olimlarning fikricha, tadbirkorlik mustaqil faoliyat bulib, ushbu faoliyatdan ko‘zlangan asosiy maqsad xo‘jalik tavakkalchiligi asosida muayyan faoliyatni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va undan doimiy hamda davomli ravishda daromad (foйда) olishga qaratilganlik faktlari ham mavjud bo‘lishini bildiradi<sup>25</sup>. V.A.Oygenzixt tavakkalchilik asosida ish tutishni fuqarolik - huquqiy nuqtai nazardan o‘rganib, uni insonning o‘z harakatini o‘zi tanlash asosida belgilashini, uning o‘z harakatini bila turib biror bir maqsadga erishish yo‘lida harakat qilishni, o‘z oldida duch keladigan to‘siqlar sari qadam qo‘yib borishni hamda shaxsning o‘z harakatini fahmlab ilgari boruvchi faoliyat deb tushuntiradi<sup>26</sup>. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisida”gi qonunning 3-moddasida, tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida

---

<sup>23</sup> Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. –Тошкент: 2007. 149-б.

<sup>24</sup> Ершова И.В., Иванова Т.М. Предпринимательское право. Учебное пособие. – М.: Юриспруденция, 1999. 4 с

<sup>25</sup> Предпринимательское право. Учебное пособие для вузов. – М.: 2000. Коллектив авторов. Изд. “Приор”.

<sup>26</sup> Ойгензихт В.А. Проблема риска в гражданском праве. (Часть общая), Изд-во “ИРФОН” – Душанбе, 1972.



daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat ekanligi tadqiq etilgan.

Yuqorida o'rganilgan barcha belgilar tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lib, bunda mulkdor o'z ishonchi va erkiga asoslanib mustaqil faoliyatini amalga oshiradi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, tavakkalchilik termini rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, AQShda ijobiy xarakterga ega bo'lib, ularda tijoratchilikda ko'proq qo'llanib, birja o'yinlarini o'tkazishda omad yoki yutuq olishni bildiradi. Shuningdek, AQShda bu borada maxsus *"Tadbirkorlikda tavakkalchilik"* deb nomlangan maxsus jurnalning ham mavjudligini bunga asos sifatida keltirish mumkin<sup>27</sup>.

Tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilik asosida ish yuritishda eng avvalo, har bir ushbu faoliyatni boshlovchi shaxs tavakkalchilik darajasini hisobga olib, bozor konyunkturasini puxta o'rganish talab qilinadi aks holda tadbirkorlikdan ko'zlagan foydaga erisha olmasdan kutilmagan noxush vaziyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Demak, tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilik belgisi har qanday shaklda tashkil topgan tadbirkorning o'z ishonchi va qobiliyatiga qarab, o'z mulkini va faoliyatini tavakkal qilib, undan cheklanmagan miqdorda foyda (daromad) olishga qaratadi. Tadbirkorning tavakkalchilik asosida ish tutishi raqobatga bardosh bera olishni hamda kutilmagan harakatlarda o'z mulki va muassislari bilan birgalikda to'liq javobgar bo'lish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining muhim belgilari ichida tadbirkorlikda tashabbuskorlik, mulkiy va tashkiliy mustaqillik belgilari ham muhim huquqiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Bizning nazarimizda tadbirkorlik faoliyatini boshlovchi har qanday shaxsda xususiy mulkka ega bo'lish, iqtisodiy erkinlik, tashabbuskorlik, tavakkalchilik, mulkiy mustaqillik, muomala layoqatiga ega bo'lishlik, doimiy uzluksiz xarakterga oid daromad (foyda) olish, tadbirkorlikning

---

<sup>27</sup> Ойгензихт В.А. Проблема риска в гражданском праве. (Часть общая), Изд-во "ИРФОН" – Душанбе, 1972. – С.39.

davlat ro'yxatidan o'tganlik fakti bilan bir qatorda unda novatorlik (innovatsiya) belgisi ham bo'lishi lozim.

Novatorlik belgisi ham tadbirkorlik faoliyatining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. "*innovatsiya*" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, uning ma'nosi yangilik, yangilik yaratish degan tushunchalarni anglatadi. Ushbu termin iqtisod va huquq fanlari sohasining rivojlanishi tufayli 1980 yillarda Evropa mamlakatlarida fanga kirib kelgan. Mazkur termin O'zRsi FKning 1031-moddasida mustahkamlangan. Innovatsiya faoliyatining tadbirkorlik faoliyatiga xos jihatlari uning belgilaridan bilish mumkin.

*Birinchidan*, ushbu faoliyat o'zining tuzilishi va vujudga kelishi bilan intellektual faoliyatning natijasi asosida paydo bo'ladi.

*Ikkinchidan* esa, ushbu faoliyat natijasida yangi bir goyalarni ishlab chiqib, uning natijasida yaratilgan mahsulotni bozorga chiqarish tushuniladi. Lekin ushbu tushuncha biroz bahsli bo'lib, bu borada ayrim huquqshunos olimlarning ham fikrlarini o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, huquqshunos olimi L.V.Mas innovatsion faoliyatni xarakterlab, uni tadbirkorlikka xos faoliyat emasligini, balki unda faqatgina tadbirkorlikka xos ayrim belgilarning mavjudligi bor, xolos, degan fikrga to'xtaladi<sup>28</sup>.

Innovatsiya belgisi tadbirkorlikka xos belgi bo'lib, intellektual faoliyat natijasida erishilgan yangiliklar innovatsiya asosida vujudga kelishini va bu faoliyatning maqsadi yaratilgan yangi mahsulotni tijoratlash tirish orqali daromad olishga qaratiladi. Shuningdek, uni tijoratlash tirish o'z navbatida tijorat huquqiga xos faoliyat hisoblanadi. Tijorat faoliyati esa, o'z navbatida, tadbirkorlikning bir turi bo'lib, uning mazmunida tadbirkorlikka xos belgilar mavjud va ular yuqorida qayd qilingan belgilar bilan deyarli bir xildir. Tadbirkorlik faoliyatining mazkur belgilari uning xo'jalik faoliyatini tadbirkorlik asosida tashkil etilganligini hamda ushbu belgilar tadbirkorlik tuzilmasining boshqa yuridik shaxslardan farq qilishini ham ajratadi.

---

<sup>28</sup> Мас Л.В.Коммерческое право. Краткий курс. 2 ое издание. СПб. Питер, 2005. – С.143.

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik asosida ish yuritish birinchi navbatda fuqarolik huquqiy munosabat bo‘lib, ushbu faoliyatning asosini mulkiy munosabatlar tashkil qiladi. Ikkinchidan esa, mulkiy munosabatlar fuqarolik huquqi normalari asosida tartibga solinadi. Shu asosda tadbirkorlik huquqi fuqarolik huquqining bir-birini to‘ldiruvchi va bir biri bilan bogliq munosabatlardan iborat ekanligini asoslaydi.

Xulosa qilganda, yuqorida sanab o‘tilgan barcha fikrlar va nazariyalar tadbirkorlik tushunchasini boshqa iqtisodiy faoliyat tushunchalaridan ajratib turuvchi, uning mustaqil faoliyat ekanligini belgilaydi. Ushbu asoslarga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatiga qo‘yidagicha ilmiy ta’rif berish mumkin. Xususan, har qanday tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tovar ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir.

**Tadbirkorlik huquqining predmetini** tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy, ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatish, subyektning ichki tuzilmalari o‘rtasidagi, davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga umumiy rahbarligi bilan bogliq munosabatlar tashkil etadi.

**Tadbirkorlik huquqining tamoyillari** barcha huquq sohalari kabi tadbirkorlik huquqining ham asosiy va eng muhim printsiplari O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan asosiy qoidalardir. Ushbu tadbirkorlik huquqiga oid asosiy printsiplar respublikamizda bozor munosabatlarining rivojlanishida barcha tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatini ma’lum bir maqsad sari yo‘naltirib, huquqiy tartibga solib turadi.

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati qo‘yidagi tamoyillar asosida o‘z faoliyatini amalga oshiradi:

- ✓ tadbirkorlik subyektlarining tengligi;
- ✓ iqtisodiy faoliyat erkinligi;
- ✓ iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- ✓ o‘zaro erkin raqobat;
- ✓ qonuniylik;

✓ davlatning ta'sir etishi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining tengligi tamoyili fuqarolik huquqiy munosabatlarda o'z ifodasini belgilaydi. Buning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi FKning 1-moddasida o'z ifodasini topadi. Lekin tadbirkorlik faoliyati subyektlarining vertikal munosabatlari tenglik tamoyiliga asoslanmaydi, chunki bunda bir taraf ma'muriy organ sifatida ishtirok etadi.

Ikkinchi tamoyil tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat erkinligidir. Ushbu tamoyil Konstitutsiyamizning 53-moddasida o'z ifodasini topib unda, Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Uchinchi tamoyilning mazmun-moxiyati shundaki bunda, tadbirkorlik faoliyati subyektining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, uning mulkiy manfaati tushuniladi, ushbu manfaatning qonuniy asosini Konstitutsiyamizning 54-moddasi tashkil qilib, unda mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Ushbu modda tadbirkorga iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda, xam huquq xam majburiyat yuklaydi.

O'zaro erkin raqobat, tamoyili. Ushbu tamoyil tadbirkorlik faoliyatida muxim ahamiyat kasb etib, unda erkin bozor munosabatlarida o'zaro teng raqobat hukmron bo'lishi talab etiladi. Tadbirkorlik munosabatlarida raqobat huquqi O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'grisidagi 06.01.2012 yildagi O'RQ-319-son Qonuni, asosida himoya qilinadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni O'zbekiston Respublikasining Monopoliyaga qarshi kurash organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu organning asosiy vakolatlaridan biri tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi xamda xo'jalik yurituvchi

subyektning yoki shaxslar guruhining tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeyi mavjudligini aniqlaydi.

Qonuniylik tamoyili, ushbu tamoyil tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning dastlabki jarayonidan boshlanadi va uning butun faoliyati davomida amal qilinishi lozim bo'lgan, keng qamrovli tamoyil hisoblanadi. Qonuniylik tamoyiliga har bir tadbirkorlik subyekti amal qilishi lozim va ushbu tamoyilga barcha davlat va nodavlat idoralari o'z faoliyati davomida qat'iy bo'sunishlari shart hisoblanadi.

Davlatning ta'sir etish tamoyili, bunda davlat o'z fuqarolari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida, ushbu subyektlarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, ularni himoya qilishi shart bo'lgan tamoyil hisoblanadi. Bu borada hukumatimiz tomonidan ko'plab qabul qilinayotgan normative huquqiy hujjatlar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 27.07.2018 yildagi PF-5490-son Farmonini keltirish mumkin.

## **2.Tadbirkorlik huquqining boshqa huquqiy fanlardan farqi**

Tadbirkorlik(Biznes)huquqi – tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq munosabatlarni tartibga soluvchi va bozor sharoitida davlatning iqtisodiyotga rahbarlik qilish chora-tadbirlarini belgilovchi huquqiy qoidalar yigindisidan iboratdir.

Demak, tadbirkorlik huquqi o'ziga xos muayyan munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi huquq sohasi-mi?

Tadbirkorlik huquqi ham boshqa huquq sohalari kabi: *birinchidan*, huquqning mustaqil sohasi; *ikkinchidan*, qonunchilik tarmogi; *uchinchidan*, fan sohasi; to'rtinchidan, o'quv predmeti hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqi – huquq tarmogi sifatida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalari yiindisidan iborat. Misol tariqasida, "Iqtisodiy faoliyat" termini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida,

shuningdek. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 18 moddasida qo‘llanilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Tadbirkorlik|(biznes)huquqining *predmetini* tadbirkorlik ub’ektlarining tashkiliy-huquqiy, ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatish, subyektning ichki tuzilmalari o‘rtasidagi, davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga umumiy rahbarligi bilan bogliq munosabatlar tashkil etadi.

Quyida Tadbirkorlik|(biznes) huquqining fuqarolik, ma’muriy, moliya, mehnat va boshqa huquq sohalari bilan farqini ko‘rib chiqamiz.

Avvalo, fuqarolik huquqi fani mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan, tadbirkorlik (biznes) huquqi esa tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi vertikal va gorizontal, bozor sharoitida davlatning iqtisodga rahbarlik qilish munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan.

Tadbirkorlik huquqi subyektlar o‘rtasidagi tadbirkorlik munosabatlarini tartibga solsa, mehnat huquqi ish beruvchi bilan xodimlarning mehnat shartnomasi asosida munosabatlarini, ichki tartib qoidalarini, ish rejimini va shunga o‘xshash mehnat shartnomasi bilan bogliq boshqa munosabatlarni tartibga soladi.

Ma’muriy huquqning predmeti ma’muriyatning buyruq hamda ijro faoliyati bilan, ya’ni hokimiyat va itoat etish, bir biriga buysinish sohasidagi faoliyat bilan bogliq munosabatdir. Bunday munosabat itoat etuvchi quyi organlarga va mansabdor shaxslarga o‘z direktivalari orqali ta’sir etish, boshqarish, idora etish kabi hokimiyatni amalga oshirish bilan izohlanadi. Tadbirkorlik munosabatlarida esa ma’muriy buysinish faoliyatlari kam uchraydi.

Misol uchun, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlatning umumiy rahbarligi, ya’ni davlat nazorati, soliqlar bilan ta’sir etish, tadbirkorlik subyektlarining o‘zaro ichki tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlar.

Moliya huquqining predmetini moliya byudjeti kirim-chiqimi (davlat daromadini sarflash va tashkil etish davlat rejasi) bilan bogliq munosabatlar tashkil etsa, korxonalar va tadbirkorlarning daromad manbaini

tartibga solish va ulardan qayta ishlab chiqarish muomalasida foydalanish kabilar Tadbirkorlik huquqining predmetini tashkil etadi.

Tadbirkorlik (biznes) huquqi mustaqil fan tarmog`i sifatida boshqa huquqiy fanlardan o`ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Ana shu farqlarni eng avvalo Fuqarolik huquqi faniga nisbatan ko`rib chiqamiz. Chunki uzoq yillardan buyon olimlar o`rtasida bu ikki fanning farqi yuzasidan bahs ketadi. Olimlarning bir guruhi Tadbirkorlik huquqi mustaqil fan tarmog`i emas, u Fuqarolik huquqining tarkibini tashkil etadi deb hisoblasa, ikkinchi guruhi esa Tadbirkorlik huquqini alohida fan, deb qarash kerak deydi. Tadbirkorlik huquqini huquq sohasining bir tarmog`i deb hisoblashga uning Fuqarolik huquqi va boshqa turdosh bo`lgan huquqlardan farqi asos bo`ladi. Uning o`ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: ma`lumki Tadbirkorlik huquqi Fuqarolik huquqiga juda yaqin soha bo`lsada, u eng avvalo tushunchasi, predmeti, subyektlari orqali juda aniq farqlanadi.

Bu ikki fanning tushunchasidagi farqni olib ko`raylik. Fuqarolik huquqiga hozirgi davr talabini hisobga olgan holda professor I.B. Zokirov shunday tarif beradi: *“Fuqarolik huquqi”* O`zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bo`lib, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish davrida fuqarolar va boshqa subyektlarning moddiy va manaviy ehtiyojlarini tobora to`liqroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo`lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig`indisidan iboratdir.

Ana shu tarifdan ham aniq ko`rinib turibdiki, Fuqarolik huquqi subyektlar o`rtasidagi mulkiy munosabatlarni va mulk bilan bog`liq bo`lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquq sohasidir. Tadbirkorlik huquqi ham Respublikamizdagi huquq sohalaridan biri bo`lib, mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o`tib borishida, davlat va jamiyat, tadbirkorlik manfaatlarini hisobga olgan holda, tadbirkorlik subyektlari o`rtasidagi yuqoridan quyi (vertikal) va yon atrofdagi subyektlarga gorizontal) bo`ladigan tadbirkorlik munosabatlarni tartibga soluvchi,

bozor sharoitida davlatning iqtisodga rahbarlik qilish chora-tadbirlarini belgilovchi huquqiy qoidalar yig`indisidan iboratdir.

Ushbu berilgan tariflarga ko`ra, fuqarolik huquqi normalari aksariyat mulkiy munosabatlarni tartibga solib tursa, tadbirkorlik huquqi qoidalari ham mulkiy xam nomulkiy munosabatlarga taalluqli.

Lekin fuqarolik huquqida munosabatlar shu munosabat ishtirokchilarining o`zaro teng va ixtiyoriyligi asosida kelib chiqsa, Tadbirkorlik huquqida subyektlar teng huquqli bo`lishi bilan birga idora etish, davlatning iqtisodga rahbarlik qilishiga asoslangan munosabatlarni ham tartibga solishga qaratiladi.

Demak, bu ikki fan bir biridan predmeti orqali ham tubdan farqlanadi. Jumladan, Fuqarolik huquqining predmeti taraflarning teng huquqliligiga asoslangan mulkiy munosabatlar bo`lsa, tadbirkorlik huquqida ham mulk bilan bog`liq munosabatlar salmoqli hissani tashkil etadi. Lekin mulkiy munosabatlar shu munosabat ishtirokchilarining teng huquqliligi bilan birgalikda biri ikkinchisiga itoat etishi, davlatning iqtisodga rahbarlik qilishi orqali ham kelib chiqadi. Fuqarolik huquqining subyektlari bo`lib barcha fuqarolar hisoblansa, tadbirkorlik huquqining subyekti faqat tadbirkor sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan fuqarolar bo`lishi mumkin. Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida tijoratchi yuridik shaxslar qatnashadi.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinuvchi shartnoma munosabatlari asosan istemolchilarning moddiy ehtiyojini taminlashga qaratilgan bo`lib, uni ishlab chiqarish bilan aloqasi bo`lmasa, Tadbirkorlik huquqi shu tovarlarni ishlab chiqarish jarayonini ham tartibga solishda qo`llaniladi.

Ana shu jihatlari bilan tadbirkorlik huquqi mehnat huquqiga ham juda yaqin bo`lib ko`rinadi. Ammo ular bir-biridan farqlanadi. Tadbirkorlik huquqi subyektlar o`rtasidagi tadbirkorlik munosabatlarini tartibga solsa, mehnat huquqi esa ish beruvchi bilan xodimlarning mehnat shartnomasi asosida munosabatlarini, ichki tartib qoidalarini, ish rejimini va shunga o`xshash mehnat shartnomasi bilan bog`liq boshqa munosabatlarni tartibga soladi.



Tadbirkorlik huquqining Mamuriy huquq fanidan farqi shundaki, Mamuriy huquqning predmeti mamuriyatning buyruq hamda ijro faoliyati bilan yani hokimiyat va itoat etish sohasidagi faoliyat bilan bog`liq munosabatdir. Bunday munosabat itoat etuvchi quyi organlarga va mansabdor shaxslarga o`z direktivalari orqali tasir etish, boshqarish, idora etish kabi hokimiyatni amalga oshirish bilan izohlanadi. Tadbirkorlik munosabatlarida esa buyruqbozlik faoliyatlari deyarli yo`q. Borlari ham bozor munosabatlari shakllanib borgani sari tobora uzoqlashib, barham topib, iqtisodiy munosabatlarga o`z o`rnini bo`shatib bermoqda. Shu sababli davlat iqtisodiyotga o`zining tegishli organlari orqali (soliq, imtiyoz, iqtisodiy sanksiya va h.k.) iqtisodiy tasir etish usullari bilan rahbarlikni amalga oshiradi.

Tadbirkorlik huquqi Moliya huquqi fanidan tubdan farqlanadi. Moliya huquqining predmetini moliya budjeti kirim-chiqimi (davlat daromadini sarflash va tashkil etish davlat rejasi) bilan bog`liq munosabatlar tashkil etsa, korxonalar va tadbirkorlarning daromad manbaini tartibga solish va ulardan qayta ishlab chiqarish muomalasida foydalanish kabilar Tadbirkorlik huquqining predmetini tashkil etadi. Tabiiyki, tadbirkorlik faoliyati ham daromadlarni tashkil etish va ularni sarf qilishning alohida qoidalaridan holi kelib chiqmaydi. Shu sababli, tadbirkorlik subyektlarining pul mablag`larining bir qismi harakatda bo`lishini taminlash Tadbirkorlik huquqi qoidalari bilan tartibga solinadi.

Tadbirkorlik subyektining daromadlaridan olinadigan soliqlarning budjetga kelib tushadigan davlat daromadi moliya huquqining predmetini tashkil etadi. Shuningdek, tadbirkorlik huquqi konstitusiyaviy huquq, ekologiya va qishloq xo`jaligi huquqi bilan bog`liq munosabatlarda ham o`ziga xos xususiyatlari orqali butunlay farqlanadi.

### **3. Tadbirkorlik(biznes) huquqining manbalari va uning turlari**

Tadbirkorlik(biznes) huquqining manbalarini O`zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlar shuningdek, tadbirkorlik subyektlari o`rtasida vujudga keladigan tadbirkorlik faoliyatiga oid mulkiy va nomulkiy munosabatlar ya`ni shartnomaviy va tadbirkorlik

faoliyatini amalga oshirish jarayonidagi vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan, normativ-huquqiy hujjatlar tashkil qiladi.

**Tadbirkorlik(biznes) huquqi manbalarini ikki yirik qismga bo'lish mumkin.**

*Birinchi* bu xususiy huquq normalari, *ikkinchi* esa ommaviy huquq normalari tashkil qiladi. Birinchisiga O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'grisidagi, Akstiyadorlik jamiyatlari va akstiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'grisidagi, Xususiy korxonalar to'grisidagi, Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'grisidagi, Investistiyalar va investistiya faoliyati to'grisidagi, Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'grisida 24.09.2012 yildagi O'RQ-336-son Qonuni, Listenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'grisidagi O'RQ-701-sonli 2021 yil 14-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari xamda ushbu soxaga oid boshqa qonun va qonunosti hujjatlari. *Ikkinchi* qismi O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi, Soliq qonunchiligi normalari, ma'muriy huquq normalari, Yer to'grisidagi qonunchilik, ekologiya soxasidagi normalar, fuqarolik prostessual normalar, jinoyat prostessual normalar, iqtisodiy prostessual normalar, jinoyat huquqi normalari va boshqa qonun va qonunosti hujjatlarlar tashkil qiladi.

#### **4.Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va tarkibiy qismlari.**

Tadbirkorlik (biznes) huuquqiy munosabatlar tushunchasi.

Malumki ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi. O`z navbatida huquqiy munosabat o`zaro subyektiv huquq va majburiyatlar bilan bog`liq bo`lgan shaxslar o`rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar deganda, tadbirkorlik (biznes) faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, tijorat hamda notijorat tusdagi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish

borasida tadbirkorlik yurituvchi subyektlar ishtirokida yuzaga keladigan va tadbirkorlik huquqiy normalari bilan tartibga solib turiladigan munosabatlar tushuniladi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar *birinchidan*, ijtimoiy tushadigan munosabat, *ikkinchidan*, bunday munosabatlar tadbirkorlik yurituvchi subyektlarning o'zaro huquqlar va yuridik majburiyatlar vositasidagi aloqalari, *uchinchidan*, bunday munosabatlar irodaviy bo'lsa, *to'rtinchidan*, tadbirkorlik huquqi normalarida davlat irodasi va manfaatlari aks ettirilganligi uchun davlat ularning bajarilishini nazorat qiladi va qo'riqlaydi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchilari aksariyat hollarda o'zlariga tegishli mulkka egalik qilish, foydalanish, va tasarruf etishda muayyan mustaqillikka ega bo'lib, bir-birlariga nisbatan teng huquqli shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, tadbirkorlik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning huquqlari buzilgan taqdirda, bu huquqlar odatda sudga ariza yoxud davo ariza taqdim qilish yo'li bilan himoya qilinadi.

Har bir huquq sohasining huquqiy munosabatlari o'ziga xos subyektiga, obyektiga va munosabat mazmunini belgilovchi subyektiv huquq va majburiyatlariga ega. Gap tadbirkorlik huquqi to'g'risida ketar ekan, iqtisodiy muomala ishtirokchilarining o'zaro huquqiy aloqadorligi ma'no va mazmunini aniq belgilash maqsadida lozim darajada tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning barcha yuqoridagi kabi muhim toifalarini (kategoriyalarini) chuqur tadqiq etish fan oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Haqiqatan, tadbirkorlik huquqiy munosabatlar tabiati xilma-xil hisoblanganligi uchun ham, uning tushunchasi va vujudga kelishi haqidagi fikrlar adabiyotlarda turli-tumandir.

Tadbirkorlik huquqi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va amalga oshirishda, ularning bo'linmalari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlar tadbirkorlik munosabatlari bo'lib, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi, lekin ishlab chiqarish jarayonida nafaqat xo'jalik, balki shu bilan birga mehnat munosabatlari yoki fuqarolarning tobora oshib borayotgan moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan

boshqa munosabatlar ham vujudga keladi. Takidlash joizki, tadbirkorlik huquqining predmetini ishlab chiqarish munosabatlarining hammasi emas, balki faqat bir qismi, u ham bo`lsa tadbirkorlik munosabatlari tashkil etadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik faoliyati turli mulkchilikka asoslangan subyektlar o`rtasida yuzaga kelmoqda. Bu sohada vujudga keladigan tadbirkorlik munosabatlari o`z ichiga nafaqat mulkiy yoki shaxsiy munosabatlarni, balki korxonalar va tashkilotlarni, ularning bo`linmalari faoliyatini tashkil etish, boshqarishdek muhim jihatlarni ham qamrab oladi. Bu esa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan gorizontal tadbirkorlik munosabatlari bilan birga uni boshqarishda yuzaga keladigan vertikal tadbirkorlik munosabatlariga ham taalluqli bo`ladi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar elementlari shu munosabat subyektlari, obyektlari va uning mazmunidan iborat bo`ladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning subyektlari bo`lib ana shu munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar hisoblanadi. Bular yuridik shaxs huquqiga ega bo`lgan korxonalar va tashkilotlar, shuningdek ularning bo`linmalari hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarining subyektlari xususida ayrim olimlarning fikrlari mavjud. Professor V.V. Laptev, tadbirkorlik faoliyati ishtirokchilari korxonalar, tashkilotlar, ishlab chiqarish birlashmalari va boshqa tadbirkorlik organlari tashkil qiladi. Ular bir vaqtning o`zida tadbirkorlik huquqining subyektlari va tadbirkorlik munosabatlarining ishtirokchilari bo`lib ham hisoblanadi. V.V. Laptev 80-yillardagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ana shu fikrini aytgan. Bugungi kunda esa bozor munosabatlari tadbirkorlik huquqiy munosabatlarni ham va uning subyektlarini ham kengaytirib yubordi. Shunga ko`ra, tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning subyektlari qatoriga barcha turdagi korxonalar, jumladan fuqarolarning xususiy mulkiga asoslangan (jamoalar, oilalar) korxonalar, ishlab chiqarish kooperativlari, aksiyadorlik jamiyatlari, masuliyati cheklangan jamiyat, o`zga tadbirkorlik jamiyatlari yoki shirkatlari, shuningdek dehqon xo`jaliklari, fermer xo`jaliklari va boshqalar kiradi. Tadbirkorlik huquqiy

munosabatlarning subyektlari faqat shular bilan cheklanib qolmaydi, balki bozor munosabatlari kundan kunga rivojlanib, takomillashib borar ekan, bu jarayon tadbirkorlarning o`zga tarzdagi guruhlarining yuzaga kelishiga va ularning fuqarolik muomalasiga yanada ko`proq jalb etilishiga olib keladi. Tadbirkorlik munosabatlarining yana bir muhim subyekti mavjudki, u ham bo`lsa yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari

O`zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida»gi 2012 yil 2 mayda qabul qilingan qonunda 1 o`z aksini topgan.

### **Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning tarkibiy qismlari**

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarining subyektlari bo`lishlari uchun tadbirkor fuqarolar huquq va muomala layoqatiga ega bo`lishlari lozim.

Tadbirkor fuqarolarning huquq layoqati ularning tug`ilishi bilan paydo bo`ladi va vafot etishi bilan bekor bo`ladi. Ularning to`la muomala layoqati 18 yoshga etishi bilan boshlanadi, ammo ayrim hollarda tadbirkor sifatida ro`yxatdan o`tkazilgan 16 yoshga to`lgan voyaga yetmagan shaxs qonunda ko`rsatilgan asoslarda to`la muomala layoqatiga ega deb hisoblanishi mumkin (FKning 28moddasi).

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning subyekti bo`lgan korxonalar tashkilotlar va boshqa yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati ular davlat ro`yxatidan o`tkazilgandan boshlab vujudga keladi. Tadbirkorlik(biznes) huquqiy munosabat obyekti deb – tadbirkorlik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlari nimaga qaratilgan bo`lsa shunga aytiladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning obyekti, birinchidan, ashyolar, pul va qimmatli qog`ozlar, o`zga mol-mulklar, ikkinchidan, subyektning sodir etishi shart bo`lgan harakatlari, uchinchidan, huquq subyektining faoliyati, to`rtinchidan, tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan nomulkiy nematlar (firma nomi, tovar belgisi, tijorat siri va boshqalar) hisoblanadi.

Tadbirkorlik huquqi bilan tartibga solinadigan ashyoviy munosabatlar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash, taqsimlash va istemol qilish bilan bevosita bog`liqdir. Ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lmagan, shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan ashyolar tadbirkorlik huquqiy ashyoviy munosabatlarning obyekti bo`la olmaydi.

Harakatlar deganda, misol uchun fuqaro va tashkilotlarga ko`rsatiladigan xizmatlarni tushunish mumkin. Bunday xizmatlar tadbirkorlik huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarning obyekti hisoblanadi. Talab qilish huquqiga ega bo`lgan fuqaro yoki tashkilotlarning talablari zimmasiga majburiyat olgan shaxslarning hatti-harakatlari bilan qanoatlantiriladi. Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo`yicha mahsulot yetkazib berish bilan bog`liq hatti-harakatning amalga oshirilishi va boshqalar.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida subyektning mutlaq faoliyati alohida o`rin tutadi. Mazkur munosabat obyektini shunday tushunmoq lozimki, tadbirkorlik subyektlari o`z tadbirkorlik faoliyatini qonunga muvofiq yuritadi va boshqa barcha shaxslar uning tadbirkorlik faoliyatini yuritishiga to`sqinlik qilishi taqiqlanadi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar obyektlarining yana biri tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan nomulkiy nematlar, yani firma, tovar belgisi, tijorat siri va boshqalar hisoblanadi. Bunday nematlardan subyektlarning erkirodasidan tashqari hech bir shaxs foydalanishga, tovar ishlab chiqariladigan nomni o`zgartirishga, tijorat siri xususida axborot olishga haqli emas.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarining mazmunini munosabatda ishtirok etuvchilarning subyektiv huquqlari va burchlari tashkil etadi. Subyektiv huquq deganda, muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli bo`lgan huquq tushuniladi. Subyektiv huquq obyektiv huquq normalari, yani davlat tomonidan o`rnatilgan tartib qoidalar asosida vujudga keladi va ularga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Subyektiv huquq shaxsga o`z xohishini erkin amalga oshirish imkoniyatini beradi. Masalan, fuqaro xususiy mulk asosida ashyodan foydalanishga yoki uni qonun hujjatlariga zid bo`lmagan tarzda o`z

ixtiyoricha tasarruf qilishga haqli bo`ladi. Bundan tashqari, subyektiv huquq shaxsning boshqalardan o`z huquqlarini buzilmasligini talab qilish imkoniyatini nazarda tutadi. Masalan, mulk egasining subyektiv huquqi bir tomondan, o`z mulkini egallash, foydalanish va tasarruf etish bilan bog`liq huquqlarni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, u subyektiv huquq egasi sifatida o`z huquqlarining buzilmasligini har kimdan talab qila oladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning mazmunini huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlar ham tashkil etadi.

Majburiyat fuqarolik huquqiy munosabat bo`lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko`rsatish, pul to`lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o`zini saqlashga majbur bo`ladi, kreditor esa qarzdordan o`zining majburiyatlarini bajarishni talab qilishga huquqiga ega bo`ladi. Bir shaxsda subyektiv huquqning bo`lishi, boshqa birovda bu huquqqa yarasha, albatta majburiyat bo`lishini taqozo qiladi va aksincha, har qanday majburiyat uni bajarishni talab qilishga haqli bo`lgan shaxsning mavjud bo`lishini bildiradi. Chunonchi, mulk egasi o`ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish huquqiga ega bo`lish bilan bir qatorda u boshqa har qanday shaxsdan bu huquqlardan foydalanishda to`squinlik qilmasliklarini talab qila oladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asosi sifatida yuridik faktlar muhim rol o`ynaydi. Yuridik faktlar deb, fuqarolik huquqi va majburiyatlarning vujudga kelishi, o`zgarishi va bekor bo`lishiga qaratilgan harakatlar tushuniladi. Shunday ekan, boshqa huquq normalari singari tadbirkorlik huquqi normalari ham o`z-o`zidan tadbirkorlik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o`zgarishi yoki bekor bo`lishi malum holatlar bilan belgilanadi.

O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 8-moddasida fuqarolik huquq va burchlarning vujudga kelish asoslari o`z ifodasini topgan bo`lib, bular bevosita tadbirkorlik huquqi va majburiyatlarini vujudga kelish asosi ham hisoblanadi. Fuqarolik Kodeksida

ko`rsatilganidek, fuqarolik huquqi va burchlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek fuqarolik va yuridik shaxslarning, garchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo`lmasada, lekin fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko`ra fuqarolik huquqi va burchlarini keltirib chiqaradigan harakatlardan vujudga keladi.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar vujudga kelishi uchun huquqiy normalarda to`g`ridan-to`g`ri nazarga tutilgan, shuningdek huquqiy normalarda nazarda tutilmagan bo`lsada, lekin tadbirkorlik qonun hujjatlarining umumiy asoslari va mazmuniga muvofiq keladigan muayyan faktlar mavjud bo`lishi lozim. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o`zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar sifatida ko`rilgan yuridik faktlar to`rt guruhga: mamuriy hujjatlar, yuridik hatti-harakatlar, hodisalar va boshqa harakatlarga bo`linishi mumkin.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mazmuni, obyektiga qarab bir necha turlarga ajratish mumkin. Chunonchi:

- mutlaq ashyoviy huquqiy munosabatlar;
- mutlaq-nisbiy ashyoviy huquqiy munosabatlar (tadbirkorlik yuritish, operativ boshqarish);
  - o`z tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo`yicha mutlaq huquqiy munosabatlar;
- nomulkiy huquqiy munosabatlar;
- nisbiy huquqiy munosabatlar;

**Mutlaq ashyoviy huquqiy munosabatning** obyekti ashyo hisoblanib, bu tarzdagi munosabatlar uchun xarakterli xususiyat shundan iboratki, subyekt qonun yo`l qo`ygan asoslarda o`zining mulkka bo`lgan huquqini, yani egalik, foydalanish va tasarruf etish bo`yicha xulq-atvorini belgilovchi harakatni amalga oshiradi.

Tadbirkorlik huquqi bilan tartibga solinadigan ashyoviy munosabatlar ishlab chiqarish, tovar ayriboshlash, taqsimot va ishlab chiqarish istemol bilan chambarchas bog`liqdir. Ishlab chiqarishdan tashqaridagi, shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan



predmetlar tadbirkorlik huquqiy ashyoviy munosabatlar obyektiga bo'la olmaydi. Masalan, savdo tashkilotlari tomonidan aholiga sotish uchun olingan tovarlar mulk huquqi obyektiga bo'lib hisoblanadi. Bu tarzdagi mol-mulk fuqaro egaligiga o'tishi bilan fuqarolik huquqi qoidalari bilan tartibga solinadigan fuqaro mol-mulki obyektiga aylanadi.

**Mutlaq - nisbiy ashyoviy huquqiy munosabatlar** jumlasiga tadbirkorlik yuritish va operativ boshqarishni kiritish mumkin. Bundan tashqari, umrbod meros qilib qoldiriladigan mulk, tadbirkorlik faoliyatini yurgizish uchun ijara va boshqa tartibda mulkka ega bo'lishlik munosabatlarini kiritish mumkin. Bunday mulkdorlar munosabati mutlaq nisbiydir. Chunki, bu munosabat subyektlari o'zlarining mulkiy huquqlarini o'zgalarning erkisiz amalga oshira olmaydi, ular mulk egasi bilan nisbiy huquqiy munosabatda bo'lib, ushbu mulklarni egallaydi, foydalanadi va tasarruf etadi.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini yuritishdagi mutlaq huquqiy munosabatlar subyekti o'z faoliyatini erkin yuritish asosida vujudga kelib, mazkur faoliyat munosabat obyektiga sifatida maydonga chiqadi. Bunda tadbirkorlik yuritishni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradigan shaxs uchun majbur shaxs bo'lmaydi. Boshqa barcha shaxslar tadbirkorlik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirayotgan subyekt faoliyatiga to'sqinlik qilmasliklari lozim bo'ladi. Bunga misol qilib, o'z tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan tadbirkorlik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bahosini belgilashi, tannarxini shakllantirishi, belgilangan normativ hujjatlarga binoan sanitariya, gigiyena, ekologik, yong'inga qarshi talablar bo'yicha va o'zga faoliyatlarni amalga oshirishda vujudga keladigan mutlaq huquqiy munosabatlarni keltirish mumkin. Mabodo, tadbirkorlik yurituvchi subyekt belgilangan tartibga xilof ish tutsa, vakolatli davlat organi yo'l qo'yilgan huquqbuzarlikni bartaraf etish bilan bog'liq hatti-harakatni amalga oshirishi, jumladan zararlarni undirishni talab qilishi mumkin. Bunday holda vujudga keladigan munosabatlar albatta nisbiy xarakterda bo'ladi.

**Nomulkiy huquqiy munosabatlar** tadbirkorlik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatlarida foydalanadigan nomoddiy nematlar,

xususan, firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko`rsatish belgisi, tovar ishlab chiqarilgan joy nomi, tijorat siridan foydalanishda, shuningdek ishchanlik obro`sini himoya qilish kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlar hisoblanadi. Bular kabi nomulkiy huquqlarni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar mutlaq bo`lib hisoblanadi, chunki bunday nematlarga nisbatan tadbirkorlik yurituvchi subyektning mutlaq huquqi qonun bilan etirof etilgan va bu kabi mutlaq huquq obyektini bo`lgan intellektual faoliyat natijalari va o`ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining roziligi bilangina foydalanishlari mumkin, xolos.

**Nisbiy huquqiy munosabatlar** avvalo, majburiyatda namoyon bo`lib, bunda ikki yoki undan ortiq shaxslar o`zaro huquq va majburiyat sohiblari bo`ladi. Bu yerda biz kreditor va qarzdor o`rtasidagi majburiyatda nisbiy munosabatlarni ko`ramiz, ammo har doim ham nisbiy huquqiy munosabatlar majburiyat huquqiy munosabatlari shaklida bo`lmasligi mumkin. Masalan, bir nechta shaxslar ishtirokidagi birgalikda tadbirkorlik faoliyati yuritish to`g`risidagi kelishuv, shirkatga birlashish, chet el investori bilan qo`shma korxonaga tuzish va kapitalni sarflash to`g`risidagi bitimlarda kreditor va qarzdor ishtirok etmasligi mumkin yoki ishtirokchilarni majburiyat huquqiy munosabatlarga kirishgan deyish qiyin. Bu yerda biz shaxslarning o`zaro kuch va mablag`larni sarf qilish asosida umumiy tadbirkorlik yuritish maqsadida birikish munosabatlarini ko`rishimiz mumkin. Shuning uchun nisbiy tadbirkorlik huquqiy munosabatlar nafaqat majburiyat huquqiy munosabatlar hisoblanmasdan, balki undan ham kengroq munosabatlarni o`z ichiga qamrab oladi. Shartnomaga asoslangan barcha munosabatlar nisbiy huquqlar jumlasiga kiradi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar doirasi tadbirkorlik huquqiy, tadbirkorlik huquqiy munosabatlaridan birmuncha kengroqdir. Tadbirkorlik huquqi va tadbirkorlik huquqi tartibga soladigan mulkiy va nomulkiy munosabatlar doirasi fuqarolik huquqi tartibga soladigan mulkiy va nomulkiy munosabatlar doirasi ichida turadi. Tadbirkorlik va tadbirkorlik huquqi subyektlari bir vaqtning o`zida fuqarolik huquqining subyekti bo`lishi mumkin, ammo fuqarolik huquqining subyekti

tadbirkorlik huquqining yoki tadbirkorlik huquqining subyekti hisoblanmasligi mumkin. Masalan, jismoniy shaxs o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ashyo xarid qilish jarayonida fuqarolik huquqiy munosabatga kirishar ekan, u na tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchisi, na tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchisi bo'ladi, ammo u tadbirkor shaxs maqomini olgan holda tadbirkorlik faoliyati yuritish maqsadida tovar sotib olar ekan, bir vaqtning o'zida ham fuqarolik, ham tadbirkorlik, ham tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchisi hisoblanadi. Shuni ham takidlash joizki, tadbirkorlik huquqiy munosabatlar doirasi tadbirkorlik huquqiy munosabatlar doirasidan anchayin kengroqdir. Shu bois har qanday tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchisi tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchisi hisoblansada, ammo aksincha bo'lmasligi mumkin, chunki tadbirkorlik munosabatlarida subyekt har doim tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi asosida foyda olishni o'z oldiga maqsad qilib ish yuritadi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlari ishtirokchilari faoliyati esa har doim ham foyda olishga qaratilgan bo'lmasligi mumkin va h.k. Qolaversa, iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni ham tadbirkorlik huquqiy munosabatlar va bir vaqtning o'zida tadbirkorlik huquqiy munosabatlar deyish mumkin.

Tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda subyekt sifatida davlat, mamuriy hududiy tuzilmalar, korxonalar va ularning bo'linmalari, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor fuqarolar ishtirok etishlari mumkin. Ular barcha iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonlarida, jumladan moddiy ishlab chiqarish, ayirboshlash, ishlab chiqarish, taqsimot jarayonlarida faol ishtirok etib munosabatga kirishadilar.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1. Tadbirkorlik (biznes) huquqi tushunchasiga tarif bering.
2. Mamlakat iqtisodiyotining shakllanishida tadbirkorlik (biznes) huquqining ahamiyati qanday.
3. Tadbirkorlik (biznes) huquqining predmeti nimalarni o'rgatadi.

4. Tadbirkorlik (biznes) huquqining tamoyillarini tasniflang.
5. Tadbirkorlik (biznes) huquqining boshqa huquqiy fanlardan farqini tushuntirib bering.
6. Tadbirkorlik (biznes) huquqiy munosabatlarning subyekti, obyektlariga tushuncha bering.
7. Tadbirkorlik (biznes) huquqiy munosabatlarning mazmuni nimalardan iborat.
8. Tadbirkorlik (biznes) huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lish asoslarini tushuntirib bering.

### ***Bobni o'zlashtirish uchun testlar***

1. Tadbirkorlik (biznes) huquqi tushunchasiga tarif qaysi qonunda berilgan.
  - A). O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunda.
  - V). O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida.
  - S). O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonunda.
  - D). O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasida.
2. Tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchilari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.
  - A). davlat, mamuriy hududiy tuzilmalar, korxonalar va ularning bo'linmalari, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor fuqarolar.
  - V). davlat, mamuriy hududiy tuzilmalar, kadastr tashkiloti va ularning bo'linmalari, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor fuqarolar.
  - S). davlat, mamuriy hududiy tuzilmalar, korxonalar va ularning bo'linmalari, faqat yuridik shaxs tuzgan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor fuqarolar.
  - D). davlat, mamuriy hududiy tuzilmalar, korxonalar va ularning bo'linmalari, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi nodavlat tashkilotlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi normativ-huquqiy hujjatida «business.gov.uz» portali «Tadbirkor virtual ofisi» portaliga aylantirildi.

A). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi 27.07.2022 yil PF-178-sonli farmonida.

V). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.08.2011 yildagi “Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PQ-1604-sonli Qarorida.

S). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘grisida” 15.03.2019 yil PF-5690-son farmonida.

D). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida” 13.10.2020 yil PQ-4862-son Qarorida.

4. Tadbirkorlik – bu:

A. qonun xujjatlariga muvofiq tavakkalchilik asosida daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat;

B. mikrofirma, yakka tartibda o‘z faoliyatini tashkil qilib, bozor iqtisodiyotida xo‘jalik munosabatlariga kirishuvchi sub`ekt;

C. mas’uliyati cheklangan jamiyat, oilaviy tadbirkorlik va akstiyadorlik jamiyati tashkil qilib, tadbir bilan, puxta o‘ylab ish tutadigan shaxs;

D. yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) yo‘li bilan tavakkal qilib, o‘z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati.

5. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qachon qabul qilingan?

A. 1991 yil 15 fevralda.

B. 2012 yil 2-mayda.

C. 2002 yil 29 avgustda.

D. 2021 yil 9 aprelda.

## **2-BOB. TADBIRKORLIK HUQUQI SUBYEKTLARI**

1. Tadbirkorlik huquqi subyektlari tushunchasi, belgilari va tasnifi.
2. Tadbirkorlik huquqi subyektlari faoliyatini tashkil qilish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish.
3. Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida.
4. Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlat.

*Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar*

*Bobni o'zlashtirish uchun testlar*

### **1. Tadbirkorlik huquqi subyektlari tushunchasi, belgilari va tasnifi.**

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tushunchasi va maqomini aniqlash uchun avvalambor “huquq subyekti” va “fuqarolik huquqi subyekti” tushunchalarining mohiyatini chuqur anglab olish lozim bo'ladi. Huquq subyekti keng huquqiy kategoriya hisoblanib, uning tarkibiga amaldagi qonun hujjatlariga binoan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari kiradi. O'z navbatida har bir huquq tarmoining o'z subyektlari (davlat huquqida – saylovchilar va saylanuvchilar, mehnat huquqida - ish beruvchi va xodim, moliya huquqida - soliq to'lovchi va soliq organi hamda boshqalar) bo'lganidek, tadbirkorlik huquqining ham o'z subyektlari bor.

Fuqarolik huquqining barcha subyektlari yagona “shaxslar” degan umumiy nom bilan ifodalanadi. “Shaxslar” ham o'z navbatida uch guruhga bo'linadi: *birinchisi*, fuqarolar (jismoniy shaxslar) bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar; *ikkinchisi*, yuridik shaxslar bo'lib, ular foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar) hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi, chet el yoki aralash (qo'shma) korxonalar shaklida bo'lishi mumkin; *uchinchisi*, davlat bo'lib, u alohida subyekt sifatida bevosita o'z nomidan, shuningdek uning nomidan ma'muriy

hududiy tuzilmalar yoki davlat organlari ishtirok etishlari mumkin.  
(O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 2-bo‘lim)

**Tadbirkorlik(biznes) huquqining subyektlari** – bu tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslardir. Tadbirkorlik huquqining subyektlari “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘risida” 2012 yil 2 maydagi O‘RQ-328-sonli yangi tahrirdagi qonunning 4-moddasiga asosan, tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Biroq, davlat organlari (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishi qonunchilikda man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo‘lishi mumkin emas.

Yuqoridagi qonunning 5-moddasida tadbirkorlik faoliyatining qo‘yidagi subyektlari belgilangan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari. Bularga,

- 1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- 2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma kishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bogliq bo‘lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan o‘n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan besh kishi bo‘lgan **mikrofirmalar** kiradi.

- 3) quyidagi tarmoqlardagi:

qonunchilikda nazarda tutilgan engil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ikki yuz kishi; metallga ishlov berish va asbobsozlik, yogochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yuz kishi; mashinasozlik, metallurgiya, yoqilgi-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish

hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalariidagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ellik kishi; fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sugurta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bogliq bo‘lmagan boshqa sohalardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma besh kishi bo‘lgan **kichik korxonalar**.

Kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining o‘rtacha yillik soni qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Bunda o‘rindoshlik, pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xarakterdagi boshqa shartnomalar bo‘yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko‘p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko‘p bo‘lgan faoliyat turi mezonlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlariga kiradi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar va preferenstiyalar, kafolatlar va huquqlar ushbu moddaning [birinchi qismida](#) ko‘rsatilgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan vakolatli organlarga va tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlariga, davlat statistika organlariga, banklarga va boshqalarga) yozma ravishdagi murojaatlarsiz qo‘llaniladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar va preferenstiyalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar va preferenstiyalarning yagona reestrda e‘lon qilinadi hamda doimiy ravishda yangilab boriladi.

O‘zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar va preferenstiyalarning yagona reestrini shakllantirish hamda doimiy ravishda yangilab borish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



Mikrofirma va kichik korxonada xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik sonini oshirib yuborgan taqdirda, xodimlar sonini oshirib yuborishga yo'l qo'yilgan davr uchun ular qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyozlar, preferenstiyalar, kafolatlar va huquqlardan mahrum etiladi. Ushbu qoida quyidagi hollarda tatbiq etilmaydi:

mikrofirma va kichik korxonada O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarining, akademik listeylarining hamda oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo'lgan xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 50 foiz oshadigan bo'lsa. Xodimlar sonining oshirilishiga O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarining, akademik listeylarining va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'qishni tugallagan kunidan boshlab ko'pi bilan uch yil o'tgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi; kichik korxonada uyda ishlayotgan fuqarolar (kasanachilar) bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo'lgan xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 30 foiz oshadigan bo'lsa.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari,** yakka tartibdagi tadbirkorlik jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek molmulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun shogirdlarni ularga tegishlicha haq to'lagan holda jalb etishga haqlidir.

Yakka tartibdagi tadbirkor o'z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanadi, huquq va majburiyatlarni oladi hamda amalga oshiradi. Jismoniy shaxs o'z tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq bitimlar tuzayotganida, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida harakat

qilayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o'zidan aniq anglashilmasa, ko'rsatishi kerak. Bunday eslatmaning mavjud emasligi yakka tartibdagi tadbirkorni o'z majburiyatlari bo'yicha zimmasidagi javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamlardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri erxotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Yuqoridagi qonuning 7-moddasi jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish shakllarini belgilaydi. Unga muvofiq, jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligi shakllarida amalga oshirishi mumkin.

Jismoniy shaxslar yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasining taraflari bo'lishi mumkin.

Jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatini oilaviy shaklida tashkil etishlari mumkin. Ushbu shaklni amalga oshirilishi, oddiy shirkat va dehqon xo'jaligi tuzilishi, faoliyat ko'rsatishi hamda faoliyatining tugatilishi bilan bogliq munosabatlar qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining Oilaviy tadbirkorlik to'grisida 26.04.2012 yildagi O'RQ-327-son Qonunida belgilangan tartibda, oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil

etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik subyektlari uch nafargacha doimiy ishchini yollab, ular bilan mehnat shartnomasi tuzishga, shuningdek mehnatga layoqatli yoshga to'lgan boshqa yaqin qarindoshlarini, shu jumladan bolalari va nevaralarining erini (xotinini), akaukalari va opa-singillarini, ularning xotinini (erini) va bolalarini yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik subyektining ishtirokchisi sifatida jalb etishga haqli. 3-modda.

Oilaviy tadbirkorlikning yuridik shaxs tashkil etgan shakli oilaviy korxonaga hisoblanadi. Oilaviy korxonaga uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonaga ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonaga ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxonaga faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi.

Oilaviy korxonaga tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Oilaviy korxonaga faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxonaga o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxonaga o'z majburiyatlari bo'yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi.

Oilaviy korxonaga ishtirokchilari korxonaga mol-mulki etarli bo'lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Oilaviy korxonada qonunchilikka muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin. (O‘zR MKning 2-§, 77-moddasi. Ishga qabul qilishga o‘n olti yoshdan yo‘l qo‘yiladi. (77-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 24 dekabrda O‘RQ-239-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009 y., 52-son, 554-modda)

Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarining o‘quvchilarini ularning sogligiga hamda ma‘naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon etkazmaydigan, ta‘lim olish jarayonini buzmaydigan engil ishni o‘qishdan bo‘sh vaqtda bajarishi uchun — ular o‘n besh yoshga to‘lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi. (77-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 24 dekabrda)

O‘RQ-239-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009 y., 52-son, 554-modda)

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarni ishga qabul qilish ushbu Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Oilaviy korxonada ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining qonunchilikda belgilangan o‘rtacha yillik sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxonada ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo‘lmasligi kerak.

Oilaviy korxonada to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Oilaviy korxonaning to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va “oilaviy korxonada” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak. Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va “Oilaviy korxonada” degan so‘zlarni yoki “OK” abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonada ishtirokchilari sifatida oila boshligi, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarning erlari (xotinlari), tugishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, to‘g‘a va amaki hamda amma va xolalari)

oilaviy korxonalar ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxonalar ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

Davlat organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonunchilikda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishi taqiqlangan boshqa shaxslar oilaviy korxonalar ishtirokchilari bo'lishi mumkin emas.

Bir oilaviy korxonalar ishtirokchisi bir vaqtning o'zida boshqa oilaviy korxonalar ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.

Oilaviy korxonalar boshligi yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda oilaviy korxonalar nomidan uning boshligi ish ko'radi.

Oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan biri uning boshligi bo'lishi mumkin, unga oilaviy korxonalar barcha ishtirokchilari bir ovozdan ish muomalasida o'z nomlaridan ishtirok etish huquqini beradi.

Oilaviy korxonalar boshligi vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan yoki uzoq vaqt bo'lmagan taqdirda, u o'z vazifasini vaqtincha bajarib turish vakolatini oilaviy korxonalar qolgan ishtirokchilari bilan kelishgan holda ulardan biriga berishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish zarurati to'g'risida shunday deydi: *keyingi yillarda... tadbirkorlikning milliy an'ana va urf-odatlarimizga to'la mos keladigan yangi shakli – oilaviy biznesni rivojlantirish uchun keng shart-sharoitlar yaratildi.*

Yakka tartibdagi tadbirkorlik va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining negizi, mulkning shakllanish holatiga qarab, ular bir-biridan farq qiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor mulk huquqi asosida faqat o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida faoliyat ko'rsatsa, oilaviy tadbirkorlik mol-mulk negizida umumiy birgalikdagi mulk asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etmagan holda olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni

hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘risida” 29.07.2009 yil 216-sonli qarorida ham ko‘rsatilgan<sup>29</sup>.

### **Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining belgilari.**

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining quyidagi belgilari mavjud: davlat ro‘yxatidan o‘tganligi; muayyan faoliyat turlari bilan shuullanishlari uchun albatta ruxsatnoma (litsenziya)ga ega bo‘lishligi; o‘z mol-mulkiga ega bo‘lishligi; tadbirkorlik huquq va majburiyatlariga ega bo‘lishligi; o‘z mol-mulki doirasida mustaqil javobgarligi; o‘zlarining buzilgan huquqlarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega ekanligi hisoblanadi.

## **2. Tadbirkorlik huquqi subyektlari faoliyatini tashkil qilish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va tugatish.**

Tadbirkorlik huquqi subyektlari faoliyatining tashkil qilinishi va tugatilish tartib-taomillari O‘zRsi Konstitustiyasi, O‘zRning Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisidagi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodksi, O‘zRning Mulkchilik to‘grisidagi qonuni va boshqa ushbu soxaga oid qonun hujjatlar asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartiblari O‘zRning tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisidagi qonuning 2 va 6-boblarida belgilangan tartiblar asosida amalga oshiriladi. Qonunning 13-moddasida, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli davlat organi tomonidan «bir darcha» printipi bo‘yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etishga yoki unga qonunchilikda nazarda tutilmagan qo‘shimcha talablarni belgilashga haqli emas.

---

<sup>29</sup> <https://lex.uz/docs/-1502759>

Ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etganlik, shuningdek davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatlarini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qarori, shuningdek mazkur organ mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) sud tomonidan qonunga xilof deb topilgan taqdirda, ular ariza beruvchiga ro'yxatdan o'tkazishni rad etganlik yoki ro'yxatdan o'tkazish muddatini buzganlik tufayli etkazilgan zararining o'rnini qoplaydi va ma'naviy zarar uchun kompensatsiya to'laydi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning dastlabki qadami, bu qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarda, ***davlat ro'yxatidan o'tkazish*** asosida amalga oshirilishi hisoblanadi. Albatta tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazish, tadbirkorlikning eng asosiy talablaridan biri bo'lib, bu jarayon uni mustaqil subyekt sifatida rasman tan olishlikni bildiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy asoslari hamda ushbu soxaga oid ilmiy - huquqiy nazariyalar tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy ongini va madaniyatini yanada oshirishga xizmat qilishi lozim. Jumladan, bu borada I. Karimov "*Tadbirkorlar o'rtasida huquqiy tushuntirish ishlari sust olib borilmoqda. Ularning ko'pchiligi o'z huquqlarini, tadbirkorlar uchun amalda qanday imtiyoz va kafolatlar mavjudligini yetarli darajada bilmaydi*" degan edilar.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi - tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga muvofiqligini ta'minlash, soliq va moliya intizomiga qat'iy amal qilishi sohasida muayyan funkstiyalarni bajarishni ta'minlaydi. Ayni paytda dunyoning ba'zi mamlakatlarida jumladan, Rossiya Federastiyasida, yakka tadbirkorlarga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tkazish sharti bekor qilingan. Ya'ni ularda, yakka tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishni boshlaganligi to'grisida vakolatli davlat organini xabardor qiladilar. Bunda vakolatli davlat idorasi fuqaroni yakka tadbirkorlik bilan shugullanish huquqini rad etishi mumkin emas. Vakolatli davlat idorasi fuqaroni yakka tadbirkor sifatida faoliyat boshlaganligini hisobga qo'yadi. Fuqaroni yakka tadbirkor sifatida faoliyat boshlaganligi haqida

davlat idorasini xabardor qilish bo'yicha munosabatlar, o'z mohiyatiga ko'ra, ma'muriy huquqiy munosabatlar bo'lib hisoblanmaydi. Bunda fuqaro yakka tadbirkor sifatida faoliyat boshlaganligini o'ziga xos fuqarolik bitimi sifatida qaraladi. Chunki, fuqarolik bitimida u o'z xatti harakatlarida o'zi uchun tadbirkorlik sohasida fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltiradi. Bu esa tadbirkorlik subyektini huquqiy maqomini belgilashda ommaviy huquqiy normalar ta'sir doirasini kamaytirib, fuqarolik huquqiy asoslar ta'sir doirasini kengaytiradi. Demak, O'zbekistonda ham yakka tadbirkorlarga nisbatan davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini bekor qilib, xabardor qilish tartibida tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanishni boshlaganlik faktini hisobga qo'yish tartibini joriy qilish o'rinli bo'lar edi.

Bugungi kunda aksariyat tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tuzish asosida amalga oshirmoqda. Chunki, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bunday shakli, faoliyatni kengroq olib borish hamda yollanma mehnatdan foydalanish imkoniyatlariga ega buladi. Tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy asoslarini puxta o'rganish maqsadida yuridik shaxs tuzish orqali faoliyat yuritishda birinchi navbatda yuridik shaxsning fuqarolik-huquqiy holatini o'rganish zarur hisoblanadi. Ikkinchidan, tashkil etilgan yuridik shaxsning tadbirkorlik faoliyatini qaysi shaklga mansubligini uning ta'sis hujjatlari orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi (FKning 42-moddasi). Shuningdek, yuridik shaxs ustav asosida yoki ta'sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta'sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin (FKning 43-moddasi).

Demak, yuridik shaxsni tashkil etishdagi asosiy shartlarga, mulkdor yoki vakolatli organning farmoyishi, ustav, ta'sis shartnomasi, yoxud faqat ta'sis shartnoma bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, uning huquqiy maqomini belgilovchi hujjatlarda ular tomonidan tuzilgan ta'sis



shartnomasi asosida yoki ustavida belgilab qo'yiladigan fuqarolik-huquqiy asosga hamda qonun hujjatlarda ruxsat berilgan tartiblarda, yuridik shaxs iqtisodiy faoliyat bilan shugullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektga aylanadi.

Shunday qilib, yuridik shaxsning ta'sis shartnomasi muassischilarning huquq va majburiyatlarini, tashkil etilayotgan tuzilmaning ichki vazifalarini, foyda va daromadlarining taqsimlanishini, ustav fondini shakllantirish tartibi hamda muassischilarning qonunda belgilangan miqdordagi mablaglarini kiritish yoki birlashtiruvchi asosiy normativ hujjatlardan biri hisoblanadi.

Demak, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida tuzilgan yuridik shaxsning faoliyatini belgilab beruvchi asosiy normativ huquqiy hujjat, uning ta'sis shartnomasi yoki ustavi hisoblanadi.

V.Topildievning ta'kidlashicha, ta'sis shartnomasining asosiy xususiyati shundan iboratki, u yuridik shaxsni tashkil etish uchun asos bo'lib, xizmat qiladi. Ta'sis shartnomasining maqsadi, muayyan tuzilmani ta'sis etish va shu muassislar tomonidan o'z mol-mulkini ushbu yuridik shaxs ustav fondiga kiritish tartibi va shartlarini belgilash asosida, shuningdek muassislarning yuridik shaxs faoliyatida ishtirok etishini va uning shartlarini belgilashdan iborat bo'ladi. I.Ershovanning fikricha, ta'sis shartnomasi yuridik shaxslarning ta'sischilari tomonidan tuziladi va ushbu hujjatda ta'sischilar yuridik shaxsni tuzish bilan bogliq majburiyatni olishlarini hamda ularning yuridik shaxs faoliyatida o'z mulkini topshirish orqali unda ishtirok etishni tushuntiradi.

Yuqoridagi fikr-muloxazalardan shuni tushunish kerakki, ya'ni ta'sis shartnomasi asosida biror bir turdagi tijoratchi yuridik shaxsni tashkil etishni, ta'sischilarning yuridik shaxs faoliyatida ishtirok etish doirasini, xamda ularning yuridik shaxs faoliyatida o'z mulki asosida ishtirok etishni anglab olish lozim bo'ladi.

Xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyati subyektini qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etishning turiga ko'ra, ularni ta'sis-farmoyish, ta'sis-shartnomaviy hamda ta'sis etish usullariga bo'lish mumkin.

Ta'sis-farmoyish usuli bilan davlat mulkiga asoslangan korxonalar tashkil qilinadi. Bu usulning xarakterli xususiyati shundan iboratki, bunda

xo‘jalik yurituvchi subyekt davlat vakil qilgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Davlat korxonalarini tashkil qilishning huquqiy asoslari O‘zRsi VMning me‘yoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ta‘sis etish usuli bilan bitta shaxs ishtirokidagi tashkilotlar tuzilishi mumkin va, albatta, ularning faoliyati xususiy mulkka asoslanadi. Bunga misol akstiyadorlik jamiyatlari bo‘lishi mumkin.

Shartnomaviy ta‘sis etish usuli, ikki va undan ortiq ta‘sischilar tomonidan o‘zlarining mulkiy ulushlarini birlashtirish yo‘li bilan xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat yo‘nalishini belgilaydi shuningdek ularni tuzadi. Ushbu tashkiliy-huquqiy shaklga mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlarni misol qilishimiz mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi Nizom asosida ish olib borishi mumkin. Yuridik shaxsning ta‘sis shartnomasi uning muassislari tomonidan tuziladi, ustavi esa tasdiqlanadi.

O‘zRFKning 43-moddasi 4-5-qismlarida, ta‘sis shartnomasida taraflar (muassislar) yuridik shaxs tashkil etish majburiyatini oladilar, uni tashkil etish sohasida birgalikda faoliyat ko‘rsatish tartibini, unga o‘z mol-mulklarini berish hamda uning faoliyatida ishtirok etish shartlarini belgilaydilar. Shartnomada foyda va zararlarni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash, yuridik shaxs faoliyatini boshqarish, muassislarning uning tarkibidan chiqish shartlari va tartibi ham belgilab qo‘yiladi. Ta‘sis shartnomasiga muassislarning kelishuviga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Ta‘sis hujjatlaridagi o‘zgartishlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab, qonunda belgilangan hollarda esa - davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organ ana shunday o‘zgartishlar haqida xabardor qilingan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga ega bo‘ladi. Yuridik shaxslar va ularning muassislari mazkur o‘zgartishlarni hisobga olib ish yuritgan uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda ana shunday o‘zgartishlar ro‘yxatga olinmaganligini vaj qilib ko‘rsatishga haqli emaslar.

N. Kozlova ta‘sis shartnomasini konsensual fuqarolik-huquqiy shartnoma deb, uning maqsadi yuridik shaxsni tashkil etish va uning faoliyati davomida muassislarning o‘zaro munosabatlarini tartibga

solishga qaratilganligini ta'kidlaydi . Bundan kelib chiqib, ta'sis shartnomasi birinchidan, ham fuqarolik-huquqiy shartnomalarning bir turi sifatida uning tuzilish shakli konsensual shartnomaga xos bo'lib, ikkinchidan, ta'sis shartnomasining asosiy xususiyati, muassislarning o'zaro huquqiy munosabatlarini belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Demak, ta'sis shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomalarning bir turi bo'lib, ushbu hujjat ta'sischilarning o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish bilan birga ushbu shartnoma ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Shuningdek, ushbu hujjatning tarbiyaviy ahamiyatga ham ega ekanligini ta'kidlab, unda muassislarga yuklatilgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishlik hamda ularning jamiyat yoki shirkatning boshqaruvida qatnashish huquqini beradi. Xo'jalik jamiyatlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarida birinchi navbatda ularning ta'sis shartnomasi tuziladi va shu hujjatda ularning asosiy faoliyati hamda maqsadi belgilab qo'yiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining turlari va tashkil etilish shakllari haqida ayrim olimlarning fikrlari mavjud. Xususan, V.Ya. Gorfikel va G.B. Polyanalar, barcha turdagi tadbirkorlik faoliyatini quyidagicha turkumlash mumkinligini qayd qiladilar: - faoliyat turiga qarab; - mulk shakliga qarab; - mulkdorlar soniga; - tashkiliy iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy; - jalb qilingan ishchilardan foydalanish darajasiga va x.k.ga qarab belgilanadi.

Umuman olganda, tadbirkorlik faoliyatining subyektlari umumiy tartibda ularning turkumlarga ajratilganligini va bunda ularning maqsadiga qarab uning tashkiliy-huquqiy asosini aniqlab olish imkoniyatini yaratadi. Shu asosda tadbirkorlik faoliyatining bunday turkumlanishi tadbirkorlik faoliyatining tashkiliyhuquqiy jarayonida uning biror bir turini to'g'ri tanlash huquqini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlar asosida tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida ularni tan olish uchun, ularning quyidagi asosiy belgilariga e'tibor qaratish shart bo'ladi. Binobarin, tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazish, o'z ixtiyoridagi mulkka ega bo'lishlik ya'ni mulkiy mustaqillik, huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishlik, tegishli soliq va boshqa mahalliy

yigimlarni to‘lagan bo‘lishi talab qilinadi. Ushbu qayd qilingan belgilar barcha tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun tegishli hisoblanadi.

Ayrim adabiyotlarda yuridik shaxsning xarakterli belgilarini ham hisobga olish muhimligi qayd qilingan. Xususan, umumiy maqsadga erishishlik, yuridik shaxsning taraflar o‘rtasidagi munosabatlarda aniq huquqni ta‘minlovchi tashkiliy birlik hamda tashkiliy strukturaga ega bo‘lishlik, o‘z ixtiyoridagi mulkka ega bo‘lishi, fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi, majburiyatlar bo‘yicha mustaqil fuqarolik-huquqiy javobgarlikka ega bo‘lishini bildiradi.

Demak, ushbu belgilarning har ikkala subyektda ham deyarli bir xil bo‘lishligi kuzatildi. Lekin shunday bo‘lsa-da, bular ichida tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etish asosida tadbirkorlik bilan shugullanish huquqi berilgan subyektda biz bitta farqni kuzatdik, ya‘ni yuridik shaxsning taraflar o‘rtasidagi munosabatlarda aniq huquqni ta‘minlovchi tashkiliy birlik hamda tashkiliy strukturaga ega bo‘lishlik belgisi hisoblanadi. Ushbu belgilar tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tuzmasdan tashkil etish xususiy mulkdorga ancha qulay imkoniyatlarni beradi. Ularga asosan, kichik mulkdor hech qachon tadbirkorlik faoliyatini yirik mulkdor kabi amalga oshira olmaydi. Shuning uchun tadbirkorlik faoliyatining shaklini tanlashda mulk huquqining subyektlariga asosiy mezon bo‘lib, o‘z egaligida bo‘lgan mulkiga hamda faoliyatdan kutilayotgan natijalarni to‘g‘ri seza bilishligi talab qilinadi.

Umuman olganda, ushbu belgilarning mazmun va maqsadi bir xil bo‘lib, mazkur belgilar o‘ziga xos tartibda har bir tadbirkorlik subyekti uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, har ikkala tashkiliy shaklda ham qayd qilingan belgilarning mazmun va mohiyatida tadbirkorlikning maqsadi daromad (foyda) olishga qaratilganligini ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda biz N. Korshunova va N. Eriashvililarning fikrlariga ham qo‘shilamiz. Demak, yuqorida qayd qilingan ushbu belgilar asosida yuridik shaxsning tadbirkor ekanligini boshqa iqtisodiy munosabat ishtirokchilaridan ularni ajratib olishlikni bildiradi. I.Mankovskiy tijoratchi yuridik shaxsga nisbatan quyidagi ta‘rifni bildiradi jumladan, u tijoratchi yuridik shaxs bu qonunda belgilangan tartibda huquqiy shaklga

ega bo‘lib, shu asosda bir yoki bir necha jismoniy yoki yuridik shaxslarga xos maxsus belgilarni o‘zida ifoda etish orqali tadbirkorlik faoliyatini mustaqil subyekt sifatida amalga oshirishga qaratiladi. Buning natijasida o‘zining moddiy ehtiyojini to‘liq qondirishga va shu bilan birga ushbu subyekt davlat va jamiyatning ehtiyojini ham qondirishga qaratilgan shaxs deb ta’kidlaydi.

N. Korshunova va N. Eriashvili xo‘jalik shirkatlarini tijorat tashkilotlariga qiyoslab, ularda ishtirokchilarning qo‘shgan hissalarini taqsimlanishi asosida tashkil etish mumkinligini bildiradi. Lekin, Evropa kontinental huquq tizimida esa ushbu tashkiliy tuzilmalar kompaniya yoki firma, AQShda esa korporastiyalar deb yuritilishi ta’kidlaydilar. N. Mankovskiy, N. Korshunova va N. Eriashvililar tijoratchi yuridik shaxslarga nisbatan kengroq tushuncha berib, unda tijoratchi tashkilot eng avvalo o‘zining moddiy ehtiyojini to‘liq qondirishga qaratilganligini hamda qo‘shilgan hissalarining teng taqsimlanishi bilan xo‘jalik shirkatlarini ham tijorat tashkilotlariga xos subyekt ekanligini tushuntiradilar.

“Akstiyadorlik jamiyatlari va akstiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘grisida”gi Qonunning 2-moddasi uchinchi qismida, jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab, yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lishi hamda jamiyatning ustavida o‘zgacha tartib qoida ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, u cheklanmagan muddatga tuzilganligi belgilangan. AJni tuzish uning o‘ziga xos usullari va ta’sis etish shartlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Uning tashkil etish usullari jamiyat yangidan ta’sis etish yoki mavjud yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, birlashtirish, bo‘lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish) yo‘li bilan tashkil etilishi mumkin. Shuningdek, akstiyadorlik jamiyatlari davlat mulki asosida yoki xususiy mulk asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Jamiyat muassislari akstiyadorlik jamiyatini tuzish to‘grisidagi ta’sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar akstiyadorlik jamiyatining muassislari hisoblanadi. Davlat korxonasi akstiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ uning muassisi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, davlat korxonasi

akstiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda ta'sis yigilishi o'tkazilmaydi.

AJning nizom jamgarmasi akstiyadorlar tomonidan akstiya uchun to'langan to'lovdan iborat bo'ladi. Lekin, jamiyatni ta'sis etish shartnomasi jamiyatning ta'sis hujjati kuchiga ega bo'lmaydi. AJning ta'sischislari o'zaro shartnoma tuzish orqali birgalikdagi faoliyat olib borish haqida kelishuvga asoslanib, shu asosda ularning birgalikdagi faoliyat tartibi belgilanadi. Bundan tashqari jamiyat ustav kapitalining miqdori, akstiyalar turlari hamda ta'sischilarning huquq va majburiyatlarida belgilab qo'yiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini akstiyadorlik jamiyatlari shaklida vujudga kelishi, akstiyadorlik jamiyatining davlat ro'yxatidan o'tkazilishi bilan bogliq, yuridik faktning sodir etilishiga asoslanadi. "Akstiyadorlik jamiyatlari va akstiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'grisida"gi Qonunning 17-moddasida jamiyat ro'yxatdan o'tish uchun ro'yxatga oluvchi organga ustavni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni taqdim etishi bilan amalga oshiriladi. FKning 44 moddasida yuridik shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi belgilangan. Ushbu qonunda mazkur subyektning fuqarolik huquqiga ega bo'lishligini, tadbirkorlik munosabatlarida ishtirok etishini hamda ularning subyektiv huquqlarini amalga oshirish huquqini belgilab beradi.

N.D. Egorov, I.V. Eliseevlar akstiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini ko'paytirish va uni kamaytirish quyidagi usullarda amalga oshirilishi lozimligini asoslaydilar: -amaldagi akstiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan; qo'shimcha akstiyalarni joylashtirish, ya'ni yangi akstiyalarni chiqarish yo'li bilan; -amaldagi akstiyalarning nominal miqdorini kamaytirish yo'li bilan; -amaldagi akstiyalar sonini qisqartirish asosida.

H.R. Rahmonqulov va S.S. Gulyamovlar: "tadbirkorlik bilan shugullanayotgan korxonaning asosiy maqsadi texnologik va tashkiliy xarakterdagi faoliyat sohasida rivojlanishga bo'lgan uzluksiz intilish natijasida erishiladigan daromad imkoniyatlarini oshirish bo'lib hisoblanadi. Bunga daromad olish ehtimolini baholash va boshqaruv

sifatini oshirish, ijod va tashabbusni ragbatlantirish, oqilona tavakkalchilik harakatlariga yo‘l qo‘yish, yaratuvchilik tavakkalchiligiga tayyor turish, korxonaning muammolarini inobatga olgan holda moslashuvchan tashkiliy tuzilma tashkil etish kabilar orqali erishiladi” - deb ta’kidlaydi. Demak, tadbirkorlik faoliyati butun bir kompleks munosabatalardan tashkil etilganligi sababli uning normalari barcha munosabatlarni qamrab ololmaydi.

Shu sababli tadbirkorlik faoliyatining subyektlarini faoliyat turiga qarab ularning turlarini qabul qilinayotgan yangi Tadbirkorlik kodeksiga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fuqaroning tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida harakat qilishi O‘z.R FKning 24-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, fuqaro (jismoniy shaxs) fuqarolik huquqiga ega bo‘lishi bilan yakka tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati subyektiga ega bo‘lishligi belgilangan. Kichik tadbirkorlik faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy asoslari 2012 yil 2-mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisida“gi qonunning 5-moddasida ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma kishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bogliq bo‘lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan o‘n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan besh kishi bo‘lgan mikrofirmalar kichik tadbirkorlik subyektlari bo‘lishligi belgilab qo‘yildi.

Ushbu qonuning 13-moddasida, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli davlat organi tomonidan “bir darcha” prinsipi bo‘yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori asosida Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘grisida NIZOM tasdiqlandi. Ushbu Nizomda yuridik va jismoniy shaxslarni — tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va muddatlari belgilandi. Nizom talablari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan banklar va

kredit byurolari, ularning vakolatxonalari hamda filiallari, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga tatbiq etilmaydi.

Nizomga asosan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish ushbu Nizomga muvofiq quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

1. Internet orqali yagona portalda;
2. O'zi kelgan holda.

Nizomning 32-bandida tadbirkorlik subyektini — yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza beruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga tegishlicha ushbu Nizomning 12 va 21-bandlarida nazarda tutilgan hujjatlarni, shuningdek davlat boji to'langanligi to'grisidagi ma'lumotlarni yoki belgilangan davlat boji miqdori to'langanligi to'grisida bank to'lov hujjatining (keyingi o'rinlarda to'lov hujjati deb ataladi) nusxasini taqdim etadi.

Korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli mulkka nisbatan qonuniy egalik qilishi mulkdorning xo'jalik faoliyatiga kirishish huquqini va uni amalga oshirishni belgilab, bunda korxonaga bir butun mulkiy majmua sifatida vudjudga kelishligini o'zida ifoda etadi.

Shu o'rinda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining o'ziga xos umumiy xususiyatlarining mazmun mohiyati ham muhim hisoblanadi. Bular, -tadbirkorlik subyektlari bu shunday shaxski, u o'z nomidan fuqarolik muomlasida ishtirok eta olishi;

-tadbirkorlik faoliyati subyektlari tadbirkorlik asosida harakat qilishida maxsus huquq layoqatiga ega bo'ladi va bunda uning umumiy huquq layoqati dispozitiv xarakterga ega bo'lishligidan iboratdir.

Navbatdagi tadbirkorlik subyekti bu xususiy korxonaga. Respublikada tadbirkorlik faoliyati subyektlarining xususiy korxonaga shaklini rivojlantirish xususida I. Karimov shunday degan edi, *“islohotlarning hozirgi bosqichidagi o'ta muhim masala – xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va ana shular asosida xususiy korxonalarini tuzishga keng sharoit tugdirib berishdan iborat”*.



Xususiy korxonalarining vujudga kelish tartibi O‘zRning “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi 2003 yil 11 dekabrda qonun asosida amalga oshirildi. Ushbu qonunning 3-moddasida xususiy korxonalar mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonalar deb huquqiy ta’rif berildi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli hisoblanadi. Yuqoridagi qonunning 11-moddasida, xususiy korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazish korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

Sh. Ro‘zinazarov, kichik korxonalar ham tadbirkorlik faoliyatining subyekti sifatida o‘ziga xos yuridik maqomga egadir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ikkita holatni bir-biridan farqlash lozim, **birinchidan**, kichik korxonalar fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish shakli bo‘lsa, **ikkinchidan**, ushbu subyektga mulk huquqining ob’ekti sifatida qarash mumkin, deb ta’kidlaydi.

Demak, xususiy korxonalar boshqa tadbirkorlik subyektlari shakllaridan farqli jihatlar shundaki, unda xususiy korxonalar mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuziladigan va boshqariladigan tijoratchi tashkilotdir.

I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, “...biz xususiy tadbirkorlikning manfaatlarini himoya qiluvchi qonun va tartiblarga hokimiyatning jamiiki bo‘g‘inlari tomonidan ogishmay amal qiladigan qat’iy va majburiy muhitni vujudga keltirishimiz shart, kichik va o‘rta korxonalarining turli shakllari tez va keng rivojlanishi uchun yo‘l ochishimiz lozim”.

2019 yil 1 iyul holatiga respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 371,9 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 309,7 mingta). O‘tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 21,4 %ni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 25,0%) tashkil etdi. Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o‘sishi Navoiy (35,1%), Samarqand (28,9%), Buxoro (27,0 %), Xorazm (22,9%), Fargona (22,7%), Jizzax (22,2%), Qashqadaryo (20,4%) viloyatlarida va Toshkent shahrida (20,7%) kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibda tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari 2012 yil 2 mayida qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisida” gi qonunning 7-moddasida berilgan. Unga ko‘ra, jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatining er-xotinning umumiy mol-mulki negizida, ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat, yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligi shakllarida amalga oshirilishi mumkinligi mustahkamlandi.

Huquqshunos G. Aliev, tadbirkorlik faoliyatini yuritishning tashkiliy-huquqiy shaklini xususiy tadbirkor sifatida tanlab, uni yuridik shaxs tashkil etib yoki yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi xususiy tadbirkorlik (yakka tartibdagi tadbirkorlik) ga ajratib ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan qonun talablari va olimlarning fikrlaridan shuni tushunish mumkinki, demak, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs, o‘zining mol-mulki va iqtisodiy sarmoyasiga qarab, tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zi belgilash huquqiga egadir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining fuqarolik huquqi subyekti sifatida tadbirkorlik munosabatlarida ishtirok etishi, ularning tegishli tartibda tashkiliyhuquqiy shaklini to‘gri belgilab olishi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. B. Ibratov tadbirkorlik faoliyati quyidagi shakllarda tashkil etilishi mumkinligini qayd qilgan.

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlik.
2. Yuridik shaxs tashkil etgan kichik va o‘rta tadbirkorlik.
3. Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi tadbirkorlik faoliyati.

Bugungi kunda esa, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning oilaviy shakli xam qonun asosida mustahkamlandi.

Tadbirkorlik faoliyatini dehqon xo‘jaligi shaklida tashkil etish asoslari, O‘zRning “Dehqon xo‘jaligi to‘grisida” gi yangi tahrirdagi qonunida belgilangan. Unga asosan, dehqon xo‘jaligini tashkil etish tartibi ixtiyoriylik asosida, xo‘jalik boshligining qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq

xo‘jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning ish boshqaruvchisiga hamda tuman hokimiga yozma murojaatiga asosan tashkil etiladi.

Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) boshqaruvi dehqon xo‘jaligini tashkil etish to‘grisidagi masalani umumiy majlis muhokamasiga kiritadi. Boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida dehqon xo‘jaligini tashkil etish to‘grisidagi qaror shu korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning yuqori boshqaruv organi, ish beruvchisi (ma‘muriyati) tomonidan qabul qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) umumiy majlisining yoki boshqa qishloq xo‘jalik korxonasi, muassasasi va tashkiloti yuqori boshqaruv organining, ish beruvchisining (ma‘muriyatning) qarori asosida er uchastkalarini berish masalalarini ko‘rish bo‘yicha tuman komissiyasining xulosasini inobatga olgan holda tuman hokimi dehqon xo‘jaligini tashkil etish to‘grisidagi qarorini qabul qiladi. Tuman hokimining dehqon xo‘jaligini tashkil etish to‘grisidagi qarori tumanning moliya, bank, soliq va boshqa tuzilmalari uchun majburiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi sohasida yakka tartibdagi tadbirkorlik dehqon-fermer xo‘jaligi hamda xususiy korxonalar shaklida tashkil etiladi.

Dehqon xo‘jaligini yuridik shaxs tashkil qilmasdan yakka tadbirkor sifatida yuqorida qayd qilganimizdek FKda hamda “Dehqon xo‘jaligi to‘grisida” gi O‘zR qonunning 5-moddasiga muvofiq, dehqon xo‘jaligini tashkil etish tartibi, dehqon xo‘jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda u davlat ro‘yxatiga olinganidan va unga belgilangan tartibda er uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi. Shuningdek, dehqon xo‘jaligi yuqorida qayd qilingan Nizomga muvofiq belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan paytdan e‘tiboran tashkil etilgan hisoblanadi.

Fermer xo‘jaligini tashkil etish 2004 yil 26 avgustda qabul qilingan “Fermer xo‘jaligi to‘grisida” gi O‘zR qonunining 5-moddasida belgilangan tartibda fermer xo‘jaligini tashkil etish shartlariga muvofiq tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo‘lmagan erlarda va hududlarda tashkil etiladi. Bugungi kunda fermer xo‘jaligi tender tanlovi asosida tashkil etilmoqda. Fikrimizcha, yuqorida qayd qilingan qonunning 5-moddasiga qo‘shimcha qilib uni

“Fermer xo‘jaligi tender asosida, aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo‘lmagan erlarda va hududlarda tashkil etiladi” tahrirda berish kerak deb hisoblaymiz. Bunga asos bugungi kunda fermer xo‘jaligi tanlov asosida o‘tkazilishi ko‘plab qonun osti hujjatlarida belgilangan. Bunday o‘zgartirish kiritish esa qonunlarni unifikastiyalashga olib keladi.

Huquqshunos olim I. Anortoev davlat organlari hamda o‘z-o‘zini boshqarish organlarining joylarda fermerlar faoliyatiga aralashish holatlari hali ham davom etmoqda. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy hujjatlar juda ko‘p. Ularni aksariyat qismini qonunosti hujjatlari va vazirliklarning me‘yoriy hujjatlari tashkil etadi. Bu holat fermerlar tomonidan hujjatlarning o‘rganilishini murakkablashtiradi, oqibatda fermer uchun bajarilishi qiyin, ammo shart bo‘lgan vazifa yuzaga keladi. Ta’kidlash lozimki, ayrim hollarda bu hujjatlarda o‘zaro mutanosiblikning yo‘qligi ko‘zga tashlanadi. Shularni hisobga olib, fermerlikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli strategiyadan ogishmaslik, mavjud qonunchilikni yanada izchil takomillashtira borish zarur. Buning uchun respublika iqtisodiyotiga oid qonunchilikni, xususan fermer xo‘jaligi faoliyatiga daxldor qonunlarni liberallashtirish lozim bo‘ladi degan asosli fikrlarni ta’kidlaydilar. Ushbu qayd qilingan muammolarning asosiy yechimi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisida” gi 2012 yil 2 mayidagi Qonuni asosida hal qilinishi lozim. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarni kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisidagi”, shuningdek, “Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘grisida” 2019 yil 13 avgustdagi PF-5780-son Farmoniga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘grisida” 2019 yil 13 avgustdagi PQ-4417-son qaroriga muvofiq Vazirlar

Mahkamasi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda quyidagi hujjatlar tasdiqlandi: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi to‘grisidagi nizom hamda Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamgarmasi to‘grisidagi nizom.

G. Aliev yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati shakllarining bir-biriga o‘xshash tomonlari bilan bir qatorda, o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir. Bu xususiyatlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati ob’ektlari va subyektlarini aniqlash, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining yakka tartibdagi tadbirkorlik mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini tahlil qilish natijasida aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi.

Demak, tadbirkorlik faoliyatining asosiy negizida mulk va unga nisbatan huquqlarni amalga oshirish tushuniladi. Shu o‘rinda uning o‘ziga xos mazmunini ifodalashda uning mulkiy mustaqilligi, tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq munosabatlarda o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk bilan javobgar bo‘lishi hamda qonunda belgilangan tartibda cheklanmagan miqdorda daromad yoki foyda olishligi ushbu faoliyatning asosiy xususiyatlari mazmunini tashkil qiladi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining samarali faoliyat yuritishi uchun eng avvalo ularning faoliyat turiga qarab tashkiliy - iqtisodiy shakllarini belgilab olish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini xususiy mulk asosida quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

- er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik; -
- oddiy shirkat;
- yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligi shakllarida amalga oshirilishi;
- tadbirkorlik faoliyatining korporativ shaklida tashkil etish.

Tadbirkorlik faoliyatining turlari haqida I. Kan tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan va xususiy tadbirkorlik asosida tashkil etiladigan turlarga ajratadi.

Shu o‘rinda Germaniya Federativ respublikasining mas’uliyati cheklangan shirkatlar to‘grisidagi qonunida shirkat ta’ sis shartnomasining mazmuni quyidagicha belgilangan: firma nomi va shirkat joylashgan joy; faoliyat predmeti; asosiy kapital miqdori; har bir ishtirokchining asosiy kapitaldagi qo‘shgan hissasi.

Ushbu ta’ sis shartnomasida belgilangan ma’lumotlar qonunchiligimizda ya’ni O‘zRning “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘grisida”gi qonunning 12-moddasida ta’ sis shartnomasida emas, balki ushbu qonunning 13-moddasida, ya’ni jamiyat ustav fondida belgilangan. Demak, fuqarolar tadbirkorlik faoliyatining kichik biznes shaklini tuzish keng yo‘lga qo‘yilishi talab qilinadi, bunga sabab ushbu tadbirkorlik tuzilmalari kam mablag talab qilinadigan eng qulay shakllardan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zRning “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisida” gi qonunning 13-moddasida, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli davlat organi tomonidan “bir darcha” prinstipi bo‘yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etishga yoki unga qonunchilikda nazarda tutilmagan qo‘shimcha talablarni belgilashga haqli emas.

Ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etganlik, shuningdek davlat ro‘yxatidan o‘tkazish muddatlarini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning qarori, shuningdek mazkur organ mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) sud tomonidan qonunga xilof deb topilgan taqdirda, ular ariza beruvchiga ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etganlik yoki ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini buzganlik tufayli etkazilgan zararining o‘rnini qoplaydi va ma’naviy zarar uchun kompensasiya to‘laydi.

M.Abdusalomov, Sh. Ro‘zinazarovlarning fikricha, fuqarolik huquqi nazariyasida yuridik shaxslarni tashkil etish usullari bo‘yicha

yagona bir fikr yoʻqligini eʼtirof etib, ularni yuridik shaxslarni tashkiliy-huquqiy asoslariga qarab quyidagi uch usulga ajratadi; - buyruq tartibida (davlat va maʼmuriy-hududiy tuzilmalarning yuridik shaxslari) tashkil etish; - oddiy taʼsis etish tartibida (xususiy korxonalar, xususiy tadbirkorlar) vujudga keltirish; - oʻzaro kelishuv tartibida (aksionerlik jamiyatlari, maʼsuliylati cheklangan va qoʻshimcha maʼsuliylatli jamiyatlar, qoʻshma korxonalar va x.z) tuzgan maʼqul.

Buyruq tartibida yaʼni farmoyish berish orqali davlat va munistipal korxonalar taʼsis etiladi. Bunda korxonalar mulk egasining yoki shunga vakolatli boʻlgan organning qarori bilan mulkdor oʻziga tegishli boʻlgan mulkini operativ boshqaruv, xoʻjalik yuritish yoki akstiyadorlik jamiyati shakllarida taʼsis etishi mumkin.

Oddiy taʼsis etish bu fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagi bilan tadbirkorlik faoliyatining biror bir turini tanlab yakka tartibda yoki xususiy korxonalar shaklida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmoqchi boʻlgan shaxs tushuniladi. Oʻzaro kelishuv tartibida mulkdorlarning oʻz mulklarini birlashtirish orqali tadbirkorlik tuzilmalarida ishtirokchi yoki sherikchilik asosida taraflarning kelishuvi va xohish irodasi bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida tuzilgan yuridik shaxsni tushunish mumkin.

OʻzRFXning 49-moddasi 5-qismida, qoʻshib olish shaklida qayta tashkil etish holatlarini istisno qilganda, yangitdan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanishi belgilangan.

Demak, qonun-hujjatlarda belgilangan tartibda ayrim tadbirkorlik subyektlarining masalan, fermer xoʻjaligi raisining vafot etishi munosabati bilan yoki oʻz ixtiyoriga koʻra fermer xoʻjaligini qoʻshib yuborish holatlarida ularning faoliyatini qaytadan roʻyxatdan oʻtkazish shart emas. Chunki, yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qoʻshilganida, bu yuridik shaxsga qoʻshilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq unga oʻtadi.

Huquqshunos olim I. Romankova tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga asosiy sabab, iqtisodiy qonunlar va qonuniyatlar hisoblansa, ular mazmunini tovar pul munosabatlari tashkil etish,

ikkinchidan esa ularning huquqiy rivojlanishiga yaratilayotgan shart-sharoitlar tashkil qiladi. Xususiy tadbirkorlik faoliyati o'zining haqiqiy o'rmini xo'jalik yuritish tizimida mulkka nisbatan munosabatning o'zgarishi bilan vujudga keladi. A. Brizgalin esa korxonani tashkil etishning umumiy uch asosiy tashkiliy-huquqiy shaklini ta'kidlaydi:

-yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan korxonalar, bunga fuqarolarning yakka tadbirkorlik faoliyatini va dehqon xo'jaligini kiritadi;

-tijorat tashkilotlari bunga, yuridik shaxslar, yakka tartibda, oilaviy xususiy korxonalar, shirkatlar (to'liq, aralash, mas'uliyati cheklangan, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar va x.z) kiradi;

-ishlab-chiqarish kooperativlari, ijara va jamoa korxonalari, akstiyadorlik jamiyatlari (ochiq va yopiq turdagi), jamoat tashkilotlari, korxonaning xo'jalik birlashmalari (konsternlar, assostiastiyalar va x.z) davlat, mahalliy va (sho'ba) korxonalaridan iborat bo'lishligi qayd qilinadi.

Prof.O. Oqyulov tadbirkorlik faoliyati erkinligi, fuqaro yoki tijorat yuridik shaxsga qonunda taqiqlanmagan har qanday faoliyat sohasi bo'lsa, tadbirkorlikni amalga oshirish imkonini beradi - deb ta'kidlaydi.

Xulosa qilganda, ushbu tashkiliy-huquqiy shakllarning mazmunida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, bular tadbirkorlik faoliyatining dastlabki jarayonini oydinlashtiradi. Ushbu jarayon o'ziga xos murakkab jarayondan iborat bo'lib, birinchidan, tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish bilan bogliq munosabatlar bo'lsa, ikkinchidan tadbirkorlikning xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi bilan bogliq munosabatlarini belgilab olish hisoblanadi.

Respublikamizda barcha tadbirkorlik faoliyati sube'ktlarining asosiy huquqiy kafolati sifatida Konstitutsiyamizning 53-moddasini keltirish mumkin. Xususan, "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi".



Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari xususiy mulkning boshqa mulk shakllari bilan bir qatorda davlat himoyasida bo'lishi, mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi, er, erosti boyliklari, suv, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralarning umummilliy boylik bo'lishi kabi normalar Konstitutsiyaning 53-moddasining ikkinchi qismida belgilangan.

### **Tadbirkorlik huquqi subektlarini tugatish tushunchasi va usullari**

Tadbirkorlik huquqi subektlarini tugatish tartib taomillari O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 6-bobi yakunlovchi qoidalaridagi 49-moddasida, tadbirkorlik faoliyati subyektini tugatish (uning faoliyatini tugatish) asoslari belgilangan. Unga ko'ra, yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik faoliyati subyektini tugatish uning muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlari bilan tegishli vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga yoxud sudning yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati subyekti tugatilayotganida o'shatilayotgan xodimlarga qonunchilikka muvofiq ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi kafolatlanadi. Jismoniy shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyekting faoliyatini tugatish uning qaroriga yoki sud qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyekti uning tugatilishi (faoliyati tugatilishi) haqidagi yozuv ro'yxatdan o'tkazuvchi organning tegishli davlat reestriga kiritilganidan keyin tugatilgan (faoliyati tugatilgan) hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektini tugatish (uning faoliyatini tugatish) qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi davrida turli mulk shakllarining mavjudligi xo'jalik yuritishning hamxar xil ko'rinishlarini vujudga keltirib, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga alohida e'tibor berishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlarining samarasiz faoliyat yuritishi davlat va jamiyat manfaatlariga sezilarli zarar keltiradi. Har qanday davlat va jamiyat o'z hududida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlarining yaxshi ishlashi tarafdoridir.

To‘g‘ri, bunday holat albatta achinarli, lekin undan qutilib bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, yuridik shaxsni tugatish masalasi haqiqatdan dolzarb mavzu bo‘lib bormoqda. Ushbu vaziyatga mamlakatimizda to‘ri baho berilib, qonunda belgilangan tartib asosida hal qilish uchun maxsus qonun meyorlari va chora tadbirlar ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining normalari yuridik shaxslarni tugatishning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishini to‘liq mujassamlashtirgan asosiy huquqiy hujjat bo‘lsa, shu singari mustaqillikka erishganimizdan buyon qabul qilingan qishloq xo‘jalik korxonalarini faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda esa yuridik shaxsni tugatishda mazkur sohaning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinib huquq normalari belgilangan.

Tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tuzish asosida tashkil qilgan subyektlarni tugatishning umumiy tartib taomillari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan xamda yuridik shaxslarni tugatilishining ikki xil usuli ko‘rsatilgan.

Birinchisi ixtiyoriy usul bo‘lib, u quyidagi asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi:

muassislar (ishtirokchilari) yoki tasis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq;

yuridik shaxsning faoliyat yuritish muddatining tugashi bilan; uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan;

yuridik shaxsni tashkil etish choida qonun hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganda;

muassislar (ishtirokchilar) yoki yuridik shaxs organi tomonidan tashkilotni tugatish uchun etarli bo‘lgan boshqa sabablarni tan olishi bilan.

Ikkinchisi-majburiy usulda sud qarori bo‘yicha quyidagilarga ko‘ra tugatish amalga oshiriladi:

faoliyatni tegishli ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirish; qonun tomonidan taqiqlab qo‘yilgan faoliyatni amalga oshirgan yoki qonun yoki huquqiy aktlarni bir necha marta va qo‘pol ravishda buzish holatlarida;

Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Bozor munosabatlari mamlakat iqtisodiyotiga qanchalik chuqurroq kirib kelishi o'z faoliyatini samarasiz olib borayotgan yuridik shaxslarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli 6 oy mobaynida (savdo vositachilik korxonasi esa - uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo'yicha pul operatsiyalarini o'tkazish bilan bogliq moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirilmagan, (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) va (yoki) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan etiboran bir yil ichida ustav fondi ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirilmagan taqdirda ham uning tugatilishiga olib kelishi haqidagi norma Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yildi.

### **3.Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish asoslari.**

"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'risida"gi qonunning yangi tahriri (2012-yil 2-mayda qabul qilingan) da yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati ko'lamini kengaytirdi va tadbirkorlik subyekti sifatida mustahkamladi. Qonunga ko'ra, har qanday fuqaro tadbirkor hisoblanmaydi, faqat belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan va tadbirkor maqomini olgan jismoniy shaxslargina tadbirkor sifatida e'tirof etiladi.

Rossiya Federastiyasi Fuqarolik kodeksining 23-moddasi 1-qismida har qanday fuqaro qonun hujjatlarga asosan tadbirkorlik bilan shugullanish huquqiga ega bo'lishligi va bunda ular tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan (yakka tadbirkor) sifatida va ushbu faoliyatni davlat ro'yxatidan o'tkazganidan so'nggina shugullanishga haqli ekanligi belgilangan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mulk huquqi asosida mustaqil mulkchilikda bo'lgan mol-mulk asosida, shuningdek mulkka egalik qilish va (yoki) foydalanishga imkon beradigan boshqa ashyoviy huquqlar asosida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, Qonunning 7-moddasida yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik subyektlarining shakllari quyidagicha mustahkamlangan:

- er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;

- ikki yoki undan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan foyda olish yoki qonunga zid bo‘lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o‘z hissalarini qo‘shish va yuridik shaxs tuzmasdan, birgalikda ish qilish majburiyatini olgan oddiy shirkat;

- yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligini yuritish.

Shu o‘rinda ushbu mavzu bo‘yicha bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida qo‘yidagi savollarga e’tibor qaratsak.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati qanday tashkil etiladi?

O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi qanday bo‘ladi?

Uyda o‘tirgan holda tadbirkor bo‘lish mumkinmi?

Yakka tartibdagi tadbirkorlardan qanday soliqlar undiriladi?

Yakka tartibdagi faoliyat turini tashkil qilish va tadbirkorlardan olinadigan soliq to‘lovlari haqida mutaxassisning ta’kidlashicha, yakka tartibdagi tadbirkorlik (YaTT) faoliyatini tashkil qilish uchun Davlat xizmatlari agentligi markazlaridan biriga borish orqali yoki elektron shakldagi interaktiv xizmatlar yordamida ro‘yxatdan o‘tish mumkin.

Bugungi kunda tadbirkorlar davlat ro‘yxatidan o‘tishi uchun ortiqcha hech qanday hujjatlar talab etilmaydi. Tadbirkorlik faoliyatini yarim soat yoki uzoi bilan bir soat muddatda ro‘yxatdan o‘tkazib tadbirkorlik guvohnomasi olish mumkin.

Tadbirkorlikni istagan shaxs ro‘yxatdan o‘tish uchun joylarda tashkil etilgan Davlat xizmatlari markazida, ish haqi bazaviy hisoblash miqdorining 1 barobari miqdorida davlat boji to‘lashi, agar tadbirkor elektron shaklda mustaqil ro‘yxatdan o‘tmoqchi bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida davlat boji to‘lashi kabi tartiblar joriy etildi.

Bir kalendar yili davomida YaTTning olgan daromadi 100 million

soʻmgacha boʻlsa, qatʻiy belgilangan tartibda soliq toʻlaydi.

Bir kalendar yilida olgan daromadi 100 million soʻmdan oshgan, biroq 1 milliard soʻmdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar, tovar aylanmasidan olinadigan daromad hisobidan soliq toʻlashga oʻtkaziladi.

Bir kalendar yilida tovarlar aylanmasidan olingan daromadi 1 milliard soʻmdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda toʻlashga oʻtkaziladi.

Ma'lumot uchun, joylashgan joyi va faoliyat turidan kelib chiqib, Toshkent shahridagi tadbirkorlar uchun alohida, viloyat markazidagi tadbirkorlar uchun alohida va chekka hududlardagi tadbirkorlar uchun alohida qatʻiy belgilangan soliq stavkasi belgilangan.

Bugungi kunda YaTT lar uchun qanday imtiyozlar mavjud:

YaTTlar faoliyatini boshlagandan keyin bir oy davomida soliqlardan ozod etiladi. Shuningdek, I, II guruh nogironligi boʻlgan YaTTlar belgilangan soliq stavkasining 50 foizi miqdorida soliq toʻlaydi.

Agar YaTT 2 yoki undan ortiq faoliyat turi bilan shuullansa (ya'ni bir paytda ham chakana savdo, ham xizmat koʻrsatish) har biri uchun alohida alohida belgilangan qatʻiy stavkada soliq toʻlaydi, ammo bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida umumiy bitta ijtimoiy soliq toʻlashi belgilangan.

YaTT oʻz faoliyat turidan kelib chiqib, 1 nafardan 3 nafargacha ishchi yollash imkoniyatiga egaligi, ya'ni chakana savdo bilan shuullanadigan tadbirkor 1 nafargacha, maishiy xizmat koʻrsatish bilan shuullanuvchi tadbirkor 3 nafargacha ishchi yollashi mumkin.

Mutaxassisning ta'kidlashicha, 2021 yildan boshlab kiritilgan oʻzgarishlarga asosan yakka tartibdagi tadbirkordan soliq agenti sifatida yollangan xodimlari uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi (daromadning 12 foizi miqdorida) undiriladi. Ma'lumot uchun, hozirda YaTT yuzga yaqin faoliyat turlari bilan shuullanishi mumkin. 2011 yil 6 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining qarorida yakka tartibdagi tadbirkorlar shugullanishi mumkin boʻlgan faoliyat turlari belgilangan.

Avvalroq, tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish maqsadida davlat organlari tomonidan tadbirkorlarni nazorat

qilishning aniq 4 xil shakllari mavjudligi, bundan tashqari tadbirkorlik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar va ularning nazorat funksiyalari ro'yxati shakllantirilishi ma'lum qilingandi.

Bundan tashqari, joriy yilning oxirigacha yagona Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqilishi va kodeksda tadbirkorlikka oid litsenziyalash, ruxsatnoma berish, yer ajratishga doir masalalar ham aniq tartibda belgilanishi haqida ma'lumot berilgandi.

#### **4. Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlat.**

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek, "Davlatning boshqaruv sohasidagi roli inkor etilsa, ma'muriy buyruqbozlik tizimidan iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o'tishini ta'minlash qiyin kechadi. O'z-o'zidan ravshanki, bozor munosabatlari me'yori mustahkamlanib, islohotlarning ortga qaytmasligi ta'minlanib borgan sari davlatning ta'siri ham shunga muvofiq ravishda izchillik bilan kamayib boraveradi".

Shu nuqtai nazardan davlat iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishni ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Bu esa bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan boshqarish va tartibga solish hamda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bevosita huquqiy vositalar yordamida hal etishga imkoniyat yaratadi.

Davlat tadbirkorlik huquqi subyektlariga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlat bir vaqtning o'zida boshqa tadbirkorlik huquqining subyektlaridan farq qiladi.

Masalan: Davlat iqtisodiy munosabatlarga kirishar ekan, boshqa subyektlar kabi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun ruxsatnoma olishi talab etilmaydi. Shu bilan birga iqtisodiyotga rahbarlik qilishni yuridik kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlar asosida amalga oshirilishi ham unga xos bo'lgan xususiyatlardan bo'lib hisoblanadi.

Davlatni tadbirkorlik huquqi subyektlari qatoriga qo'shmaslik, tadbirkorlik faoliyatiga oid masalalarni hal qilishda ko'pgina noaniqliklarning kelib chiqishiga shunigdek, bu boradagi masalalarni qaysi huquq sohasi normalari bilan tartibga solinishi lozimligi to'risidagi masalalarda chalkashliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lar edi. Davlatning

tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida o'ziga xos xususiyatlarini birma-bir tahlil qilishga harakat qilamiz.

Amaldagi qonunlarimizga muvofiq xususiy va ommaviy mulk shakllari mavjud. Ommaviy mulk davlat mulkidan iborat bo'lib, u ikki xil turdagi mulkdan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi mulki va munitsipal mulkdan tashkil topadi.

Yuqoridagi mol-mulklar asosida davlat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi va ularni o'z organlari orqali korxonalarining tadbirkorlik faoliyati yuritishiga berib, yangi subyekt korxonalarini tashkil etadi. Shuningdek, mulkdor sifatida davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish masalalarini o'zining maxsus organlari vakolatiga bergan.

Davlat mulki bo'lgan maxsus ob'ekt - davlat xazinasiga O'zbekiston Respublikasi nomidan tushadigan soliqlar, yigimlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha davlat kreditor hisoblanadi. Shuningdek, davlat nomidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha gazna mablaglari hisobidan javobgar hisoblanadi. Davlatning vakolati tadbirkorlik subyektlariga nisbatan boshqaruv faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Davlat insonlarning moddiy va manaviy ehtiyojlarini qondirishdek ulkan vazifani bajarish maqsadida erkinlik asosidagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bir vaqtda, hisob-kitob yuritish, moliya, soliq, subyektlar imtiyozlari kabi institutlarni tartibga solish ishini olib boradi va ular yagona dastur sifatida ko'rinadi.

Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usuli umumiy va alohida asoslarda amalga oshiriladi. Umumiy asos bo'lib qonun chiqarish bo'lib hisoblansa, alohida asosda turli-tuman sohalar bo'yicha tadbirkorlik faoliyati subyektlariga nisbatan o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni iqtisodiy faoliyatning turli jihatlarini tartibga soladi.

Masalan, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish va xarid qilish, byudjet manfaatlarini ko'zlagan holda qonunlar, ekologiya masalalariga oid, tabiatni muhofaza qilish to'risidagi qonunlarni qabul qilinishi orqali subyekt sifatida ko'rinadi.

Tadbirkorlik faoliyatida davlatning ta'siri – bu tadbirkorlik subyektlarini tuzish, bekor qilish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni nazorat qilish faoliyatidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

normativ huquqiy hujjatlar iqtisodiyotga;

davlat buyurtmalari;

davlat kontrakti;

davlat tomonidan tartibga solishni belgilovchi hujjatlar.

Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlatning iqtisodiyotga ta'sir etishining yana bir usuli bu bozor mexanizmini tashkil etib, unda monopoliyaga yo'l qo'yimaslik, soliq tizimi orqali va har bir subyektning huquqini himoya qilish, iqtisodiy erkinliklarining kafolatlashni belgilashdan iborat.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1. Tadbirkorlik huquqi subyektlari tushunchasi, belgilari va tasnifi.

2. Tadbirkorlik huquqi subyektlari faoliyatini tashkil qilish va tugatish tartiblari. Davlat ro'yxatidan o'tkazish.

3. Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida.

4. Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlat.

### ***Bobni o'zlashtirish uchun testlar***

*1. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning qanday asoslari mavjud?*

A. Umumiy va alohida asoslarda.

V. Umumiy va murakkab asoslarda.

S. Qonunlar va qonunosti hujjatlari asosida.

D. Bir tomonlama va kup tomonlama tartibda.

*2. Tadbirkorlik faoliyati subyektlariga berilgan tugri ta'rifni toping.*

A. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.



V. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

S. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va maxsus jismoniy shaxslardir.

D. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik, jismoniy va o'zga shaxslardir.

*3. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish tartibi kaysi katorada to'liq keltirilgan?*

A. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

V. Yakka tartibdagi tadbirkorlik tadbirkor tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

S. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lmagan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

D. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi yuridik shaxs tomonidan mustaqil, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

*4. Tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi tugri kursatilgan qatorni toping?*

A. qonun ustuvorligi tamoyiliga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq holda yuzaga

keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektining foydasiga talqin etiladi.

V. unga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etish qiyin bo'lgan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektining foydasiga talqin etiladi.

S. unga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va aniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektining foydasiga talqin etiladi.

D. qonunga muvofiq qonunchilikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq holda yuzaga kelib qoladigan va ayrim ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektining foydasiga talqin etiladi.

*5. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?*

A. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan «bir darcha» prinsipi bo'yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

V. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish maxsus davlat organi tomonidan «bir darcha» prinsipi bo'yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

S. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tegishli davlat soliq organi tomonidan «bir darcha» prinsipi bo'yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

D. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan «bir darcha» prinsipi bo'yicha va, qoida tariqasida, onlayn asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **3-Bob. TADBIRKORLIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

1. Tadbirkorlik (biznes) huquqi subyektlarini qayta tashkil etish tushunchasi va uni amalga oshirish usullari.

2. Tadbirkorlik (biznes) huquqi subyektlarini tugatish tartibi va asoslari.

#### **1. Tadbirkorlik (biznes) huquqi subyektlarini qayta tashkil etish tushunchasi va uni amalga oshirish usullari.**

Uumumiyy qoidaga ko‘ra, yuridik shaxsning faoliyati qayta tashkil etish yoki tugatish natijasida bekor bo‘ladi.

Qayta tashkil etish, ilgari mavjud bo‘lgan korxonaning bekor qilinishi va yangi huquq subyekti sifatida tadbirkorlik faoliyatini davom ettirilishi demakdir. Korxonaga, u yoki bu ma‘noda boshqa huquq va majburiyatlar oluvchisi (yangi huquq subyekti), yangi yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Tugatishdan farqli o‘laroq, qayta tashkil etishda mulk saqlanadi, tadbirkorlik va mulkiy huquq va majburiyatlar ham mavjudligini yo‘qotmaydi. Ishlab chiqarish bo‘linmalari ham yo‘qotqan, yoki yiriklashgan holda faoliyatini davom ettiradi. Qayta tashkil etish har doim huquqiy vorislik bilan bog‘liq, ya‘ni mulkiy va boshqa huquq (majburiyat)larning bekor qilingan (turini o‘zgartirgan) bir huquq subyektidan boshqasiga, qaytadan vujudga keltirilgan korxonaga o‘tadi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda, unga mulk huquqi asosida tegishli mol-mulk yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o‘tadi. Yuridik shaxsni tugatishdan buning asosiy farqi ham shundan iborat bo‘ladi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari uning faoliyatini davom ettiradi. SHu bilan bog‘liq ravishda oxir oqibatda barcha huquq va majburiyatlar to‘liq o‘tishi lozim. Ular qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning universal huquqiy vorisi, topshirish hujjati, xuddi shuningdek, taqsimlash balansida qayd qilingan yoki qilinmagan bo‘lsa ham, uning barcha huquq va majburiyatlarining vorisi bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasida qayta tashkil qilishning beshta shakli berilgan. Unga ko‘ra,

- qo‘shib yuborish (ikki va undan ortiq yuridik shaxslar bir shaxsga aylanadi);

- qo‘shib olish (bir yoki bir necha yuridik shaxslar boshqasiga qo‘shiladi);

- bo‘lish (yuridik shaxs o‘z faoliyatini to‘xtatib, ikki va undan ortiq yuridik shaxslarga bo‘linadi);

- ajratib chiqarish (yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslar ajraladi, bunda avvalgi yuridik shaxs ham mavjud bo‘lib qolaveradi);

- o‘zgartirish (bir tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs boshqa shakldagi yuridik shaxsga o‘zgaradi).

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish umumiy qoidalarga asosan ixtiyoriy ravishda – uning ta‘sischilarining (qatnashchilarining) yoki ta‘sis etilgan hujjatlar bilan vakolatga ega bo‘lgan yuridik shaxs organi, masalan a‘zolarining umumiy yig‘ilish qarori asosida amalga oshirilishi mumkin. Qo‘shib olish, qo‘shib yuborish yoki o‘zgartirish shakllaridagi ixtiyoriy qayta tashkil etish qonunda belgilanganidek, davlat organlarining oldindan olingan roziligi asosida amalga oshiriladi. Masalan, bunday rozilikni tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni keltirib chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari ustidan nazorat qiluvchi monopoliyaga qarshi davlat organidan ham olish talab qilinadi. Ba‘zan yuridik shaxsni qayta tashkil etishda uning xohish-irodasidan chetga chiqilishi mumkin. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunda belgilangan holatlarda, yuridik shaxsni qayta tashkil etishning uning tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxslarni bo‘lish yoki ajratib chiqarish turlari vakolatli davlat organlari yoki sud qarori bilan majburiy amalga oshiriladi.

Qayta tashkil qilishning barcha sanab o‘tilgan shakllarini ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga, taqsimlash balansi bilan rasmiylashtiriluvchi bo‘lish va ajratib chiqarish shakli kiradi.

Ikkinchi guruhga, topshirish hujjati bilan rasmiylashtiriluvchi qo‘shib yuborish, qo‘shib olish va o‘zgarish shakllarini kiritish mumkin.

Ushbu hujjatlar bilan yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquq va majburiyatlarining hajmi aniqlanadi.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil qilish jarayonida “taqsimlash balansi” va “topshirish hujjati”ning ahamiyati juda katta, chunki u qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o‘zidan oldingisiga nisbatan bo‘lgan munosabatlarida, xususan berilgan mol-mulkka egalik huquqining tarkibi va hajmiga huquqiy vorislikni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Taqsimlash balansi va topshirish hujjati, kimga, ayni qaysi huquq va majburiyatlar o‘tishi kerakligini aniq belgilab berishi zarur. Bu hujjatlarda qayta tashkil qilingan yuridik shaxs majburiyatlarining butun majmuini, shu bilan bir qatorda bajarish muddati kelmagan, qayta tashkil qilingan shaxs bahslashayotgan majburiyatlarni ham kiritish, qayd etish kerak.

Taqsimlash balansi va topshirish hujjati qayta tashkil qilish haqida qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan albatta tasdiqlanib, tegishli hujjatlar bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun havola qilinadi. Bular qayta tashkil qilingan shaxsning ta‘sischilari, yoki uni yaxshi biladigan (o‘z xohishi bilan qayta tashkil qilishda), yoki vakolatli davlat organi (qonunda ko‘zda tutilgan, majburiy tashkil qilish hollarida) bo‘lishi mumkin. Ushbu qoidalarga rioya qilinishi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquqiy munosabatlariga to‘la aniqlik kiritib, yuridik shaxsni qayta tashkil qilish jarayonida kreditorlarining manfaatlarini ko‘zda tutib, ularning talablarni yo‘qolib ketmasligi uchun o‘rnatilgan.

Taqsimlash balansi bo‘yicha mol-mulkka kelib qo‘shilishi (aktiv) yoki undan chiqib ketishi (passiv) mumkin bo‘lgan qismlari, shuningdek joriy yilda yuridik shaxsdan topshirgunga qadar bo‘lgan muddat davomida olingan daromadlar va ko‘rilgan zararlar ham hisobga olingan holda topshiriladi. Asosiy va oborotdagi mablag‘lar ularni topshirish haqida qaysi chorakda qaror qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha chorakning moliyaviy rejasi ko‘rsatilgan miqdorda topshiriladi. Topshirish haqida qaror qabul qilingandan keyin ularni o‘zgartirish mumkin emas. Qaror qabul qilingandan keyin o‘zlashtirilgan asosiy va oborotdagi mablag‘lar ularni qabul qilib oluvchi tarafga qaytarib berilishi lozim.

Topshiriladigan mol-mulk inventarizatsiya qilinadi va bu topshirish hujjatida yoki taqsimlash balansida ko‘rsatib qo‘yiladi.

Qayta tashkil qilish vaqtida qayta tashkil qilinayotgan korxonaga ega bo'lgan debitor va kreditorlik qarzlarning butun miqdori (shu jumladan, sotib oluvchi va ta'minotchilarning ish haqi bo'yicha qarzlari, hisob beruvchi shaxslardan, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha), taqsimlash balansi yoki topshirish hujjatiga muvofiq, uning huquqiy vorislariga o'tadi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil qiluvchi fuqarolik huquq va majburiyatlar yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Ushbu huquq va majburiyatlarni nafaqat vujudga kelishi, shuningdek ularning o'zgartirilishi va bekor bo'lishi ham qonun va boshqa huquqiy hujjatlarga asosan yuridik faktlar bilan bog'liqdir. Fuqarolik Kodeksining 8-moddasida amaliyotda uchrab turadigan yuridik faktlar inobatga olingan holda, fuqarolik huquq va burchlarning vujudga keltirish asoslari berilgan.

Qayta tashkil etish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan huquq va majburiyatlarning yangidan vujudga kelgan yuridik shaxs(huquqiy voris)ga o'tishi masalasi mukammal o'rganilishi lozim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Ma'lumki, huquqiy munosabatlar ularning vujudga kelishidan boshlanib, uning bekor qilinishi bilan tugaydi. Mana shu chegara oralig'ida huquqiy munosabatlar yuzaga keladi, harakatda bo'ladi. Bu harakat davomida huquqiy munosabatlar mazmun jihatdan o'zgarsada, o'zining ayrim xususiyatlarini saqlab qolgan holda mavjud bo'ladi va davom etadi.

Huquqiy munosabatlarda majburiyatga ega bo'lgan subyektlarning o'zgarishi kreditor almashganda (huquq subyekti), qarzdor almashinuvida (fuqarolik huquqiy majburiyatlar subyekti) ro'y beradi, shuningdek subyektning ikki yoqlama majburiyatlarda ishtirok etishi, ya'ni bir vaqtning o'zida ham kreditor ham qarzdor bo'lishi mumkin. Demak, huquqiy munosabat doirasida yuridik shaxslarning vujudga kelishi yoki bekor bo'lishigina emas balki, mavjud davr oralig'ida tarkib jihatdan yuzaga keladigan o'zgarishlarni (qayta tashkil etish) ham hisobga olishga to'g'ri keladi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida asosiy e'tibor huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi va bekor bo'lishiga qaratilib, huquqiy

munosabatlarning o'zgarishi hamda qayta tashkil etish to'g'risida, ayniqsa huquqiy vorislik bilan uzviy bog'liq bo'lgan masalalar kam tadqiq qilingan muammolardan bo'lib hisoblanadi. Huquqiy vorislik bu subyektiv huquqning bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o'tishidir. Huquq beruvchidan huquqiy voris (subyekt)ga subyektiv huquqning berilishi natijasida huquqiy munosabatlarda o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, huquqning bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tishida, dastlabki huquq subyektning huquq va majburiyatlari hamda unga nisbatan qo'yilgan talablar bilan birgalikda o'tadi. SHuning uchun, huquqiy vorislik ko'lamini qo'llash keng va ko'p qirralidir. Huquqiy munosabatlar subyektini tarkibini o'zgartirishda har doim huquq bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o'tadi. Bunda eski va yangi huquqiy munosabatlar o'rtasida aloqa o'rnatiladi.

Huquqiy vorislik yuridik shaxsni qayta tashkil etishda kelib chiqadi, qayta tashkil etishda yuridik shaxs o'zining huquqiy vorislari timsolida mavjud bo'ladi va harakat qiladi. Bu qayta tashkil etilgan yuridik shaxs kreditorlari uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilib, huquqiy vorislik kelib chiqqan holatda fuqarolik-huquqiy tartibga solishning vazifalari qo'yidagi zaruratlardan kelib chiqadi:

1) Barcha huquq va majburiyatlarni to'liq yuklash, qayta tashkil etilgan yuridik shaxs faoliyatini, uning huquqiy vorisiga o'tishi;

2) Bu majburiyatlarni va ular buzilganligi uchun javobgarlikni qayta tashkil etilgan yuridik shaxs huquqiy vorislariga, uning faoliyati qanday bo'lingan bo'lsa, shunday aniqlikda bo'lib berish;

3) Kreditorlarga qayta tashkil etilgan yuridik shaxs majburiyatlari oldida majburiyatli va javobgar bo'lgan uning huquqiy vorislarini topishni engillashtirish. Bunday tadbirlar zoya ketgan taqdirda, barcha huquqiy vorislarga nisbatan solidar javobgarlikni qo'llash lozim.

Huquqning ijtimoiy ahamiyati ham shundan iborat, ya'ni fuqarolik muomalasida barqarorlik bo'lishi zurrur. Bunday sifatlarga faqat mustahkam qonunchilik tufayligina erishish mumkin bo'ladi. Bu esa tegishli ravishda huquqiy munosabatlar subyektlarining mustaqilligini, qayta tashkil etish holatida tomonlarning o'zgarishi, korxonaga huquq va

majburiyatlarning o'tishi bilan ular faoliyatini davom ettirishi huquqiy vorislik bilan aniqlashtiriladi. (O'zR FKning 50-moddasi) Fuqarolik kodeksining 82-moddasiga ko'ra dastlabki xuquq subyektiga tegishli bo'lgan "fuqarolik huquqlarining ob'ektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkin".

Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, huquqiy vorislik umumiy (universal) va qisman (singulyar) turlarga ajratiladi. Universal huquqiy vorislikda ma'lum huquq va majburiyatlarning jami o'tadi. Masalan, bir necha yuridik shaxslar qo'shib yuborilganda, yangi tashkil bo'lgan yuridik shaxsga universal vorislik tartibida oldingilarning barcha huquq va majburiyatlari o'tadi. Universal huquqiy vorislikning predmetini huquqni qabul qilib oluvchi (yangi huquq subyektiga) o'tadigan huquq va majburiyatlar yig'indisi tashkil qiladi.

Huquqiy vorislik o'z ichiga muayyan huquq va majburiyatlarni qamrab oladi. Huquqiy vorisga ma'lum huquq va majburiyatlar majmuasini berish bilan birga ma'lum shaxsda mavjud bo'lgan huquq va majburiyatlar yig'indisining o'tishi, ya'ni universal huquqiy vorislik muhim o'rin egallaydi. U o'zining tub mohiyatiga ko'ra singulyar (qisman) huquqiy vorislik, ya'ni huquq va majburiyatlar bir qismining huquqiy vorisligidan farq qiladi.

Universal huquqiy vorislikda shaxs huquq va majburiyatlari yig'indisi sifatida, unga tegishli bo'lgan molmulk huquqiy vorisga yoki huquqiy vorislarga to'liq ravishda o'tadi. Ya'ni, mol mulk bir korxonadan ikkinchisiga o'tganda mulk bilan birga qayta tashkil etilgan korxonada zimmasidagi huquq va majburiyatlar yuklanadi. Ayni shunday holatlar universal huquqiy vorislik holatlariga taalluqli bo'lib, bunda huquq subyektivligining to'liq vorisligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Fuqarolik kodeksining 51-moddasini quyidagicha tartibda ham sharhlash mumkin: ya'ni, yuridik shaxs qayta tashkil etilishi natijasida yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsning mulkka oid huquq va majburiyatlarini o'tish vaqti uning muassislari yoki qayta tashkil etish



to'g'risida qaror qabul qilgan organ tomondan topshirish hujjati va taqsimlash balansida imzolangan va tasdiqlangan sana hisoblanadi.

Topshirish hujjati bilan taqsimlash balansini ular yuridik tabiati va mazmuniga ko'ra korxonaning ustavi va nizomiga tenglashtirish mumkin. SHuning uchun qayta tashkil etishda topshirish hujjati yoki taqsimlash balansi tuzilgunga qadar inventarizatsiya dalolatnomasi, buxgalteriya balansi, mustaqil auditorning korxonalar tarkibi va mol-mulki to'g'risidagi xulosasini, shuningdek kreditorlar, ular qo'yayotgan talablar xususiyati, miqdori va muddatlari ko'rsatilgan holda korxonalar tarkibiga kiritilgan barcha qarz (majburiyat)lar ro'yxatini tomonlar tuzgan va ko'rib chiqqan bo'lishi kerak.

Lekin taqsimlash balansi va topshirish hujjatini nizosiz hujjat deb bo'lmaydi. Bunday holatlar yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar sud tartibida hal etiladi.

Ko'rib chiqilayotgan qayta tashkil etish va huquqiy vorislik to'g'risidagi normalar tushunchalari vaqtga va mazmuniga chambarchas bog'liqlikda tahlil qilinishi lozim. Birinchidan, hech kim topshirish hujjati va taqsimlash balansini tasdiqlovchi yuridik shaxs muassisi (ishtirokchisi)ning qayta tashkil etish haqidagi qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtigacha cheklab qo'ya olmaydi. Muassisning bu huquqi qonunga zid bo'lmaydi va qayta tashkil etishning huquqiy tabiatiga to'liq to'g'ri keladi; ikkinchidan, agar topshirish hujjati va taqsimlash balansida yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalar bo'lmasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilishi mumkin. Shunday qilib, Fuqarolik kodeksida huquqiy vorislik ob'ektini aniqlashda qonun chiqaruvchini yondashishiga e'tiborni qaratish kerak.

Qayta tashkil etilgan korxonalar huquqiy vorislari universal huquqiy voris bo'ladilar, bu haqda topshirish hujjati va taqsimlash balansida qayd etilgan yoki etilmagan bo'lsada, ular huquq va majburiyatlarni o'z zimmlariga oladilar. Demak, vorislik huquqining mazmunini mol-mulkni topshirish hujjati va uni taqsimlash balansi tashkil etadi.

Har bir huquqiy voris mulkdor yoki tadbirkorlik yuritish, operativ boshqarish tarzida o‘tuvchi molmulk tarkibi (mulkiy huquq va majburiyatlar), mulkdor yoki ular tomonidan vakil etilgan organ tomonidan belgilanib, taqsimlash balansi va topshirish hujjati orqali aniqlashtiriladi. Xuddi shunday tartibda mulkiy huquqlarning o‘tish payti belgilanadi. Berilayotgan molmulk tarkibiga kiruvchi alohida ob’ektlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar, mulkdorlar tomonidan mazkur hujjatlar asosida hal etiladi.

Singulyar tartibda vorislarga huquqning belgilangan ma’lum qismi o‘tishi mumkin. Singulyar vorislik yuridik shaxsni qayta tashkil qilishda istisno sifatida qo‘llanishi mumkin.

Huquqiy munosabatlarda ishtirokchilarning almashinishi, ayniqsa majburiyatda shaxslarning o‘zgarishi, protsessual huquqiy vorislikka yoki boshqa protsessual oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar sudda tadbirkorlik nizolarini hal qilishda bir tomonning o‘rniga boshqa tomonning protsessda ishtirok etishi lozim bo‘lsa, ya’ni nizolashayotgan tarafni aniqlab javobgarlik choralarini qo‘llashda protsessual huquqiy vorislik muhim o‘rin tutadi.

Amaldagi qonunchilikka, xususan, O‘zbekiston Respublikasi IPKning 46-moddasiga muvofiq, **protsessual huquqiy vorislik** taraflardan biri nizoli yoki sud hujjati bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan chiqib ketgan hollarda (yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o‘tkazilishi, fuqaroning o‘limi va majburiyatlardagi shaxslar o‘zgarishining boshqa hollarida) sud bu tarafni uning huquqiy vorisi bilan almashtiradi.

Huquqiy vorislik iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin.

Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi.

Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Taraf huquqiy voris bilan almashtirilganidan keyin iqtisodiy sud ishlarini yuritish almashtirish amalga oshirilgan bosqichning o'zidan davom ettiriladi.

Huquqiy voris ishga kirishguniga qadar sud protsessida amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o'rni bo'shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, huquqiy voris uchun ham shu darajada majburiy bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, huquqiy vorislik uchun u protsessga kirishgunga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorislarga o'rni bo'shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, protsessdagi huquqiy vorisga ham shu darajada majburiydir.

Fuqarolik kodeksining 52-moddasida "yuridik shaxs qayta tashkil etilganida kreditorlar huquqlarining kafolatlari"ga alohida e'tibor berilgan. Chunki yuridik shaxs bo'lingach, yoki ajralib chiqqach ular mulkiy jihatdan zaif bo'lgan vorisga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Qo'shib olish yoki qo'shib yuborish kreditorlar sonining ko'payishiga olib keladi. Bu esa kreditorlarga xavf soladi, qarzdor mulki ko'paymasligi, balki qarz ustiga qarz qo'shilishi mumkin. SHu sababli ham qonun qayta tashkil qilish to'grisida qaror qabul qilgan shaxslar va organlardan bu haqda barcha kreditorlarni yozma ravishda xabardor qilishlarini talab qiladi.

O'zgartirish natijasida tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirilishi yuridik shaxs qatnashchilari (ishtirokchilari)ga o'z kreditorlari oldidagi qo'shimcha mas'uliyatining barham berilishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi davrda halq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar jarayonida qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklini amaliyotda keng qo'llanilayotgani fikrimizning asosli ekanligidan dalolatdir.

Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirishda, yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning bo'linish (ajralib chiqish) va qo'shib olish (qo'shib yuborish) kabi shakllarida uchragandek, yuridik shaxsning soni ortib yoki kamaymasada, ushbu yuridik shaxs huquqiy holati (tashkiliy-huquqiy shakli) da mavjud o'zgartirishlar sodir bo'ladi. Bunda mulk shakllari ham o'zgartirilishi mumkin.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilsa, qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor qilishlari shart ekanligi Fuqarolik kodeksining 52-moddasi 1-bandida o'z ifodasini topgan. Bu qoidalar qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxs kreditorlarining manfaatlarini huquqiy kafolatlaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, yuridik shaxs mustaqil tarzda mulk tarkibi mutanosibligi va mexanizmini aniqlashtirishi, shuningdek tegishli ma'lumotlarni topshirish hujjati yoki taqsimlash balansida aniq aks ettirishi lozim.

Qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning xabar berishi, o'z o'rnida kreditorga shu yuridik shaxsning qarzdor bo'lishiga olib kelgan majburiyatlarini bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni hamda zararni to'lashni talab qilishga imkon beradi. Lekin shunday holatlar ham uchrab turadiki, bir yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, uning zimmasidagi majburiyatlari uchun mas'ul bo'lgan shaxs topilmasligi mumkin. Bunda kreditor qayta tashkil etishning ma'lum bir omillar bilan emas, tegishli talablarni aniq sabablar bilan asoslashi darkor. Shuningdek, qayta tashkil etish natijasida belgilangan faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqiga ruxsat ololmasligi munosabati bilan qarzdor tomonidan majburiyat bajarish imkoniyati bo'lmaslik holatlari ham bo'lishi mumkin.

Kreditorlarning talablari xuddi shu yuridik shaxsning qayta tashkil etilishiga nisbatan qo'llanib, qayta tashkil etishni olib borish faktiga asoslanadi. Shunday ekan, qayta tashkil etishni tomonlarning talabini qondirish paytigacha amalga oshirilmasligi yoki uni rad etilishiga olib kelishi mumkin (xususan, sud tartibi).

Yuridik shaxs kreditorlari tegishli arizasining muddati haqida gapirar ekanmiz, aytib o'tilgan kreditor talablari taqsimlash balansi (topshirish hujjati) tasdiqlanishi vaqtigacha ko'rib chiqish uchun so'zsiz qabul qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligida bunday holatlar uchun quyidagicha qoida belgilangan. Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini (huquq va majburiyatlar olgan yuridik shaxs)ni aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qaytadan tashkil etilgan yuridik

shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyati bo'yicha solidar javobgar bo'ladilar.

Haqiqatdan ham, ba'zida yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, ayniqsa ketma-ket ikki-uchga bo'linishida, mazkur qarz universal huquqiy vorislarning qaysi biriga o'tganligini aniqlash qiyin kechadi. Mazkur holat bo'yicha Fuqarolik kodeksining 251-moddasida belgilangan qoida qo'llaniladi. Agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib ko'zda tutilmasa, har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda bajarishni talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.

Qayta tashkil etish jarayonida vujudga kelgan yuridik shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari bo'yicha solidar javobgarligini belgilovchi qoidalar Fuqarolik kodeksining 252, 253, 254, 255-moddalarida ham o'z aksini topgan.

Agar kreditor bu qoidalardan foydalanmasa, qayta tashkil qilingan yuridik shaxs o'rniga boshqa, ya'ni topshirish hujjati yoki taqsimlash balansiga ko'ra aniqlangan huquqiy voris yangi yuridik shaxsga o'tib qoladi. Shu sababli yuqoridagi hujjatlarning tegishli shaxs va organlar tomonidan tasdiqlanganidan keyin ular yangi paydo bo'lgan yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga qo'shib davlat ro'yxatidan o'tkazishga taqdim qilinadi. Bu hujjatlar taqdim etilmasa yoki hujjatlarda qayta tashkil etilgan yuridik shaxs huquq va majburiyatlariga nisbatan huquqiy vorislikka oid qoidalar aks etmagan bo'lsa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etiladi. Bu ham kreditorlar manfaatini himoya qiluvchi qoidalardan biri sanaladi.

Yuridik shaxsni qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan ta'sischi yoki organ, bu haqda uning kreditorlarini yozma ravishda xabardor etishlari kerak. Bu bildirishnomani olgan har bir kreditor, qayta tashkil qilingan yuridik shaxs qarzdor bo'lgan majburiyatlarini bajarilishini talab qilishga, shuningdek, majburiyatlarni muddatidan ilgari bajarish tufayli yuzaga kelgan zararni undirish huquqiga egadir. Ayniqsa, yuridik shaxsni qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan

organning majburiyatini belgilash zarur. U soliq organlariga bu haqda 10 kun ichida xabar qilishi kerak.

Agarda soliq organi, bildirishga qaramasdan qayta tashkil qilish muddati tugaguncha va taqsimlash balansi (topshirish hujjati) tuzilguncha qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxsning to'lanmay qolgan qarzlarini aniqlamas ekan, keyinchalik yangi tashkil etilgan yuridik shaxsga qayta tashkil qilingan yuridik shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan va yangi yuridik shaxs tashkil qilingandan keyin aniqlangan soliq qonunlarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilmaydi. Bunday hollarda yangi yuridik shaxsdan soliq qiymatigina undirib olinadi.

Masalan, agar yuridik shaxsning molmulki, uning qayta tashkil etilishi natijasida boshqasiga o'tayotgan bo'lsa, topshirish hujjati va taqsimlash balansida boshqa kreditorlar odidagi majburiyatlarni bajarilishi singari soliq to'lash majburiyati ham bayon qilinishi kerak. Bunda soliq to'lash majburiyatini huquqiy vorislik ob'ekti deyish mumkin. U qonun kuchi bilan vujudga keladi va qayta tashkil etish paytida mavjud bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida, korxonalar mulkdori almashgan, korxonalar qayta tashkil etilgan, idoraviy bo'ysunuvi o'zgargan hollarda mehnat shartnomasi amal qilishining davom etishi haqidagi qoidalar belgilangan. Bunda "korxonalar mulkdori almashganda, xuddi shuningdek korxonalar qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborilgan, birlashtirilgan, bo'lib yuborilgan, qayta tuzilgan, ajratilganda) mehnat munosabatlari xodimning roziligi bilan davom etaveradi". ( O'zR. MKning 98-modda 1 -qism.)

Korxonalar egasi almashganda, ya'ni korxonalar qayta tashkil etilganda xodimning roziligi bilan bo'lgan munosabat davom etadi. Ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasining to'xtatilishi ish o'rinlarining qisqarishi natijasida amalga oshirilishi mumkin.

Amaliyotda korxonalar mulkdori almashganda, korxonalar qayta tashkil etilganda xodim bilan ish beruvchi o'rtasida har xil kelishmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1015-moddasida "hayot va sog'liqqa etkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs qayta tuzilgan taqdirda,

tegishli to'lovlarni to'lash majburiyati uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklanishi hamda zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi talabnoma ham unga taqdim etilishi" mustahkamlangan. Amaliyotda "qayta tashkil etish" tushunchasini faoliyat yuritayotgan barcha tadbirkorlik yurituvchi subyektlarga nisbatan qo'llay olmaymiz. Masalan, Fuqarolik kodeksining 67-moddasi mazmuniga muvofiq, asosiy tadbirkorlik jamiyati va shirkati sho'ba tadbirkorlik jamiyatining ustav fondida unga nisbatan ustunlik mavqeiga ega bo'ladi. Vaholanki, sho'ba jamiyati yuridik shaxs hisoblansada, o'zi mustaqil qarorlar qabul qila olmasligi uchun qayta tashkil etish taomilini qo'llab bo'lmaydi.

Shuningdek, korxonada bir yoki bir necha tarkibiy bo'linmalarning barpo etish yo'li bilan yangi korxonada tashkil etilmaydi, chunki qayta tashkil etish jarayonining subyekti yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxonada sanaladi.

Xususiy tadbirkor jismoniy shaxs ham qayta tashkil etilmaydi. Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan holatlarda tadbirkorlik faoliyati tugatish yo'li bilan to'xtatiladi.

Korxonani qayta tashkil etishdan uning predmet va faoliyatini o'zgartirishni farqlash zarur. Bunda u korxonada mulkdori (ta'sischi) tomonidan mavjud bo'lgan yuridik shaxsi doirasida amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyati Ustav fondining o'zgarishi korxonaning qayta tashkil etilishini anglatmaydi.

Bugungi kunda yangi qonuning 5-moddasiga o'zgartirish kiritildi va aksionerlik jamiyatining shakllari tugatildi. 2014 yil 6 may, O'RQ-370-son. Ushbu Qonun «Xalq so'zi» gazetasining 2014 yil 7 maydagi 88 (6018)-sonida e'lon qilingan.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil etish yoki tugatish to'grisida fikr yuritgan huquqshunos olimlar har qanday vaziyatda bo'lmasin, yuridik shaxs faoliyatini bekor qilishga olib keluvchi bu ikki tartib haqida so'z yuritadigan bo'lsalar, albatta ularning har birini alohida eslab o'tadilar. Demak, bu ikki yuridik fakt yuridik shaxsning faoliyat yuritishiga u yoki bu darajada ta'sir etishi tufayli bir-biri bilan bogliq jihatlarga ega.

Qayta tashkil etish institutini tadbirkorlik yuritish amaliyotida qo'llash yordamida: birinchidan, fuqarolik muomalasining barqarorligi

saqlanib qoladi; ikkinchidan barcha huquq va majburiyatlar majmuining huquqiy vorisligi ta'minlanadi; uchinchidan, shartnomaviy va tadbirkorlik aloqalari erkinligi ta'min etiladi; to'rtinchidan, kreditorlar huquqlari maksimal darajada kafolatlanadi; beshinchidan, qo'shimcha soliq to'lash zarurati yo'qoladi; oltinchidan, vaqtinchalik xarajatlar qisqaradi; ettinchidan, ayniqsa qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklini qo'llash samarasining yuqoriligi shundaki unda ishlab chiqarish kapitali, moddiy vositalar, asosiy va oborotdagi fondlar to'liq saqlanib qoladi.

## **2. Tadbirkorlik huquqi subyektlarini tugatish tartibi va asoslari**

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi davrida turli mulk shakllarining mavjudligi tadbirkorlik yuritishning ham har xil ko'rinishlarini vujudga keltirib, tadbirkorlik yurituvchi subyektlar faoliyatiga alohida e'tibor berishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, tadbirkorlik yuritish subyektlarining samarasiz faoliyat yuritishi davlat va jamiyat manfaatlariga sezilarli zarar keltiradi. Har qanday davlat va jamiyat o'z hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining yaxshi ishlashi tarafdoridir. Xususan, Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov *“eng avvalo, istiqbolsiz korxonalar va tashkilotlarni har qanday yo'l bilan bo'lsada, qo'llab-quvvatlashdek xato yo'lga barham berish zarurligini va bu yo'l bozor talabiga mutlaqo yot va ziddir. Samarasiz ishlaydigan korxonalar karzdorlik girdobiga faqat o'zlari garq bo'libgina qolmay, boshqa korxonalarini ham ortidan tortib ketadi”* deb ta'kidlagan edi. To'g'ri, bunday holat albatta achinarli, lekin undan qutilib bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, yuridik shaxsni tugatish masalasi haqiqatdan dolzarb mavzu bo'lib bormoqda.

Ushbu vaziyatga mamlakatimizda to'g'ri baho berilib, qonunda belgilangan tartib asosida hal qilish uchun maxsus qonun me'yorlari va chora tadbirlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining normalari yuridik shaxslarni tugatishning fuqarolikhuquqiy tartibga solinishini to'liq mujassamlashtirgan asosiy huquqiy hujjat bo'lsa, shu singari mustaqillikka erishganimizdan buyon qabul qilingan qishloq tadbirkorlik korxonalarini faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarda



esa yuridik shaxsni tugatishda mazkur sohaning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib huquq normalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxslarni ikki xil usulda tugatilishi belgilangan.

Birinchisi ixtiyoriy usul bo'lib, u muassislar (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq;

- yuridik shaxsning faoliyat yuritish muddatining tugashi;
- uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan;

- yuridik shaxsni tashkil etish chogida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo'lmasa, sud yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb topganda;

- muassislar (ishtirokchilar) yoki yuridik shaxs organi tomonidan tashkilotni tugatish uchun etarli bo'lgan boshqa sabablarni tan olishi bilan;

Ikkinchisi majburiy usulda sud qarori bo'yicha:

- faoliyatni tegishli ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirish;

- qonun tomonidan ta'qiqlab qo'yilgan faoliyatni amalga oshirgan yoki qonun yoki huquqiy aktlarni bir necha marta va qo'pol ravishda buzish holatlarida;

- Fuqarolik Kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq ;

- Bozor munosabatlari mamlakat iqtisodiyotiga qanchalik chuqurroq kirib kelishi o'z faoliyatini samarasiz olib borayotgan yuridik shaxslarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. SHu sababli 6 oy mobaynida (savdo vositachilik korxonasi esa uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo'yicha pul operatsiyalarini o'tkazish bilan bog'liq moliyatadbirkorlik faoliyatini amalga oshirilmagan, (dehqon va fermer tadbirkorliklari bundan mustasno) va (yoki) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil ichida ustav fondi ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan

miqdorda shakllantirilmagan taqdirda, ham uning tugatilishiga olib kelishi haqidagi norma Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yildi.

Yuridik shaxsni tugatish – murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi ish hisoblanadi. Shuning uchun yuridik shaxsni tugatish jarayoni bir necha bosqichni o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxs uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan tugatilishi mumkin. Odatda muassislar ham ishtirokchilar ham o'z ixtiyorlari bilan har qanday vaqtda tugatish to'grisidagi qarorni qabul qilishlari mumkin. Bu ularga berilgan huquqdir. Lekin shu bilan birgalikda tugatish to'grisidagi qaror qabul qilish ular uchun burchni ham keltirib chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sud tartibida tugatish ikki asosda umumiy va maxsus asoslarda amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Umumiy asos barcha turdagi yuridik shaxslarga, maxsus asos esa alohida turdagi yuridik shaxslar uchun taalluqlidir. Umumiy asoslarga ko'ra o'z faoliyatini ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirayotgan yoki qonun tomonidan ta'qiqlangan faoliyat bilan shugullanayotgan yuridik shaxslarga nisbatan yoki Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq qo'llaniladi.

Maxsus asosga ko'ra tugatiladigan alohida turdagi yuridik shaxslar qatoriga O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan o'z huquqiy maqomini olib, maxsus xuquq layoqatiga ega bo'lgan qishloq tadbirkorlik korxonalari kiradi. Odatda, har bir qishloq tadbirkorlik korxonasining huquqiy maqomini o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Masalan, fermer xo'jaligi: tadbirkorlik faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan bironta ham tadbirkorlik a'zosi yoki merosxo'r qolmagan bo'lsa; er uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda; er uchastkasining ijaraga berilgan muddati tugaganda va erdan foydalanish huquqini tiklashning imkoniyati bo'lmaganda; erdan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanilmaganda, olingan hosildorlik normativ kadastr bahosidan muttasil (uch yil maboynida) past bo'lganda; erlarning ekologik holati yomonlashganda; er uchastkasi belgilangan tartibda olib qo'yilganda; fermer xo'jaligi bankrot deb e'lon qilinganda; ijara haqi

belgilangan muddatlarda muttasil to‘lanmay kelinganda; fermer xo‘jaligi er olgan paytdan e‘tiboran bir yil mobaynida tadbirkorlik ishlab chiqarish faoliyatiga kirishmagan bo‘lsa; fermer tadbirkorliklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki bir marta, lekin qo‘pol ravishda buzilganda; shartnoma shartlari buzilganligi munosabati bilan erni ijaraga olish shartnomasi bekor qilingan hollarda tugatiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘grisida” gi qonunida 11 ta asosda fermer xo‘jaligining faoliyati to‘xtatilsa, dehqon xo‘jaligi faoliyatini tugatish (faoliyatini to‘xtatish) asoslar 6 ta qilib ko‘rsatilgan.

“Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasiga binoan, dehqon xo‘jaligi quyidagi, ya‘ni: tadbirkorlik faoliyatini davom ettirish istagida bo‘lgan bironta ham tadbirkorlik a‘zosi yoki merosxo‘r qolmagan bo‘lsa; tomorqa er uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda; tomorqa er uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo‘yilganda; belgilangan soliqlar muttasil to‘lanmaganda; agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa, yangi berilgan tomorqa er uchastkasidan bir yil mobaynida foydalanishga kirishmagan taqdirda; dehqon tadbirkorliklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki bir marta, lekin qo‘pol ravishda buzilgan hollarda tugatiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishini inobatga olgan holda, agar yuridik shaxs tashkil etib, faoliyat olib borayotgan bo‘lsa, uning faoliyati tugatiladi. Yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotganda esa dehqon tadbirkorliklarining faoliyati to‘xtatiladi. Yuqorida to‘xtalib o‘tganimizdek, bozor sharoitida yuridik shaxslarning faoliyatini to‘xtatish va tugatish shartlari va usullari har xildir.

Tadbirkorlik faoliyatini subyekt sifatida mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha ma‘suliyatli jamiyatlar fuqarolik huquqiy maqomiga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining «Mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘grisida» gi Qonunda jamiyatni

tashkil etilishi, faoliyat olib borishi va tugatilishi to'g'risidagi qoidalar belgilangan. Ushbu subyekt Qonun va jamiyat ustavi talablarini hisobga olgan holda qonunlarda belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda tugatilishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin. Jamiyatni tugatish uning huquqlari va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda faoliyatining tugatilishiga sabab bo'ladi. Jamiyat ishtirokchilari umumiy yigilishining jamiyatni ixtiyoriy ravishda tugatish hamda tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi qarori jamiyat kuzatuv kengashining, ijro etuvchi organining yoki ishtirokchisining taklifiga binoan qabul qilinadi. Ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yigilishi jamiyatni tugatish va yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e'tiboran jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi. Tugatish komissiyasi tugatilayotgan jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan jamiyatni tugatishda tugatish komissiyasining tarkibiga davlat mulkini boshqaruvchi organning vakili kiritiladi. Mazkur talab bajarilmagan taqdirda, jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazgan organ tugatish komissiyasi tayinlanishiga rozilik berishga haqli emas.

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik shirkatlari tadbirkorlik faoliyati subyektlari tarkibida alohida o'rin tutadi. Uning huquqiy maqomi Fuqarolik kodeksi va «Xujalik shirkatlari to'g'risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti tadbirkorlik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar. Shirkat qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, shuningdek shirkatda yagona ishtirokchi qolgan taqdirda tugatiladi. Bunday ishtirokchi shirkatning yagona ishtirokchisiga aylangan paytdan e'tiboran olti oy ichida yangi ishtirokchilarni qabul qilishga va shirkatni

saqlab qolishga, shirkat tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatni moliyalashtirish to'grisida hissa qo'shuvchilar bilan shartnoma tuzishga va kommandit shirkat tuzishga, shirkatni qayta tuzish yoki tugatishga haqlidir.

Agar shirkatning ta'sis shartnomasida yoki qolgan ishtirokchilarning kelishuvida shirkat o'z faoliyatini davom ettirishi nazarda tutilgan bo'lmasa, shirkat qayd etilgan Qonun 22-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan hollarda ham tugatiladi. Tadbirkorlik shirkatlarining tashkiliy shakllaridan biri bo'lib kommandit shirkat hisoblanadi. Kommandit shirkat unda ishtirok etgan barcha hissa qo'shuvchilar shirkatdan chiqqan taqdirda, shuningdek «Xujalik shirkatlari to'grisida»gi Qonun 27-moddasida nazarda tutilgan to'liq shirkatni tugatish asoslari bo'yicha tugatiladi. Barcha hissa qo'shuvchilar shirkatdan chiqqan taqdirda to'liq sheriklar kommandit shirkatni tugatish o'rniga uni to'liq shirkatga aylantirishga haqlidirlar. Kommandit shirkat tugatilgan taqdirda, shu jumladan u bankrot bo'lgan taqdirda, hissa qo'shuvchilar shirkatning kreditorlarning talablari qondirilganidan keyin qoladigan molmulkidan hissalar olishda to'liq sheriklar oldida imtiyozli huquqqa egadirlar. Shirkatning shundan keyin qolgan molmulki to'liq sheriklar o'rtasida, agar ta'sis shartnomasida yoki to'liq sheriklar va hissa qo'shuvchilarning kelishuvida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, ularning shirkat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Yuridik shaxsni tugatilishini oshkoralikda amalga oshirish tugatish jarayoni huquqiy jihatdan aniq va kamchiliklarsiz yakunlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi FKning 54-moddasiga ko'ra, yuridik shaxsni tugatish to'grisidagi qaror qabul qilgan uning muassislari va ishtirokchilari yoki vakolat berilgan organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga yozma tartibda xabar berishlari lozim. Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ mana shu xabarga asosan yuridik shaxs tugatilish jarayonida ekanligi haqidagi ma'lumotlarni yagona davlat reestriga kiritadi. Ma'lumotlar kiritilgandan so'ng yuridik shaxsning firma nomiga albatta "tugatilishda" degan so'z qo'shib qo'yiladi.

Bundan tashqari, bu haqda soliq organlarini ham xabardor qilib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, har qanday tadbirkorlik yurituvchi subyekt tashkil etilgan paytda soliq to'lovchi sifatida davlat soliq organlarida ro'yxatga olinadi. Soliq kodeksining 41-moddasida yuridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilishi mumkin bo'lib, xabarnomada buning sababi va hisobotlar, taqdim etilishi lozimligi ko'rsatiladi. Yuridik shaxsni tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) besh kunlik muddatda bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi o'n besh kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart. Daromad (foyda) soligi bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi. Shuningdek, korxonaga tugatilganda soliqqa tortish masalalari ma'lum idoraviy yo'riqnoma asosida hal etilishi mumkin. SHu bilan birga yuridik shaxsni tugatilishi to'grisida pensiya fondlari hamda sugurta jamgarmalarini ogohlantirib, o'zlarining hisob raqamlarini yopish choralarini ko'rishi lozim.

Tugatishda mazkur yuridik shaxs faoliyati to'liq bekor qilinib, uning ishi to'xtatiladi va mol-mulki tugatiladi. Bunday holatda tugatish komissiyasi tuziladi. Uning fikriga qisman qo'shilgan holda aytish mumkinki, hozirgi vaqtda tugatish tadbirlarini amalga oshirish maqsadida tugatish komissiyasi tuzilishi yoki shunday harakatlarni bajaruvchi tugatuvchi tayinlanishi o'zining qonuniy asosiga ega. Bu hatti-xarakatlar tugatish to'grisidagi qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda hal qilinadi. Davlat korxonalarini tugatishda tugatish komissiyasi tarkibini iqtisodiy nochorlik bo'yicha boshqarma O'zbekiston Respublikasi tegishli vazirlik va idoralari vakillari, mahalliy ijroiya organlari mutaxassislar va boshqalar tashkil qilishi mumkin. Shunday qilib, qoidaga ko'ra, amaliyotda tugatish komissiyasi tarkibiga muassislar (ishtirokchilar) tugatilayotgan tashkilot ma'muriyati vakillari kiradi.

Shuningdek, ular tugatish komissiyasi yoki tugatuvchining asosiy vazifalarini aniqlashtirish bilan bir vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq tugatish tartibini hamda muddatini belgilab oladilar. Tugatish komissiyasi matbuot organlarida yuridik shaxsning tugatilishi hamda uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddati haqida xabar e’lon qiladi. Kodeksning 55-moddasiga muvofiq bu muddat tugatish haqida xabar e’lon qilingan paytdan boshlab “ikki oydan kam bo‘lishi mumkin emas”. Undan oldin qabul qilingan qonun hujjatlarida esa bu muddat ikki oygacha deb ko‘rsatilar edi. Lekin amaliyotda bir oy ko‘rsatilib e’lon qilinadi. Hozir ham ba’zan matbuotda bir oy ko‘rsatilib xabar qilinadi. SHu bilan kreditorlar tomonidan o‘z talablarini bayon qilish uchun zarur bo‘lgan imkoniyat cheklanadi. “Ikki oydan kam bo‘lishi mumkin emas” deb ko‘rsatilgan Kodeksda o‘rnatilgan imperativ norma kreditorlarning huquqlarini himoya qilish uchun tegishli kafolat yaratishga qaratilgan.

Tugatish komissiyasi tasdiqlangan kundan boshlab yuridik shaxsning ishlarini boshqarish sohasidagi vakolatlari uning ixtiyoriga o‘tadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, mazkur komissiya tugatuvchi mustaqil huquq subyekti bo‘lib hisoblanmaydi. U faqat tugatish jarayonida kreditorlar, qarzdorlar, davlat hokimiyati organlari va boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishib, tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan harakat qiladi.

Tugatish komissiyasi tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan sudda ishtirok etadi. Tugatish komissiyasi tugatilayotgan yuridik shaxs hisob varaqlari ochilgan bankka tugatish komissiyasining ruxsatisiz hisobdan foydalanmaslik to‘grisida ariza yuboradi. Mana shu arizaga ko‘ra bank tugatilayotgan korxonasi hisobi bo‘yicha keyinchalik yuborilayotgan ijro va boshqa hujjatlarni qabul qilishni to‘xtatadi. Tugatish komissiyasi barcha kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarni undirish, shuningdek yuridik shaxs tugatilayotganligi haqida kreditorlarni yozma xabardor qilish choralarini ko‘rish lozim. Debitorlik qarzlarni undirish maqsadida qarzdorlarga talab qo‘yishlari zarur. Agar qarzlarni qaytarish rad qilinsa tegishli da’vo bilan sudga murojaat etish kerak. O‘zbekiston Respublikasi

“Buxgalteriya hisobi to‘grisida”gi qonuning 21- moddasiga muvofiq yuridik shaxs tugatilayotgan taqdirda moliyaviy hisobot tuziladi.

Agarda yuridik shaxs sud tartibida tugatilayotgan bo‘lsa, sud uning muassislari va ishtirokchilari yoki vakolatli organga o‘z burchlarini to‘gri bajarish mas’uliyatini yuklaydi. Ularning burchlari tugatishni sud qarorida belgilangan muddatda va tartibda amalga oshirishi lozim xolos. Lekin sud qarori to‘gri va lozim darajada bajarilmagan bo‘lsa, sud tugatish komissiyasini tuzadi yoki tugatuvchini tayinlab, unga tugatishni amalga oshirish vazifalarini yuklaydi. Masalan, etkazilgan zarar zarar etkazishni davom ettirayotgan korxonada, inshootdan foydalanish yoxud boshqa ishlab chiqarish faoliyatining oqibati bo‘lsa, sud javobgarga zararni qoplashdan tashqari tegishli faoliyatni to‘xtatib turish yoki tugatish majburiyatini yuklashga haqli. (FKning 986-moddasi 2- qismi) Bu chora tadbirlar tugatish jarayonining boshlangich, birinchi bosqichini tashkil etadi.

Tugatish jarayonining avvalida tugatish komissiyasi (tugatuvchi) yuridik shaxsning barcha kreditorlarini aniqlash ishlarini olib boradi. Uning asosiy mazmunini kreditorlarning mavjud talablarini aniqlash va ularni qondirish tashkil etadi. Buning uchun yuridik shaxsni tugatish to‘grisida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki vakolatli organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organga darhol yozma xabar berishi lozim. SHuningdek, yuridik shaxs o‘zining tugatilayotganligi haqida matbuot organlari orqali e‘lon qilib, unda kreditorlari tomonidan talablarini bayon qilish tartibi va muddatini belgilab qo‘yadi. Bu muddat tugatish haqida xabar e‘lon qilingan paytdan boshlab ikki oydan kam bo‘lishi mumkin emas. Yuqorida aytib o‘tilgan ushbu tadbirlar ham avvalo kreditorlar manfaatlarining himoyasiga qaratilgan. Chunki yuridik shaxs tugatilgach, qolgan molmuluk uning ta‘sischilari va a‘zolari o‘rtasida taqsimlanib, ularning xususiy mulkiga aylanishi mumkin.

Kreditorlar talablarini qanoatlantirish tugatishning muhim bir bosqichlaridan hisoblanadi. SHuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 55-moddasida tugatish komissiyasini vazifasi sifatida ikkinchi bosqichda kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarni



olish choralarini ko'rish, shuningdek kreditorlarni yuridik shaxsning tugatilishi haqida yozma xabardor qilishi kerakligi mustahkamlangan. Amaliyotda qarzdorning majburiyatini bajarish muddati boshlanmagan bo'lsa, ular o'rtasida muammo paydo bo'lishi mumkin. Mazkur holatda tugatiluvchi yuridik shaxs o'zining tugatilayotganligini asos qilgan holda, qarzdorlaridan o'z majburiyatlarini bajarishlarini talab qilishga haqli emas. Ular bu majburiyatni tugatish muddatini belgilash chogida hisobga olishlari kerak edi. Mavjud vaziyatdan qutilishning birdanbir yo'li tugatiluvchi yuridik shaxs qarzdori bilan kelishuvga erishib, unga nisbatan qo'yiluvchi talabni boshqa shaxs hisobiga bajarishi haqida kelishuvga erishish mumkin.

Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin yuridik shaxsni tugatish to'grisida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari va ishtirokchilari hamda davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda, tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansini tuzadi. Balansda tugatilayotgan yuridik shaxs molmulkning tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, shuningdek ularni qo'rib chiqish natijalari to'grisidagi ma'lumotlar qayd etiladi. Oraliq tugatish balansini yuridik shaxsni tugatish to'grisida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tomonidan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishgan holda tasdiqlanadi. Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ balansning to'griligini, asoslantirilganligini nazorat qilishi zarur. Agar tugatilayotgan yuridik shaxs (muassasalardan tashqari) ixtiyoridagi pul mablaglari kreditorlarning talablarini qondirish uchun etarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi yuridik shaxsning mol mulkini kim oshdi savdosi orqali sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotadi va qarzlarni to'lash uchun ishlatadi. Ya'ni qarzlarni to'lash bo'yicha kreditorlar talablari endi mazkur yuridik shaxsning mol-mulkiga qaratilishi mumkin. Bu tugatish jarayonining uchinchi bosqichiga xos xususiyatdir.

Agarda oraliq balansini belgilash chogida tugatiluvchi korxonaning molmulki etarli emasligi aniqlansa, bunday yuridik shaxs faqat bankrotlik yo'li bilan tugatiladi. Bankrotlik choratadbirlari majmuasi barcha tijorat

va notijorat tashkilotlari uchun tadbiq etilishi mumkin. Tugatish jarayoni olib borilayotgan vaqtda ham, tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi tomonidan yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) aniqlansa, unga nisbatan bankrot bo'lganlikka doir ish yuritishni qo'zgatishga asos bo'ladi. Uning tugatish jarayonida ekanligi ish yuritishni qo'zgatishga to'sqinlik qila olmaydi. Bankrotlikka uchragan tadbirkorlik yurituvchi subyektlarni tugatish tartibi va xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi 12.04.2022 yildagi O'RQ-763-son qonuni bilan belgilanadi. Ushbu Qonunning 3 moddasiga ko'ra **bankrot** — sudning qaroriga asosan to'lovga qobiliyatsiz deb topilgan va o'ziga nisbatan tugatishga doir ish yuritish yoki mol-mulkini sotish tartib-taomili qo'llaniladigan qarzdor; **to'lovga qobiliyatsizlik** — sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig'implar bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi e'tirof etilgan. Qonunning 5-moddasida To'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini quyidagilardan iboratligi belgilangan:

vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlik — agar tegishli majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa olti oy ichida bajarilmasa, sudga murojaat etish sanasida qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig'implar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi;

doimiy to'lovga qobiliyatsizlik — agar sudga ariza berish sanasidagi va ariza berilgan yilning boshidagi hisobot davrida, agarda ariza yilning birinchi choragida berilgan bo'lsa, o'tgan yilning boshidagi hisobot davrida qarzdorning majburiyatlari uning aktivlari qiymatidan oshib ketgan bo'lsa.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilayotganda, jismoniy shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risidagi ishlar ko'rib chiqilayotganda qo'llanilmaydi.

Kreditorlarni talablarini qondirish navbati O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 56 moddasida belgilangan bo‘lib, *birinchi* navbatda, fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablari qondiriladi. Mazkur qoidani belgilashda mamlakatimizda fuqarolar mehnatini muhofaza qilish va Mehnat kodeksi normalari inobatga olingan. *Ikkinchi* navbatda alimentlarni undirishdan va mualliflik shartnomalari bo‘yicha mukofot to‘lash haqidagi talablar, uchinchi navbatda esa tugatilayotgan yuridik shaxs javobgar bo‘lgan fuqarolarning hayotiga va sogligiga zarar etkazilganligi uchun berilgan talablari tegishli vaqtbay to‘lovlarni kapitallashtirish yo‘li bilan qanoatlantiriladi. Mana shunday hayot va sogliqqa etkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, tegishli to‘lovlar ularni qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga ko‘ra jabrlanuvchiga to‘lash uchun kapitallashtirilishi lozim. Tugatilayotgan yuridik shaxsning molmulki yo‘qligi yoki etarli emasligi sababli to‘lovlarni kapitallashtirish mumkin bo‘lmagan hollarda, belgilangan summalar jabrlanuvchiga davlat tomonidan qonunda nazarda tutilgan tartibda to‘lanadi. (1015 m.) Har bir navbatdagi talab oldingi navbatdagi talablar qanoatlantirilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Boshqa kreditorlarning talablari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qanoatlantiriladi. (O‘z.R. FK 56- modda.) Biz yuqorida qayd etib o‘tgan fuqarolarning talablari to‘liq qondirilgandan keyin, qolgan molmulk quyidagi tartibda taqsimlanadi: birinchidan, shu molmulk qiymatidan sud qarorida kimning talabi birinchi bo‘lib qondirilishi ko‘rsatilgan bo‘lsa, shu kreditorlarning qarzlari to‘lanadi; ikkinchidan, qolgan molmulk qiymatidan talabnoma taqdim etish muddati o‘tib ketgandan so‘ng, berilgan talablar qondirilishi mumkin.

Barcha kreditorlar bilan hisob kitob ishlari nihoyasiga etkazilgandan so‘ng, tugatishning yakunlovchi bosqichi boshlanadi.

Tugatish komissiyasi muassislar va ishtirokchilar bilan kelishib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan tasdiqlangan tugatish balansini tuzadi . Yuridik shaxsning kreditorlari talablari qondirilgandan keyin qolgan molmulk uning shu molmulkka ashyoviy huquqlarga yoki ushbu yuridik shaxsga nisbatan majburiy huquqlarga ega bo‘lgan

muassislariga va ishtirokchilariga topshiriladi. Shundan soʻng yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritilib yuridik shaxsni tugatish tamomlangan, yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati esa tugagan hisoblanadi.

Mazkur yuridik shaxsni tugatish bosqichlari birbiri bilan chambarchas bogliq, biri ikkinchisini toʻldirib boradi. Birontasining toʻgʻri bajarilishiga eʼtibor berilmasa, tugatish jarayonining aniq va izchil amalga oshirilishiga salbiy taʼsir etishi mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Tadbirkorlik subyektini qayta tashkil etish usullarini sanab oʻting.
2. Tadbirkorlik subyektini qayta tashkil etish tartibi nimalardan iborat?
3. Tadbirkorlik subyektini tugatish asoslariga nimalar kiradi?
4. Tadbirkorlik subyektini qachondan boshlab tugatilgan hisoblanadi?

## 4 BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BANKROTLAGI

1. Bankrotlik tushunchasi va uning normativ huquqiy asoslari.
2. Sudgacha sanatsiya qilish, kuzatuv va sud sanatsiyasi.
3. Tashqi boshqaruv.
4. Bankrotlik to`g`risidagi ishni sudda ko`rishga tayyorlash, uni hal etish.
5. Qarzdor yuridik shaxslar ayrim toifalarining bankrotligi xususiyatlari.
6. Yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining xususiyatlari.
7. Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillari.

*Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar*

*Bobni o`zlashtirish uchun testlar*

### 1. Bankrotlik tushunchasi va uning normativ huquqiy asoslari

Bankrotlik, (ital. — singan kursi), sinish — fuqaro, korxon, firma yoki bankning mablag‘i yetishmasligidan o‘z majburiyatlari bo‘yicha qarzlarni to‘lashga qurbi yetmasligi; qarzdorning majburiyatlari mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovar (ishlar, xizmatlar) ga haq to‘lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shuningdek byudjetga va boshqa fondlarga majburiy to‘lovlarni ta‘minlashga qodir emasligi tushuniladi. B., odatda, korxonaning yopilishiga olib keladi. Chunki qarz (kredit) beruvchining talabini qondirish uchun mol-mulkini sotishdan o‘zga chorasi qolmaydi. Iqtisodiy inqirozlar davrida kasodga uchragan korxonalarining soni keskin oshib ketadi, uning oqibatida ishsizlik kuchayadi. Sobiq Ittifoq xalq xo‘jaligida B. tushunchasi NEPdan keyin iste‘moldan chiqib ketgan edi, 1987y.dan e‘tiboran korxonaning to‘lov qobiliyati yo‘qligi tushunchasi amaliyotga kiritildi. B. amalda korxonaning byudjet, bank va mol yetkazib beruvchilar oldida o‘z majburiyatlarini bajarishga ojizligini bildiradi. Bankrot deb e‘lon qilingan korxonalariga nisbatan qator sanatsiya tadbirlari o‘tkaziladi, unga har tomonlama yordam ko‘rsatiladi (soliqlardan ozod etiladi, qarzlarni to‘lash kechiktiriladi). Bozor iqtisodiyoti sharoitida B.ga uchragan korxonalar boshqa korxonalariga

sotiladi yoki qo‘shib yuboriladi, korxonalar jamoa a‘zolariga ijaraga beriladi va boshqa Korxonalar sudlar, xo‘jalik sudlari qarori bilan bankrot deb e‘lon qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida kreditorlarning da‘volarini qondirish maqsadida xo‘jalik yuritish sub’yektlari bo‘lmish yuridik va jismoniy shaxslarni bankrot bo‘lgan deb e‘tirof etish shartlari va tartibi O‘zRning 1994-yil 5-mayda qabul qilingan "Bankrotlik to‘g‘risida" Qonunida belgilab berilgan (bu qonun o‘z faoliyatini davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiradigan korxonalar, tashkilotlarga nisbatan tadbiiq etilmaydi). Vladimir Shevsov, Abdurahim Ortiqov.

Professor I.G. Kukukinaning fikricha, to‘lovga layoqatsizlik - bu “...tashkilotning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda qarz majburiyatlarini bajara olmaydigan va mustaqil ravishda to‘lov qobiliyatini tiklay olmaydigan moliyaviy ahvoli. Agar tashkilot teskari ta’sirga ega bo‘lsa, unda qaytarib bo‘lmaydigan to‘lovga layoqatsizlik yuzaga keladi”. V. G. Zolotogorovning ta’kidlashicha, “... to‘lovga layoqatsizlik (bankrotlik) - bu qarzning to‘lovga layoqatsizligi, yuridik yoki jismoniy shaxsning mablag‘lar yetishmasligi sababli o‘z qarz majburiyatlarini to‘lashdan bosh tortishi. Bu kreditorlarning talablarini qoplash uchun mol-mulkni sotish bilan birga faoliyatning yopilishiga yoki majburiy tugatishga olib keladi”. Eng aniq ta’rifni professor N. A. Breslavtseva bergan. U “...bankrotlik - bu kreditorlar va qarzdor o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatni hal qilishning tsivilizatsiyalangan shakli bo‘lib, ma’lum darajada ikkalasining manfaatlariga rioya qilishga imkon beradi, chunki bankrotlik protsedurasi tugagandan so‘ng, sobiq qarzdor. majburiyatlardan ozod qilinadi va yana tadbirkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi va kreditor o‘z navbatida sarflangan mablag‘larning bir qismini oladi»<sup>30</sup>.

Yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 12-apreldagi yangi taxrirdagi “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida” gi O‘RQ–763-son Qonuni

---

<sup>30</sup> Solovieva, A. A. Yuridik shaxslarning to'lovga layoqatsizligi (bankrotligi) tushunchasi va belgilari / A. A. Solovieva. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // Yosh olim. - 2018. - No 50 (236). — S. 282-284. — URL: <https://moluch.ru/archive/236/54844/> (kirish sanasi: 30.08.2022).

asosida, va O`zbekiston Respublikasi iqtisodiy prosessual kodeksi talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu Qonun 14 bob va 249 moddadan iborat. Qonunning oxirgi bobi – 2023 yil 1 yanvardan kuchga kiradi. Ushbu qonunning 3-moddasida<sup>31</sup> bankrot deb, sudning qaroriga asosan to‘lovga qobiliyatsiz deb topilgan va o‘ziga nisbatan tugatishga doir ish yuritish yoki mol-mulkini sotish tartib-taomili qo‘llaniladigan qarzdor tushunchasi berilgan.

Qonun yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Uning normalari davlat muassasalariga va boshqa notijorat tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi, bundan matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar mustasno.

Ushbu qonun quyidagi tushunchalarni o‘z ichiga oladi: bankrot, to‘lovga qobiliyatsizlik, qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelish, soxta to‘lovga qobiliyatsizlik, kelishuv bitimi, kreditorlar, bir turdagi kreditorlar va boshqalar.

Qonun bilan to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari hamda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni ko‘rib chiqadigan organ belgilangan. Bunday ish sud tomonidan sudga murojaat etish huquqiga ega bo‘lgan shaxsning (organning) arizasi asosida qarzdor yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydagi, shuningdek qarzdor jismoniy shaxs va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkorning yashash joyidagi sud tomonidan Iqtisodiy prostessual kodeksda nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha ko‘rib chiqiladi.

Yuqoridagi qonunning normalari quyidagilarni belgilaydi:

✓ to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni yuritish ishtirokchilarining, kreditorlar yigilishining, jamoat birlashmalarining, sud boshqaruvchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;

✓ to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari; to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishlarni sudda ko‘rib chiqish tartibi; to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishda qarzdor rahbarining va boshqa

---

<sup>31</sup> “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2022 yildagi O‘RQ-763-son

shaxslarning javobgarligi; kelishuv bitimini tuzish tartibi; qarzdor yuridik shaxslarning ayrim toifalari to'lovga qobiliyatsizligining o'ziga xos xususiyatlari;

✓ jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi.

Mazkur qonunning 7-moddasiga ko'ra, qarzdor pul majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan unga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga qarzdorning o'zi va kreditor ega.

Qarzdor va kreditor to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizada qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashga yoxud tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillarini qo'llash zarurligini ko'rsatishi mumkin.

Qarzdor soliqlar va yigimlar bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan unga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga qarzdorning o'zi, davlat soliq xizmati organlari, shuningdek ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan yoki pul majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi oldida qarzi bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishlar bo'yicha vakolatli davlat organi va uning hududiy boshqarmalari ega bo'ladi.

Qarzdor bo'lgan tadbirkorlik subyektlari ushbu qonunning 8-moddasiga asosan sudga murojaat qilishga xamda mazkur qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lganda qarzdor to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqliligi belgilangan. Agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, qarzdor yuridik shaxs o'z muassislarining (ishtirokchilarining) yoki molmulki egasining qarori yoxud mol-mulking egasi tomonidan vakil qilingan organning qarori asosida qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etadi.

Bankrotlik holatiga tushgan tadbirkorlik subyektlari o'zlarining to'lovga qobiliyatsizlik ekanini qonuniy asoslash maqsadida O'zbekiston Respublikasining itisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.



Iqtisodiy prostessual kodeksga asosan iqtisodiy sudlar buyruq tartibidagi, da'vo ishini yuritishga oid va alohida toifadagi ishlarni ko'rib chiqish tartibini belgilaydi. Iqtisodiy sudlar agarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalarini qo'llashga haqlidirlar (*1-modda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son*).

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

➤ iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (bundan buyon matnda yuridik shaxs deb yuritiladi) va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

➤ iqtisodiyot sohasida qonuniylikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish;

➤ qonunga va sudga nisbatan hurmatda bo'lish munosabatini shakllantirish.

Qonunga binoan iqtisodiy sudga murojaat qilish huquqi va murojaatning shakllari belgilangan (IPKning 3-m). Unda, har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga (sudga) ushbu Kodeksda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda sudga boshqa shaxslar ham murojaat qilishga haqli. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Iqtisodiy prostessual kodeks talablariga binoan sudga murojaat qilishning qo'yidagi shakllari mavjud:

fuqarolik huquqiy munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha — da'vo arizasi shaklida;

buyruq tartibida ish yuritish, alohida toifadagi ishlar bo'yicha hamda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda — ariza

shaklida; apellyastiya va kassastiya instanstiyasi sudlariga murojaat etilganda, shuningdek ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda shikoyat (protest) shaklida amalga oshiriladi. Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Iqtisodiy sudlarda iqtisodiy faoliyat asosida vujudga keladigan munosabatlarni hal qilishda iqtisodiy sud sudyalari qo‘yidagi printsiplarga amal qiladi:

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, iqtisodiy ishlar bo‘yicha odil sudlov ushbu Kodeksda belgilangan qoidalar bo‘yicha faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, qonun va sud oldida tenglik tamoyili asosida sudda nizolarni hal qilish yuridik shaxslarning mulkchilik shaklidan, qaerda joylashganligidan, kimga bo‘ysunishidan qat’i nazar, fuqarolarning esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan, shuningdek boshqa holatlardan qat’i nazar qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishi, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi tamoyiliga ko‘ra, odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo‘ysunishi, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishligi, sudyalar mustaqilligining kafolatlari qonun bilan belgilanishi, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi tamoyili asosida iqtisodiy sud ishlarini yuritishda taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshirilishi, iqtisodiy sudlarda sud ishlari o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda yuritilishi, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan sud prostessi ishtirokchilarining tarjimon orqali ish materiallari bilan tanishish, sud harakatlarida ishtirok etish hamda sudda o‘z ona tilida yoki erkin tanlangan muloqot tilida so‘zlash huquqiining ta’minlanishi, sud muhokamasi jarayonida qabul qilinadigan sud hujjatlari sud majlisi qaysi tilda o‘tkazilgan bo‘lsa, o‘sha tilda tuzilishi, sud muhokamasining oshkoraligi tamoyiliga asosan iqtisodiy sudlarda ishlar muhokamasi oshkora o‘tkazilishini, davlat sirini, tijorat sirini yoki qonun bilan

qo‘riqlanadigan boshqa sirni saqlash zarur bo‘lgan taqdirda ishni yopiq sud majlisida eshitishga yo‘l qo‘yiladi xamda ishni yopiq sud majlisida videokonferenstaloqa rejimida eshitishga yo‘l qo‘yilmaydi, bunday majlisning audio- va videoyozuvlari amalga oshirilmaslgi, eshitish yopiq sud majlisida o‘tkazilgan taqdirda ishni elektron shaklda shakllantirishga yo‘l qo‘yilmasligini va ishni yopiq sud majlisida muhokama qilish to‘grisida ajrim chiqariladi va sudning hal qiluv qarori barcha hollarda oshkora o‘qib eshittiriladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari sudning rasmiy veb-saytida taraflarning roziligi bilan yoki shaxsi ko‘rsatilmagan tarzda e‘lon qilinadi, bundan sudning yopiq majlisida qabul qilingan sud hujjatlari mustasno.

Sud muhokamasining bevositaligi tamoyili asosida sud ishni muhokama qilishda ish bo‘yicha barcha dalillarni bevosita tekshirishi shart.

Iqtisodiy sudlarda ishlarni faqat amaldagi qonunchilik asosida hal qilish deganda, sud ishlarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qilish tushuniladi.

Sud ishni ko‘rishda davlat organining yoki boshqa organning hujjati qonunga muvofiq emasligini, shu jumladan ushbu hujjat vakolat doirasidan chetga chiqilgan holda qabul qilinganligini aniqlasa, qonunga muvofiq qaror qabul qiladi.

Iqtisodiy sud sudyalari agarda nizoli munosabatni tartibga soluvchi huquq normalari mavjud bo‘lmagan taqdirda, sud shunga o‘xshash munosabatlarni tartibga soladigan huquq normalarini qo‘llaydi, bunday normalar ham mavjud bo‘lmaganda esa nizoni qonunlarning umumiy asoslari va mazmuniga tayanib hal qiladi.

Tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek banklar o‘rtasidagi nizolar bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishda qonunchilikda, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi.

Iqtisodiy sudlarda ish yuritishda sudyalar, O‘zbekiston Respublikasining qonuniga yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq chet davlatlarning huquq normalarini qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

Chet davlat huquqi normalarini qo‘llashda sud ushbu normalarning mazmunini ularning tegishli chet davlatda sharhlanishiga va amalda qo‘llanilishiga muvofiq holda aniqlaydi. Chet davlat huquqi normalari mazmunini aniqlash maqsadida sud ko‘maklashishni va tushuntirib berishni so‘rab, O‘zbekiston Respublikasining hamda chet davlatlarning vakolatli organlariga yoki tashkilotlariga belgilangan tartibda murojaat qilishi yoxud ekspertlarni jalb etishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar talablariga yoki e‘tirozlariga asos qilib keltirayotgan chet davlat huquqi normalari mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi va ushbu normalarning mazmunini aniqlashda iqtisodiy sudga boshqacha tarzda ko‘maklashishi mumkin. Agar ko‘rilgan choralarga qaramay, chet davlat huquqi normalarining mazmuni aniqlanmasa, iqtisodiy sud O‘zbekiston Respublikasining tegishli huquq normalarini qo‘llaydi.

Sud hujjatlarining majburiyligi tamoyili. Ushbu tamoyil asosida, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa organlar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir hamda ushbu hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim. Sud hujjatlarini bajarmaslik ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

## **2-§. Sudgacha sanatsiya qilish, kuzatuv va sud sanatsiyasi**

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari va sudgacha sanatsiya qilish. To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari - qarzdor yuridik shaxsning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘grisidagi ishni ko‘rib chiqishda quyidagi tartib-taomillar qo‘llaniladi: kuzatuv; sud sanatsiyasi; tashqi boshqaruv; tugatishga doir ish yuritish.

Qarzdor jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishni ko'rib chiqishda quyidagi tartib-taomillar qo'llaniladi: qarzni tarkibiy jihatdan o'zgartirish; bankrotlikni tan olish va mol-mulknini sotish.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishni ko'rib chiqishda tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili qo'llaniladi.

Suddan tashqari bajariladigan tartib-taomillar suddan tashqari bajariladigan tartib-taomillar sudgacha sanastiya qilishni, yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda tugatishni (faoliyatini tugatishni) o'z ichiga olishi mumkin.

**Sudgacha sanastiya qilish** - sudgacha sanastiya qilish to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilguniga qadar amalga oshiriladi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelgan taqdirda, qarzdorning rahbari bu haqda qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga), boshqaruv organlariga yoki qarzdor mol-mulkining egasiga yozma shaklda xabar qilishi shart.

To'lovga qobiliyatsizlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislari (ishtirokchilari), boshqaruv organi yoki qarzdor mol-mulki egasining qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'grisidagi arizasi sudga taqdim etilguniga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan choratadbirlar ko'riladi. Qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan bitimga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko'rilishi mumkin.

Sudgacha sanastiya qilishga oid huquqiy munosabatlarning ob'ekti va subyektlari mavjud bo'lib, ular sudgacha sanastiya qilishning ob'ekti qarzdor yuridik shaxs bo'lishi va sudgacha sanastiya qilishning subyektlari sifatida qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari), qarzdor mol-mulkining egasi, davlat organlari va boshqa shaxslar bo'lishi mumkin.

Sudgacha sanastiya qilishning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

➤ to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘liq yoki qisman sotib olish; ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish; chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;

➤ xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; qarzdorning to‘lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatish;

➤ qarzdorning faoliyatni davom ettirishi uchun kreditorlarga to‘lanadigan to‘lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoxud qarzlardan chegirma berish to‘grisida qarzdor va kreditorlar o‘rtasida kelishuvga erishishga qaratilgan bitim;

➤ soliqlar hamda yigimlarni to‘lashni va kreditlarni qaytarishni sudgacha sanastiya qilish muddatiga kechiktirish; qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish.

Sudgacha sanastiya qilish tartib-taomilida boshqa chora-tadbirlar ham bo‘lishi mumkin.

Sudgacha sanastiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organning qarori asosida amalga oshirilishi mumkin.

Sudgacha sanastiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish tartibi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

Masalan, sudgacha sanastiya qilish qarzdorga davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazilayotganda qarzdorga uning xizmat ko‘rsatib kelayotgan bankdagi ishlab turgan hisobvaraqlari to‘xtatib qo‘yilib, so‘mlardagi va (yoki) valyutadagi sanastiya hisobvaragi ochiladi. Sanastiya hisobvaragidan foydalanish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Sudgacha sanastiya qilishni davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda o‘tkazish muddati o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi. Agarda davlat tomonidan yordam ko‘rsatgan holda sudgacha sanastiya qilish tartib-taomili uning samarasizligi aniqlangan holda ushbu muddat bekor qilinishi mumkin.

**Kuzatuv** institutining joriy etilishidan ko`zlangan maqsad, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, qarzdor mol-mulkini talon-taroj qilinishini oldini olish va qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishdan iborat. Kuzatuv 78-modda. Kuzatuv tartib-taomilini joriy etish - to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganda kuzatuv tartib-taomili sud qarzdor — yuridik shaxsga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilgan sanadan e'tiboran joriy etadi. Bundan ushbu Qonunga muvofiq qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikning boshqa tartib-taomili qo'llanilishi kerak bo'lgan hollar mustasno. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilgan taqdirda sudning arizani ish yuritishga qabul qilish to'grisidagi ajrimida kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi ko'rsatiladi.

Kuzatuv tartib-taomilini joriy etish oqibatlari - kuzatuv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e'tiboran: mulkiy undiruvlar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish to'xtatib turiladi, bundan ish haqi bo'yicha, mualliflik shartnomalari bo'yicha haqlarni, alimentlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikni undirish haqidagi, shuningdek hayotga yoki sogliqqa etkazilgan zararining o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensastiya qilish to'grisidagi, sud tomonidan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilingan paytga qadar qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari asosida berilgan ijro hujjatlarini ijro etish mustasno. Sudning arizani ish yuritishga qabul qilish va to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ajrimi ijro hujjatlarini ijro etishni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi; qarzdor yuridik shaxs muassislarining (ishtirokchilarining) uning tarkibidan muassislari (ishtirokchilari) chiqib ketishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkidan ulushni (payni) ajratish haqidagi talablarini qanoatlantirish taqiqlanadi;

emissiya qimmatli qogozlari bo'yicha dividendlar va boshqa to'lovlarni to'lash taqiqlanadi.

Qarzdordan pul mablaglarini olish to'grisidagi talablar qarzdorga talablar qo'yishning faqat ushbu Qonunning 87-moddasida belgilangan tartibiga rioya etilgan holda qo'yilishi mumkin.

Qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilgan sanadan e'tiboran, qarzdorning kontragenti tomonidan shartnomalarni bajarishni bir tomonlama rad etishga yoki ularni bir tomonlama o'zgartirishga, agar bu taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan bo'lsa ham yo'l qo'yilmaydi. Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan holatlar bo'yicha kelishmovchiliklar bo'lgan taqdirda, qarzdor kontragentining shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'grisidagi talabi sud tomonidan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish doirasida ko'rib chiqiladi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish jarayonida qarzdor shartnomani bajara olishi va shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishining kechikishini bartaraf etishi mumkinligi to'grisida dalillarni (fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa kreditor yoki uchinchi shaxs tomonidan majburiyatlarning ta'minlanishi shunday dalillar sifatida qabul qilinishi mumkin) taqdim etgan taqdirda, sud shartnomani o'zgartirishni yoki bekor qilishni rad etishga haqli.

Agar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish masalasi sud sanastiyasi rejasini va qarzni to'lash jadvalini yoki tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lsa, sud kreditorlar yigilishi o'tkazilishini shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'grisidagi talab ko'rib chiqilguniga qadar kechiktirishga haqlidir.

Talablarni o'zaro hal etishda qarzdorning pul majburiyatlarini qarama-qarshi muqobil talabni o'zaro hal etish orqali tugatishga, bundan ushbu moddaning sakkizinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno, faqat quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi, agar: qarzdor va kreditorning pul majburiyatlari bo'yicha talablari to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni boshlashdan oldin yuzaga kelgan bo'lsa; qarzdor va kreditorning pul majburiyatlari to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish yuritish boshlanguniga qadar tuzilgan bitimlar natijasida vujudga kelgan va ushbu majburiyatlarni talab qilish davri to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish boshlanganidan keyin yuzaga kelgan bo'lsa yoki talablarning vujudga kelish sanasi va muddati ko'rsatilmagan bo'lsa.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi Qonunning 150 va 185-moddalari qoidalari o'zaro talablarni ko'rib chiqishda inobatga



olinmaydi. Taraflardan biri majburiyatlarni tugatish to'grisida ma'lum qilsa, taraflarning qarama-qarshi talablari bir-biriga mos kelgan kundan e'tiboran kuchga kirgan, ya'ni majburiyatni bajarish muddati o'tgan paytdan e'tiboran majburiyatlar, to'lash uchun ariza tushgan-tushmaganligidan yoki qabul qilingan-qilinmaganligidan qat'i nazar, tugatilgan deb hisoblanadi.

Qarzdorning pul majburiyatlarini qarama-qarshi muqobil talabni o'zaro hal etish orqali tugatishga quyidagi hollarda yo'l qo'yilmaydi, agar: qarzdorning to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilgandan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari bo'yicha talablari (yoki qarzdorga nisbatan shunday talablar), agar bu kreditorlarning huquqlari buzilishiga olib kelsa; qarzdorning (yoki qarzdorga) pul majburiyatlari bo'yicha talablari to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilguniga qadar insofsizlik bilan olingan bo'lsa. Agar talab qilish huquqini oluvchi shaxs qarzdorda to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelganligini bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan holda ushbu talab qilish huquqi olingan bo'lsa, u insofsizlik bilan olingan deb taxmin qilinadi. Aks holda fakti isbotlash talab qilish huquqini sotib oluvchining zimmasiga yuklatiladi. Agar majburiyatdagi shaxs o'zgarganligi natijasida talablar qarama-qarshi talablarga aylangan bo'lsa, ularning yuzaga kelish vaqti bunday o'zgarish sanasidan ilgari bo'lishi mumkin emas.

O'zaro hisob-kitob orqali qarama-qarshi muqobil talab qilish to'grisidagi ariza kreditor, qarzdor yoki tugatish boshqaruvchisi tomonidan berilishi mumkin.

Qarzdorning qarama-qarshi muqobil talabini o'zaro hal etish orqali pul majburiyatlarini tugatish to'grisidagi nizolar ushbu Qonunning 60-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar o'zaro hisob-kitoblarning shartlari to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish qo'zgatilguniga qadar olti oy ichida yuzaga kelgan bo'lsa, o'zaro hisob-kitob yuzasidan faqat kreditorlarning insofsiz harakatlari sodir etilgan taqdirda nizolashish mumkin.

Agar qarzdorning talablari qiymatidan ancha past narx bo'yicha olinganligi, shuningdek shaxsning majburiyatlari oqilona pul kompensastiyasisiz (shu jumladan qarzni o'tkazish orqali) zimmaga

olinganligi oxir-oqibatda qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilishiga sabab bo'lsa, bu kreditorning insofsizligi dalili bo'lishi mumkin.

Kuzatuv tartib-taomili jarayonida qarzdor huquqlarining cheklanishi - kuzatuv tartib-taomilining joriy etilishi qarzdorning rahbarini hamda qarzdorning ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan cheklovlar bilan o'z vakolatlarini amalga oshirishni davom ettirayotgan boshqa boshqaruv organlarini chetlashtirish uchun asos bo'lmaydi.

Kuzatuv tartib-taomillari jarayonida qarzdorning boshqaruv organlari qo'yidagilarni amalga oshirishga haqlidrlar:

- ko'chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish bilan yoki shu mol-mulkni boshqa usulda tasarruf etish bilan bogliq bitimlarni;
- yirik bitimlarni;
- zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafolat xatlari va kafolatlar berish, talab qilish huquqlaridan o'zga shaxs foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o'tkazish, shuningdek qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bogliq bitimlarni faqat muvaqqat boshqaruvchining yozma roziligiga binoan tuzishi mumkin.

Kuzatuv tartib-taomillari jarayonida qarzdorning boshqaruv organlari quyidagi qarorlarni qabul qilishga haqli emas: qarzdorni qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, ajratib chiqarish, bo'lish, o'zgartirish) va tugatish to'grisidagi qaror; yuridik shaxslarni tuzish haqidagi yoki boshqa yuridik shaxslarning ishtiroki to'grisidagi qaror; vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish to'grisidagi qaror; dividendlar to'lash yoki qarzdorning daromadini (foydasini) uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlash to'grisidagi qaror; qarzdor tomonidan obligastiyalar va boshqa emissiya qogozlarini joylashtirish to'grisidagi qaror, bundan akstiyalar chiqarish haqidagi qaror mustasno; ilgari chiqarilgan akstiyalarni akstiyadorlardan sotib olish to'grisidagi qaror.

Kuzatuv tartib-taomillari jarayonida muvaqqat boshqaruvchini tayinlash - muvaqqat boshqaruvchi kreditorlar yoki vakolatli davlat organi yoxud sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi taklif etgan nomzodlar orasidan sud tomonidan tayinlanadi.

Sudning muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to'g'risidagi ajrimida unga to'lanadigan haq miqdori va uni to'lash tartibi ko'rsatilgan bo'lishi kerak xamda muvaqqat boshqaruvchiga to'lanadigan haq miqdori kreditorlar yigilishining qarori asosida sud tomonidan o'zgartirilishi mumkin.

Muvaqqat boshqaruvchi uni o'z vazifasini bajarishdan ozod etish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli bo'lib, muvaqqat boshqaruvchining uni o'z vazifasini bajarishdan ozod etish to'g'risidagi iltimosnomasi qanoatlantirilgan taqdirda sud kreditorlar taklif etgan nomzodlar orasidan yangi muvaqqat boshqaruvchini tayinlaydi. Agarda muvaqqat boshqaruvchining nomzodi ko'rsatilmagan bo'lsa, sud muvaqqat boshqaruvchini vakolatli davlat organi yoki sud boshqaruvchilarining jamoat birlashmasi taklif etgan nomzodlar orasidan tayinlaydi. Muvaqqat boshqaruvchi yangi muvaqqat boshqaruvchi tayinlanguniga qadar o'z vazifasini bajarishni davom ettiradi.

Kuzatuv tartib-taomillari jarayonida muvaqqat boshqaruvchining huquqlari - muvaqqat boshqaruvchi quyidagilarga haqli:

bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida, shuningdek qarzdor tomonidan qonunchilikda belgilangan talablar buzilgan holda tuzilgan yoki ijro etilgan o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarining qo'llanilishi haqida sudga o'z nomidan talablar qo'yishga;

ushbu Qonunning 79-moddasida nazarda tutilgan hollarda kuzatuv tartib-taomili davrida kreditorlarning talablarini bajarishga e'tirozlar bildirishga;

kreditorlarning talablari bo'yicha qarzdorning taqdim etilgan e'tirozlari asoslilikini sudya tomonidan tekshirishda ishtirok etishga;

qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rish haqidagi, shu jumladan ushbu Qonunning 81-moddasida nazarda tutilmagan bitimlarni muvaqqat boshqaruvchining

roziligisiz tuzishni taqiqlash to'grisidagi, mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga berish haqidagi, shuningdek bunday choralarni bekor qilish to'grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etishga;

qarzdorning rahbarini vazifalarini bajarishdan chetlashtirish to'grisida sudga iltimosnoma bilan murojaat etishga;

qarzdorning faoliyatiga taalluqli har qanday axborot va hujjatlarni olishga va muvaqqat boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Boshqaruv organlari muvaqqat boshqaruvchining talabiga binoan unga qarzdorning faoliyatiga taalluqli har qanday axborotni taqdim etishlari shart.

Kuzatuv tartib-taomillari jarayonida muvaqqat boshqaruvchining majburiyatlari - muvaqqat boshqaruvchi:

- qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash choralarni ko'rishi;

- qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi; qarzdorning kreditorlarini aniqlashi va kreditorlarning talablari reestrini yuritishi, qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqida kreditorlarni xabardor qilishi;

- kreditorning talabiga ko'ra qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o'z faoliyati to'grisidagi axborotni o'n kunlik muddatda taqdim etishi;

- kreditorlarning birinchi yigilishini chaqirishi va o'tkazishi shart, shuningdek, muvaqqat boshqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Muvaqqat boshqaruvchi kuzatuv tartib-taomili tugagandan keyin, lekin sud majlisining belgilangan sanasiga kamida besh kun qolganda sudga o'z faoliyati haqidagi hisobotni, qarzdorning moliyaviy ahvoli to'grisidagi ma'lumotlarni hamda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi haqidagi takliflarni, kreditorlarning birinchi yigilishi bayonnomasini ushbu Qonunning 16moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishi shart.

Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi haqidagi xabarni muvaqqat boshqaruvchi o'zi tayinlangan paytdan e'tiboran uch kun ichida ommaviy axborot

vositalarida ushbu Qonunning 53moddasida nazarda tutilgan tartibda e'lon qilish uchun yuborishi shart.

Muvaqqat boshqaruvchi ish haqi bo'yicha qarzni to'lash talabini qo'yadigan kreditorlardan tashqari qarzdorning aniqlangan barcha kreditorlarini qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi to'grisida sud ajrim chiqarganligi haqida kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligiga oid xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay xabardor qilishi shart. rahbariqarzdorning xodimlarini, muassislarini (ishtirokchilarini) yoki qarzdor mol-mulkinging egasini qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi sud ajrimini olgan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay xabardor qilishi shart.

Ish haqi bo'yicha qarzni to'lash talabini qo'yadigan kreditorlardan tashqari kreditorlarga kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligini xabar qilish kreditor tomonidan xabar olingan sanani belgilay olish imkoniyatini beradigan usulda xabar yuborish orqali amalga oshiriladi. Ish haqi bo'yicha qarzni to'lash talabnomalari yuzasidan kreditorlarni xabardor qilish qarzdor xodimlarining umumiy yigilishini chaqirish va o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Qarzdorning muassislarini (ishtirokchilarini) xabardor qilish muassislar (ishtirokchilar) umumiy yigilishini chaqirish yoki yuridik shaxsning qonunchilikka yoxud ta'sis hujjatlariga muvofiq muassislarning (ishtirokchilarning) umumiy yigilishini chaqirish huquqiga ega bo'lgan organiga qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etish haqida xabar yuborish orqali amalga oshiriladi.

Qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

➤ qarzdorning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi), joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo'lgan taqdirda);

➤ qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomilini joriy etish to'grisida ajrim chiqargan sudning nomi, bunday ajrim chiqarilgan sana va to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishning tartib raqami;

➤ tayinlangan muvaqqat boshqaruvchining famiylasi, ismi, otasining ismi va uning pochta manzili;

- sud tomonidan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rib chiqish yuzasidan belgilangan sud majlisining sanasi, vaqti va joyi;
- xabarni jo'natuvchining (muvaqqat boshqaruvchining yoki qarzdor rahbarining) xohishiga ko'ra boshqa axborot.

Qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etish - qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil etish qarzdorning mol-mulki sud xarajatlarining, sud boshqaruvchilariga haq to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun etarligini, shuningdek qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligini yoki mumkin emasligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini, shu jumladan qarzdorning mol-mulki bo'lsa, shu mol-mulknini inventarizatsiya qilish natijalarini va mulk huquqining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tahlil qilish asosida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi to'grisidagi takliflarni, to'lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartibtaomillarini joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslantiruvchi ma'lumotlarni tayyorlaydi.

Muvaqqat boshqaruvchi moliyaviy tahlil natijasida qarzdorning oliyaviy ahvoli to'grisida quyidagi xulosalardan birini tayyorlaydi: to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganligi to'grisida; agar vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to'lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishning asoslari mavjudligi to'grisida; agar doimiy to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjudligi yoki mavjud emasligi to'grisida.

Qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etishi mumkin.

Kreditorlar talablarining miqdorini belgilash - kreditorlarning birinchi yigilishida ishtirok etish uchun qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi to'grisidagi axborot ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida kreditorlar o'z talablarini qarzdorga taqdim etishga haqli. Kreditorlarning talablari kreditorlar tomonidan sud hujjatini yoki ushbu talablarning asoslilikini

tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qilgan holda sudga, qarzdorga va muvaqqat boshqaruvchiga yuboriladi.

Kreditorlarning aniqlangan deb e'tirof etish uchun asosga ega bo'lgan talablariga nisbatan qarzdor o'z e'tirozlarini sudga quyidagi hollarda yuborishga haqli, agar: kreditor tomonidan talabni aniqlangan deb hisoblash uchun asos sifatida taqdim etilgan sud hujjatini bekor qiluvchi yoki o'zgartiruvchi, xuddi shuningdek uning amal qilishini to'xtatib turuvchi yoxud ijrosi usulini va tartibini o'zgartiruvchi qonuniy kuchga kirgan sud hujjati mavjud bo'lsa; kreditor tomonidan talabni aniqlangan deb e'tirof etish uchun asos sifatida taqdim etilgan hujjatni (qarzni tan olish, notariusning ijro xati va boshqalar) bekor qiluvchi yoki o'zgartiruvchi, xuddi shuningdek uning amal qilishini to'xtatib turuvchi hujjat mavjud bo'lsa; kreditor tomonidan talabni aniqlangan talablar jumlasiga kiritish dalili sifatida taqdim etilgan hujjat bo'yicha qarzni to'lash muddatlarini, tartibini va shartlarini o'zgartirish to'grisida qarzdor va kreditor o'rtasida bitim tuzilgan bo'lsa; qarzdor qarzni to'liq yoki qisman to'lagan bo'lsa; talab bildirilgan majburiyatdagi shaxsning o'zgarganligiga dalillar mavjud bo'lsa.

Muvaqqat boshqaruvchi kreditorlarning ushbu Qonunga muvofiq aniqlangan deb e'tirof etiladigan talablariga o'z e'tirozlarini, agar muvaqqat boshqaruvchida qarzdorning qarzni tan olish bo'yicha harakatlari boshqa kreditorlarning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzadi va (yoki) asossiz deb hisoblash uchun etarli asoslar bo'lsa, sudga yuborishga haqli.

Qarzdorning, muvaqqat boshqaruvchining kreditorlar talablariga e'tirozlari tegishli talablar olingan paytdan e'tiboran bir haftalik muddat ichida sudga taqdim etilishi mumkin. Kreditorlarning talablari, agar ular ustidan e'tirozlar tushgan bo'lsa, sud majlisida ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalari asosida mazkur talablarni kreditorlarning talablari reestriga kiritish yoki kiritishni rad etish to'grisida sudning ajrimi chiqariladi. Kreditorning qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan muddatda e'tirozlar taqdim etilmagan talabi kreditorlarning talablari reestriga kreditor tomonidan bildirilgan miqdorda kiritiladi.

Kreditorlarning talablari asossiz yoki lozim darajadagi dalillar bilan tasdiqlanmagan deb topilsa, kreditorlarning tegishli arizalari qaytarilishi lozim. Mazkur talablar to'lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida taqdim etilishi mumkin.

Kreditor muvaqqat boshqaruvchining yoki sudning o'z talablarini kreditorlar talablari reestriga kiritishni rad etish to'grisidagi qarori ustidan shikoyat berishi mumkin. Kreditorlarning birinchi yigilishini chaqirish - muvaqqat boshqaruvchi kreditorlarning birinchi yigilishi o'tkaziladigan sanani belgilaydi va bu haqda barcha aniqlangan kreditorlarni, qarzdor xodimlarining vakilini, shuningdek kreditorlarning birinchi yigilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslarni (organlarni) xabardor qiladi. Kreditorlarning birinchi yigilishini o'tkazish to'grisida xabardor qilish ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan tartibda muvaqqat boshqaruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Kreditorlarning birinchi yigilishi qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to'grisidagi sud ajrimida sud majlisini o'tkazishning belgilangan sanasiga kamida besh kun muddat qolganida o'tkazilishi kerak.

Talablari ushbu Qonun 87-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda taqdim etilgan va kreditorlarning talablari reestriga kiritilgan kreditorlar kreditorlar birinchi yigilishining ovoz berish huquqiga ega bo'lgan ishtirokchilaridir. Kreditorlarning birinchi yigilishida qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili, qarzdor xodimlarining vakili ovoz berish huquqsiz ishtirok etishi mumkin. Kreditorlar yigilishida mazkur shaxslarning yo'qligi yigilishni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lmaydi.

Kreditorlarning birinchi yigilishida ko'riladigan masalalar - kreditorlarning birinchi yigilishida quyidagi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi:

- ✓ sud sanastiyasi yoki tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to'grisida;
- ✓ qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to'grisida;



✓ kreditorlar qo‘mitasi a‘zolarining soni va ularni saylash to‘grisida; sanastiya qiluvchi boshqaruvchining, tashqi boshqaruvchining yoki tugatuvchi boshqaruvchining nomzodlarini ma‘qullash to‘grisida;

✓ ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa masalalar bo‘yicha.

Kreditorlar birinchi yigilishining sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to‘grisidagi qarorida sud sanastiyasi tartibtaomilining taklif qilinayotgan muddati va qarzni to‘lashning ma‘qullangan jadvali bo‘lishi kerak.

Sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to‘grisida qaror qabul qilgan kreditorlarning birinchi yigilishi muvaqqat boshqaruvchini o‘z vazifalarini bajarishdan ozod qilish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etishga haqli. Kreditorlar yigilishining sudga beriladigan mazkur iltimosnomasida sanastiya qiluvchi boshqaruvchi etib tayinlash uchun nomzod taklif qilinishi mumkin.

Kreditorlar birinchi yigilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida sudga murojaat qilish to‘grisidagi qarorida tashqi boshqaruv tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati va tashqi boshqaruvchilikka nomzod, shuningdek u haqdagi ma‘lumotlar bo‘lishi kerak.

Kuzatuv tartib-taomilini tugatish - sud kreditorlarning birinchi yigilishi qarori asosida, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘grisida qaror qabul qiladi yoki sud sanastiyasini yoxud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoki kelishuv bitimini tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni yuritishni tugatadi.

Agar kreditorlarning birinchi yigilishida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan birini qo‘llash haqida qaror qabul qilinmagan bo‘lsa yoki sudga uning qarorlaridan hech biri ushbu Qonunning 16-moddasida belgilangan muddatda taqdim etilmagan bo‘lsa, sud doimiy to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari bo‘lgan taqdirda, agar ushbu moddada boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, qarzdorni bankrot deb topish va

tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi. Doimiy to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, sud qarzdorning faoliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etish to'grisidagi masalani kreditorlar yigilishida ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan materiallarni qaytaradi.

Agar kreditorlarning birinchi yigilishi tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to'grisida qaror qabul qilingan bo'lsa yoxud sudga uning qarorlaridan hech biri taqdim etilmagan bo'lsa, sud qarzdor muassislarning (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining, vakolatli davlat organining, shuningdek uchinchi shaxsning (shaxslarning) iltimosnomasiga binoan, arizachilar tomonidan qarzdorning majburiyatlari ijrosining qarzni to'lash jadvaliga muvofiq ta'minoti taqdim etilgan taqdirda, sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish to'grisida ajrim chiqarishga haqli.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi yoki tashqi boshqaruvchi yoxud tugatish boshqaruvchisi tayinlanguniga qadar uning vazifasini bajarish ilgari muvaqqat boshqaruvchi vazifasini bajarib turgan shaxs zimmasiga to'la hajmda yuklatiladi. Sud tomonidan qarzdor bankrot deb topilgan va tugatishga doir ish yuritish boshlangan yoki sud sanastiyasi yoxud tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan paytdan e'tiboran kuzatuv tartib-taomili tugatiladi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi qonunning 9-bobi xo'jalik yurituvchi subyektlar shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining bankrot deb topilishi sababli sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etishga oid qonun talablarini belgilaydi. Ushbu jarayon o'ziga xos tartibda birinchidan, sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish to'grisidagi iltimosnoma kiritish orqali amalga oshiriladi.

Kuzatuv tartib-taomili jarayonida qarzdor, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkinging egasi, shuningdek uchinchi shaxs (shaxslar) sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to'grisidagi iltimosnoma bilan kreditorlarning birinchi yigilishiga yoxud sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi iltimosnoma bilan bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

Qarzdorning sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish to'grisidagi iltimosnomasiga sud sanastiyasi tartib-taomilining taklif qilinayotgan muddati va qarzni to'lash jadvali ko'rsatilgan holda qarzdorning sud sanastiyasi rejasi ilova qilinishi kerak.

**Sud sanastiyasi** tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat etish to'grisidagi iltimosnoma bilan kreditorlarning yigilishiga murojaat qilgan shaxslar mazkur iltimosnomani va unga ilova qilinadigan hujjatlarni kreditorlarga bu hujjatlar bilan tanishish imkoniyatini berish maqsadida kreditorlarning yigilishi o'tkaziladigan sanaga kamida ikki hafta qolganida muvaqqat boshqaruvchiga taqdim etishi shart.

Qarzdor muassislarning (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mulki egasining sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi iltimosnomasiga sud sanastiyasining rejasi, qarzni to'lash jadvali, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) umumiy yigilishining bayonnomasi ilova qilinishi kerak. Mazkur umumiy yigilishning bayonnomasida sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish uchun ovoz bergan muassislar (ishtirokchilar) ro'yxati hamda bu shaxslar tomonidan qarzni to'lash jadvalining bajarilishini ta'minlashga oid hujjatlar ko'rsatilishi kerak.

Uchinchi shaxsning (shaxslarning) sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish to'grisidagi iltimosnomasiga qarzni to'lash jadvali va qarzdorning qarzni to'lash jadvalini bajarishi uchinchisi shaxs (shaxslar) tomonidan ta'minlanishiga oid hujjatlar ilova qilinishi kerak.

Sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sudga murojaat qilish to'grisida kreditorlarning yigilishiga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan shaxslar iltimosnoma bilan murojaat etgan taqdirda qarzdorning qarzni to'lash jadvalini bajarishi bu shaxslarning har biri tomonidan ta'minlanishi ular o'rtasidagi bitimga binoan belgilanadi.

Qarzdor tomonidan majburiyatlarni qarzni to'lash jadvaliga muvofiq bajarishni ta'minlash - qarzdor tomonidan majburiyatlarni qarzni to'lash jadvaliga muvofiq bajarish qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ta'minlanishi mumkin.

Qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarish bo‘yicha majburiyatlari sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqida sud ajrim chiqargan paytdan e‘tiboran ta‘minlangan deb hisoblanadi.

Majburiyatlarni bajarish ta‘minoti berilganligi to‘grisidagi bitim, agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, yozma shaklda tuziladi. Kreditorlar tarafidan mazkur bitimni kreditorlar yigilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining vakili, sudning tashabbusi bilan sud sanastiyasi tartib-taomili joriy etilgan taqdirda esa sanastiya qiluvchi boshqaruvchi, boshqa tarafdan — qarzdorning majburiyatlarni qarzni to‘lash jadvaliga muvofiq bajarishi ta‘minotini bergan shaxslar (bundan buyon matnda majburiyatlarni bajarish ta‘minotini bergan shaxslar deb yuritiladi) imzolaydi.

Majburiyatlarni bajarishning berilgan ta‘minoti miqdori qarzdor majburiyatlarining sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi masala yuzasidan kreditorlarning yigilishi o‘tkazilishi oldidan oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko‘ra balansda aks ettirilgan va kreditorlarning talablari reestriga kiritilgan talablar asosida tuzilgan qarzni to‘lash jadvalidagi miqdoridan kamida yigirma foiz ortiq bo‘lishi kerak.

Qarzdorga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar qarzdorning qarzni to‘lash jadvalini bajarish ta‘minotining predmeti bo‘lishi mumkin emas.

Qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritilganligi, shuningdek qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikning yangi tartib-taomili joriy etilganligi majburiyatlarni bajarishning berilgan ta‘minotini tugatish uchun asos bo‘lmaydi.

Sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish tartibi - sud sanastiyasi tartib-taomili sud tomonidan kreditorlar yigilishining qarori asosida joriy etiladi, bundan ushbu Qonun 92-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sudning sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish to‘grisidagi ajrimida sud sanastiyasi tartib-taomilining muddati ko‘rsatilishi, unda sud tomonidan tasdiqlangan qarzni to‘lash jadvali, majburiyatlarni bajarish ta‘minotini bergan shaxslar haqidagi, bunday ta‘minotning miqdori va

shakllari to'grisidagi sanastiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash hamda unga to'lanadigan haq miqdori haqidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Sudning sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish to'grisidagi ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Sud sanastiyasi tartib-taomili ko'pi bilan yigirma to'rt oy muddatga joriy etiladi. Sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish oqibatlari - sud sanastiyasi tartib-taomili o'tkazilayotganda qarzdorning boshqaruv organlari o'z vakolatlarini ushbu bobda belgilangan cheklovlar bilan amalga oshiradi.

Sud sanastiyasi tartib-taomili joriy etilgan paytda:

- kreditorlarning talablarini ta'minlash bo'yicha ilgari qabul qilingan choralar bekor qilinadi;

- qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili doirasida joriy etiladi;

- to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish jarayonida yuzaga keladigan barcha turdagi joriy soliq to'lovlarini (bundan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha soliqlar mustasno) to'lash to'xtatib turiladi va sud sanastiyasi tartib-taomili jarayonining muddati yakunlangach to'lanadi.

Bunday holda sud sanastiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlagan va qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni tugatish haqida ajrim chiqargan sanadan e'tiboran mazkur soliq qarzlari olti oy ichida teng miqdorda bo'lib-bo'lib to'lanadi; sud sanastiyasi tartib-taomili paytida yuzaga kelgan pul majburiyatlarini va (yoki) soliqlar hamda yigimlar bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sankstiyalar, shuningdek to'lanishi lozim bo'ladigan foizlar qo'llanilmaydi.

Qarzni to'lash jadvaliga muvofiq qanoatlantirilishi lozim bo'lgan pul majburiyatlari yoki soliqlar hamda yigimlar bo'yicha kreditorning

talablari summasiga, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda foizlar hisoblanadi. Bu foizlar sud sanastiyasini joriy etish haqida sud ajrim chiqargan paytdan e’tiboran va kreditorning talabini qanoatlantirish paytigacha, agar bunday qanoatlantirish ro‘y bermasa, — unda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘grisida qaror qabul qilish paytigacha kreditorning talablari summasiga qo‘shib yozilishi lozim.

Kreditorlar yigilishining, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning yoki sanastiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdorning rahbari sud sanastiyasi rejasini bajarmaganligi yoxud lozim darajada bajarmaganligi haqidagi yoki qarzdorning rahbari qarzdorning, kreditorlarning, majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan harakatlar (harakatsizlik) sodir etganligi to‘grisidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan iltimosnomasiga binoan sud qarzdorning rahbarini o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirishga haqlidir. Bunday hollarda sud qarzdorning rahbari vazifasini bajarishni sanastiya qiluvchi boshqaruvchining zimmasiga yuklatishga haqli. Sud qarzdorning rahbarini o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirish haqida ajrim chiqaradi, bu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi kreditorlar yigilishining yoxud kreditorlar qo‘mitasining roziligisiz qarzdorni qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) va tugatish to‘grisida qaror qabul qilishga, qarzdor esa quyidagi bitimlarni tuzishga haqli emas: ko‘chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish, mazkur mol-mulkni xo‘jalik jamiyatlari hamda mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) ulush sifatida qo‘shish yoki bunday mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etish bilan bogliq bitimlar; yirik bitimlar; zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafillik berish, talab qilish huquqlaridan o‘zganing foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish, shuningdek qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bogliq bitimlar; sanastiya qiluvchi

boshqaruvchi yoki kreditorlar muayyan bitimlarning tuzilishidan qonunchilikda belgilangan tartibda manfaatdor bo‘ladigan bitimlar.

Sudning sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ish qo‘zgatilguniga qadar tuzgan shartnomalarni bajarishni to‘xtatish yoki ularni bajarishni rad etish uchun asos bo‘la olmaydi. Qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ish qo‘zgatilguniga qadar tuzilgan, qarzdorning faoliyatini davom ettirish uchun muhim hisoblangan shartnomalarning bajarilishi qarzdor yoki sanastiya qiluvchi boshqaruvchi tomonidan davom ettiriladi.

Bunday holda qarzdor tomonidan tuzilgan shartnomalarning bajarilishini qarzdorga nisbatan sud sanastiyasi tartib-taomili joriy etilganligi munosabati bilan to‘xtatish yoki ularni bajarishni rad etish bo‘yicha taraflarning kelishuvlari haqiqiy emas deb hisoblanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi va kreditorlar qarzdorning bitimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topishni talab qilish huquqiga ega. Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi va kreditorlar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatilganidan keyin yoki qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatish haqida ariza berilishidan oldingi yigirma to‘rt oy ichida tuzilgan hamda butunlay yoki qisman bajarilmagan shartnomalarni bekor qilishni quyidagi holatlardan biri mavjud bo‘lgan taqdirda talab qilish huquqiga ega: shartnomalarni bajarish qarzdorga zarar etkazsa va (yoki) qiyosiy holatlarda tuziladigan xuddi shunday shartnomalarga nisbatan qarzdorning, kreditorlarning, qarzdor majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlovchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa; shartnoma bir yildan ortiq muddatga tuzilgan yoxud qarzdor uchun faqat uzoq istiqbolda ijobiy natijalar olishga mo‘ljallangan bo‘lsa; shartnoma bir kreditorning talablarini boshqa kreditorlar talablariga nisbatan afzalroq qanoatlantirishga olib kelsa.

To‘liq yoki qisman bajarilmagan shartnomalar bo‘yicha shartnomalarni bekor qilish haqidagi talab qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashga monelik qiladigan boshqa holatlarda ham bildirilishi mumkin.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi - sanastiya qiluvchi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlarning yigilishi yoki majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar tomonidan sudga taqdim etiladi. Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanastiyasi tartib-taomili joriy etilgan paytdan e'tiboran va sud sanastiyasi tartib-taomili tugaguniga yoki muddatidan ilgari tugatilguniga qadar faoliyat yuritadi.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi o'z arizasiga ko'ra yoki kreditorlar yigilishining yoxud majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslarning iltimosnomasiga binoan, shuningdek ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda sud tomonidan ozod qilinishi mumkin. Sudning sanastiya qiluvchi boshqaruvchini o'z vazifasidan ayni bir paytda yangi sanastiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlagan holda ozod qilish to'grisidagi ajrimi ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Sud sanastiyasi tartib-taomili paytida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishi munosabati bilan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish yuritishning tugatilishi sanastiya qiluvchi boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tugashiga sabab bo'ladi. Agar tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida sud tomonidan ajrim chiqarilgan yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qilingan bo'lsa, shuningdek boshqa shaxs tashqi boshqaruvchi yoki tugatuvchi boshqaruvchi etib tayinlangan bo'lsa, sanastiya qiluvchi boshqaruvchi ishlar tashqi boshqaruvchiga yoki tugatuvchi boshqaruvchiga o'tkaziladigan paytga qadar o'z vazifalarini bajarishni davom ettirib turadi.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchining huquqlari - sanastiya qiluvchi boshqaruvchi quyidagilarga haqli: qarzdorning rahbaridan qarzdorning joriy faoliyati, sud sanastiyasi rejasida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi hamda qarzni to'lash jadvalining bajarilishi jarayoni haqida axborot talab qilishga; qarzdorning rahbaridan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun pul mablaglari o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini talab qilishga; qarzdor mol-mulk inventarizastiyasini o'tkazgan taqdirda unda ishtirok etishga; kreditorlarning joriy talablari



qarzdor tomonidan o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishga; ushbu Qonun 96-moddasining beshinchi qismida nazarda tutilgan hollarda qarzdorning bitimlari va qarorlarini kelishib olishga hamda mazkur bitimlar va qarorlar haqida kreditorlarga axborot taqdim etishga; ushbu Qonunning 63, 64 va 65-moddalarida belgilangan tartibda qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudga ariza berishga; qarzdorning kreditorlar talablarini tan olishga yoki bunday talablarni aniqlangan deb topish uchun asoslarni tasdiqlashga doir harakatlari yoxud qarzdorning kreditorlar talablarini ko'rib chiqish borasidagi harakatsizligi ustidan ushbu Qonunning 60 va 87-moddalarida belgilangan hollarda hamda tartibda sudga shikoyat berishga; ushbu Qonun 96-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda qarzdorning rahbarini o'z vazifasini bajarishdan chetlashtirish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishga; qarzdor rahbaridan, ta'sischilaridan (ishtirokchilaridan) va (yoki) davlat organlaridan qarzdorga taalluqli bo'lgan axborotni va hujjatlarni so'rab olishga; o'z vakolatlarini amalga oshirishni ta'minlash uchun davlat xizmatlaridan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi orqali ko'rsatiladigan xizmatlardan oldindan to'lovlarni amalga oshirmasdan foydalanishga; qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rish to'g'risidagi, shu jumladan mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga o'tkazish, shuningdek bunday choralarni bekor qilish haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilishga shuningdek, sanastiya qiluvchi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchining majburiyatlari - sanastiya qiluvchi boshqaruvchi: kreditorlarning talablari reestrini yuritishi; ushbu Qonunning 12-moddasida nazarda tutilgan hollarda kreditorlarning yigilishini chaqirishi; qarzdor tomonidan taqdim etilayotgan sud sanastiyasi rejasi va qarzni to'lash jadvali bajarilishi jarayoni to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqishi hamda kreditorlarning yigilishiga tegishli xulosalarni taqdim etishi; kreditorning talabiga ko'ra qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o'z faoliyati haqidagi axborotni o'n kunlik

muddatda taqdim etishi; sud sanastiyasi rejasi amalga oshirilishining borishi to'g'risida kreditorlaryigilishiga va (yoki) kreditorlar qo'mitasiga, shuningdek, agar qarzdorning ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lsa, vakolatli davlat organiga axborot taqdim etishi shart shu bilan birga sanastiya qiluvchi boshqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Sud sanastiyasi rejasi va qarzni to'lash jadvali - sud sanastiyasi rejasi qarzdorning rahbari, qarzdor muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor molmulkning egasi tomonidan tayyorlanadi. Sud sanastiyasi rejasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak: qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish shartlari va tartibi, ularni amalga oshirish xarajatlari hamda qarzdorning boshqa xarajatlari; qarzni to'lash jadvali; sud sanastiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorning yoki ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kreditorning qarzdor tugatilgan taqdirda olishi mumkin bo'lgan kafolatli tovonning miqdori va to'lash muddati va qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash davri.

Sud sanastiyasi rejasida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash yuzasidan ushbu Qonunning 125-moddasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar bo'lishi mumkin. Bularga *birinchidan*, sud sanastiyasi rejasini amalga oshirish muddati sudning sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish to'g'risidagi ajrimida nazarda tutilgan muddatdan oshishi mumkin emasligi, *ikkinchidan*, sud sanastiyasi rejasida qarzni to'lash jadvaliga muvofiq kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan mablaglarni sud sanastiyasi jarayonida qarzdor tomonidan olish usullari nazarda tutilishi kerak va sud sanastiyasi rejasi kreditorlarning yigilishi tomonidan tasdiqlanishi kerak xamda *uchinchidan*, sud sanastiyasi rejasini tasdiqlash haqidagi masala ko'rib chiqilayotganda ovoz berishda birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari ishtirok etishlari kerak.

Kreditorlar yigilishining sud sanastiyasi rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori, agar birinchi va ikkinchi guruhlarning har biridagi kreditorlarning ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bersa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Bunda ovoz berish huquqiga ega bo'lgan va sud sanastiyasi

rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor hamda ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kreditor, qarzdor tugatilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo'lgan kafolatli to'lovga teng tovon olish huquqiga ega.

Agar birinchi va ikkinchi guruhlarining har biridagi kreditorlar sud sanastiyasi rejasini tasdiqlash haqida qaror qabul qilmasa, shuningdek ovoz berish chogida guruhlardan biridagi kreditorlarning zarur miqdordagi ovozi to'planmasa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Sud sanastiyasi rejasida qarzdorning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish, ushbu Qonunning 130-moddasiga muvofiq qarzdorning qo'shimcha emissiyaviy akstiyalarini chiqarish va joylashtirish, ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shimcha ulush kiritish hamda kreditorlarning talablarini akstiyalarga ayirboshlash nazarda tutilishi mumkin.

Sud sanastiyasi rejasida qarzdorning korxonasi (biznesi) yoki qarzdor mol-mulkining bir qismi ushbu Qonunning 126 va 127-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sotilishi nazarda tutilishi mumkin. Sud sanastiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorlar o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida ekspertlarni: sud sanastiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor hamda ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kreditor, qarzdor tugatilgan taqdirda, eng kamida olishi mumkin bo'lgan kafolatli to'lovga teng tovon olish huquqiga ega bo'lishini; sud sanastiyasi rejasining muvaffaqiyatli bajarilish imkoniyati mavjudligini; kreditorlarning boshqa kreditorlarga nisbatan qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan ustunlik huquqini tekshirish uchun jalb etishi mumkin.

Agar qarzdor sud sanastiyasi rejasi uchun mol-mulki to'grisida noto'g'ri yoki chalgituvchi ma'lumotlarni taqdim etgan yoxud o'z faoliyatiga va (yoki) ishga taalluqli bo'lgan axborotni yashirgan bo'lsa, kreditorlar yigilishi sud sanastiyasi rejasini bekor qilish va sud sanastiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda sudga tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga

doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma kiritish to'grisida qaror qabul qilishi mumkin.

Sud kreditorlar yigilishining iltimosnomasi asosida sud sanastiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish hamda tegishincha tashqi boshqaruvni joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi. Qarzdorning boshqaruv organi va sanastiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanastiyasining tasdiqlangan rejasi amalga oshirilishi uchun mas'uldir.

Kreditorlar yigilishi va (yoki) kreditorlar qo'mitasi sanastiya rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Kreditor sanastiya qiluvchi boshqaruvchidan sud sanastiyasi rejasining bajarilishi bilan bogliq bo'lgan har qanday ma'lumotni so'rab olishga haqlidir. Sud sanastiyasi rejasida qarzdorni qarzlardan to'liq yoki qisman ozod qilish yoxud ularni o'zgartirish nazarda tutilishi mumkin. Qarzdorni qarzlardan to'liq yoki qisman ozod qilish yoxud ularni o'zgartirish barcha kreditorlarning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Agar biror-bir kreditor qarzdorning qarzlardan to'liq yoki qisman ozod etilishiga yoki ularning o'zgartirilishiga qarshi bo'lsa, qolgan kreditorlar unga talabni kreditorlarning talablari reestriga muvofiq sotib olish bo'yicha taklif berishga haqli.

Qarzdorning qarzlardan to'liq yoki qisman ozod qilinishiga yoki ularning o'zgartirilishiga qarshi bo'lgan kreditor qolgan kreditorlar tomonidan taklif etilgan shartlarni qabul qilishi shart. Qarzni to'lash jadvali, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, barcha kreditorlar oldidagi qarzning to'lanishini nazarda tutishi kerak. Qarzni to'lash jadvali sud tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Qarzdorning sud sanastiyasi tartib-taomili jarayonida yuzaga kelgan joriy to'lovlar bo'yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu Qonunning 149, 150 va 185-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qarzdor qarzni to'lash jadvalini muddatidan ilgari bajarishga haqlidir. Sud sanastiyasi rejasiga va qarzni to'lash jadvaliga o'zgartishlar kiritish qarzdor sud sanastiyasi rejasini va (yoki) qarzni to'lash jadvalini

bajarmagan taqdirda (qarz belgilangan muddatlarda va (yoki) belgilangan hajmlarda to‘lanmaganda), u qarzni to‘lash jadvaliga kiritish mo‘ljallanayotgan o‘zgartishlarni ma’qullash to‘grisidagi iltimosnoma bilan kreditorlarga talablarni bajarish sanasi boshlangan vaqtdan e’tiboran ikki hafta muddat ichida murojaat qilishga haqli. Iltimosnomaning ko‘chirma nusxasi sanastiya qiluvchi boshqaruvchiga yuboriladi. Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi iltimosnoma olingan paytdan e’tiboran ikki haftadan kechiktirmay ushbu iltimosnoma asosida kreditorlarning yigilishini chaqiradi.

Agar kreditorlar sud sanastiyasi rejasini va qarzni to‘lash jadvalini to‘liq yoki qisman bajarishning imkoni mavjud emasligini aniqlasa yoxud ularni faqat o‘zgartishlar kiritish orqali amalga oshirish imkoni mavjud deb hisoblasa, sud sanastiyasi rejasiga va qarzni to‘lash jadvaliga sud o‘zgartish kiritishi mumkin.

Kreditorlar yigilishining sud sanastiyasi rejasiga va (yoki) qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarori ushbu Qonunning 100-moddasida belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Agar qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish to‘grisida qaror qabul qilinsa, kreditorlarning yigilishi qarzni to‘lash jadvalidagi o‘zgartishlarni tasdiqlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to‘grisida qaror qabul qiladi.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatilganligi haqida o‘z vaqtida xabardor qilinmagan va qarzni to‘lash jadvali sud tomonidan tasdiqlanganidan keyin ishga qo‘shilgan kreditorning talablari yoki ushbu kreditorning qaysi talablari bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati kuzatuv tartib-taomili jarayonida boshlangan bo‘lsa, o‘sha talablari sudning ajrimiga ko‘ra qarzni uzish jadvaliga kiritiladi.

Sud faqat kreditorlarning talablari reestriga kiritilgan talablarga nisbatan qarzni to‘lash jadvaliga o‘zgartishlar kiritish to‘grisida ajrim chiqarishga haqli.

Sud sanastiyasi tartib-taomilining muddatidan ilgari tamomlanishi Kreditorlarning qarzni to‘lash jadvalida nazarda tutilgan barcha talablari sud sanastiyasi tartib-taomilining sud tomonidan belgilangan muddati o‘tishidan oldin qarzdor tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda,

qarzdorning rahbari sud sanastiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi haqida sudga ushbu Qonunning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobot taqdim etadi. Qarzdor rahbarining sud sanastiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi to'grisidagi hisoboti, sanastiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdor rahbarining hisobotiga doir xulosasi va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko'rib chiqiladi.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchining talablari qarzni to'lash jadvaliga kiritilgan barcha kreditorlarni qarzdor rahbarining sud sanastiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi haqidagi hisobotini ko'rib chiquvchi sud majlisining sanasi, vaqti va joyi to'grisida xabardor qilishi shart.

Qarzdor rahbarining sud sanastiyasi tartib-taomili muddatidan ilgari tamomlanganligi to'grisidagi hisobotini, shuningdek kreditorlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish yakunlari asosida sud:

- agar to'lanmagan qarz mavjud emasligi aniqlansa, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlaydi va to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni to'xtatadi;

- agar to'lanmagan qarz mavjudligi aniqlansa va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etadi.

Qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlash va to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni tugatish haqida yoki mazkur hisobotni tasdiqlashni rad etish to'grisida sud ajrim chiqaradi, bu ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sud sanastiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish Sud sanastiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish uchun quyidagilar asos bo'ladi: kreditorlar talablarini qanoatlantirishning qarzni to'lash jadvalida belgilangan muddatlari sud sanastiyasi tartib-taomili jarayonida qarzdor tomonidan bir necha marta yoki bir marta jiddiy ravishda (bir oydan ortiq muddatga) buzilganligi; qarzdor qarzni to'lash jadvalini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holatlarning mavjudligi.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi sud sanastiyasi tartib-taomilini muddatidan ilgari tugatish to'grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish haqidagi masalani ko'rib chiqish uchun kreditorlarning yigilishini ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan asoslar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran ikki hafta ichida o'z tashabbusiga ko'ra yoki kreditorlar qo'mitasining qarori asosida chaqirishi shart.

Qarzdorning rahbari kreditorlarning yigilishiga qarzni to'lash jadvali va sud sanastiyasi rejasi bajarilishining yakunlari haqida hisobot taqdim etishi shart. Hisobotga qarzdorning oxirgi hisobot sanasidagi holatga ko'ra buxgalteriya balansi, qarzdorning daromadlari (foydas) va zararlar to'grisidagi hisobot, qanoatlantirilgan talablar miqdori ko'rsatilgan holda kreditorlarning talablari reestri va kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak. Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi kreditorlarning yigilishiga qarzdor rahbarining hisoboti bilan bir vaqtda qarzdor rahbarining hisoboti yuzasidan o'z xulosasini taqdim etadi.

Kreditorlarning yigilishi qarzdor rahbarining hisobotini, shuningdek sanastiya qiluvchi boshqaruvchining mazkur hisobot bo'yicha xulosasini ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to'grisida yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish to'grisida qaror qabul qilishga haqli. Kreditorlar yigilishining iltimosnomasiga kreditorlar yigilishi bayonnomasining ko'chirma nusxasi, shuningdek kreditorlar yigilishi tomonidan qabul qilingan qarorga qarshi ovoz bergan yoki ushbu masala yuzasidan ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinadi.

Sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida kreditorlar yigilishining iltimosnomasi asosida ajrim chiqaradi yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi.

Sud sanastiyasi tartib-taomilining tamomlanishi - sud sanastiyasi tartib-taomilining belgilangan muddati tugashiga kamida o'n besh kun qolganida qarzdorning rahbari o'tkazilgan sud sanastiyasi tartib-taomilining natijalari haqida sudga hisobot taqdim etishi shart. Mazkur

hisobotga qarzdorning oxirgi sanadagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi, qarzdorning moliyaviy natijalari to‘grisidagi hisobot, qanoatlantirilgan talablar miqdori va mazkur qanoatlantirishni tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek sanastiya qiluvchi boshqaruvchining qarzdor rahbarining hisobotiga doir xulosasi, qanoatlantirilgan talablar miqdori ko‘rsatilgan holda kreditorlarning talablari reestri, talablari qanoatlantirilmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinishi kerak. Qarzdor rahbarining sud sanastiyasi tartibtaomilini o‘tkazish natijalari haqidagi hisoboti va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko‘rib chiqiladi.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi qarzni to‘lash jadvaliga talablari kiritilgan barcha kreditorlarni qarzdor rahbarining sud sanastiyasi tartibtaomilini o‘tkazish natijalari haqidagi hisobotini ko‘rib chiquvchi sud majlisining sanasi, vaqti va joyi to‘grisida xabardor qilishi shart.

Qarzdor rahbarining sud sanastiyasi tartibtaomilini o‘tkazish natijalari haqidagi hisobotini, shuningdek kreditorlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra sud: agar to‘lanmagan qarzi mavjud emasligi aniqlansa, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlaydi va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni yuritishni to‘xtatish haqida ajrim chiqaradi; agar to‘lanmagan qarz mavjudligi aniqlansa va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etadi.

Sud qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etgan taqdirda tashqi boshqaruv tartibtaomilini joriy etish haqida ajrim yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘grisida qaror chiqaradi.

Majburiyatlarning ta‘minot bergan shaxslar tomonidan bajarilishi - kreditorlarning ta‘minot bergan shaxslardan majburiyatlar bajarilishini talab qilish huquqi sud sanastiyasi tartibtaomilini tugatish yoki tamomlash to‘grisida sud ajrim chiqargan paytdan e‘tiboran yuzaga keladi. Majburiyatlarni bajarish ta‘minotini bergan shaxslarga nisbatan talablar kreditorlar yigilishining (kreditorlar qo‘mitasining) vakili yoki sanastiya qiluvchi boshqaruvchi tomonidan taqdim etiladi.

Majburiyatlarni bajarish ta‘minotini bergan shaxslarning majburiyatlarni bajarishi natijasida olingan pul mablaglari kreditorlar



bilan hisob-kitob qilish uchun qarzdorning hisobvaragiga o'tkaziladi. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar qarzdor tomonidan amalga oshiriladi.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchi kreditorlar talablarining qanoatlantirilganligi dalillari taqdim etilgan paytdan e'tiboran kreditorlarning talablari reestriga tegishli yozuvni kiritadi.

Ta'minotdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yakunlari to'grisidagi hisobot - kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlangach yoki sud tomonidan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun belgilangan muddat o'tgach, sanastiya qiluvchi boshqaruvchi qarzdorning majburiyatlarini shaxslar tomonidan ta'minot berilgan holda bajarish yakunlari to'grisida sudga hisobot taqdim etishi shart. Sanastiya qiluvchi boshqaruvchining hisoboti va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko'rib chiqiladi. Hisobotga qo'yiladigan talablar, shuningdek uni taqdim etish va ko'rib chiqish tartibi To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi Qonunning 132 va 133-moddalarida belgilanadi.

Sanastiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini, kreditorlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra sud: agar to'lanmagan qarz mavjudligi aniqlansa, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilsa, sanastiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlaydi va to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish yuritishni tugatish to'grisida ajrim chiqaradi; agar qoplanmagan qarz borligi aniqlangan va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilgan bo'lsa, sanastiya qiluvchi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlashni rad etadi hamda tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqaradi yoxud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi.

Ta'minot bergan shaxslarning majburiyatlarni bajarmasligi oqibatlari - majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar tomonidan shu ta'minotdan kelib chiqadigan majburiyatlar kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun sud belgilagan muddatda bajarilmagan hamda tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi.

Majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar tomonidan shu ta'minotdan kelib chiqadigan majburiyatlar kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan muddatda bajarilmaganligi qonunchilikka muvofiq ushbu shaxslarning qarzdorning kreditorlar oldidagi majburiyatlari yuzasidan solidar yoki subsidiar javobgarligiga sabab bo'ladi.

Bunday holda to'lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomili jarayonida sud boshqaruvchisi sudga ta'minotni bergan shaxslarga nisbatan da'vo bilan murojaat qilishga haqli.

### **3-§. Tashqi boshqaruv tartib-taomili**

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi qonunning 108-moddasi talablarida tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish tartibi belgilangan. Unga muvofiq, agar qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyati aniqlansa, tashqi boshqaruv tartib-taomili kreditorlar yigilishining iltimosnomasi, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan qarzdor bo'yicha esa vakolatli davlat organining arizasi asosida sud tomonidan joriy etiladi.

Sudning tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqidagi ajrimi darhol ijro etilishi lozim va bu ajrim ustidan qonunchilikda belgilangan muddatda shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi. Tashqi boshqaruv tartib-taomili uchun belgilangan muddat ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan muddatlar doirasida kreditorlar yigilishining iltimosnomasiga, vakolatli davlat organining qaroriga yoki tashqi boshqaruvchining arizasiga ko'ra sud tomonidan qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin.

Sud sanastiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillarining jami muddati o'ttiz oydan oshmasligi kerak. Agar sud sanastiyasi tartib-taomili joriy etilgan sanadan to sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to'grisidagi masalani ko'rib chiqish kuniga qadar o'n sakkiz oydan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror chiqaradi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish oqibatlari - tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e'tiboran: qarzdorning rahbari o'z vazifasini bajarishdan chetlashtiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchi zimmasiga yuklatiladi. Tashqi boshqaruvchi qarzdorning rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tugatish yoki mazkur rahbarni boshqa ishga o'tkazish to'grisida buyruq chiqarishi shart; qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi. Qarzdorning rahbari va qarzdorning boshqa boshqaruv organlari vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o'tadi, bundan ushbu Qonunga muvofiq boshqa shaxslarga (organlarga) o'tadigan vakolatlar mustasno. Qarzdorning boshqaruv organlari va (yoki) to'lovga qobiliyatsizlikning ilgari tartib-taomilida tayinlangan sud boshqaruvchisi, tashqi boshqaruvchi tayinlangan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida qarzdorning buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlari, muhrlari va shtamlari (muhrlar va shtamlar mavjud bo'lgan taqdirda), moddiy va boshqa qimmatliklari tashqi boshqaruvchiga topshirilishini ta'minlashi shart; kreditorlarning talablarini ta'minlash yuzasidan ilgari ko'rilgan chora-tadbirlar bekor qilinadi; qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarining boshqacha tarzda cheklovlari faqat to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari doirasida qo'llanilishi mumkin; to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish jarayonida vujudga kelgan barcha turdagi joriy soliq to'lovlarini (bundan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha soliqlar mustasno) to'lash to'xtatib turiladi va tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonining muddati yakunlanganidan keyin to'lanadi. Bunday holda sud tashqi boshqaruvchining hisoboti tasdiqlangan hamda qarzdorga nisbatan qo'zgatilgan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni tugatish haqida qaror chiqargan sanadan e'tiboran ushbu soliq qarzlari olti oy davomida teng miqdorda bo'lib-bo'lib to'lanadi; qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yigimlari yuzasidan kreditorlar talablarining qanoatlantirilishiga nisbatan moratoriy joriy etiladi, bundan ushbu Qonunning 110-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilguniga qadar qarzdorning majburiyatlar bajarilishi ta'minoti sifatida berilgan mol-mulkidan foydalanishdan mazkur tartib-taomil joriy etilganidan keyin olingan hosilga, mahsulotga va daromadlarga nisbatan kreditorning o'z talablarini bajarish ta'minoti sifatidagi huquqi tatbiq etilmaydi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili tugaganidan keyin pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yigimlar bo'yicha kreditorlarga qarzdor to'lashi shart bo'lgan neustoyka (jarima, penya), shuningdek etkazilgan zararining summalari tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish paytidagi mavjud miqdorlarda to'lash uchun taqdim etilishi mumkin. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriy-kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga doir moratoriy tashqi boshqaruv tartibtaomili joriy etilguniga qadar bajarilish muddati kelgan pul majburiyatlariga va (yoki) soliqlar hamda yigimlarga nisbatan tatbiq etiladi, bundan qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili va (yoki) sud sanastiyasi tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari mustasno.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yigimlar yuzasidan moratoriyning amal qilish muddati ichida:

undiruv so'zsiz (aksteptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatlari va boshqa hujjatlar bo'yicha undiruvga yo'l qo'yilmaydi; pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yigimlar bo'yicha majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun neustoyka (jarima, penya) va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sankstiyalar hisoblanmaydi, bundan qarzdorga nisbatan kuzatuv tartib-taomili va (yoki) sud sanastiyasi tartib-taomili joriy etilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlari va (yoki) to'lanishi lozim bo'lgan foizlar mustasno.

Tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdagi pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yigimlar bo'yicha kreditorlar talablarining summasiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda foizlar hisoblanadi. Bu foizlar bir navbatdagi talablarga qarzdorga nisbatan tashqi boshqaruv joriy etilgan sanadan e'tiboran va sud tomonidan shu navbat talablari bo'yicha

kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida ajrim chiqariladigan sanaga qadar yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qilinadigan paytga qadar hisoblanadi. Hisoblangan foizlar summasi kreditorga asosiy qarz summasini to'lash bilan bir vaqtda to'lanishi lozim.

Moratoriy kreditorlarning tashqi boshqaruvchi shartnomani bajarishdan To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi Qonunning 119-moddasiga muvofiq bosh tortganligi oqibatida etkazilgan zararlarining o'rnini qoplash haqidagi talablariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar bajarilish muddati tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilganidan keyin boshlangan pul majburiyatlariga va (yoki) soliqlarga hamda yigimlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Moratoriyning amal qilishi fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablariga, alimentlar undirishga hamda mualliflik shartnomalari asosida haq to'lashga doir talablariga, shuningdek qarzdor qaysi fuqaroning hayotiga yoki sogligiga zarar etkazilganligi uchun javobgar bo'lsa, ana shu fuqaroning talablariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Kreditorning iltimosnomasiga asosan sud qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida mazkur kreditorning foydasiga qaysi pul majburiyatlari bo'yicha mol-mulk berilgan bo'lsa, o'sha pul majburiyatlarini moratoriyning ta'sir doirasidan chiqarish to'grisida, agar mol-mulk tashqi boshqaruv tartib-taomilini amalga oshirish uchun zarur bo'lmasa, ajrim chiqarishi mumkin.

Talablari qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan kreditorning iltimosnomasiga asosan quyidagi hollarda sud mazkur mol-mulkni moratoriyning ta'sir doirasidan chiqarish to'grisida ajrim chiqarishi mumkin, agar:

qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan kreditorning yoki kreditorlarning talablari miqdori garov narsasi qiymatidan oshib ketgan bo'lsa; garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatini pasayib ketishdan himoya qilish mavjud bo'lmasa; tashqi boshqaruv rejasini amalga oshirish qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan talablarga daxl qilmasa;

garovga qo'yilgan mol-mulkni tez buziladigan mahsulot sifatida saqlab qolish uchun choralar ko'rish talab etilsa; sud sanastiyasining rejasi yoki tashqi boshqaruv rejasi belgilangan muddatda tasdiqlanmagan bo'lsa.

Tashqi boshqaruvchilikka nomzod taqdim etish tartibi - tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy qilish haqida sudga iltimosnoma bilan murojaat etish to'grisida qaror qabul qilgan kreditorlarning yigilishi tashqi boshqaruvchilikka nomzodni ma'qullaydi.

Tashqi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlarning yigilishiga har qanday kreditor tomonidan yoki vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilishi mumkin.

Kreditorlarning yigilishi tomonidan qaror qabul qilishning To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan tartibiga muvofiq kreditorlarning eng ko'p ovozini olgan shaxsning nomzodi sudga taklif etiladi.

Sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini kreditorlar yigilishining tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida iltimosnoma bilan sudga murojaat qilish to'grisidagi qarori mavjud bo'lmagan holda joriy etayotgan bo'lsa, kreditorlarning yigilishi tashqi boshqaruvchilikka nomzodni sud tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish haqida ajrim chiqargan paytdan e'tiboran uch haftalik muddat ichida ko'rib chiqishga, ma'qullashga va sudga taqdim etishga haqli.

Tashqi boshqaruvchilikka nomzod kreditorlarning yigilishi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, sud vakolatli davlat organi tomonidan taklif etilgan nomzodlar orasidan tashqi boshqaruvchini tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchini tayinlash - tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda sud tomonidan tayinlanadi. Tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish bilan bir paytda tayinlashning imkoni mavjud bo'lmasa, sud tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida tayinlaydi.

Tashqi boshqaruvchini tayinlash to'grisida sud ajrim chiqaradi. Tashqi boshqaruvchini tayinlash to'grisidagi sudning ajrimi darhol ijro etilishi lozim va uning ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Tashqi boshqaruvchini o'z vazifasini bajarishdan ozod etish -

tashqi boshqaruvchi o'z vazifasini bajarishdan quyidagi hollarda sud tomonidan ozod etilishi mumkin: o'z arizasiga binoan; zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorlar yigilishining qarori asosida. Bunday holda kreditorlar yigilishining qarorida tashqi boshqaruvchilikka tavsiya etilayotgan yangi nomzod haqidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak; vakolatli davlat organining arizasi asosida; ushbu Qonunning 22-moddasiga muvofiq tashqi boshqaruvchi etib tayinlanishiga monelik qiladigan holatlar aniqlangan taqdirda.

Tashqi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa hollarda ham o'z vazifalarini bajarishdan ozod etilishi mumkin. Tashqi boshqaruvchini o'z vazifasini bajarishdan ozod etish to'g'risidagi ajrim darhol ijro etilishi kerak va ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) bunday ajrimning ijro etilishini to'xtatib qo'ymaydi. Tashqi boshqaruvchining huquqlari - tashqi boshqaruvchi qarzdorning rahbari vakolatlarini amalga oshiradi.

Tashqi boshqaruvchi quyidagilarga haqli: kreditorlarning yigilishini hamda kreditorlar qo'mitasini chaqirishga; To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi Qonunning 118-moddasida nazarda tutilgan cheklovlarni hisobga olgan holda qarzdorning mol-mulkini tasarruf etishga; qarzdor nomidan kelishuv bitimi tuzishga; ushbu Qonunning 26-moddasiga muvofiq haq olishga; agar ushbu Qonunda yoki kreditorlar bilan kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z vazifalarini amalga oshirish uchun boshqa shaxslarni ular faoliyatiga qarzdorning mablag'laridan haq to'lagan holda shartnoma asosida ishga jalb qilishga; o'z vazifalarini bajarishni muddatidan ilgari tugatish to'g'risida sudga ariza berishga; To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi Qonunning 63 — 65-moddalarida belgilangan tartibda qarzdorning shartnomalarini haqiqiy emas deb topish haqida sudga ariza berishga; qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida tijorat banklaridan, moliya tashkilotlaridan qarz olishga, shuningdek qarzdorning faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardan moliyaviy yordam olishga; qarzdorga taalluqli bo'lgan axborotni va hujjatlarni qarzdorning

rahbaridan, ta'rischilaridan va (yoki) davlat organlaridan so'rab olishga; o'z huquq va majburiyatlarining amalga oshirilishini ta'minlash uchun davlat xizmatlaridan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi orqali ko'rsatiladigan xizmatlardan oldindan to'lovlarni amalga oshirmasdan foydalanish; qarzdorning shartnomalarini bajarish ushbu Qonunning 119-moddasida belgilangan tartibda rad etilishini ma'lum qilishga.

Tashqi boshqaruvchi o'z huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirayotganda qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha qonunchilikka muvofiq subsidiar javobgar bo'ladigan shaxslarga nisbatan ular qarzdorni to'lovga qobiliyatsizlikka olib borganligi munosabati bilan talablar qo'yishga haqlidir. Tashqi boshqaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Tashqi boshqaruvchining majburiyatlari - tashqi boshqaruvchi: qarzdorning mol-mulkini qabul qilib olishi va uni inventarizastiyadan o'tkazishi; qarzdorning uchinchi shaxslarda turgan mol-mulkini qidirishga, aniqlashga va qaytarishga qaratilgan choralar ko'rishi; tashqi boshqaruvni o'tkazish va kreditorlar bilan hisob-kitoblar qilish uchun maxsus hisobvaraqa ochishi; tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqishi va kreditorlarning yigilishi tasdiqlashi uchun taqdim etishi; moliyaviy, buxgalteriya va statistika hisobini yuritishi hamda hisobdorlikni ta'minlashi; kreditorlarning qarzdorga nisbatan talablari yuzasidan e'tirozlar bildirishi; qarzdor oldidagi qarzni undirish choralarini ko'rishi; kreditorlarning talablari reestrini yuritishi; kreditorlarning yigilishiga tashqi boshqaruv rejasi bajarilishining borishi va yakunlari haqida hisobotlar taqdim etishi; kreditorning talabiga ko'ra qarzdorning moliyaviy ahvoli va (yoki) o'z faoliyati to'grisidagi axborotni o'n kunlik muddatda taqdim etishi; tashqi boshqaruv rejasi bajarilishining borishi haqida kreditorlar yigilishiga va kreditorlar qo'mitasiga, shuningdek, agar qarzdorning ustav fondida (ustav kapitalida) davlatning ulushi bo'lsa, vakolatli davlat organiga axborot taqdim etishi shart.

Tashqi boshqaruvchining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. Kreditorlarning talablari - kreditorlar qarzdorga nisbatan o'z talablarini tashqi boshqaruv tartib-



taomili amal qilayotgan muddatning istalgan vaqtida taqdim etishga haqli. Mazkur talablar tashqi boshqaruvchiga qarzdorning joylashgan eri va (yoki) elektron pochta manzili bo'yicha yuboriladi. Kreditorlarning ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq aniqlangan deb e'tirof etiladigan talablari bu talablarni aniqlangan deb belgilash imkonini beruvchi hujjatlar ilova qilingan holda tashqi boshqaruvchiga yuboriladi.

Tashqi boshqaruvchi kreditorlarning taqdim etilgan talablarini ko'rib chiqadi va tegishli talab olinganidan keyin uni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha kreditorlarning talablari reestriga uzogi bilan ikki hafta ichida tegishli yozuv kiritadi. Tashqi boshqaruvchi ko'rib chiqish natijalari to'grisida tegishli kreditorni kreditorning talablari olingan paytdan e'tiboran uzogi bilan bir oylik muddat ichida xabardor qiladi.

Kreditor kreditorlarning talablarini tashqi boshqaruvchi tomonidan ko'rib chiqish natijalari yuzasidan e'tirozlarini to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rayotgan sudga bu natijalardan xabardor bo'lgan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida bildirishi mumkin.

Kreditorlarning ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan muddatda e'tirozlar bildirilmagan talablari tashqi boshqaruvchi tomonidan aniqlanadigan miqdorda, tarkibda va ularni qanoatlantirish navbatida aniqlangan talablar deb hisoblanadi.

Kreditor mustaqil ravishda qarzdordan talab qilish huquqini notarial tartibda boshqa shaxslarga o'tkazishi mumkin. Bunda talab qilish huquqini sotib olgan shaxs talabini o'n kun muddat ichida kreditorlar reestriga kiritish uchun qarzdorning tashqi boshqaruvchisiga murojaat qilishi kerak.

Kreditorlarning e'tirozlarini ko'rib chiqish - kreditorlarning tashqi boshqaruvchi tomonidan aniqlangan o'z talablari miqdori, tarkibi va ularni qanoatlantirish navbati xususidagi ushbu Qonunning 116-moddasida belgilangan muddatlarda berilgan e'tirozlari sud tomonidan mazkur e'tirozlar olingan sanadan e'tiboran bir oydan kechiktirmay ko'rib chiqiladi.

Kreditorlarning e'tirozlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud ajrim chiqaradi, ajrimda kreditorlarning qaysi talablariga nisbatan

e'tirozlar asosli deb topilgan bo'lsa, kreditorlarning shu talablari miqdori, tarkibi va ularni qanoatlantirish navbati ko'rsatiladi.

Kreditorlarning e'tirozlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud chiqargan ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish doirasida kreditorlarning e'tirozlarini ko'rib chiqish chogida chiqarilgan ajrimlar va boshqa sud hujjatlari alohida ish yuritishda kreditorlarning qarzdorga nisbatan talablarini ko'rib chiqishda preyardistial kuchga ega bo'ladi.

Qarzdor xodimlari vakilining mehnatga haq to'lash va mehnat shartnomasi bo'yicha ishlovchi shaxslarga ishdan bo'shatish nafaqasi to'lash bo'yicha qarzning miqdori va tarkibi haqidagi e'tirozlari ham ushbu moddada belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish - qarzdor mol-mulkining egasi yoki ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilgan organlar qarzdorning mol-mulkini tasarruf etish bo'yicha qaror qabul qilishga yoxud tashqi boshqaruvchining vakolatlarini boshqacha tarzda cheklashga haqli emas, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar ushbu Qonunda yoki tashqi boshqaruv rejasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yirik bitimlar va manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar tashqi boshqaruvchi tomonidan faqat kreditorlar yigilishining yoki kreditorlar qo'mitasining roziligi bilan tuziladi. Balans qiymati qarzdorning ko'chmas mol-mulkini yoki bitim tuzish paytidagi aktivlari balans qiymatining o'n foizidan ko'progini tashkil etadigan boshqa mol-mulkini tasarruf etishga olib keladigan bitimlar yirik bitimlar jumlasiga kiradi.

Bitimni tuzgan taraflardan biri tashqi boshqaruvchiga yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxs bo'lsa, bunday bitimlar manfaatdorlik nazarda tutilgan bitimlar deb e'tirof etiladi.

Qarzdorning shartnomalarini bajarishni rad etish - sudning tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish to'grisidagi ajrimi qarzdor to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish qo'zgatilguniga qadar tuzgan shartnomalarni bajarishni to'xtatish yoki ularni bajarishni rad etish uchun asos bo'la olmaydi. Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish qo'zgatilguniga qadar tuzilgan, qarzdorning faoliyatini

davom ettirish uchun muhim bo'lgan shartnomalarning bajarilishi tashqi boshqaruvchi tomonidan davom ettiriladi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno. Bunda qarzdor tuzgan shartnomalarni qarzdorga nisbatan tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilganligi munosabati bilan bajarishni to'xtatish yoki ularni bajarishni rad etish bo'yicha taraflarning kelishuvlari haqiqiy emas deb hisoblanadi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Qarzdor xarajatlarning tartibga solinishi - qarzdorning iste'molga, shu jumladan mehnatga haq to'lashga sarflanadigan xarajatlarning ko'payishiga olib keluvchi qarorlar tashqi boshqaruvchi tomonidan faqat kreditorlar yigilishining yoki kreditorlar qo'mitasining roziligi bilan qabul qilinishi mumkin, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Tashqi boshqaruv rejasini - tashqi boshqaruvchi sud tomonidan tayinlangan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kreditorlar yigilishiga taqdim etishi kerak.

Tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to'grisidagi masalani ko'rib chiqish chogida ovoz berishda birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari ishtirok etadi.

Kreditorlar yigilishining tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash haqidagi qarori, agar uni birinchi va ikkinchi guruhlarining har biridagi kreditorlarning ko'pchiligi yoqlab ovoz bersa, qabul qilingan deb hisoblanadi. Bunda ovoz berish huquqiga ega bo'lgan va tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor yoki kreditorlar qarzdor tugatilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo'lgan kafolatli tovonga teng tovon olishga haqlidir.

Agar birinchi va ikkinchi guruhlarining har biridagi kreditorlar tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to'grisidagi qarorni qabul qilmasa, shuningdek ovoz berish chogida guruhlardan biridagi kreditorlarning zarur miqdordagi ovozlari to'planmasa, sudga qarzdorni bankrot deb topish va tugatish to'grisida ish yuritishni boshlash to'grisidagi iltimosnoma bilan murojaat qilish haqida qaror qabul qilinadi.

Kreditorlar yigilishining tashqi boshqaruv rejasiga o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qarori birinchi va ikkinchi guruh kreditorlari tomonidan, agar har bir alohida guruhning ko'pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilinadi.

Tashqi boshqaruv rejasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak: qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari, mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish shartlari va tartibi, ularni amalga oshirish xarajatlari hamda qarzdorning boshqa xarajatlari; qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash muddati.

Qarzdorning to'lov qobiliyati ushbu Qonunning 5-moddasida belgilangan to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo'lmagan va (yoki) kreditorlar tomonidan bildirilgan talablardan voz kechilgan taqdirda tiklangan deb e'tirof etiladi.

Tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditorlar o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida quyidagilarni tekshirish uchun ekspertlarni jalb etishi mumkin: tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bergan kreditor hamda ushbu rejani tasdiqlash uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan kreditor qarzdor tugatilgan taqdirda eng kamida olishi mumkin bo'lgan kafolatli to'lovga teng tovon olish huquqiga ega bo'lishini; tashqi boshqaruv rejasining muvaffaqiyatli bajarilish imkoniyati mavjudligini; qarzdorning mol-mulki bilan ta'minlangan kreditorlarning boshqa kreditorlarga nisbatan ustunlik huquqini.

Agar tashqi boshqaruv rejasida qarzdor talabini kamaytirish yoki hisobdan chiqarish nazarda tutilgan bo'lsa, bu ushbu Qonunning 100-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Tashqi boshqaruvchi kreditorlar yigilishining yoki kreditorlar qo'mitasining talabiga binoan tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayoni haqida kreditorlar oldida hisobot beradi.

Tashqi boshqaruv rejasini amalga oshirish qarzdorning xo'jalik faoliyati tugatilishiga olib kelmasligi kerak, bundan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zgatilganidan keyin yuzaga kelgan pul majburiyatlarini qanoatlantirish va (yoki) soliqlar hamda yigimlar

bo'yicha majburiyatni bajarish vazifasi qarzdorning molmulkini sotib oluvchiga o'tadigan hollar mustasno.

Tashqi boshqaruv rejasini ko'rib chiqish - tashqi boshqaruv rejasi kreditorlarning yigilishida ko'rib chiqiladi, yigilish tashqi boshqaruv tartib-taomili joriy etilgan paytdan e'tiboran ikki oydan kechiktirmay tashqi boshqaruvchi tomonidan chaqiriladi. Tashqi boshqaruvchi zaruratga qarab barcha kreditorlarga kreditorlar yigilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy haqida xabar qiladi hamda mazkur yigilish o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin ularga tashqi boshqaruv rejasi bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlaydi.

Kreditorlarning yigilishida tashqi boshqaruvchi, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili hamda qarzdorning xodimlari vakili maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etish huquqiga ega.

Tashqi boshqaruvning muddatini uzaytirish - kreditorlarning yigilishi tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to'grisida qaror qabul qilgan va unda nazarda tutilgan tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddati belgilangan dastlabki muddatdan ortiq bo'lgan taqdirda, agar tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatini uzaytirish yoki tashqi boshqaruvning tasdiqlangan rejasini amalga oshirish qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishiga olib keladi deb hisoblash uchun etarli asoslar mavjud bo'lsa, sud tashqi boshqaruvning tartib-taomili muddatini uzaytirish haqida ajrim chiqaradi. Bunday hollarda umumiy muddat To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi Qonunning 108 moddasida belgilangan muddatlardan oshib ketmasligi kerak.

Qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash chora-tadbirlari - tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilishi mumkin: ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish; norentabel ishlab chiqarishlarni yopish; debitorlik qarzlarni undirish; qarzdor mol-mulking bir qismini sotish; qarzdorning talabidan o'zganing foydasiga voz kechish; qarzdorning majburiyatlarini uchinchi shaxslar tomonidan bajarish; qarzdorning qo'shimcha akstiyalarini joylashtirish; qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish; tijorat banklaridan, moliya

institutlaridan qarz olish, shuningdek qarzdorning faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mablaglar jalb etish; akstiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) kreditorlik qarzdorligi hisobiga ko'paytirish (qarzdorlikni akstiyaga ayirboshlash) to'grisidagi qaror akstiyadorlarning umumiy yigilishida ishtirok etayotgan, ovoz beruvchi akstiyalarning egalari bo'lgan akstiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi; qarzdorning aktivlari o'rnini almashtirish.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning boshqa chora-tadbirlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chora-tadbirlardan tashqari vakolatli davlat organining taqdimnomasiga binoan sud ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan qarzdorning faoliyat ko'rsatmayotgan ob'ektlarini konservastiya qilish to'grisida ajrim chiqarishi mumkin.

Qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish -kreditorlarning talablarini qanoatlantirish maqsadida tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish nazarda tutilishi mumkin.

Korxonalar (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganida qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga mo'ljallangan barcha turdagi mol-mulki, shu jumladan er uchastkalari, binolari, inshootlari, uskunalari, inventari, xom ashyosi, mahsuloti, talab qilish huquqlari, shuningdek qarzdorning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari), uning tovarlari, ishlari va xizmatlari, qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa mutlaq huquqlar o'ziga shaxslarga o'tkaziladi, bundan boshqa shaxslarga topshirilishi mumkin bo'lmagan huquq va majburiyatlar mustasno.

Korxonalar (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganda qarzdorning mol-mulkini baholash baholovchi tashkilot tomonidan o'tkaziladi, uning xizmatiga qarzdorning mol-mulki hisobidan haq to'lanadi. Baholovchi tashkilot kreditorlar yigilishi yoki kreditorlar qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar qarzdorning hisobvaragidagi pul mablagi uning mol-mulkini baholash uchun etarli bo'lmasa, tashqi boshqaruvchi bu haqda kreditorlarni xabardor qilishi kerak. Bunday holda qarzdorning mol-mulkini baholash bo'yicha xarajatlar kreditorlar tomonidan amalga oshiriladi va ushbu xarajatlar qarzdor korxonaning molmulkining sotilishi natijasida qarzdorning hisobvaragiga kelib tushgan mablaglar hisobidan, ushbu Qonun 150-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda navbatdan tashqari qoplanadi.

Zarur bo'lgan taqdirda, to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar qarzdorning mol-mulkini baholash haqidagi hisobotning haqqoniyligini ekspertizadan o'tkazishni talab qilishi mumkin.

Tashqi boshqaruvchi korxonani (biznesni) kreditorlar yigilishining roziligi bilan bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan mulkiy majmua sifatida realizatsiya qilishga, basharti xaridor o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankning tegishli kafolatini taqdim etsa, haqli bo'ladi.

Korxonaning (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotilayotganda korxonaning (biznesni) sotilayotgan paytda amalda bo'lgan barcha mehnat shartnomalari o'z kuchini saqlab qoladi, ish beruvchining huquq va majburiyatlari esa korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotib oluvchi ixtiyoriga o'tadi.

Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosi o'tkazish vositasida amalga oshiriladi. Elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosini o'tkazish shartlari kreditorlar yigilishi yoki kreditorlar qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Agar korxonaning (biznesni) tarkibida muomalada bo'lishi cheklangan mol-mulk bo'lsa, korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotish qonunga muvofiq mazkur mol-mulkka mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida ega bo'la oladigan shaxslar ishtirokida elektron onlayn-aukstion shaklidagi yopiq kimoshdi savdolarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosiga qo'yiladigan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishning boshlangich narxi, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, korxonaning molmulkini baholovchi tashkilot o'tkazgan baholash hisobga olingan holda kreditorlar yigilishi yoki kreditorlar qo'mitasi qarori bilan belgilanadi.

Elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosini o'tkazish shartlarida korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan tushgan pul mablaglarining tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati tugashidan kamida o'ttiz kun oldin qarzdor tomonidan olinishi nazarda tutilishi kerak.

Mulkiy majmua sifatida sotilayotgan korxonaning (biznesning) oldi-sotdi shartnomasi elektron onlayn kimoshdi savdosi golibi bilan tashqi boshqaruvchi o'rtasida elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosi yakunlari e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay tuziladi. Elektron onlaynaukstion shaklidagi kimoshdi savdosida golib chiqqan shaxs va kimoshdi savdosining tashkilotchisi kimoshdi savdosi o'tkazilgan kuni ana shu savdoning natijalari to'grisidagi bayonnomani rasmiylashtiradi va ushbu bayonnoma shartnoma kuchiga ega bo'ladi. Elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosida golib chiqqan shaxs elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosi bayonnomasini yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda o'zi to'lagan zakalatdan mahrum bo'ladi. Zakalat summasi elektron onlaynaukstion shaklidagi kimoshdi savdosi tashkilotchilarining ushbu tadbirni o'tkazishga ketgan chiqimlari chegirib tashlangan holda qarzdorning aktivlari tarkibiga kiritiladi.

Agar korxonani (biznesni) ushbu moddaning o'n to'rtinchi qismida nazarda tutilgan shartlar asosida mulkiy majmua sifatida sotilmagan bo'lsa, tashqi boshqaruvchi, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, kreditorlar yigilishi qaroriga binoan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida ommaviy oferta savdosiga qo'yishi va ommaviy axborot vositasida ommaviy oferta to'grisidagi taklif e'lon qilingach, kamida o'n besh kundan keyin uning uchun eng yuqori narxni



taklif qilgan shaxs bilan korxonaning (biznesning) oldi-sotdi shartnomasini tuzishi mumkin.

Ommaviy oferta savdosiga qo'yish haqidagi qaror kreditorlarning uchdan ikki qismi uni yoqlab ovoz bergan taqdirda qabul qilingan deb hisoblanadi, ofertaga taklif etilgan korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdagi boshlangich narx esa ilgari elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosida belgilangan boshlangich narxdan kam bo'lmasligi kerak.

Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan olingan summa hisobidan kreditorlarning talablarini qarzdor to'la hajmda qanoatlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan hollarda, to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan sud tomonidan tugatilishi lozim.

Agar korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan tushgan summa kreditorlar talablarini to'la hajmda qanoatlantirish uchun etarli bo'lmasa, tashqi boshqaruvchi kreditorlarga kelishuv bitimi tuzishni taklif qiladi. Kelishuv bitimiga erishilmagan taqdirda, sud tashqi boshqaruvchining arizasiga binoan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi.

Korxonani (biznesni) mulkiy majmua sifatida sotishdan olingan mablaglar ushbu Qonunning 149, 150 va 185-moddalarida nazarda tutilgan navbat tartibida taqsimlanadi.

Tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida tashqi boshqaruvchi kreditorlar yigilishining roziligi bilan qarzdorning arzonbaho va tez ishdan chiqadigan mol-mulkini, shuningdek xomashyo hamda tayyor mahsulot qoldiqlarini elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosi o'tkazmagan holda, oldi-sotdi shartnomalari asosida to'gridan-to'gri sotishga haqlidir.

Qarzdor mol-mulking bir qismini sotishdan tushgan mablaglar To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi Qonunning 149, 150 va 185-moddalarida nazarda tutilgan navbat tartibida taqsimlanadi. Qarzdorning talab qilish huquqlaridan o'zganing foydasiga voz kechish - qarzdorning talab qilish huquqlaridan o'zganing foydasiga voz kechish, agar tashqi boshqaruv rejasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, talab

qilish huquqlarini tashqi boshqaruvchi tomonidan kreditorlar yigilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining roziligi bilan elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Agar tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning talab qilish huquqlarini elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosi o‘tkazmasdan muayyan xaridorga sotish imkoniyati nazarda tutilgan bo‘lsa yoki talab qilish huquqlari elektron onlayn-aukstion shaklidagi kimoshdi savdosida sotilmagan bo‘lsa, kreditorlar yigilishi yoki kreditorlar qo‘mitasi talab qilish huquqlarini sotish narxini va bunday sotuvning boshqa shartlarini belgilaydi.

Qarzdor majburiyatlarining qarzdor mol-mulkining egasi yoki uchinchi shaxs tomonidan bajarilishi - qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi tashqi boshqaruv tartib-taomili tugagunga qadar istalgan vaqtda kreditorlarning talablari reestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini bir yo‘la qanoatlantirishga haqli.

Qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlar hamda yigimlar bo‘yicha majburiyatlari uchinchi shaxs (uchinchi shaxslar) tomonidan bajarilishiga, basharti bunday bajarish kreditorlarning talablari reestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini bir yo‘la qanoatlantirsa, yo‘l qo‘yiladi.

Kreditorning o‘zi haqidagi, u bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish majburiyatlarini buzganligi, xuddi shuningdek ijroni ta’minlashdan boshqacha tarzda bosh tortganligi oqibatida ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq kreditorlarning talablarini qanoatlantirish mumkin bo‘lmaganda, pul mablaglari qarzdor joylashgan erdagi (uning yashash joyidagi) notariusning yoki sudning depozitiga kiritilishi mumkin.

Qarzdorning qo‘shimcha akstiyalarini joylashtirish - qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash maqsadida tashqi boshqaruv rejasida qarzdor akstiyadorlik jamiyatining qo‘shimcha akstiyalarini joylashtirish imkoniyati nazarda tutilishi mumkin. Qo‘shimcha akstiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish

imkoniyati tashqi boshqaruv rejasiga faqat zaruriy qarorni qabul qilgan qarzdorning akstiyadorlari umumiy yigilishining iltimosnomasiga binoan, agar bu iltimosnoma tashqi boshqaruvchiga tashqi boshqaruv tartib-taomili tugaydigan sanaga kamida olti oy qolganida yuborilgan bo'lsa, kiritilishi mumkin.

Qarzdor akstiyadorlik jamiyatining ustav fondini (ustav kapitalini) uning qo'shimcha akstiyalarini chiqarish yo'li bilan ko'paytirish to'grisidagi qaror kreditorlar yigilishi tomonidan qabul qilinadi. Agar qarzdorning ustav fondini (ustav kapitalini) uning qo'shimcha akstiyalarini joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish haqidagi masalani hal qilishda e'lon qilingan akstiyalarning qarzdorning ustavida belgilangan miqdorini ko'paytirishga oid qismiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish zarur bo'lsa, u holda qarzdorning ustaviga faqat qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganidan keyin ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish to'grisida qaror qabul qilinishi mumkin bo'ladi.

Qarzdorning qo'shimcha akstiyalarini joylashtirish asosan ularning haqini faqat pul mablaglari bilan to'lagan holda, ochiq obuna bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Qarzdorning akstiyadorlari qarzdorning joylashtiriladigan akstiyalarini akstiyadorlik jamiyatining o'zlariga tegishli akstiyalari miqdoriga mutanosib miqdorda va ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq belgilanadigan narxda sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

Tashkil etilayotgan jamiyatlar ustav fondlarining (ustav kapitallarining) miqdori kiritilayotgan mol-mulkning baholovchi tashkilot tomonidan qarzdor molmulki egasi yoki qarzdorning tegishli bitimlarni tuzish to'grisida qaror qabul qilishga ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqaruv organi takliflari hisobga olingan holda aniqlangan baholash qiymati asosida belgilanadi.

Qarzdor aktivlarining o'zni almashtirilayotganda bu haqda qaror qabul qilinguniga qadar amalda bo'lgan barcha mehnat shartnomalari, ish beruvchining huquq va majburiyatlari yangi tashkil etilayotgan akstiyadorlik jamiyatiga yoki akstiyadorlik jamiyatlariga o'tkazilgan holda, o'z kuchini saqlab qoladi. Qarzdorning ayrim faoliyat turlarini

amalga oshirishga doir listenziyalari qonunchilikda belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirilishi kerak.

Mol-mulkning baholash qiymati kreditorlar talablarining summasidan ortiq bo'lgan taqdirda, qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan akstiyadorlik jamiyati yoki akstiyadorlik jamiyatlarining akstiyalari qarzdorning mol-mulki tarkibiga kiritiladi va fond birjasida sotiladi.

Qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan akstiyadorlik jamiyatining yoki akstiyadorlik jamiyatlarining akstiyalarini sotish barcha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun pul mablaglari to'planishini ta'minlashi kerak.

Qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan akstiyadorlik jamiyatining yoki akstiyadorlik jamiyatlarining akstiyalarini fond birjasida sotish qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning mol-mulki asosida tashkil etilgan akstiyadorlik jamiyatining yoki akstiyadorlik jamiyatlarining akstiyalarini fond birjasida sotish nazarda tutilishi mumkin. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish ushbu Qonunning 149 va 150-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Tashqi boshqaruvchining hisoboti - tashqi boshqaruvchi tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatlari tugashi munosabati bilan yoki uni muddatidan ilgari tugatish uchun asoslar mavjud bo'lganda kreditorlar yigilishini chaqirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning (organlarning) talabiga binoan, shuningdek kreditorlarning talablari reestriga muvofiq barcha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun etarli pul mablaglari to'plangan taqdirda kreditorlar yigilishi ko'rib chiqishi uchun hisobot taqdim etishi shart. Tashqi boshqaruvchi, agar kreditorlar yigilishi tomonidan hisobotni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar boshlash haqida qaror qabul qilingan bo'lsa, sudga hisobot taqdim etishi shart.

Tashqi boshqaruvchining hisobotida quyidagilar bo'lishi kerak:

qarzdorning so'nggi hisobot sanasidagi holatga ko'ra buxgalteriya balansi; pul mablaglarining harakati to'grisidagi hisobot; qarzdorning moliyaviy natijalari haqidagi hisobot; qarzdorning pul majburiyatlari va

(yoki) soliqlar hamda yigimlar bo'yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga qaratilishi mumkin bo'lgan bo'sh pul mablaglari bor-yo'qligi to'grisidagi ma'lumotlar; qarzdorning debitorlik qarzi tafsiloti hamda qarzdorning amalga oshirilmay qolgan talab qilish huquqlari haqidagi ma'lumotlar; qarzdorning kreditorlik qarzini to'lash imkoniyati to'grisidagi boshqa ma'lumotlar.

Tashqi boshqaruvchining hisobotiga kreditorlarning talablari reestri ilova qilingan bo'lishi kerak. Tashqi boshqaruvchi hisobotni taqdim etish bilan bir vaqtda kreditorlar yigilishiga quyidagi takliflardan birini kiritadi: qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganligi munosabati bilan tashqi boshqaruv tartib-taomilini tugatish va kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga o'tish to'grisidagi; kelishuv bitimi tuzish haqidagi; tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddatini uzaytirish to'grisidagi; tashqi boshqaruvni tugatish hamda qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi.

Tashqi boshqaruvchining hisoboti tashqi boshqaruv tartib-taomili muddati tugaganidan keyin o'n kundan kechiktirmay yoki tashqi boshqaruv tartibtaomilini muddatidan ilgari tugatish uchun asoslar yuzaga kelganidan keyin o'n besh kundan kechiktirmay yoxud kreditorlar yigilishini chaqirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning (organlarning) talabiga binoan kreditorlar yigilishi chaqirilgan taqdirda bir oydan kechiktirmay chaqiriladigan kreditorlar yigilishi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Tashqi boshqaruvchi barcha kreditorlarga tashqi boshqaruvchining hisobotini ko'rib chiqish bo'yicha kreditorlar yigilishi o'tkazilishi to'grisida ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan tartibda xabar berishi shart.

Tashqi boshqaruvchi kreditorlarga tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddati tugashiga kamida o'n besh kun qolganida yoki kreditorlar yigilishini chaqirishning belgilangan sanasiga kamida o'n kun qolganida tashqi boshqaruvchining hisoboti bilan oldindan tanishish imkoniyatini berishi shart.

Kreditorlar yigilishi tashqi boshqaruvchining hisobotini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli: qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganligi va kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga kirishganligi munosabati bilan tashqi boshqaruv tartib-taomilini tugatish to'grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi; kelishuv bitimi tuzish to'grisidagi; tashqi boshqaruv tartib-taomilining muddatini uzaytirish to'grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi; qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqidagi.

Tashqi boshqaruvchi hisobotining sud tomonidan tasdiqlanishi Tashqi boshqaruvchining kreditorlar yigilishi tomonidan ko'rib chiqilgan hisoboti va kreditorlar yigilishining bayonnomasi kreditorlar yigilishi o'tkazilgan sanadan keyin ikki kundan kechiktirmay tashqi boshqaruvchi tomonidan sudga yuboriladi.

Tashqi boshqaruvchining hisobotiga kreditorlarning talablari reestri va kreditorlar yigilishi qabul qilgan qarorga qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan kreditorlarning shikoyatlari ilova qilinishi kerak. Tashqi boshqaruvchining hisoboti va kreditorlarning shikoyatlari sud tomonidan majlisda ko'rib chiqiladi. Sud majlisi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy to'grisida tashqi boshqaruvchi, shuningdek shikoyat bergan kreditorlar xabardor qilinadi. Xabardor qilingan shaxslarning hozir bo'lmasligi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rishga monelik qilmaydi.

Tashqi boshqaruvchining hisoboti quyidagi hollarda sud tomonidan tasdiqlanishi lozim, agar:

- kreditorlarning barcha talablari kreditorlarning talablari reestriga muvofiq qanoatlantirilgan bo'lsa;
- qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishi va kreditorlar bilan hisob-kitoblarga o'tilishi munosabati bilan kreditorlar yigilishi tashqi boshqaruv tartibtaomilini tugatish to'grisida qaror qabul qilgan bo'lsa;
- kreditorlar yigilishi tomonidan muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar boshlanishi haqida qaror qabul qilingan bo'lsa;

- tashqi boshqaruvchi muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘grisida iltimosnoma bergan bo‘lsa;
- kreditorlar bilan qarzdor o‘rtasida kelishuv bitimi tuzilgan bo‘lsa;
- tashqi boshqaruv tartib-taomili muddatini uzaytirish to‘grisidagi iltimosnoma bilan sudga murojaat etish haqida kreditorlar yigilishi tomonidan qaror qabul qilingan bo‘lsa.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni yuritish kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugallanganidan va tashqi boshqaruvchining hisoboti kreditorlar bilan hisob-kitoblar yakunlariga ko‘ra sud tomonidan ko‘rib chiqilganidan keyin tugatiladi.

Agar sud tomonidan belgilangan muddatda kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilmagan bo‘lsa, sud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qiladi.

Muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘grisida ajrim chiqarish oqibatlari - sud tomonidan muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘grisida ajrim chiqarilishi kreditorlarning talablari reestriga muvofiq kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash uchun asos bo‘ladi.

Sudning muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to‘grisidagi ajrimida quyidagilar belgilanadi:

- talablari qanoatlantirilishi boshlanadigan kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbati;
- navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tugallash navbatining mazkur ajrim chiqarilgan sanadan e‘tiboran ikki oydan oshmasligi shart bo‘lgan muddati;
- bunday navbatdagi kreditorlarning talablarini qanoatlantirish nisbatlari.

Kreditorlarning ular bilan hisob-kitoblarni boshlash haqida ajrim chiqarilgan kreditorlarga nisbatan navbat tartibida qanoatlantirilishi lozim bo‘lgan talablari sud tomonidan aniqlangan taqdirda, sud kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibini o‘zgartirish to‘grisida ajrim chiqarishga haqli.

Agar muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar sud tomonidan belgilangan muddatda amalga oshirilmagan yoki hisob-kitoblar belgilangan nisbatda amalga oshirilmagan bo'lsa, kreditor muayyan navbatdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblarni boshlash to'grisidagi ajrim chiqarilgan sanadan e'tiboran to uning talablari tegishincha to'la yoxud belgilangan nisbatda qanoatlantirilgan sanaga qadar to'lanmagan summaga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan miqdorda foizlar hisoblanishini talab qilishga haqli.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish tugatilganligi yoki sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qilganligi tashqi boshqaruvchining vakolatlari tugashiga olib keladi. Agar tashqi boshqaruv tartib-taomili kelishuv bitimini tuzish yoki kreditorlarning talablari qanoatlantirilishi bilan tamomlansa, tashqi boshqaruvchi yangi rahbar saylanguniga (tayinlanguniga) qadar qarzdorning rahbari vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

Tashqi boshqaruvchi qarzdorning rahbarini saylash (tayinlash) to'grisidagi masalani ko'rib chiqish uchun qarzdorning boshqaruv organini o'z tashabbusi bilan chaqirishga haqli. Qarzdorning va qarzdor mol-mulki egasining boshqa boshqaruv organlari vakolatlari tiklanadi.

Agar sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qilingan hamda tugatish boshqaruvchisi etib boshqa shaxs tayinlangan bo'lsa, tashqi boshqaruvchi tugatish boshqaruvchisiga ishlarni topshirguniga qadar o'z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi. Tashqi boshqaruvchi tugatish boshqaruvchisi tayinlangan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay ishlarni unga topshirishi shart.

#### **4-§. Bankrotlik to'grisidagi ishni sudda ko'rishga tayyorlash, uni hal etish**

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 12-apreldagi To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi yangi qonuning 37-moddasida keltirilgan asoslar bo'yicha xamda ushbu qonunning 5-moddasi birinchi qismida



nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lganda sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkin, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ishni yuritish kreditorlarning, qarzdorning va ushbu Qonun bilan vakolat berilgan shaxslarning arizasi asosida joriy etiladi. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish va to'lovga qobiliyatsizlikni tiklash tartib-taomillaridan birini qo'llash haqida sudga ariza bilan murojaat qilishga qarzdorning vaqtincha to'lovga qobiliyatsizligi asos bo'ladi.

Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish uchun qarzdorning doimiy to'lovga qobiliyatsizligi asos bo'ladi.

Kreditorning qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zg'atish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida ariza bilan sudga murojaat etishi uchun kreditor talablarining asosligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati asos bo'ladi.

Davlat soliq xizmati organi tomonidan qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zg'atish haqida ariza berish uchun soliqlar hamda yig'imlar bo'yicha qarzni undirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar asos bo'ladi. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ishni yuritish kreditorlarning, qarzdorning va ushbu Qonun bilan vakolat berilgan shaxslarning arizasi asosida joriy etiladi. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish va to'lovga qobiliyatsizlikni tiklash tartib-taomillaridan birini qo'llash haqida sudga ariza bilan murojaat qilishga qarzdorning vaqtincha to'lovga qobiliyatsizligi asos bo'ladi.

Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi ariza bilan sudga murojaat etish uchun qarzdorning doimiy to'lovga qobiliyatsizligi asos bo'ladi.

Kreditorning qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish hamda uni bankrot deb topish, shuningdek tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida ariza bilan sudga murojaat etishi uchun kreditor talablarining asosligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati asos bo'ladi.

Davlat soliq xizmati organi tomonidan qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqida ariza berish uchun soliqlar hamda yigimlar bo'yicha qarzni undirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar asos bo'ladi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish esa ushbu qonunning 46-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani qabul qilish haqidagi masalani yoki to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to'grisidagi masalani sudya ariza tushgan paytdan e'tiboran besh kundan kechiktirmay hal etadi.

Sudya qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisida ish qo'zgatish haqida O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual [kodeksi](#) va ushbu Qonun talablariga rioya etgan holda berilgan arizani o'z ish yurituviga qabul qiladi.

Sudya qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani ish yurituviga qabul qilar ekan, kuzatuv tartib-taomilini joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to'grisida ajrim chiqarishi mumkin.

Sudning to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ajrimi sud tomonidan davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga, qarzdor joylashgan erdagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi. Qarzdor yuridik shaxsning o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ajrimning ko'chirma nusxasini o'z vakolatxonalarini va filiallari joylashgan erdagi shunday shaxslarga (organlarga) yuborish majburiyati uning zimmasiga yuklatiladi.

Agar ushbu Qonun 37-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan shart buzilgan bo'lsa, sudya qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani qabul qilishni rad etadi.

Agar qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza ushbu Qonunning 39 — 45-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lmasa, sudya arizani qaytaradi. Ariza bilan murojaat etish qarzdorning rahbari uchun majburiy bo'lgan va arizaga ushbu Qonunning 40-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan hollarda bunday ariza sud tomonidan qabul qilinadi, yetishmayotgan hujjatlar esa to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida talab qilib olinadi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rish muddati, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish sud majlisida qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'g'risida ish qo'zgatish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to'g'risida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqilishi kerak. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rish alohida hollarda bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha sud hujjatlari, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, darhol ijro etilishi lozim. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha sud hujjatining ko'chirma nusxasi sud tomonidan darhol qarzdorning turgan joyidagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar quyidagilardan iborat:

qarzdor; sud boshqaruvchisi; kreditorlar, ular tomonidan qarzdorga ushbu Qonunda belgilangan tartibda talablar taqdim etilgan paytdan e'tiboran; vakolatli davlat organi; qarzdorning majburiyatlari bo'yicha ta'minot bergan shaxs.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda qarzdor yuridik shaxs xodimlarining vakili, qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) vakili yoki qarzdorning mol-mulki egasi, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning

vakili, kreditorlar yigilishi (kreditorlar qo‘mitasi) vakili hamda boshqa shaxslar ishtirok etishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishda ishtirok etuvchi shaxslar to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishda qo‘llaniladigan har qanday tartib-taomil jarayonida sudga soxta to‘lovga qobiliyatsizlikka, to‘lovga qobiliyatsizlikni yashirishga yoki qasddan to‘lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan alomatlarni aniqlash maqsadida ekspertiza tayinlash haqidagi iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin.

Qarzdor qonun talablari asosida iqtisodiy sudga o‘z arizasi asosida sudga yozma yoki elektron shaklda berishi va ushbu arizani tegishincha qarzdor yuridik shaxsning rahbari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lsa uning o‘zi, agarda qarzdor jismoniy shaxs bo‘lsa arizalar ularning vakillari tomonidan imzolanadi.

Qarzdorning o‘ziga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatish haqidagi arizasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: ariza berilgan sudning nomi; arizachining nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda);

pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablari summasining qarzdor tomonidan tan olingan miqdori; qarzdorning xodimlar hayotiga yoki sogligiga etkazilgan zararining o‘rnini qoplash, ularga mehnat haqini va to‘lanishi lozim bo‘lgan ishdan bo‘shatish nafaqasini to‘lash borasidagi qarzdorligi summasi;

mualliflik shartnomalari bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan haq summasi; soliqlar hamda yigimlar bo‘yicha qarz miqdori; kreditorlarning talablarini to‘la hajmda qanoatlantirishga qodir emaslikning asosi; qarzdorga nisbatan da’vo arizalari sudlar tomonidan ish yuritishga qabul qilinganligi to‘grisidagi, shuningdek so‘zsiz (aksteptsiz) hisobdan chiqarish uchun taqdim etilgan ijro hujjatlari haqidagi ma’lumotlar; qarzdordagi mavjud mol-mulk, shu jumladan pul mablaglari, debitorlik qarzi to‘grisidagi ma’lumotlar; qarzdorning bank hisobvaraqlari raqamlari, bankning pochta manzili; ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning o‘zini to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizasida qarzdorning tadbirkorlik faoliyati bilan

bogliq bo'lmagan majburiyatlari to'grisidagi ma'lumotlar ham ko'rsatiladi.

Kreditorlarga hamda to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga qarzdor o'z arizasidan ko'chirma nusxa yuborishi shart. Agar qarzdor ariza berguniga qadar qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili, qarzdorning xodimlari vakili saylangan (tayinlangan) bo'lsa, mazkur shaxslarga ham qarzdor arizasining ko'chirma nusxasi yuboriladi.

Qarzdorning arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar - qarzdorning o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizasiga O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual kodeksida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari qarzdorlik mavjudligini, shuningdek kreditorlarning talablarini qarzdor to'la hajmda qanoatlantirishga qodir emasligini, qarzdorning arizasiga asos bo'lgan boshqa holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Qarzdorning o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizasiga quyidagilar ham ilova qilinadi:

➤ qarzdor yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari, yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'grisidagi hujjatlar, shuningdek jismoniy shaxs pasportining ko'chirma nusxasi;

➤ qarzdorning kreditorlari va debitorlari ro'yxati, ularning joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo'lgan taqdirda), uning kreditorlik hamda debitorlik qarzi yoyilmasi ko'rsatilgan holda;

➤ qarzdor yuridik shaxsning so'nggi hisobot sanasidagi holatga ko'ra buxgalteriya balansi yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlar;

➤ qarzdor jismoniy shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki tarkibi va qiymati to'grisidagi hujjatlar;

➤ qarzdor yuridik shaxs muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining qarzdor o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi haqidagi qarori;

➤ agar qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatish haqidagi ariza berilguniga qadar qarzdor xodimlarining yigilishi o‘tkazilib, unda to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni ko‘rishda ishtirok etish uchun qarzdorning xodimlari vakili saylangan bo‘lsa, ushbu yigilish bayonnomasi.

Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan hujjatlarning asl nusxasi yoki tasdiqlangan ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi.

Kreditor xam ushbu qonun asosida qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatish haqidagi arizasi sudga yozma yoki elektron shaklda berilishi mumkin. Kreditor yuridik shaxsning arizasi uning rahbari yoki vakili tomonidan, kreditor jismoniy shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi esa shu jismoniy shaxsning o‘zi yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatish haqidagi arizasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: ariza berilayotgan sudning nomi; arizachining nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashganeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); qarzdorning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); qarzdorning kreditor oldidagi talab kelib chiqishiga sabab bo‘lgan pul majburiyati miqdori, shuningdek uni bajarish muddati; kreditor talablarining asosliligini tasdiqlovchi dalillar, shu jumladan sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, mazkur talablar qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar, notariusning ijro xati; ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati.

Kreditor qarzdorga o‘z arizasidan ko‘chirma nusxa yuborishi shart. Kreditorlar talablarini birlashtirish Kreditorning qarzdorga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisida ish qo‘zgatish haqidagi arizasi turli majburiyatlar bo‘yicha birlashtirilgan qarzdorlikka asoslangan bo‘lishi mumkin.

Kreditorlar qarzdorga nisbatan o‘z talablarini birlashtirishga hamda iqtisodiy sudga bitta ariza bilan murojaat etishga haqli. Bunday ariza o‘z talablarini birlashtirgan kreditorlar tomonidan imzolanadi.

Kreditorning arizasiga ilova qilinadigan hujjatlar Kreditorning qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizasiga O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual kodeksida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari qarzdorning kreditor oldidagi pul majburiyatlarini, shuningdek qarzi mavjudligini va uning miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar, to'lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilida hamda jismoniy shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishda sud boshqaruvchisiga haq to'lash xarajatlari to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Kreditorning uning vakili tomonidan imzolangan arizasiga vakilning arizani imzolashga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi ishonchnoma ham ilova qilinadi. Kreditorning qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizasiga quyidagilar ham, agar mavjud bo'lsa, ilova qilinadi: kreditorning qarzdorga nisbatan talablarini ko'rib chiqqan sudning qarori; ijro hujjati (ijro varaqasi, qarzdor tomonidan aksteptlangan to'lov talablari, notariusning ijro xati va boshqalar) yoki kreditor talablari qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar.

Vakolatli davlat organining arizasi - ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi oldida pul majburiyatlari bo'yicha qarzi bor korxonaga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi vakolatli davlat organining arizasi sudga yozma yoki elektron shaklda, qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligini tasdiqlovchi zarur hujjatlar ilova qilingan holda beriladi. Vakolatli davlat organining arizasi sudga ushbu Qonunning 41 va 43-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda beriladi.

Davlat soliq xizmati organining va boshqa vakolatli organning arizasi - davlat soliq xizmati organining hamda boshqa vakolatli organning qarzdorga nisbatan soliqlar va yigimlar bo'yicha to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizasi ushbu Qonunning 41 va 43-moddalarida nazarda tutilgan talablarga javob berishi kerak.

Davlat soliq xizmati organining hamda boshqa vakolatli organning qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizasiga qonunchilikka muvofiq soliqlar hamda yigimlar

bo'yicha qarzni qaytarib olishga doir chora-tadbirlar ko'rilganligi dalillari ilova qilinishi kerak.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish - qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani qabul qilish haqidagi masalani yoki to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to'grisidagi masalani sudya ariza tushgan paytdan e'tiboran besh kundan kechiktirmay hal etadi.

Sudya qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisida ish qo'zgatishhaqida O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual kodeksi va ushbu Qonun talablariga rioya etgan holda berilgan arizani o'z ish yurituviga qabul qiladi. Sudya qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisida ish qo'zgatishhaqidagi arizani ish yurituviga qabul qilar ekan, kuzatuv tartib-taomilini joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to'grisida ajrim chiqarishi mumkin.

Sudning to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ajrimi sud tomonidan davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga, qarzdor joylashgan erdagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi. Qarzdor yuridik shaxsning o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ajrimning ko'chirma nusxasini o'z vakolatxonalari va filiallari joylashgan erdagi shunday shaxslarga (organlarga) yuborish majburiyati uning zimmasiga yuklatiladi.

Agar ushbu Qonun 37-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan shart buzilgan bo'lsa, sudya qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani qabul qilishni rad etadi. Agar qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza ushbu Qonunning 39 — 45-moddalarida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lmasa, sudya arizani qaytaradi. Ariza bilan murojaat etish qarzdorning rahbari uchun majburiy bo'lgan va arizaga ushbu Qonunning 40-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan hollarda bunday ariza sud tomonidan qabul qilinadi, etishmayotgan hujjatlar esa to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida talab qilib olinadi.



Kreditorlarning talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar - sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsning arizasi asosida O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual kodeksiga muvofiq kreditorlar talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar ko'rishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual kodeksida kreditorlarning talablarini ta'minlash bo'yicha nazarda tutilgan chora-tadbirlardan tashqari sud bitimlarni sud boshqaruvchisining roziligisiz tuzishni taqiqlab qo'yishga, qimmatli qogozlarni, valyuta qimmatliklarini va boshqa mol-mulkni saqlash uchun uchinchi shaxslarga topshirishni qarzdorning zimmasiga yuklatishga hamda qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta'minlashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ko'rishga haqli.

Kreditorlarning talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar tegishincha sud tomonidan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillaridan birini joriy etish to'grisida yoki sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilinguniga qadar yoxud sud tomonidan kelishuv bitimi tasdiqlanguniga qadar amal qiladi.

Sud ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelguniga qadar kreditorlarning talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlarni bekor qilishga haqli. Sudning kreditorlar talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar ko'rish haqidagi ajrimi ustidan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslar tomonidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza yuzasidan qarzdorning yozma fikri - kreditor, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqida arizasi qabul qilinganligi to'grisidagi sud ajrimini olgan kundan e'tiboran besh kunlik muddatda qarzdor, agar ushbu Qonunda boshqacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, sudga, arizachiga va to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga mazkur ariza yuzasidan yozma fikrini yuborishga, shuningdek arizada ko'rsatilmagan

barcha kreditorlarni o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqida xabardor qilishga haqli.

Qarzdorning sudga yuborayotgan yozma fikriga uning ko'chirma nusxasi arizachiga hamda to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinishi kerak.

Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza yuzasidan yozma fikrda O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual kodeksida nazarda tutilgan ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak. Qarzdorning yozma fikri mavjud emasligi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishning ko'rilishiga monelik qilmaydi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash- to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda, ushbu Qonunda belgilangan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda sudya tomonidan amalga oshiriladi.

Qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza tushgan kundan e'tiboran sudya besh kundan kechiktirmay kuzatuv tartib-taomilini joriy etish haqidagi masalani hal qiladi. Kreditorlarning talablari yuzasidan qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organda e'tirozlar mavjud bo'lsa, sudya ularning e'tirozlari asosliligini tekshiradi.

Sudyaning qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ e'tirozlari asosliligini tekshirishi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rib chiqishning belgilangan muddati tugashiga kamida bir oy qolganda o'tkaziladi.

Sud qarzdor yoki muvaqqat boshqaruvchi yoxud davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organning e'tirozlari asosliligini ko'rib chiqish natijalari asosida kreditorlar talablarini kreditorlarning talablari reestriga kiritish haqida yoki ularni reestriga kiritishni rad etish to'grisida ajrim chiqaradi. Ajrimda kreditorlarning, agar ularga nisbatan e'tirozlar asossiz deb topilgan bo'lsa, talablari miqdori va ularni qanoatlantirish navbati ko'rsatiladi.

Kreditorlarning talablari yuzasidan e'tirozlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud chiqargan ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Mazkur ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) uning amal qilishini to'xtatib qo'ymaydi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni sud muhokamasiga tayyorlash paytida, shuningdek to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish ko'rilayotganda sud qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun ekspertiza tayinlashga haqli.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rish muddati - to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish sud majlisida qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi to'grisida ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rib chiqilishi kerak. To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rish alohida hollarda bir oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishlar bo'yicha sud hujjatlari - to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sud quyidagi sud hujjatlaridan birini qabul qiladi: qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qaror; qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'grisidagi qaror; sud sanastiyasi tartib-taomilini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to'grisidagi ajrim; tashqi boshqaruv tartib-taomilini joriy etish va uning muddatini uzaytirish to'grisidagi ajrim; to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish yuritishni tugatish haqida ajrim; to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi arizani ko'rmasdan qoldirish to'grisidagi ajrim; kelishuv bitimini tasdiqlash to'grisidagi ajrim.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha sud hujjatlari, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, darhol ijro etilishi lozim.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha sud hujjatining ko'chirma nusxasi sud tomonidan darhol qarzdorning turgan joyidagi (yashash joyidagi) davlat ijrochisiga yuboriladi.

Qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qaror to'lovga qobiliyatsizlikka oid tiklash tartib-

taomillaridan birini joriyetish, kelishuv bitimini tasdiqlash yoki to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish yuritishni tugatish uchun asoslar mavjud bo'lmaganda sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qarori ushbu Qonunning 5-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan to'lovga qobiliyatsizlik alomatlarini aniqlangan hollarda qabul qilinadi.

Sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qarorida qarzdorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash, tugatish boshqaruvchisini tayinlash va unga haq to'lash haqidagi ko'rsatma aks ettirilishi kerak.

Sudning qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qarori ustidan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etuvchi har qanday shaxslar, shu jumladan kreditorlarning biri tomonidan, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb etilmagan, huquqlari va majburiyatlari haqida sud qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin.

Sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qarorida qarzdorning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi o'z kuchini yo'qotgan deb topilganligi ko'rsatiladi.

Sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari to'grisidagi ma'lumotlarni e'lon qilish - sud tomonidan kuzatuv, sud sanastiyasi, tashqi boshqaruv tartib-taomillarini joriy etish, to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish yuritishni tugatish, sud boshqaruvchisini tayinlash, almashtirish yoki vazifasidan ozod qilish to'grisida chiqarilgan ajrimlar haqidagi, qarzdor yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qarorlar, mazkur hujjatlarni bekor qilish yoki o'zgartirish haqida qarorlar qabul qilinganligi haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi. Ommaviy axborot vositalarining ro'yxati, davriyligi va mazkur ma'lumotlarni e'lon qilish muddati, ko'rsatiladigan xizmatlarning narxleri hamda moliyalashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sud boshqaruvchisi tegishli sud hujjati olingan sanadan e'tiboran uch kun ichida ommaviy axborot vositasining manziliga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan e'lonni yuboradi.

E'lon qilish uchun yuborilgan sud hujjatlari to'grisidagi ma'lumotlar ular olingan kundan e'tiboran uch kun ichida e'lon qilinadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlarni e'lon qilish bilan bogliq xarajatlarning o'rnini qoplash, agar ushbu Qonunda yoki kreditorlar yigilishining yoxud kreditorlar qo'mitasining qarorida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdorning pul mablaglari hisobidan amalga oshiriladi.

Qarzdorda pul mablaglari mavjud bo'lmasa, bunday ma'lumotlarni e'lon qilish haqini to'lash to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqida ariza bilan sudga murojaat etgan arizachi hisobidan amalga oshiriladi, bu mablaglarning o'rnini keyinchalik qarzdorning mol-mulki hisobidan qoplanadi.

Qarzdorda e'lon qilish xarajatlarning o'rnini qoplash uchun etarli mol-mulk mavjud bo'lmasa, xarajatlarning o'rnini qoplash qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza bilan sudga murojaat etgan arizachi hisobidan amalga oshiriladi.

Sud tomonidan chiqarilgan sud hujjatlari haqidagi ma'lumotlar boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e'lon qilinishi mumkin.

To'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish, to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi shart.

To'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish bilan bogliq xarajatlarning o'rnini qoplash, agar ushbu Qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdorning mol-mulki hisobidan amalga oshiriladi. Qarzdorda e'lon qilish xarajatlarning o'rnini qoplash uchun etarli mol-mulk mavjud bo'lmasa, xarajatlarning o'rnini qoplash kreditorlar yigilishining yoki kreditorlar qo'mitasining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar qarzdorning kreditorlari soni ellik nafardan ortiq bo'lsa yoki ularning sonini aniqlash mumkin bo'lmasa, qarzdorga nisbatan

qo‘llaniladigan har bir to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili boshlanishi haqidagi ma‘lumotlar ham ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinishi shart.

Kreditorlar yigilishining yoki kreditorlar qo‘mitasining qarori asosida e‘lon qilinishi shart bo‘lgan ma‘lumotlar boshqa ommaviy axborot vositalarida ham e‘lon qilinishi mumkin.

To‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari jarayoni haqida e‘lon qilingan ma‘lumotlarda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: qarzdorning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi) va uning joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); sud hujjatini qabul qilgan sudning nomi, shu sud hujjati qabul qilingan sana va joriy qilingan to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomilining nomi, shuningdek to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishning tartib raqami; tayinlangan sud boshqaruvchisining familiyasi, ismi, otasining ismi va uning pochta manzili, elektron pochta manzili (mavjud bo‘lgan taqdirda); to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni ko‘rish bo‘yicha keyingi sud majlisining sud tomonidan belgilangan sanasi; qarzdorning qarzini to‘lash istagini bildirgan shaxslarning sud boshqaruvchiga murojaat qilishi mumkinligi to‘grisidagi ma‘lumot; ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa axborot.

Sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘grisidagi qarori - sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘grisidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinadi: to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganda; sud to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ish bo‘yicha qaror qabul qilguniga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qanoatlantirilganda; soxta to‘lovga qobiliyatsizlik aniqlanganda.

Sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘grisidagi qarori ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qabul qilinishi mumkin.

Qarzdorda etarli hajmda likvid mol-mulk mavjudligidan dalolat beruvchidalillar mavjud bo‘lgan taqdirda sud qarzdorning iltimosnomasiga ko‘ra to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni ko‘rishni keyinga qoldirishga, qarzdorga kreditorlarning talablarini sud tomonidan belgilangan muddatda qanoatlantirishni taklif etishga haqli, bu muddat o‘ttiz kundan oshmasligi kerak.

Qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisida ish qo'zgatishni rad etish haqida qaror qabul qilish oqibatlarini - sud tomonidan qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisida ish qo'zgatishni rad etish haqida qaror qabul qilinishi qarzdorning to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza qabul qilinganligi va (yoki) kuzatuv tartib-taomili joriy etilganligi oqibati bo'lgan barcha cheklovlarning amal qilishi tugatilishi uchun asos bo'ladi.

Sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni quyidagi hollarda tugatadi: sud sanastiyasi tartib-taomili jarayonida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganda; tashqi boshqaruv tartib-taomili jarayonida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanganda; kelishuv bitimi tuzilganda; to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etuvchi barcha kreditorlar bildirilgan talablaridan voz kechganda; kreditorlarning talablari reestriga kiritilgan kreditorlarning barcha talablari har qanday to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomili jarayonida qanoatlantirilganda.

Sud qonunga muvofiq boshqa hollarda ham to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish yuritishni tugatishi mumkin.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni tugatish haqida sud ajrimi chiqarilgan sanadan e'tiboran sud boshqaruvchisi davlat soliq xizmati organini ushbu ajrim to'grisida uch ish kuni ichida yozma shaklda xabardor qiladi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy joriy kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha to'xtatib turilishi mumkin.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni to'xtatib turish sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan ariza va hikoyatlarni, shuningdek kreditorlarning talablari miqdori, tarkibi va ularni qanoatlantirish navbatiga doir kelishmovchiliklarni sud tomonidan ko'rib chiqishga monelik qilmaydi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish to'xtatib turilgan taqdirda sud ushbu Qonunning 51-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan sud hujjatlarini qabul qilishga haqli emas.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritishni to'xtatib turish sudning ushbu Qonunda nazarda tutilgan ajrimlarni chiqarishi uchun,

shuningdek sud boshqaruvchisi va to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ushbu Qonunda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirishi uchun monelik qilmaydi.

Korxonaning rahbariga yoki muassislariga (ishtirokchilariga) yoxud mulkdoriga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga va (yoki) jismoniy shaxsga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelgan harakatlari (harakatsizligi) uchun jinoyat ishi qo'zgatilgan taqdirda, to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish qo'zgatilgan jinoyat ishi yuzasidan sud qarori qabul qilinguniga qadar to'xtatib turiladi.

Sud xarajatlarini va sud boshqaruvchilariga haq to'lash xarajatlarini taqsimlash - sud xarajatlari, shu jumladan to'lov muddati kechiktirilgan yoki bo'libbo'lib to'lanadigan davlat boji bo'yicha xarajatlar, ma'lumotlarni ushbu Qonunning 53 va 54-moddalarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish xarajatlari, shuningdek sud boshqaruvchilariga haq to'lash xarajatlari qarzdorning mol-mulki hisobidan navbatdan tashqari to'lanadi.

Kelishuv bitimida ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xarajatlarni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilishi mumkin.

Sud qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi alomatlarini aniqlanmaganligi munosabati bilan uni bankrot deb topishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar sudga qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqida ariza bilan murojaat etgan kreditorlarga tegishli bo'ladi va kreditorlar o'rtasida ularning talablariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Sud xarajatlarini va sud boshqaruvchilariga haq to'lash xarajatlarini taqsimlash tartibi sudning to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorida yoki ajrimida belgilanadi.

Arizalar va shikoyatlarni ko'rib chiqish - kuzatuv, sud sanastiyasi, tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish tartib-taomillari jarayonida sud boshqaruvchisi bergan arizalar, shu jumladan o'zi bilan kreditorlar o'rtasida, o'zi bilan qarzdor o'rtasida kelib chiqqan kelishmovchiliklar to'grisida ushbu Qonunga muvofiq berilgan arizalar,



shuningdek kreditorlarning o'z huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligi xususidagi shikoyatlari olingan kundan e'tiboran o'n besh kunlik muddatdan kechiktirmay sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Sud boshqaruvchisining arizasiga, kreditorning shikoyatiga mazkur arizani yoki shikoyatni ko'rib chiqishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga ularning ko'chirma nusxalari yuborilganligiga oid dalillar ilova qilinishi kerak. Mazkur arizalar va shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan sud ajrim chiqaradi. Bu ajrim ustidan qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat berilishi mumkin.

Quyidagi xolatlar yuzasidan qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat qilinishi mumkin: mehnat shartnomasi asosida ishlovchi shaxslarga mehnat haqi to'lash va ishdan bo'shatish nafaqasi to'lash bo'yicha talablarning miqdori hamda tarkibi xususida sud boshqaruvchisi va qarzdor xodimlarining vakili o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar; kreditorlarning, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakillari tomonidan ularning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini buzayotgan sud boshqaruvchisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlar ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Sudning ajrimi ustidan shikoyat berish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan berilgan, shuningdek ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibni buzgan holda yoki tegishli ariza yoxud shikoyatni tasdiqlovchi dalillar ilova qilinmagan holda berilgan ariza va shikoyatlar qaytarilishi kerak.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra chiqarilgan sud ajrimlarni qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda arizalar, shikoyatlar (iltimosnomalar) va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra chiqarilgan sud ajrimi O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy joriy kodeksida belgilangan tartibda, ushbu moddada nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda qayta ko'rilishi lozim.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra chiqarilgan sud ajrimi chiqarilgan paytdan e'tiboran o'n kun o'tgach qonuniy kuchga kiradi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishdagi kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan shaxslar apellyastiya shikoyati berish huquqiga ega. Sudning ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish natijalari to'grisidagi ajrimiga apellyastiya shikoyati sud tomonidan ajrim chiqarilgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida beriladi va u sudga kelib tushgan paytdan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishlar bo'yicha ish yuritishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, agar qarzdorning ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lsa, sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqida vakolatli davlat organini xabardor qiladi. Vakolatli davlat organi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida sudga sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'grisidagi o'z munosabatini ma'lum qiladi. Kreditorlar sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishiga rozi bo'lgan taqdirda, to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha ish yuritish tugatiladi. Kreditorlar sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishiga rozi bo'lmagan taqdirda to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish muhokamasi ushbu Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

#### **5-§. Yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining xususiyatlari**

Yuqoridagi qonunning 227-moddasi yakka tartibdagi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligi belgilangan. Qonunga ko'ra, agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yakka tartibdagi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligi bilan bogliq munosabatlarga nisbatan mazkur Qonunning 1, 2, 4 va 5-boblari qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu bobning qoidalari avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqadigan majburiyatlar munosabati bilan yakka tartibdagi tadbirkor

maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxslarning to‘lovga qobiliyatsizligi munosabatlariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi alomatlari va uni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish to‘grisidagi ariza - agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e‘tiboran uch oy ichida qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan bajarilmasa hamda qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida ikki yuz baravarini tashkil etsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirish va (yoki) soliqlar hamda yigimlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyati yo‘qligi qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsiz ekanligining alomatlari bo‘ladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb toppish to‘grisidagi ariza sudga qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor, kreditor, shuningdek davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan berilishi mumkin, bundan hayotga yoki sogliqqa etkazilgan zararning o‘rnini qoplash, alimentlarni undirish haqidagi talablar, shuningdek shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablar bildiradigan kreditorlar mustasno.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to‘lovga qobiliyatsiz deb topish tartib-taomili amalga oshirilayotganda kreditorlar hayotiga yoki sogligiga etkazilgan zararning o‘rnini qoplash, alimentlarni undirish to‘grisidagi talablar, shuningdek shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablar yuzasidan o‘z talablarini taqdim etishga haqli. Mazkur kreditorlarning talablari, agar ular to‘lovga qobiliyatsizlik tartibtaomili qo‘llanilayotganda taqdim etilmagan bo‘lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘grisidagi ishni yuritish tamomlanganidan keyin ham o‘z kuchini saqlab qoladi. Qarzlarni to‘lash rejasi - qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi arizasiga qarzlarni to‘lash rejasi ilova qilinishi mumkin bo‘lib, rejaning ko‘chirma nusxasi kreditorlarga va to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga yuboriladi. Kreditorlarning e‘tirozlari bo‘lmagan taqdirda, sud qarzlarni to‘lash rejasini tasdiqlashi mumkin, bu esa to‘lovga qobiliyatsizlik

to'grisidagi ishni yuritishni ko'pi bilan ikki oy muddatga to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Qarzlarni to'lash rejasi: qarzni to'lash manbalarini; rejani amalga oshirish muddatini; qarzdorga yoki uning oila a'zolariga iste'mol uchun har oyda qoldiriladigan summalar miqdorlarini; kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun har oyda yuborish nazarda tutilgan summalar miqdorlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko'ra ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan muddatda qarzlarni to'lash rejasini o'zgartirishga, shu jumladan uni amalga oshirish muddatini, qarzdorga yoki uning oila a'zolariga iste'mol uchun har oyda qoldiriladigan summalar miqdorlarini ko'paytirishga yoki kamaytirishga haqli.

Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor qarzlarni to'lash rejasini bajarganligi natijasida kreditorlarning talablari to'liq hajmda qanoatlantirilgan bo'lsa, to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni yuritish tugatilishi lozim. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulklari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning undiruvni qaratish mumkin bo'lmagan mol-mulklari tugatish massasiga kiritilmaydi.

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning hamda to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko'ra qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning undiruvni qaratish mumkin bo'lmagan nolikvid bo'lgan mol-mulkini yoxud realizastiya qilinishidan olingan daromad kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga jiddiy ta'sir etmaydigan mol-mulkini tugatish massasidan chiqarishga haqli.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning ushbu modda ikkinchi qismining qoidalariga muvofiq tugatish massasidan chiqariladigan mol-mulkining umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lmasligi kerak. Bunday mol-mulkning ro'yxati sud tomonidan tasdiqlanib, bu haqda ajrim chiqariladi, ajrim ustidan shikoyat berilishi (protest keltirilishi) mumkin. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor bitimlarining haqiqiy emasligi, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni

to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'grisidagi ariza sudga berilganidan keyin qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning o'z molmulkini boshqa shaxsga o'tkazish yoki manfaatdor shaxslarga boshqacha usulda berish bilan bogliq bitimlari o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Kreditorning talabiga ko'ra sud o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydigan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bitim predmeti bo'lgan mol-mulkini qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki tarkibiga qaytarish tariqasida yoki undiruvni manfaatdor shaxslarda turgan tegishli mol-mulkka qaratish tariqasida qo'llaydi.

Sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishni ko'rib chiqish, sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'grisidagi arizani qabul qilish bilan bir vaqtda uning mol-mulkini xatlaydi, bundan qonunchilikka muvofiq undiruvni qaratish mumkin bo'lmagan mol-mulk mustasno. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning pul majburiyatlari bajarilishining asoslangan kafilligi yoki kafolatlangan boshqa ta'minoti uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan taqdirda, sud mazkur qarzdorning iltimosnomasiga ko'ra uning mol-mulkini (molmulkining bir qismini) xatlovdan chiqarishi mumkin. Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor kreditorlar bilan hisob-kitob qilishi yoki kelishuv bitimiga erishilishi uchun to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rib chiqishni qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning arizasiga ko'ra ko'pi bilan bir oyga kechiktirishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan fuqaroga nisbatan meros ochilganligi to'grisida ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, sud yakka tartibdagi tadbirkorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishni yuritishni meros taqdiri haqidagi masala hal etilguniga qadar to'xtatib turishga haqli. Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan muddatda kreditorlarning talablari qanoatlantirilganligi dalillarini taqdim etmagan va belgilangan muddatda kelishuv bitimi tuzilmagan bo'lsa, sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida qaror qabul qiladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish oqibatlari, sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran: qarzdorning pul majburiyatlarini bajarish muddatlari boshlangan deb hisoblanadi;

qarzdorning barcha majburiyatlari bo'yicha neustoykalar (jarima, penya), foizlar hisoblash va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sankstiyalar bekor qilinadi;

qarzdordan barcha ijro hujjatlari bo'yicha undiruv bekor qilinadi, bundan alimentlar undirish haqidagi talablarga oid, shuningdek hayotiga yoki sogligiga etkazilgan zararining o'rini qoplash to'grisidagi talablarga oid ijro hujjatlari mustasno.

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqidagi qarorni barcha ma'lum bo'lgan kreditorlarga kreditorlar tomonidan talablar taqdim etiladigan muddatni ko'rsatgan holda yuboradi, bu muddat bir oydan oshmasligi kerak. Sudning ushbu qarorini yuborish qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor hisobidan amalga oshiriladi.

Sud tomonidan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'grisidagi qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran ushbu tadbirkorning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligi o'z kuchini yo'qotadi, shuningdek faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirish uchun unga berilgan listenziyalarning amal qilishi tugatiladi.

Sud qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi qarorning ko'chirma nusxasini ushbu shaxsni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olgan organga va listenziyalovchi organga yuboradi.

Ushbu moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan qarzdor jismoniy shaxsni bankrot deb topish chogida qo'llanilmaydi. Sudning bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qarorini bajarish, sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisidagi qarori hamda

undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish haqidagi ijro varaqasi qarzdorning mol-mulki sotilishini amalga oshirish uchun davlat ijrochisiga yuboriladi.

Ushbu Qonunga muvofiq tugatish massasiga kiritilmaydigan mol-mulkdan tashqari quyidagilar sotilishi lozim: qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning barcha mol-mulki; yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan qarzdor jismoniyshaxsning o'zining avvalgi tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan mol-mulki.

Bunda jismoniy shaxs mol-mulkining uning avvalgi tadbirkorlik faoliyatida olingan mol-mulk jumlasiga taalluqliligi yoki avvalgi tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq emasligi sud tomonidan belgilanadi. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning ko'chmas mulkini yoki qimmatli ko'char mol-mulkini doimiy boshqarish zarur bo'lganda sud mazkur maqsadlar uchun tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi va unga to'lanadigan haq miqdorini belgilaydi. Bu holda qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulki tugatish boshqaruvchisi tomonidan sotiladi. Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bank hisobvaragidagi va bank plastik kartalaridagi pul mablaglarining qoldigi, mol-mulkni sotishdan tushgan pul mablaglari, shuningdek naqd pul mablaglari qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'grisida qaror qabul qilgan sudning depozit hisobvaragiga kiritiladi. Kreditorlarning talablarini ko'rib chiqish - sud kreditorlar tomonidan bildirilgan talablarni ushbu Qonun 233-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan muddatda ko'rib chiqadi. Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra sud kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibi va miqdori haqida ajrim chiqaradi.

Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish tartibi - kreditorlarning talablarini qanoatlantirishdan oldin sudning depozit hisobvaragiga kiritilgan pul mablaglari hisobidan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ishni ko'rib chiqish va sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish haqidagi qarorini bajarish bilan bogliq xarajatlarning o'zni qoplanadi, fuqarolarning hayotiga yoki sogligiga etkazilgan zararlarni qoplash haqidagi talablari qonunchilikka muvofiq qanoatlantiriladi.

Kreditorlarning talablari quyidagi navbatda qanoatlantiriladi: birinchi navbatda — alimentlar undirish haqidagi talablar, shuningdek, mehnatga haq to‘lashga oid va mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq to‘lashga oid hisob-kitoblarni nazarda tutadigan talablar; ikkinchi navbatda soliqlar va yigimlar bo‘yicha talablar, kreditorlarning garov bilan ta‘minlangan talablarining garovga qo‘yilgan molmulkni (garov narsasini) sotishdan tushgan summa etarli bo‘lmaganligi oqibatida qoplanmay qolgan qarzga oid qismi va kreditorlarning garov bilan ta‘minlanmagan talablari; uchinchi navbatda — boshqa kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Har bir navbat talablari oldingi navbatdagi talablartol‘liq qanoatlantirilganidan keyin qanoatlantiriladi. Agar sudning depozit hisobvaragida mablaglar etarli bo‘lmasa, bu mablaglar tegishli navbatdagi kreditorlar o‘rtasida ular talablarining summasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni majburiyatlardan ozod etish, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni tugatishga doir ish yuritish tartib-taomili tamomlanganda qarzdor to‘lovga qobiliyatsizlik to‘grisidagi ishni yuritish jarayonida kreditorlarning talablarini kelgusida bajarishdan ozod etiladi, bundan quyidagilar mustasno: kreditorlarning hayotiga yoki sogligiga etkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘grisidagi talablari; alimentlarni undirish haqidagi talablar, shuningdek shaxsiy xususiyatga ega boshqa talablar; sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to‘grisidagi qarorini ijro etish tartibida qanoatlantirilmagan yoki qisman qanoatlantirilgan talablar; qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish tartib-taomili amalga oshirilganda bildirilmagan talablar; qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi to‘grisidagi ishni yuritish jarayonida bildirilmagan boshqa talablar. Bajarilishdan ozod etilmagan talablar o‘z kuchini saqlab qoladi va qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning to‘lovga qobiliyatsizligi tartib-taomili amomlanganidan keyin tegishincha to‘liq hajmda yoki ularning qanoatlantirilmagan qismi hajmida taqdim etilishi mumkin.



## **6-§. To'lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomillari**

To'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi qonunning 238-moddasida tugatilayotgan yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi tartiblari mustaxkamlangan. Unga ko'ra, agar qonunchilikda belgilangan muddatlarda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o'z ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatish to'grisida o'ziga nisbatan qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun etarli bo'lmasa, bunday yuridik shaxs ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda tugatiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan holatlar aniqlangan taqdirda, tugatish komissiyasi (tugatuvchi) yuridik shaxsga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatish haqidagi ariza bilan sudga yoki qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli choralar ko'rilishi uchun davlat soliq xizmati organlariga murojaat etishi shart. Tugatilayotgan yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishni ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. Sud tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi, tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi. Tugatilayotgan yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligida kuzatuv, sud sanastiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo'llanilmaydi. Kreditorlar tugatilayotgan yuridik shaxsga nisbatan o'z talablarini tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish haqidagi e'lon chiqarilgan paytdan e'tiboran bir oylik muddatda taqdim etishga haqli.

Yuridik shaxsni to'lovga qobiliyatsizlik tartibida tugatishni rad etish oqibatlari, ushbu Qonun 238-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan talablarning buzilganligi yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga yuridik shaxs tugatilganligi to'grisidagi yozuvni kiritishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Ushbu Qonun 238-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan talablarning buzilishiga yo'l qo'ygan tugatish komissiyasining raisi yoki tugatuvchi tugatilayotgan yuridik shaxsning pul majburiyatlari va (yoki) soliqlari hamda yigimlari yuzasidan qanoatlantirilmagan talablar bo'yicha

subsidiar javobgar bo'лади. Hozir bo'lmagan qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'grisida ariza berishning o'ziga xos xususiyatlari, o'z faoliyatini tugatgan qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning rahbari hozir bo'lmagan va ularning joylashgan erini (yashash joyini) aniqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda, hozir bo'lmagan qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'grisidagi ariza, kreditorlik qarzi miqdoridan qat'i nazar, kreditor, vakolatli davlat organi, davlat soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilishi mumkin.

Hozir bo'lmagan qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishni ko'rib chiqish, sud hozir bo'lmagan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizani o'z ish yurituviga qabul qilib olgan kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida hozir bo'lmagan qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'grisida qaror qabul qiladi. Hozir bo'lmagan qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi to'grisidagi ishda kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo'llanilmaydi. Sudning qarori vakolatli davlat organiga yuboriladi, bu organ mazkur qaror olingan kundan e'tiboran bir haftalik muddatda sudga tugatish boshqaruvchiligiga nomzodni taqdim etadi.

Tugatish boshqaruvchisi o'ziga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarni hozir bo'lmagan qarzdorning bankrotligi haqida yozma shaklda xabardor qiladi, ular xabarnomani olgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda tugatish boshqaruvchisiga o'z talablarini taqdim etishi mumkin. Tugatish boshqaruvchisi hozir bo'lmagan qarzdorning mol-mulkini aniqlagan taqdirda sud mazkur boshqaruvchining iltimosnomasiga ko'ra to'lovga qobiliyatsizlikning soddalashtirilgan tartib-taomilini tugatish hamda to'lovga qobiliyatsizlikning ushbu Qonunda nazarda tutilgan umumiy tartib-taomillariga o'tish haqida ajrim chiqarishi mumkin.

*Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar*

1. Bankrotlik tushunchasi va uning normativ huquqiy asoslari.
2. Sudgacha sanatsiya qilish, kuzatuv va sud sanatsiyasi.
3. Tashqi boshqaruvga huquqiy tushuncha bering.
4. Bankrotlik to'g'risidagi ishni sudda ko'rishga tayyorlash, uni hal etish.

5. Qarzdor yuridik shaxslar ayrim toifalarining bankrotligi xususiyatlari.

6. Yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining xususiyatlari.

7. Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillari.

*Bobni o'zlashtirish uchun testlar*

1. Vakolatli davlat organi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqidagi xabarnoma qancha muddat ichida sudga sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'grisidagi o'z munosabatini ma'lum qiladi.

A. Vakolatli davlat organi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida sudga sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'grisidagi o'z munosabatini ma'lum qiladi.

B. Vakolatli davlat organi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran uch haftalik muddat ichida sudga sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'grisidagi o'z munosabatini ma'lum qiladi.

S. Vakolatli davlat organi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran o'n besh kun muddat ichida sudga sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'grisidagi o'z munosabatini ma'lum qiladi.

D. Vakolatli davlat organi to'lovga qobiliyatsizlik to'grisida ish qo'zgatilganligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran bir haftalik muddat ichida sudga sudgacha sanastiya qilish o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'grisidagi o'z munosabatini ma'lum qiladi.

2. *Sudning qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'grisidagi qarori quyidagi qaysi hollarning biri mavjud bo'lganda qabul qilinadi:*

A. To'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganda; sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha qaror qabul qilguniga qadar

kreditorlarning bildirilgan talablari qanoatlantirilganda; soxta to'lovga qobiliyatsizlik aniqlanganda.

B. To'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanda; sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha qaror qabul qilguniga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qanoatlantirilmaganda; soxta to'lovga qobiliyatsizlik aniqlanganda.

S. To'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlangunga qadar; sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha qaror qabul qilguniga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qanoatlantirilganda; soxta to'lovga qobiliyatsizlik aniqlanmaganda.

D. To'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganda; sud to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ish bo'yicha qaror qabul qilguniga qadar kreditorlarning bildirilgan talablari qanoatlantirilganda; soxta to'lovga qobiliyatsizlik aniqlanganda.

3. *Quyidagi Pul mablag'lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaslik, to'lov intizomini buzganlik, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarni bankrotlik darajasigacha olib kelganlik uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini va boshqa xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod etishga qadar bo'lgan intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga taqdimnomalar kiritish huquqi berilgan.*

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 4 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

V. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 5 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

S. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 2-maydagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 29 avgustdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

4. *Quyidagi Pul mablag'lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaslik, to'lov intizomini buzganlik, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarni bankrotlik darajasigacha olib kelganlik uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini va boshqa xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod etishga qadar*

*bo`lgan intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga taqdimnomalar kiritish huquqi berilgan.*

A. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 4 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

B. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 5 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

S. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 2-maydagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

D. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 29 avgustdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.

5. *Quyidagi Pul mablag`lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaslik, to`lov intizomini buzganlik, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarni bankrotlik darajasigacha olib kelganlik uchun xo`jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini va boshqa xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod etishga qadar bo`lgan intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga taqdimnomalar kiritish huquqi berilgan.*

A. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 4 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlarga berildi.

B. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 5 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlarga berildi.

S. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 2-maydagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlarga berildi.

D. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 29 avgustdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlarga berildi.

## **5.BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MULKIY ASOSLARI**

- 1.Mulk huquqi tadbirkorlik faoliyatining asosi sifatida
- 2.Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish.
- 3.Xo‘jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning xususiyatlari.
- 4.Tadbirkorlik subyektlarining mol-mulki ob’ektlari.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida belgilanganidek, *“Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.*

*Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin”.* (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi)

Tadbirkorlikning iqtisodiy manbalari xususiy mulk va ommaviy (davlat) mulk shakllaridan tashkil topadi.

Fuqarolik kodeksining 167-moddasida O‘zbekiston iqtisodiyoti negizini xususiy va ommaviy mulk shakllari tashkil etishligi belgilangan.

Xususiy mulk OzR FKning 16-BOBi, 207-211-moddalarida mustaxkamlangan. *Izox (212-218 moddalarda uy joyga nisbatan xususiy mulk huquqlari keltirilgan).* FKning 207-moddasida xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi tushuntirilgan.

Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

Xususiy mulk huquqining subyektlari fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar.

Xususiy mulk huquqining ob’ektlari qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

Fuqarolarning mulki “shaxsiy” mulk shakldan iborat deyilsa-da, lekin ushbu mulk davlat korxonalarida, jamoat tashkilotlarida mehnat qilish natijasida olingan daromadlar hisobiga tashkil topishi, iste’mol xarakteriga ega bo‘lishi va fuqaroning shaxsiy moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim edi.

Shaxsiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy jihatdan yetarli bo‘lsada, huquqiy jihatdan mumkin emas edi.

Asosiy ishlab chiqarish qurol-vositalarining faqat davlatga tegishli bo‘lishi, ular umumxalq mulki deb hisoblangan bo‘lsada, aslida mulkning egasi shaxsan kim ekanligi, kim unga javobgar bo‘lishi noaniq bo‘lishi mulkka nisbatan xo‘jasizlik, beparvorlik, jamiyatda umumiy dangasalik va beamlik kayfiyatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu holat esa fuqarolarda mehnatga nisbatan qiziqish, tadbirkorlik faoliyati uchun kerak bo‘lgan tashabbuskorlik hissiyotlarini tarbiyalashga imkon bermadi.

Shuningdek, mulk shakllari O‘zbekiston Respublikasining “Mulchilik to‘risida”gi Qonunida xam belgilangan. Unda, xususiy mulk, aralash mulk, shirkat(jamoa)mulki va boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulkidan iborat ekanligi mustaxkamlangan.

Davlat mulkining jamiyatda egallagan yetakchilik o‘rni qonun-qoidalar mohiyatini ham o‘ziga xos ravishda belgilab berardi. Masalan, davlat mulkining tarkib topishi, uni muhofaza qilish va unga asosan vujudga keladigan barcha turdagi munosabatlarni tartibga solishga oid qoidalar kolxoz-kooperativ va ayniqsa fuqaroning shaxsiy mulkiga nisbatan tubdan farq qilari va ancha ustun turardi.

Amaldagi qonun hujjatlarida O‘zbekiston Konstitutsiyasiga amal qilingan holda, mulkning o‘tmishda sotsialistik jamiyatning sinflarga bo‘linishiga asoslanib shakllarga ajratilishiga va qaysi shaklda, kimga tegishli bo‘lishiga qarab o‘rnatilgan tengsizlikka barham berildi. Mulkning kimga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar, teng ravishda rivojlanishi uchun imkoniyatlarning mavjud bo‘lishi va ularni bab-baravar huquqiy muhofaza qilish qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutildi.

Iqtisodni tashkil qiluvchi asosiy masala bo‘lishi mulk masalasining bunday ijobiy hal qilinishi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tashabbuskorlik hissiyotlarining kamol topishi, ishlab chiqarishda, xo‘jalik sohasida tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda fuqarolar hamda tashkilotlar, ya’ni jismoniy va yuridik shaxslarning birgalikda bab-baravar manfaatdor bo‘lishi, ular o‘rtasida umumiy mol-mulkning vujudga kelishi va ushbu mulkdan hamkorlikda unumli foydalanish va samarali natijalarga erishish imkoniyatlarini yaratib berdi.

Xususiy mulk bozor munosabatlarining asosiy iqtisodiy manbaidir. Xususiy mulk tashkil topmasdan turib, bozor munosabatlari haqidagi har qanday fikrlar xom xayoldir. Xususiy mulk va uning asosida vujudga keladigan munosabatlar bizning qonunchilik faoliyatimizda yangilikdir.

Endi ular faqat shaxsiy moddiy va madaniy ehtiyojlarini ta’minlash uchun emas, balki xususiy mulk asosida turli tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga va ishlab chiqarish jarayonida faqat o‘z mehnati emas, balki yollanma mehnatni jalb qilish va uning uchun kerak bo‘lgan qurol-vositalarga ega bo‘lish, ularni ijaraga berish yo‘li bilan qo‘shimcha daromadlar olish kabi huquqlardan foydalanishlari mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun iqtisodiy manba sifatida xususiy mulk bilan bir qatorda ommaviy (davlat) mulk ham qatnashadi. Ommaviy mulk tushunchasi davlatning barcha fuqarolariga va shuning bilan birga har bir fuqarosiga tegishli bo‘lgan mulk ma’nosini beradi.

**Mulk huquqi** – mulk huquqining qonuniy tushunchasi OzR FKning 164-moddasida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab



egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir.

Ommaviy mulk davlatga tegishli mulkdan iborat bo'lib, u ikki xil ko'rinishda, ya'ni O'zbekiston Respublikasi mulki va munitsipal mulkdan tashkil topadi.

Tadbirkorlik faoliyati umumiy mulk, ya'ni bir necha fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulk asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Umumiy mulk birgalikdagi va ulushli mulkdan iborat bo'lishi mumkin.

Mulkiy huquq ob'ektlari - O'zbekiston Respublikasi hududidagi er, er osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar, mahsulotlar, turar joy va kvartiralar, mahsulot belgilari, sanoat namunalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikrosxemalarning topologiyasi, selektsiya yutuqlari, mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qogozlar va boshqa mol-mulklar; insonning mehnat qilish qobiliyati.

Mulk huquqi egalari har birining, ularga tegishli bo'lgan umumiy mol-mulkdagi ulushlari (hissalari) aniq belgilab qo'yilgan bo'lsa, bunday mulk ulushli mol-mulk deyiladi. Ulushli mol-mulkda qonunga asosan yoki ishtirokchilarning kelishuvi bilan ularning ulushlari aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsa, ulushlar teng deb hisoblanadi.

Umumiy qoidaga asosan birgalikdagi mulkka uning egalari birgalashib egalik qiladilar va foydalanadilar. Lekin ular o'zaro kelishib, boshqacha tartib o'rnatgan bo'lishlari ham mumkin. Bunday mulkni tasarruf qilishda uning egalarining roziligi talab qilinadi.

Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining ta'siri ostida birgalikdagi mulk huquqi ishtirokchilarining har biriga ularning barchasining roziligi bilan ushbu molmulk yuzasidan bitimlar tuzish huquqi beriladi. Masalan, er-xotinga umumiy birgalikdagi mulk huquqida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda, ish muomalalarida er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan

ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyati turli shakldagi mulk huquqi asosida va ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Agar tadbirkorlik umumiy mulk asosida amalga oshirilsa, har bir tadbirkorning tegishli ulushi belgilab qo'yiladi, shunga muvofiq, tadbirkorlikni amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilgan daromadlar ham ulushlarning miqdoriga qarab, a'zolar o'rtasida taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoalar, ularning birlashmalari, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va o'zga birlashmalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari, xalq deputatlarining barcha bo'indagi Kengashlari hamda ular vakolat bergan davlat boshqaruvi idoralari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulkiy huquq subyektlaridir. Bir necha yuridik shaxslar va fuqarolar aynan bitta mulkning subyektlari bo'lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 217-moddasiga muvofiq, agar ulushli mulk ishtirokchilarining ulushlari qonun asosida belgilanishi mumkin bo'lmasa hamda uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ulushlar teng deb hisoblanadi. Tadbirkorlikni amalga oshirish jarayonida ulushlar haqida nizo kelib chiqqan taqdirda bunday nizo umumiy mulk-egalari har qaysisining da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal qilinadi.

Agar meros olish, rekvizitsiya yoki musodara qilish natijasida yoki boshqa asoslarga ko'ra, davlat bilan fuqaroning, yoxud kooperativ va boshqa jamoat tashkiloti bilan fuqaroning umumiy mulki tashkil bo'lib qolsa, u holda bunday umumiy mulk paydo bo'lgan kundan boshlab bir yil ichida qonunda ko'zda tutilgan usullarni qo'llash yo'li bilan bekor qilinishi lozim edi. Endilikda mol-mulklarni umumlashtirish asosida birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratildi.

Tadbirkorlik ajnabiy fuqarolar hamda yuridik shaxslarning mol-mulklarini turli shakllarda jalb etish asosida ham amalga oshiriladi. Mol-mulkdan foydalanish, uni tasarruf etish, uning asosida tadbirkorlik

yuritish haqidagi O‘zbekiston fuqarolariga tegishli qoidalar ajnabiy fuqarolarga ham taalluqlidir.

Ushbu huquqdan foydalanib, zarur sarmoyaga ega bo‘lgan ajnabiy davlat fuqarolari o‘zaro manfaatdorlik asosida qo‘shma korxonalar yoki faqat o‘zlariga tegishli bo‘lgan korxonalarni imtiyozli ravishda tashkil etishlariga imkon beriladi. Bunda ularning mol-mulklari va mulkiy huquqlari, manfaatlari qonun bilan qo‘riqlanadi va daxlsizligi to‘la kafolatlanadi. Xorijiy fuqarolar respublika hududida tadbirkorlik natijasida orttirgan mol-mulkni o‘z xohishlari bilan meros qilib qoldirishlari, xayr-ehson qilishlari yoki o‘zlariga tegishli daromadlarni O‘zbekistondan erkin olib ketishlari qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston yuridik shaxslari va ajnabiy yuridik shaxslar ishtirokida birgalikda tadbirkorlik faoliyatini o‘zlariga tegishli mol-mulki asosida qo‘shma korxonalar, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari tuzish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.

## **2.Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish**

FKning 207-moddasida xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi tushuntirilgan.

Xususiy mulk huquqi asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijoratchi tashkilotlar ya’ni foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan yuridik shaxslar xo‘jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin (FK 40-moddasi ikkinchi qismi).

Tijoratchi tashkilotlar mulkiy munosabatlarda keng tarqalgan jamoaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan hisoblanadi. Tadbirkorlar tomonidan tuziladigan bunday shaklga o‘xshash birlashmalar qit’a huquqida kompaniyalar yoki firmalar, anglo-amerika huquqida esa korporatsiyalar deb nomlanadi.

O‘tmishda O‘zbekistonda bunday birlashmalar shirkatlardan iborat bo‘lib, ular asosan savdo, shuningdek, hunarmandchilik bilan shuullanishgan. Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini

yuritishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘grisidagi O‘zbekiston Respublikasining 24.09.2012 yildagi O‘RQ-336-son Qonuni, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘risida”gi, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Yuqoridagi Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘grisidagi O‘zbekiston Respublikasining 24.09.2012 yildagi O‘RQ336-son Qonuni 4-moddasida, xususiy mulk huquqini amalga oshirish tartiblari belgilangan. Unga muvofiq, mulkdor o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishiga ko‘ra hamda o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday harakatlarni bajarishga haqli. U o‘z mol-mulkidan xo‘jalik faoliyatini va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi, uni boshqa shaxslarga egalik qilish va (yoki) foydalanish uchun tekinga yoxud haq evaziga berishi mumkin. Mol-mulkdan foydalanish fuqarolarning, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi, atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerak. Barcha mulkdorlarga o‘z huquqlarini amalga oshirishda teng sharoitlar ta’minlanadi.

Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mutlaq huquqlarning egalari va tijorat sirining egalari ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan huquqlar va kafolatlardan foydalanadi.

FKning 58-moddasda ko‘rsatilgan tijoratchi tashkilotlar o‘z faoliyatini tashkil qilishda qatnashgan muassislari (ishtirokchilari)ning mol-mulkidan ajratilgan va ularning hissalaridan tashkil topgan ustav kapitaliga (fondiga, mulkiy jamarmasiga) ega bo‘lgan tijoratchi tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari o‘z a’zolarining ixtiyori bilan, ya’ni ular tomonidan tuzilgan shartnomaga asosan vujudga kelgan, umumiy huquq layoqatiga ega bo‘lgan tijoratchi tashkilot hisoblanadi.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarning muassislari (ishtirokchilari) muayyan huquqlar va majburiyatlarga ega. Ular shirkat va jamiyatning ishlarini bajarishda qatnashish, faoliyati to‘risida axborot olish, foydani taqsimlashda qatnashish, shirkat yoki jamiyat tugatilgan taqdirda kreditorlar bilan hisob-kitob qilingandan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish va qonun hujjatlarida, shuningdek shirkat yoki jamiyatning ta‘sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo‘lishlari mumkin.

Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘grisidagi O‘zbekiston Respublikasining 24.09.2012 yildagi O‘RQ-336-son Qonuni 3-bobida mulkdorlar huquqlarining kafolatlari belgilangan. Unda, undiruvni mol-mulkka qaratish yo‘li bilan mol-mulk olib qo‘yilayotganda mulkdorning majburiyatlari bo‘yicha undiruv mol-mulkka qaratilgan taqdirda, uning olib qo‘yilishiga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yiladi.

Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulk natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkni, shu jumladan yer uchastkasini natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilingan hollarda olib qo‘yish, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mulkdorga uning bozor qiymati, shuningdek bunday olib qo‘yish munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan zararining o‘rni to‘la qoplanishi sharti bilangina amalga oshiriladi. Mulkdor xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkni natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilish to‘risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqli.

Qonunga muvofiq o‘ziga tegishli bo‘lolmaydigan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi bekor qilinganda mulkdor huquqlari kafolatlanadi, agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo‘lolmaydigan mol-mulk uning mulki bo‘lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo‘yilgan molmulkning qiymati shaxsga to‘lanishi kafolatlangan.

Davlat organining mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo‘yishga qaratilmagan qarori, shu jumladan mulkdorga qarashli uy, boshqa imoratlar, inshootlar yoki dov-daraxtlar joylashgan yer

uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish to'risidagi qarori munosabati bilan mulk huquqining bekor qilinishiga faqat qonunda belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Bunda yetkazilgan zararining o'rni egalik qiluvchiga to'liq qoplanishi kerakligi kafolatlangan. (19 moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 6-iyundagi O'RQ-775-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son)

Davlat organining mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo'yishga qaratilmagan qarori, shu jumladan, yer uchastkasini olib qo'yish to'risidagi qarori munosabati bilan mulk huquqining bekor qilinishi mulkdorning roziligi bilan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qoraqalpoiston Respublikasi Jo'qori Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining olib qo'yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini buzib tashlash to'risidagi qarori faqat adliya organlarining ijobiy xulosasi mavjud bo'lganda qabul qilinadi. Tegishincha Qoraqalpoiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, Toshkent shahar yoki tuman (shahar) hokimligi va yer uchastkasining hamda olib qo'yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarining huquq egasi o'rtasida tuziladigan, yer uchastkasi olib qo'yilishi munosabati bilan beriladigan kompensatsiyaning miqdori, turi va uni berish muddati nazarda tutiladigan kelishuv majburiy ravishda notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. (19-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O'RQ-782-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son — 2022-yil 1-oktabrdan kuchga kiradi)

Ko'chmas mulk obyektini buzib tashlash to'risida qaror qabul qilishga olib qo'yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektining mulkdoriga kelishuvda, nizo mavjud bo'lgan taqdirda esa sud qarorida belgilangan jismoniy va yuridik shaxslarning zararlari, shu jumladan boy berilgan foydasi va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xarajatlari qoplanganidan so'ng yo'l qo'yiladi.

Yer uchastkasini olib qo'yish va uyni, boshqa imoratlarni, inshootlarni buzib tashlash yoki dov-daraxtlarni qo'porib tashlash to'risidagi qaror aholi punktlarining bosh rejalariga, shuningdek turar joy dahalari hamda kichik dahalarini batafsil rejalashtirish va qurish loyihalariga muvofiq qabul qilinadi.

Olib qo'yilayotgan yer uchastkasidagi uyni, boshqa imoratlarni, inshootlarni buzib tashlash yoki dov-daraxtlarni qo'porib tashlashga zararning o'rni bozor qiymati bo'yicha oldindan va to'la qoplanmagunga qadar yo'l qo'yilmaydi.

Davlat organlari uyning, boshqa imoratlarning, inshootlarning yoki dov-daraxtlarning mulkdorini qabul qilingan qaror to'risida buzib tashlash boshlanishidan kamida olti oy oldin, bildirishnomaga tegishincha Qoraqalpoiston Respublikasi Jo'qori Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorining ko'chirma nusxasini ilova qilgan holda yozma ravishda (imzo qo'ydirib) xabardor qilishi shart.

Olib qo'yilayotgan yer uchastkalaridagi uyni, boshqa imoratlarni, inshootlarni yoki dov-daraxtlarni baholash baholovchi tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda xususiy mulk huquqi bekor qilinayotganda olib qo'yilayotgan mol-mulkning qiymati ana shu mol-mulk bevosita olib qo'yilishidan oldingi paytdagi yoki olib qo'yilishi haqidagi xabar mol-mulkning qiymatiga ta'sir ko'rsatgan paytdagi holatga ko'ra baholovchi tashkilot tomonidan belgilanadi.

Yer uchastkasi olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorga buzib tashlanayotgan mol-mulkning o'rnini qoplash, buzib tashlanayotgan uyning mulkdoriga turar joy berish, fuqaroga olib qo'yilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymatini berish, yer uchastkasi va boshqa mol-mulk olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash tartibi va shartlari qonunchilikda belgilanadi. (19-moddaning to'qqizinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi O'RQ-782-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2022-y., 03/22/782/0576-son — 2022-yil 1-oktabrdan kuchga kiradi)

Mulkdor xususiy mulk huquqining bekor qilinishiga olib keladigan qarorga rozi bo'lmagan taqdirda, bu qaror sud tomonidan nizo hal

etilguniga qadar amalga oshirilishi mumkin emas. Mulkdorga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash masalalari ham nizoni ko'rib chiqishda hal etiladi. (19-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-dekabrda O'RQ-656-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020-y., 03/20/656/1661-son)

Mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunga xilof egaligidan talab qilib olishga haqli. Mazkur huquqni amalga oshirishda davlat organlari mulkdorga ko'maklashishi shart. Mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishi, garchi bu buzilishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bogliq bo'lmasa ham, bartaraf etilishini talab qilishi mumkin. Mazkur huquqni amalga oshirishda davlat organlari mulkdorga ko'maklashishi shart. Xususiy mulk huquqini bekor qiladigan qonun qabul qilingan taqdirda, ushbu qonunni qabul qilish natijasida mulkdorga yetkazilgan zararning o'ri, shu jumladan mol-mulkning bozor qiymati davlat tomonidan to'la hajmda qoplanadi. Zararning o'rnini qoplash to'risidagi nizolar sud tomonidan hal etiladi.

Xususiy mulk munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati mulkdorning huquqiy holatini yomonlashtirgan yoki mulkdorga qo'shimcha majburiyatlar yuklagan taqdirda, orqaga qaytish kuchiga ega emasligi kafolatlangan (23-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi subyektlar mol-mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalarining qayta ko'rib chiqilishiga hamda bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirish jarayonida vujudga kelgan xususiy mulk daxlsizdir. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi.

Quyidagi ko'char va ko'chmas mol-mulk davlat tasarrufidan chiqarilgan hamda xususiylashtirilgan korxonalarining mol-mulki deb e'tirof etiladi (qonunga muvofiq davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiylashtirilmaydigan obyektlar bundan mustasno): davlat



tasarrufidan chiqarishni va xususiylashtirilgan korxonalarda davlat mol-mulkini xususiylashtirishni amalga oshirish paytida aniqlanmagan ko‘char va ko‘chmas mol-mulk; korxonada hududida joylashgan, davlat tasarrufidan chiqarishni va xususiylashtirishni amalga oshirish paytida tasarruf etish huquqsiz foydalanishga berilgan ko‘char va ko‘chmas mol-mulk.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijalarini, shu jumladan obyektlarning qiymatini baholash natijalarini qayta ko‘rib chiqish, haqiqiy emas deb topish va bekor qilish masalalari yuzasidan davlat organlari, shu jumladan nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar tomonidan tashabbus bilan chiqish taqiqlanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, agar O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida yoki xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng ravishda mulk huquqi kafolatlangan.

**Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarining quyidagi asosiy belgilarini ajratish mumkin.**

Birinchidan, ular tijorat tashkilotlari, ya’ni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlanishi mumkin bo‘lgan foydani olishni ko‘zlovchi shaxslar bo‘ladi. Ikkinchidan, ular ishtirokchilarining ulushlariga yoki ta’rischilarning aktsiyalariga bo‘lingan ustav fondiga yoki ustav kapitaliga ega bo‘lishligi.

Umuman olganda, shirkat va jamiyat ishtirokchilari xo‘jalik sohasida o‘z oldilariga qo‘ygan yagona maqsadga erishish uchun mol-mulklarini qo‘shib, birgalikda harakat qiladilar. Lekin ular bir-birlaridan qisman farq ham qiladilar. Masalan, sheriklik faqat natijaga erishish uchun emas, balki ishtirokchilarning birbirlariga yaqin shaxsiy munosabatlariga asoslanadi. Bunda ishtirokchilarning kim ekanligiga ahamiyat beriladi. Jamiyatda esa uning ishtirokchilari kimlardan iborat bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, u birinchi navbatda maqsadga erishish nuqtai nazaridan tashkil etiladi.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarning muassislari (ishtirokchilari) fuqarolardan va yuridik shaxslardan iborat bo‘lishi mumkin. Tadbirkorlik

subyekti sifatida xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari tashkil etilayotganda shakllantirilgan ustav fondi, kapitali yoki uning balansidagi o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulklariga nisbatan xususiy mulk huquqiga ega.

Xo‘jalik shirkatining yoki jamiyatining mulkiga qo‘shiladigan hissa har xil mulkdan, jumladan mulkiy huquqdan va shuning bilan birga pul bilan baholanishi mumkin bo‘lgan boshqa huquqlardan iborat bo‘lishi mumkin. Hissaning asosiy belgisi uning pul bilan baholanishi mumkinligidadir. Masalan, muallifning mulkiy huquqi, ixtiroga bo‘lgan huquq, nou-xau, sanoat namunalari, tovar belgisi va shunga o‘xshashlar ham shirkat yoki jamiyat mulkiga qo‘shilgan hissa bo‘lishi mumkin. Kreditorning shaxsi bilan bogliq bo‘lmagan, majburiyat bo‘yicha talab qilish huquqi ham hissa sifatida tan olinishi mumkin. Muassislar (ishtirokchilar) tomonidan qo‘shiladigan hissani pul bilan baholashda vujudga kelgan nizoni ekspertlar xulosasiga ko‘ra sud tomonidan belgilangan tartibda hal qilinadi.

Xo‘jalik shirkatining yoki jamiyatining har bir ishtirokchisi uning faoliyatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega. Shirkat va jamiyatning qaysi turdan iborat bo‘lishiga qarab, uning ishtirokchilari shirkat yoki jamiyat faoliyatini boshqarishga oid qarorlarni qabul qilishda yoki boshqaruv va tekshiruv organlarini tuzishda qatnashishlari mumkin. Kommandit shirkatning ishtirokchisi uning faoliyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega emas (FKning 61-moddasi).

Xo‘jalik shirkati va jamiyati ishtirokchilarining majburiyatlari ta’ sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo‘shishdan, maxfiy axborotni oshkor qilmaslikdan, shirkat va jamiyatning ta’ sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlardan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu huquq va majburiyatlar barcha shakldagi jamiyat va shirkat qatnashchilariga taalluqlidir. Shuning bilan birga har bir shakldagi shirkat va jamiyat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari o‘zlariga xos xususiyatlari bilan ifodalanadi. Masalan, “to‘liq shirkat” ishtirokchilari o‘z o‘rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shuullanadilar. Ular o‘z shirkat majburiyatlari bo‘yicha o‘zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradilar. Shaxs faqat bitta to‘liq shirkatning ishtirokchisi bo‘lishi

mumkin (FKning 60-moddasi). Kommandit shirkati - shirkatning qarzlari bo'yicha o'zining shirkat fondiga qo'shgan hissasi miqyosida javob beradigan ishtirokchilardan (kommanditlardan) iborat (FKning 61-modda). Kommandit shirkati iborasi frantsuz huquqidan olingan bo'lib, savdo sohasidagi shirkatlardan biri hisoblanadi.

Kommandit shirkati "ishonchga asoslangan shirkat" degan nom bilan ham ataladi.

**Xo'jalik shirkatlari.** To'liq shirkat ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan shartnoma bu turdagi shirkatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Fuqarolik kodeksida ta'sis shartnomasining yozilgan o'zi taraflarning erkini va ular o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlarini to'liq ifoda etadigan hujjat sifatida tan olinadi.

Ta'sis shartnomasining mazmuni FKning 43-moddasi 4-qismidagi shartlar bilan belgilanadi. Ayni paytda qonun boshqa shartlarni nazarda tutishni man etmaydi. To'liq shirkatni tavsiflovchi asosiy belgi ishtirokchilar shirkatning majburiyatlari bo'yicha cheklanmagan solidar javobgar bo'lishidan iborat. Shirkat ishtirokchilari bir-birlariga ishongan holda faoliyat yuritadilar.

To'liq shirkat faoliyatini boshqarishda shirkat ishtirokchilarining umumiy roziligi talab qilinadi. Ta'sis shartnomasida ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilish mumkinligi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Bunday holda shartnomada qaysi muammolar bo'yicha ko'pchilik ovozning bo'lishi zarurligi, shuningdek bu ko'pchilik oddiy yoki murakkab (malakali) ko'pchilikdan iborat ekanligi (masalan, ishtirokchilarning umumiy sonidan to'rt dan bir yoki uchdan bir qismining ovozi) aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Umumiy qoidaga binoan, har bir ishtirokchi bitta ovozga ega bo'ladi. Lekin to'liq shirkatning ta'sis shartnomasida ovozlar boshqa tartibda, masalan, qo'shilgan hissaning miqdoriga nisbatan karra sifatida ham belgilanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati faoliyati bilan bogliq shirkat ishtirokchisining burchi har xil shaklda amalga oshirilishi mumkin. Shirkat faoliyatini amalga oshirishda ishtirokchining shaxsan o'zi qatnashishi zarurligi qonunda nazarda tutilmagan.

Ta'ris shartnomasida ayrim ishtirokchilarning shirkat faoliyatida faqat qo'shgan hissalar bilan ishtirok etishi mumkinligi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

To'liq shirkatning moliyaviy manbai - uning ishtirokchilaridan yiilgan kapital hisoblanadi. Shirkatning har bir ishtirokchisi ushbu kapitalga o'z hissasini qo'shadi. Qo'shiladigan hissaning miqdori shirkatni ro'yxatdan o'tkazish paytida uning yarmidan kam bo'lmasligi, qolgan qismini topshirish muddati ta'ris shartnomasida belgilangan bo'lishi kerak. Hissaning miqdori va turlari har xil, masalan, mol-mulkdan, puldan, ko'rsatiladigan xizmatlardan va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin.

To'liq shirkat faoliyatini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilgan daromadlar, shuningdek, ko'rilgan zararlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash ular har birining qo'shgan hissasiga nisbatan mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Ishtirokchilarning kelishuvi bilan zararlar boshqa tartibda taqsimlanishi ham mumkin. Lekin qonun bo'yicha ishtirokchilardan birortasini daromad olishdan to'liq mahrum qilishga yoki etkazilgan zararni qoplashdan mutlaq ozod qilishga yo'l qo'yilmaydi.

To'liq shirkat ishtirokchisining shaxsiy majburiyatlari bo'yicha qarzni undirish birinchi galda uning o'ziga tegishli va ixtiyorida bo'lgan mol-mulkka nisbatan qaratiladi. Agar uning bu mol-mulki etarli bo'lmasa, undiruv shirkatning yiindi kapitalidagi uning hissasiga qaratilishi mumkin. Ishtirokchining hissasi to'la hajmda qarzni undirishga qaratilgan taqdirda, u shirkat tarkibidan chiqib ketadi.

To'liq shirkatning tugatilishi yuridik shaxslarga xos bo'lgan umumiy qoidaga asosan amalga oshirilsada, birmuncha o'ziga xos farqli jihatlari ham bor. Agar shirkat ishtirokchilarining tarkibiy qismida o'zgarish yuz berib, shirkat faoliyatini davom ettirish haqida o'zaro kelishishga erishilmasa, shirkat tugatilgan, deb hisoblanadi. Agar shirkatda uning bitta ishtirokchisi qolgan bo'lsa-da, u shirkatni ma'lum muddatda xo'jalik jamiyatiga aylantirmagan holatda ham shirkat tugatilgan deb hisoblanadi.

Kommandit shirkati ularga tegishli huquq va burchlarining farqi bilan ikki xil turkumga bo'linadigan ishtirokchilardan tashkil topadi. Ular to'liq sheriklardan va ishonchga asoslangan sheriklardan iborat. Bunday shirkat faoliyatini va uning doirasini to'liq sheriklar belgilaydi. Ishonchga asoslanganlarning shirkat faoliyatidagi ishtiroki shirkat fondiga hissa qo'shish bilan cheklanadi. Ular shirkat faoliyati bilan bogliq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissa doirasida javobgar bo'ladilar.

Kommandit shirkatning ta'sis shartnomasiga faqat uning to'liq sheriklari imzo chekadilar. Ishonchga asoslangan ishtirokchilar ta'sis shartnomasini ishlab chiqishda va muhokama qilishda qatnashishlari, ularning bu huquqi ta'sis shartnomasida ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Kommandit shirkatning faoliyatini to'liq shirkatlar uchun belgilangan tartibda to'liq sheriklar boshqaradi. Ishonchga asoslanganlar shirkatning faoliyatini amalga oshirishda va boshqarishda ishtirok etmaydilar. Ular shirkatning ishonchnomasiga asosan bitimlarni tuzishda va bajarishda ishtirok etishlari mumkin.

Ishonchga asoslangan ishtirokchilarning asosiy maqsadi shirkatning yiindi kapitaliga qo'shgan hissasiga nisbatan mutanosib daromad olishdan iborat. Olingan daromadning bir qismini ishonchga asoslangan ishtirokchiga berish umumiy qoidaga binoan xo'jalik yilining yakunlanishi bilan qabul qilingan hisobot va chiqarilgan balansga asosan amalga oshiriladi.

Ishonchga asoslangan ishtirokchi xo'jalik yili tugashi bilan shirkatning yiindi kapitalidan o'z hissasini olib yoki bu hissani boshqa shaxsga o'tkazib shirkatdan chiqib ketish huquqiga ega. Hissani o'tkazishda boshqa uchinchi shaxslarga nisbatan shirkatdagi ishonchga asoslangan ishtirokchilar ustun huquqqa ega. Bunday paytda shirkatdagi to'liq ishtirokchilar ham uchinchi shaxs sifatida qabul qilinadilar.

Kommandit shirkati nochor (bankrot) deb topilganida, uning mulkidan birinchi galda kreditorlarining talablari qanoatlantiriladi (FKning 56-moddasi), so'ngra ishonchga asoslangan ishtirokchilarning hissaları ajratib beriladi va binobarin shirkatning yiindi kapitalidan qolgan mol-mulk to'liq sheriklar o'rtasida taqsimlanadi.

**Xo'jalik jamiyatlari.** Xo'jalik jamiyatlari ishtirokchilarining huquq va burchlariga xos farqlari ham asosan ularning majburiyatlari bo'yicha javobgarligi bilan bogliq. Masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatning majburiyatlari bo'yicha uning ishtirokchilari javob bermaydilar.

Ular jamiyat faoliyati bilan bogliq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgardirlar (FKning 62-moddasi).

Mas'uliyati cheklangan jamiyat uning ta'sis hujjatlari, uni tashkil qilish tartibi, ishtirokchilarining huquq va burchlari bilan to'liq yoki kommandit shirkatlaridan farq qiladi. Uning yana bitta farqi shundan iboratki, bunday jamiyatning ta'sischisi bitta shaxsdan iborat bo'lishi ham mumkin. Shuning bilan birga mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining soni qonun hujjatlarida o'rnatilgan me'yordan oshib ketmasligi kerak, oshib ketgan taqdirda bunday jamiyat aksiyadorlar jamiyatiga aylantirilishi yoki tugatilishi lozim. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchisi tomonidan ustav fondi (kapitali)dagi o'z hissasini uchinchi shaxslarga sotishga, agar ustavda ruxsat berilmagan bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi. Ushbu hissa umumiy qoidaga binoan jamiyatniig boshqa ishtirokchilariga o'tkazilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab vujudga keladi (FKning 44-moddasi). Ro'yxatdan o'tkazish ta'sis hujjatlari (ta'sis shartnoma va ustav)ga asosan amalga oshiriladi (FKning 43-moddasi). Ular ro'yxatdan o'tkazish uchun birga taqdim etiladi. Jamiyatning ta'sischisi bitta shaxsdan iborat bo'lsa, ro'yxatdan o'tkazish uchun faqat ustav taqdim etiladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatniig moddiy manbai jamiyat ishtirokchilarining hissalaridan tashkil topgan ustav fondi (kapitali)dir. Ustav kapitalining miqdori, odatda, ustavda nazarda tutiladi, lekin u qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan kam bo'lmasligi kerak. Jamiyat fuqarolarning ixtiyoriy ravishda tuzadigan tashkiloti bo'lganligi tufayli, hissaning etmay qolgan qismini undirish uchun sudda da'vo qo'zatilmaydi. Bunday hollarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga binoan ustav fondiga qo'shiladigan hissaning miqdori kamaytirilishi yoki jamiyatning faoliyati tugatilishi mumkin. Ustav

fondining miqdori qisqartiriladigan bo'lsa, bu haqda jamiyatning kreditorlari, albatta, xabardor qilinadi. Ular majburiyatni jamiyat tomonidan belgilangan muddatdan oldin bajarishni yoki uni bekor qilishni va shu tufayli etkazilgan zararni qoplashni undan talab qilish huquqiga ega.

Kommandit (ishonchga asoslangan) shirkatni boshqarish uning to'liq sheriklari tomonidan amalga oshiriladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatda bunday emas. Bu jamiyatda uning barcha ishtirokchilari teng va jamiyat faoliyatini boshqarish uchun ulardan birontasiga qonunda ustunlik berilmagan. Shuning uchun ham jamiyat ishtirokchilari tomonidan uning boshqaruv organini tuzish nazarda tutiladi. Ishtirokchilarning umumiy majlisi jamiyatning oliy organi hisoblanadi. Umumiy majlis mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan normativ hujjatlarni, jamiyatning ichki ishlarini hal qilishga qaratilgan qarorlarni qabul qilish huquqiga ega. Kundalik muammolarni hal qilish uchun va umumiy majlisga hisobot berib turuvchi va unga itoat etadigan ijrochi organ tuziladi. Bunday organ yakka direktor yoki maslahatchilar hay'ati (kollegiya)dan iborat bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulkleri bilan qo'shgan hissalariga qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar. Demak, jamiyat majburiyatlari bo'yicha hamma ishtirokchilar sheriklik (solidar) asosida karrali miqdorda bir tekisda qo'shimcha (subsidiar) javobgar bo'ladilar (FKning 63-moddasi). Ushbu moddaga binoan ishtirokchilardan birontasi bankrot bo'lsa, javobgarlik boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanishi mumkin.

Jamiyatning ta'sis hujjatlari ta'sis shartnomasidan va uning ustavidan iborat. Ta'sis shartnomasi jamiyatni tashkil etish paytida uning ta'sischilarining huquq va burchlarini belgilaydi va tartibga soladi. Jamiyatning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va ta'sischilar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarining bajarilishi bilan ta'sis shartnomasi o'z kuchini yo'qotadi. Ustav esa, o'z navbatida, jamiyatning yuridik shaxs

sifatida huquqiy maqomini belgilaydi. Barcha manfaatdor shaxslar jamiyat ustavi bilan tanishib chiqish huquqiga ega. Aktsiyadorlarning talabi bo'yicha jamiyat ustavi va unga keyinchalik kiritilgan o'zgarishlar bilan tanishib chiqish uchun aktsiyadorga imkoniyat tudirib berish kerak.

Aktsiyadorlar jamiyatining faoliyati uning organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatning oliy organi aktsiyadorlarning umumiy yilishi hisoblanadi. Umumiy yilish jamiyatning boshqaruv organi – kuzatuv kengashi tomonidan chaqiriladi. Ko'p masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan, muhim masalalar bo'yicha malakaviy ko'pchilik ovozlar bilan qabul qilinadi.

Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatida umumiy rahbarlik vazifasini amalga oshiradi. Umumiy yilish vakolatiga taalluqli bo'lgan masalalar yuzasidan kuzatuv kengashi qaror qabul qilish huquqiga ega emas.

Har qanday fuqaro, u jamiyat aktsiyadori bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi mumkin. Kuzatuv kengashining a'zolari jamiyatning yillik umumiy yilishida saylanadi. Kengash a'zolari o'z tarkibidan yopiq ovoz bilan kuzatuv kengashi raisini saylaydilar. Kuzatuv kengashining qarorlari, agar ustavda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda qatnashgan kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat ustavida majlisda ovozlar teng taqsimlangan taqdirda kengash raisiga hal qiluvchi ovoz berish huquqi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Aktsiyadorlarning umumiy yilishining qarori bilan kuzatuv kengashi a'zosining vakolati turli asoslarga ko'ra muddatidan oldin tugatilishi mumkin.

**Sho'ba va qaram jamiyatlar.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxslarning turli huquqiy maqomga ega bo'lgan xo'jalik shirkatlari, jamiyatlari va ularning har xil birlashmalari hamda uyushmalari keng miqyosda tarqaladi va avj oladi. Shunday holat ham yuz berishi mumkinki, bitta yuridik shaxsning ta'sischi (ishtirokchilari) boshqa yuridik shaxslarning ta'sischi bo'lish darajasiga erishadi. Bunday holatlarda ta'sischi yuridik shaxs (xo'jalik shirkati yoki xo'jalik jamiyati) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda hal qiluvchi, ya'ni asosiy tashkilot vazifasini bajaradi, u tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxslar unga nisbatan sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari mavqeiga ega bo'ladi.



Ushbu jamiyatlarning asosiy xususiyatlari FKning 67, 68-moddalarida har tomonlama ifodalangan.

Ustav fondiga hissa qo'shishda xo'jalik jamiyatida ishtirok etgan jamiyat sho'ba xo'jalik jamiyati - deyiladi. Ustav fondidagi ishtiroki ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik asosiy xo'jalik deyiladi.

Xo'jaliklarning sho'ba va asosiy darajaga ega bo'lishi ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida yoki biri ikkinchisining qarorlariga muvofiq ish tutishi bilan ham ifodalanadi. Sho'ba jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi. Umumiy qoidaga binoan asosiy va sho'ba jamiyatlari birbirlarining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Lekin sho'ba jamiyati asosiy jamiyatning aybi bilan bankrotlikka uchrasa, asosiy jamiyat subsidiar javob berishi, agar mulkiy zarar ko'rsa etkazilgan zararni qoplashi lozim (FKning 67-moddasi).

Xo'jalik jamiyatida qatnashuvchi jamiyatning biri jamiyat ustav fondining yigirma foizidan ko'proiga ega bo'lsa, ikkinchi jamiyat qaram xo'jalik jamiyati deyiladi. Bunday jamiyat ham yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyatning qaram bo'lganligi haqida darhol e'lon qilinishi shart (FKning 68-moddasi).

Huquqiy mavqei bo'yicha qaram xo'jalik jamiyati sho'ba jamiyatiga yaqin turadi. Lekin shunga e'tibor berish kerakki, sho'ba xo'jalik jamiyati tijorat tashkilotining u yoki bu tashkiliy-huquqiy shaklida, ya'ni shirkat yoki xo'jalik jamiyati sifatida tashkil topsa, qaram jamiyat faqat xo'jalik jamiyati sifatida tashkil topadi. Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining har bir tashkiliy-huquqiy shakli bilan bogliq muammolar doirasining kengligi va ularning har biri alohida tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkinligini nazarda tutgan holda bular haqidagi asosiy tushunchalar va qoidalarga to'xtalib o'tildi.

Tijoratchi tashkilotlar qatoriga yuqorida keltirilgan xo'jalik jamiyatlaridan tashqari ishlab chiqarish kooperativlari, unitar korxonalar, xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonalar, operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi va boshqalar kiradi.

**Ishlab chiqarish kooperativlari.** Ishlab chiqarish kooperativlari fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasidan tashkil topadi (FKning 69-moddasi). Ular birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini

olib borish uchun o'z xohishlari bilan ushbu birlashmaga a'zo bo'ladilar. Birlashma fuqarolarning o'zlari shaxsan ishtirok etishi va ularning mulkiy badallarini qo'shish, ya'ni birlashtirish tamoyiliga asoslanadi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin. Kooperativning majburiyatlari bo'yicha uning a'zolari qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar (qo'shimcha), ya'ni ular kooperativning javobgarlikdan qutilishi uchun to'lashi kerak bo'lgan mablaining (mulkining) etishmay qolgan qismi miqdorida javob beradilar.

Kooperativ a'zolarining umumiy majlisida tasdiqlangan ustav kooperativning ta'sis hujjati hisoblanadi. FKning 43-moddasidagi ma'lumotlardan tashqari kooperativ a'zolarining qo'shadigan badallari, badallarning tarkibiy qismi, miqdorlari va badal qo'shishga oid majburiyatlarini buzganlik uchun ularning javobgarligi, kooperativ faoliyatida o'z mehnatlari bilan qatnashish tartibi va uning xarakteri, shuningdek o'z mehnati bilan qatnashish haqidagi majburiyatlarini buzganlik uchun ularning (a'zolarining) javobgarligi, kooperativ daromadlari va ko'rgan zararlarini taqsimlash tartibi, kooperativ qarzlari bo'yicha subsidiar javobgarlikning shartlari va miqdori, kooperativ boshqaruv organlarining tarkibi va uning vakolat doirasi, qaror qabul qilish tartibi, kooperativ a'zolarining barchasi yoki bir qismi ovoz berishi zarur bo'lgan masalalar haqida ma'lumotlar kooperativ ustavida nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

FKning 69-moddasida tijoratchi sifatida faqat ishlab chiqarish kooperativlariga taalluqli qoidalar nazarda tutiladi. Matlubot kooperativlarining huquq layoqati FKning 73-moddasi bilan tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar sifatida belgilanadi.

Ishlab chiqarish kooperativlari o'ziga xos belgilari bilan boshqa tijorat tashkilotlaridan farq qiladi. Ishlab chiqarish kooperativi fuqarolarning unga a'zo bo'lishiga va uning faoliyatida shaxsan o'z mehnati bilan ishtirok etishiga asoslanadi. Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarida ishtirokchilarning shirkat yoki jamiyat faoliyatida shaxsan o'z mehnatlari bilan qatnashishlari talab qilinmaydi. Ishlab chiqarish

kooperativida qatnashuvchilarning shu kooperativ faoliyatida shaxsan ishtirok etishi ular o'rtasidagi aloqaning qanchalik yaqin ekanligidan dalolat beradi. Ishlab chiqarish kooperativiga o'rindoshlik sharti bilan davlat korxonalari va tashkilotlarida ishlovchilar ham a'zo bo'lish huquqiga ega.

Ishlab chiqarish kooperativlarining faoliyatida yuridik shaxslarning ishtirok etishiga ham yo'l qo'yiladi. Bu haqda kooperativning ustavida ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Yuridik shaxsning xizmatchilari kooperativ faoliyatida o'z mehnatlari bilan qatnashishlari mumkin. Agar kooperativning a'zolari faqat yuridik shaxslardan tashkil topadigan bo'lsa, ularning faoliyati birlashmalar va ittifoqlarga oid qoidalarga asosan tartibga solinadi (FKning 77-moddasi).

Ishlab chiqarish kooperativi kooperativ a'zolarining mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida vujudga keladi. Ayni paytda qonun a'zolarining kooperativ majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli mol-mulk bilan subsidiar javobgar bo'lishini nazarda tutadi. Bu ham ishlab chiqarish kooperativiga xos xususiyatlardan iborat. Chunki ko'pchilik jamiyatlarning, jumladan mas'uliyati cheklangan jamiyat va aktsiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari jamiyatning majburiyatlari bo'yicha ustav fondiga (kapitaliga) qo'shgan hissalar yoki aktsiyaning qiymati, miqdori doirasida javobgar bo'ladilar.

Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bilan bitta shaxsdan tashkil topadigan xo'jalik jamiyatlaridan farq qiladi. Uning ta'sis hujjati faqat ustavdan iborat bo'lib, ta'sis shartnomasini tuzish talab qilinmaydi. Ustav kooperativ joylashgan erda mahalliy hokimiyat tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Ustav ro'yxatdan o'tkazilishi bilan ishlab chiqarish kooperativi tuzilgan deb hisoblanadi.

Kooperativning mol-mulki uning iqtisodiy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Kooperativning mol-mulki uning ustaviga muvofiq a'zolarining paylariga bo'lingan bo'ladi. Pay sifatida pul summasi, moddiy ob'ektlar (asbob-uskunalar), shuningdek mulkiy huquq o'tkazilishi mumkin. Kooperativ a'zolari ustav fondining bir qismini uning bo'linmas mulki sifatida tan olishlari mumkin. Mulkning ushbu qismidan faqat ustavda

belgilangan maxsus maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalaniladi va a'zolar kooperativdan chiqib ketishganida ham ushbu qism bo'linmaydi, chiqib ketadigan a'zoning ulushi ajratilmaydi. Bo'linmas mol-mulk fondini tashkil qilish tartibi ustavda nazarda tutilgan bo'lib, bu haqdagi qaror kooperativning barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilingan bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish kooperativlari o'z mol-mulki bilan bozor munosabatlarida mustaqil ravishda ishtirok etadi. Mol-mulkni tasarruf etish huquqi faqat kooperativning o'ziga tegishli bo'lib, bu huquqni kooperativ umumiy majlisining qaroriga asosan, kooperativning ijro etuvchi organlari, tasdiqlangan smetaga muvofiq amalga oshiriladi.

Kooperativga taalluqli bo'lgan ushbu qoida dispozitiv xarakterga ega. Kooperativ ustavida daromadni taqsimlash faqat a'zolarining qo'shgan mehnatlariga mutanosib ravishda emas, balki ular qo'shgan paylarining miqdoriga qarab ham amalga oshirilishi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativi o'z majburiyatlari bo'yicha unga tegishli bo'lgan barcha mol-mulklari bilan javob beradi. Uning mol-mulki kamlik qilgan taqdirda, kooperativ a'zolari o'z mol-mulklari bilan qonunda va kooperativ ustavida belgilangan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Ishlab chiqarish kooperativining oliy organi a'zolikka asoslangan barcha tashkilotlarda bo'lganidek, uning umumiy majlisi hisoblanadi. Umumiy majlis kooperativning faoliyati bilan bogliq barcha masalalarni muhokama qilish vakolatiga ega. Lekin ba'zi muhim masalalar faqat umumiy majlisning vakolatiga tegishli ekanligi uning ustavida nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Masalani hal qilishda umumiy majlis a'zolarining har biri, uning mol-mulkdagi hissasidan qati nazar, bitta ovozga ega. Shu bilan ham xo'jalik shirkatlari jamiyatlardan farq qiladi, ularda masalani hal qilishda ishtirokchilarning ustav fondidagi hissasi va aktsiyalarning soni hal qiluvchi rol o'ynaydi.

“Fermer xo'jaligi to'risida”gi Qonun fermer xo'jaligi tushunchasi, uni tashkil etish shartlari, tartibi, davlat ro'yxatiga olish, uning ustavi va ustavining mazmuni, xo'jalikni yuritish uchun er uchastkasini berish va

undan foydalanish tartibi va uning huquq layoqatini tashkil qiluvchi boshqa qoidalar nazarda tutiladi. Qonunning 7-moddasiga muvofiq fermer xo‘jaligi vakolatli organ tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomini oladi. Shu bilan uning tushunchasi va huquqiy maqomi yuridik shaxsga xos bo‘lgan umumiy belgilar (FKning 39-modda) bilan ifodalanadi. Fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shuullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Fermer xo‘jaligining boshlii shu xo‘jalikning muassisi – fermer hisoblanadi. Boshqa yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo‘jaligi nomidan ana shu xo‘jalik boshlii ish olib boradi.

Fermer xo‘jaligining ustav fondi fermer xo‘jaligi boshlii tomonidan belgilanadi. Pul, qimmatli qogozlar, binolar, inshootlar, boshqa mol-mulk yoki pul bilan baholanadigan mulkiy huquqlar fermer xo‘jaligining ustav fondiga qo‘shiladigan hissa bo‘lishi mumkin. Agar fermer xo‘jaligining ustav fondi shakllantirilayotganda fermer xo‘jaligining boshlii o‘z oila a‘zolarining umumiy (ulushli yoki birgalikdagi) mulki hisoblangan mol-mulkni fermer xo‘jaligiga topshirayotgan bo‘lsa, ushbu mol-mulkning barcha mulkdorlaridan notarial tasdiqlangan rozilik olish talab etiladi.

Fermer xo‘jaligining ustav fondini ko‘paytirish va kamaytirish fermer xo‘jaligi boshliining qaroriga ko‘ra fermer xo‘jaligi ustaviga o‘zgartirishlar kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Fermer xo‘jaligi uning balansidagi barcha mol-mulkka nisbatan mulk huquqiga ega bo‘ladi.

Fermer xo‘jaligining mol-mulki, agar uning xodimlarining o‘rtasidagi kelishuvga binoan umumiy ulushli mulk tashkil etish nazarda tutilmagan bo‘lsa, uning xodimlariga umumiy birgalikdagi mulk sifatida tegishli bo‘ladi. Demak, fermer xo‘jaligining mol-mulki umumiy ulushli yoki umumiy birgalikdagi mulk huquqidan iborat bo‘lishi mumkin.

Fermer xo‘jaligining mol-mulki pul va moddiy manbalar, tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar (foyda), qimmatli qogozlardan kelgan daromadlar, qonunda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tashkil

topishi mumkin. Xo‘jalik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol-mulkni yaratish, ko‘paytirish, sotib olish, ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga olish huquqiga ega.

Fermer xo‘jaligining mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish xo‘jalik xodimlarining o‘zaro kelishuvi asosida fermer xo‘jaligining boshlii tomonidan amalga oshiriladi. Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday turi bilan, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shuullanishi mumkin. Uning xo‘jalik faoliyatiga davlat organlari hamda boshqa organlar va tashkilotlar, shuningdek ularning mansabdor shaxslarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar ularning ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fermer xo‘jaligiga zarar etkazilgan bo‘lsa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zarar qoplanishi kerak (FKning 12, 15-moddalari).

Fermer xo‘jaligini tugatishning o‘rnatilgan hollardan farqli o‘laroq, o‘ziga xos xususiyatlari FKning 53-moddasida bayon etilgan. Unga ko‘ra, fermer xo‘jaligi quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganida;
- fermer xo‘jaligi bankrot deb topilganda (bu barcha yuridik shaxslarga taalluqli bo‘lgan umumiy qoida);
- fermer xo‘jaligining boshlii vafot etib, xo‘jalik faoliyatini davom ettirishni xohlovchi merosxo‘r bo‘lmasa;
- yerni ijaraga olish shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinganda;
- davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun er uchastkasi olib qo‘yilganda; yer to‘risidagi qonun hujjatlari buzilganda;
- fermer xo‘jaligi yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanmaganda;
- shu bilan birga kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish amalga oshirilmagan taqdirda.

Fermer xo‘jaligini tugatish uning boshliining qaroriga binoan, shuningdek sudning qaroriga asosan amalga oshirilishi mumkin.

Tugatilgan fermer xo‘jaligining huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tmaydi. Fermer xo‘jaligi o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulki bilan javob beradi. Fermer xo‘jaligining mol-mulki etarli bo‘lmagan taqdirda uning majburiyatlari bo‘yicha xo‘jalikning boshlii o‘ziga tegishli mol-mulk bilan subsidiar javobgar bo‘ladi.

### **3.Xo‘jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning xususiyatlari**

Xo‘jalik yuritish huquqining tushunchasi va ushbu huquqqa ega bo‘lgan yuridik shaxsning mulkiy huquq layoqati FKning 176, 177-moddalarida nazarda tutiladi. 176-moddaga muvofiq, xo‘jalik yuritish huquqiga ega bo‘lgan yuridik shaxs unga birlashtirilgan mol-mulkka mulk huquqi subyekti kabi egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Ushbu huquqqa ega bo‘lgan tadbirkor o‘z xohishi bilan qonunga zid kelmaydigan har qanday harakatlarni amalga oshiradi. Mulk huquqi subyekti bo‘lmasdan, mol-mulkni operativ boshqarish huquqiga ega bo‘lgan korxonalarining vakolatlari FKning 72, 178-moddalarida belgilangan.

Xo‘jalik yuritishida bo‘lgan mol-mulkka nisbatan mulkdorning huquqlari xo‘jalik yuritishida bo‘lgan mol-mulkning egasi qonunga muvofiq korxonaga tashkil etish, uning faoliyat sohasini va maqsadlarini aniqlash, uni qayta tashkil etish va tugatish masalasini hal qiladi, korxonaga direktorini (rahbarini) tayinlaydi, korxonaga qarashli mol-mulkdan belgilangan maqsadlarda foydalanilishi va uning saqlanishini nazorat qiladi. Mulkdor korxonaning xo‘jalik yuritishida bo‘lgan mol-mulkni ishlatishdan kelgan foydaning bir qismini olish huquqiga ega.

Unitar korxonaga xo‘jalik yuritish huquqi asosida o‘ziga qarashli bo‘lgan ko‘chmas mulkni mulkdorning roziligisiz sotishga, ijaraga berishga, garovga qo‘yishga, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas.

Korxonaga qarashli boshqa mol-mulkni u mustaqil tasarruf etadi. Davlat korxonasi yoki muassasasiga birlashtirib qo‘yilgan mol-mulkning

egasi ortiqcha, foydalanilmayotgan yoki noo‘rin foydalanilayotgan mol-mulkni olib qo‘yish hamda uni o‘zi xohlagan tarzda tasarruf etishga haqli.

Davlat korxonasi mol-mulkni tasarruf etish davlat korxonasi o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni uning mulkdorining roziligi bilangina boshqa shaxsga berishga yoki uni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli. Davlat korxonasi o‘zi ishlab chiqaradigan maxsulotni, agar qonun hujjatlarida o‘zgacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, o‘zi mustaqil tasarruf etadi. Davlat korxonasi daromadlarini taqsimlash tartibi uning mulkdori tomonidan belgilanadi. Muassasa mol-mulkni tasarruf etish muassasa o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni va smeta bo‘yicha unga ajratilgan mablaglarga sotib olingan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o‘zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas.

Agar ta‘sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shugullanish huquqi berilgan bo‘lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi.

Xo‘jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi mulkdorning qarori bilan unitar korxonaga yoki muassasaga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni xo‘jalik usulida yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqi ushbu korxonaga yoki muassasada unga mol-mulk topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqarishida bo‘lgan mol-mulkdan foydalanishdan olingan hosil, mahsulot va daromadlar, shuningdek unitar korxonaga yoki muassasaga shartnoma bo‘yicha yoxud boshqa asoslarda vujudga kelgan mol-mulk ham mulk huquqining vujudga kelishi uchun belgilab qo‘yilgan tartibda korxonaga yoki muassasaning xo‘jalik yuritishiga yoki operativ boshqarishiga o‘tadi.

Mol-mulkni xo‘jalik usulida yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi mulkdorning qarori bilan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda bekor qilinadi. Xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga nisbatan basharti FK va o‘zga qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, mulkchilik huquqi to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi.



Demak, tadbirkorlik faoliyati mulk huquqi egasi boʻlgan va boʻlmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari umumiy qoidaga binoan mulk huquqi egalari hisoblanadi, agar bunday huquqqa ega boʻlmagan taqdirda, ular mulkdor tomonidan birlashtirib qoʻyilgan mol-mulkka nisbatan xoʻjalik yuritish huquqiga yoki operativ boshqarish huquqiga ega boʻladilar va tadbirkorlik faoliyatini mulkdor tomonidan belgilangan vakolat doirasida amalga oshiradilar (FKning 71, 177-m.).

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan asosiy maqsad daromad (foyda) olishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadbirkor oʻz faoliyatini bozor talablariga moslashtirib rejaga soladi, kerakli va sotib oluvchilar uchun zarur boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga, xarid qilishga raqobatlashuvda faol qatnashishga harakat qiladi. Tadbirkor oʻz faoliyatini yuritish natijasida oladigan umumiy daromadidan maʼlum qismini soliqlar va boshqa toʻlovlar uchun ajratadi. Toʻlovlarni toʻlashdan tadbirkor ixtiyorida qolgan daromad sof foyda sifatida toʻlatoʻkis uning tasarrufiga oʻtadi. Sof foydadan qaysi maqsadda foydalanishni tadbirkor oʻzi mustaqil ravishda hal qiladi.

**4.Tadbirkorlik subyektlarining mol-mulki ob'ektlari:** asosiy vositalar, pul mablaglari, qimmatli qogozlar, nomoddiy ob'ektlar Fuqarolik huquqlarining ob'ektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada boʻlishi cheklab qoʻyilmagan boʻlsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga oʻtishi mumkin. Muomalada boʻlishiga yoʻl qoʻyilmaydigan fuqarolik huquqlari ob'ektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan ob'ektlar) qonunda toʻridan-toʻri koʻrsatilgan boʻlishi kerak.

Muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli boʻla oladigan yoki muomalada boʻlishiga maxsus ruxsatnoma bilan yoʻl qoʻyiladigan fuqarolik huquqlari ob'ektlarining (muomalada boʻlishi cheklangan ob'ektlarning) turlari qonunda koʻrsatilgan tartibda belgilanadi. OʻzR FKning 85-moddasiga koʻra butun korxonada mulkiy kompleks sifatida koʻchmas mulk hisoblanadi. Butun korxonada yoki uning qismi olish-sotish,

garovga qo'yish, ijara hamda ashyoviy huquqlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilish bilan bogliq boshqa bitimlarning ob'ekti bo'lishi mumkin.

Mulkiy kompleks bo'lgan korxonada tarkibiga uning faoliyati uchun mo'ljallangan hamma mulk turlari, shu jumladan yer uchastkalari, binolar, inshootlar, uskuna, inventar, xom ashyo, mahsulot, talab qilish huquqi, qarzlari, shuningdek korxonani, uning mahsuloti, ishlari va xizmatlarini aks ettiruvchi xususiy alomatlariga (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari) bo'lgan huquqlar va boshqa mutlaq huquqlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kiradi.

Asosiy va mansub ashyolar. Foydalanish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning mohiyati bilan boshqa ashyo (mansub ashyo)ga bogliq mustaqil ashyo asosiy ashyo hisoblanadi. Asosiy ashyoga xizmat qilishi kerak bo'lgan va u bilan umumiy xo'jalik vazifasi orqali bogliq ashyo mansub ashyo hisoblanadi.

Mansub ashyo, agar qonunlar yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, asosiy ashyoning taqdiriga bogliq bo'ladi. Murakkab ashyolar agar turli xil ashyolar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo'yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo (murakkab ashyo) hisoblanadi. Hosil va daromadlarga bo'lgan huquq ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ashyo egasiga tegishlidir.

Pul mablaglari ham tadbirkorlik faoliyatida ob'ekt sifatida muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, to'lovlarni amalga oshirish jarayonida pul mablaglari asosiy vosita hisoblanadi. To'lovlar naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblarda tarzida amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblarni chet el valyutasida amalga oshirish hollari, tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi. Qimmatli qogozlar mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qogozlar hisoblanib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi.

Qimmatli qogozlar boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlar ham o'sha shaxsga o'tadi. Qimmatli qogozlar jumlasiga quyidagilar kiradi: obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamgarma sertifikatlar, konosament, aktsiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qogozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi. Mutlaq huquq ob'ekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina foydalanishlari mumkin.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1. Mulk huquqi tadbirkorlik faoliyatining asosi sifatida.
2. Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish.
3. Xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi asosida. tadbirkorlik faoliyatini yuritishning xususiyatlari.
4. Tadbirkorlik subyektlarining mol-mulki ob'ektlari: asosiy vositalar, pul mablaglari, qimmatli qogozlar, nomoddiy ob'ektlar.

### ***Bobni o'zlashtirish uchun testlar***

*1. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilash tartibi qaysi qonun hujjatda belgilandi?*

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PF4725-son farmonida.

B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyuldagi PF5490-sonli farmonida.

S. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 sentyabrdagi PF5187-sonli farmonida.

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 iyuldagi PF6263-sonli farmonida.

*2. Unitar korxonaning mulk huquqini amalga oshirish tartiblari tugri ko'rsatilgan javobni toping?*

A. Unitar korxonada xo'jalik yuritish huquqi asosida o'ziga qarashli bo'lgan ko'chmas mulkni mulkdorning rozilgisiz sotishga, ijaraga

berishga, garovga qo'yishga, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas.

B. Unitar korxonada xo'jalik yuritish huquqi asosida o'ziga qarashli bo'lgan ko'chmas mulkni mulkdorning roziligisiz sotishga, ijaraga berishga, garovga qo'yishga, xo'jalik shirkatlari va akstiyadorlik korxonaning ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas.

S. Unitar korxonada xo'jalik yuritish huquqi asosida o'ziga qarashli bo'lgan ko'chmas mulkni mulkdorning roziligisiz sotishga, foydalanishga, garovga qo'yishga, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas.

D. Unitar korxonada xo'jalik yuritish huquqi asosida o'ziga qarashli bo'lgan ko'chmas mulkni mulkdorning roziligisiz sotishga, ijaraga berishga, garovga qo'yishga, to'liq shirkat va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas.

*3. Mulk huquqining ob'ektlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilangn.*

A. Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shligi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qogozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk ob'ektlari.

B. Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shligi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qogozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk ob'ektlari.

S. Yer, yer osti boyliklari, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot,

pul, qimmatli qogozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk ob'ektlari mulk bo'lishi mumkin.

D. Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shligi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qogozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk ob'ektlari mulk bo'lishi mumkin.

*4. Qimmatli qogozlar jumlasiga kiruvchi qatorni belgilang.*

A. obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamarma sertifikatlari, konosament, aktsiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qogozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar.

B. obligatsiya, veksel, chek, zayom va jamarma sertifikatlari, konosament, aktsiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qogozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

S. obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamarma sertifikatlari, konstessiya, aktsiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qogozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

D. obligatsiya, veksel, chek, depozit va plastik kartochkalar, sertifikatlari, konosament, aktsiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qogozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

*5. Asosiy ashyoga berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang.*

A. Foydalanish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning mohiyati bilan boshqa ashyo (mansub ashyo)ga bogliq mustaqil ashyo, asosiy ashyo hisoblanadi.

B. Asosiy ashyoga xizmat qilishi kerak bo'lgan va u bilan umumiy xo'jalik vazifasi orqali bogliq ashyo asosiy ashyo hisoblanadi.

S. Foydalanish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning hegaralanishi bilan boshqa ashyo (mansub ashyo) ga bogliq mustaqil ashyo asosiy ashyo hisoblanadi.

D. Foydalanish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning mohiyati bilan boshqa ashyo (mansub ashyo) ga bogliq bo'lmagan mustaqil ashyo asosiy ashyo hisoblanadi.

## **6.BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUQUQ VA QONUNY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH**

- 1.Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish tushunchasi.
- 2.Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy tizimi.
- 3.Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya tizimini ta'minlash.
- 4.Xo'jalik (tadbirkorlik) subyektlari faoliyatini nazorat qilish tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

*Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar*

*Bobni o'zlashtirish uchun testlar*

### **1. Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish tushunchasi.**

Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish O'zbekiston respublikasining qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasida xususiy mulk davlat mulki kabi teng himoya qilinishi kafolatlangan. Tadbirkorlar o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish tartib taomillari O'zR "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'risida"gi Qonun asosida amalga oshiriladi. Ushbu qonuning 18-moddasida tadbirkorlik faoliyati subyektlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, boshqa tashkilotlarning qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganlaridek, *"Tadbirkorlarning faoliyatini ragbatlantirish, qo'llab - quvvatlash, – ular uchun qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoit yaratib berish masalalari barcha darajadagi rahbarlarning, birinchi galda hududiy hokimlik va boshqaruv idoralarining doimiy diqqat markazida turishi kerak"*.

Bugungi kunda xam, respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish masalalari hududlar kesimida asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni e‘lon qilindi.

Farmonda, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, biznes hamjamiyati va davlat organlari o‘rtasida samarali muloqot va sog‘lom sherikchilik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlar bilan biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo‘yicha dolzarb axborot almashinuvining doimiy kanalini, avvalo viloyatlar, shaharlar va tumanlarda joriy etish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalariga erishish, o‘zining biznesini tashkil etish va yuritishda aholiga har tomonlama ko‘mak berish, shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlariga sifatli davlat xizmatlari ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida bir necha sohalarda amalga oshiriladigan vazifalar sanab o‘tilgan. Jumladan:

**Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish sohasida** – tadbirkorlik sub'yektlarini, ayniqsa, o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yish davrida ularni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli muhofazasining kafolatlarini kuchaytirish, jadal rivojlanishiga har tomonlama ko‘mak berish, xususiy mulk va tadbirkorlikning ustuvorlik roli va daxlsizligini ta‘minlash, respublikamiz tumanlari va shaharlarida aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, jumladan:

- vakolatli organlar tomonidan tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari rioya etilishi holatini tahlil qilish hamda uning natijalarini tizimli asosda O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Devoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli organlarga taqdim etish;

- tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligining, avvalo, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etilishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshirishning amaliy mexanizmini joriy etish hamda ularning faoliyati bo‘yicha mustaqil baholashni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari va xodimlariga nisbatan shikoyat arizalari bergan tadbirkorlik sub'yektlarining manfaatlarini himoya qilish;

- tadbirkorlik sub'yektlari faoliyati monitoringini amalga oshirish hamda ular faoliyati tekshiruvlarida Palata a'zolarining ishtirok etishini ta'minlash.

**Ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash sohasida** – tadbirkorlik faoliyati sohasi qonunchiligini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik sub'yektlarini ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyati sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliyotga joriy etilishi ustidan jamoat ekspertizasini tashkil etish va jamoat nazoratini kuchaytirishga keng jalb qilish, jumladan:

- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik muhiti va investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha davlat dasturlari, shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- tadbirkorlik sub'yektlarini ishbilarmonlik muhiti holatini yanada yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga keng jalb qilish, tadbirkorlik tuzilmalari bilan birgalikda me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik ekspertizasini, jumladan, sanoat, transport, qurilish, moliya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, savdo va



xizmatlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalar bo'yicha ekspert kengashlarini tashkil etish orqali tashkil etish;

- tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari kafolatlarini mustahkamlash, ularning rivojlanishini rag'batlantirishni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- respublikamiz tumanlari (shaharlari), viloyatlari kesimida joylardagi ishbilarmonlik muhitining holati hamda qonunchilikdagi me'yorlar va talablarning amalga oshirilishi natijalari bo'yicha har chorakda tahlil o'tkazish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va boshqa vakolatli organlarga ularni yaxshilash bo'yicha tahliliy materiallar va takliflarni taqdim etish.

**Tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish sohasida** – tadbirkorlik sub'yektlariga biznesni tashkil etish, yuritish va yanada rivojlantirishda amaliy yordam ko'rsatish, davlat organlari va bozor infratuzilmasi sub'yektlari xizmatlaridan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar va sharoitlar yaratish, maslahat yordami va axborot ta'minotini taqdim etishda quyidagilar orqali ko'maklashish:

- yangidan faoliyat boshlayotgan tadbirkorlarni joylashtirish uchun biznes-inkubatorlar faoliyatini yaratish va tashkil etish hamda ularga biznes-rejalarni tayyorlash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotlarni olish va amaliy masalalarni hal etishda ekspert, huquqiy va maslahat yordami ko'rsatish;

- tadbirkorlarning investitsiya va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotlarni olishiga yordam berish;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda, ular faoliyati bo'yicha tekshiruvlar o'tkazilganida tadbirkorlik sub'yektlariga huquqiy va yuridik yordam ko'rsatish;

- moliyaviy va tovar-xomashyo resurslari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, texnologik mashinalar va qurilmalar, ishlab chiqarish obektlari, shuningdek, yer maydonlaridan foydalanishda amaliy yordam ko'rsatish;- Savdo-sanoat palatasi a'zolari va hamkorlari ishtirokida jamoatchilik asosida qo'mitalar, ishbilarmonlik va muvofiqlashtirish kengashlarini tashkil etish;

- innovatsiya tadbirkorligini joriy etishga, «startup» loyihalar, yoshlarning, avvalo oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining o'z biznesini tashkil qilish va yuritishga, shuningdek, aholi bandligi va daromadlarining jadal o'sishini ta'minlashga xizmat qiladigan kichik, xususiy va oilaviy tadbirkorlik, kasanachilikning turli shakllarini jadal rivojlantirishga faol ko'maklashish.

**Davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik sohasida** – davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari – qonunchilik, sud va ijro etuvchi hokimiyatlar, shuningdek, bank-moliya tashkilotlari va bozor infratuzilmasining boshqa sub'yektlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlashni moslanuvchanligi va natijadorligiga xizmat qiladigan samarali o'zaro hamkorlik tizimini va yangi ish shakllarini joriy etish, jumladan:

- tadbirkorlik sub'yektlari bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, joylardagi barcha darajadagi davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga ko'maklashish, «to'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa» tamoyili bo'yicha o'zaro hamkorlikning amaliy va samarali mexanizmini yaratish;

- tadbirkorlik sub'yektlarining murojaatlarini qabul qilish va qayta ishlash, vakolatli organlarga ko'rib chiqish uchun taqdim etish,

shuningdek, ularning ijro etilishi ustidan monitoring olib borish va tahlil qilish;

- viloyatlar markazlari, tumanlar va shaharlarda Tadbirkorlikka ko'maklashish markazlari faoliyatini tashkil etish, ularning vakolatli davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek, davlat xizmatlari taqdim etuvchi xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash.

**Tadbirkorlik sub'yektlarini o'qitish va kadrlar tayyorlash sohasida** – tadbirkorlik tuzilmalari uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi sifatini tubdan oshirish, iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, har bir tuman va shaharlarda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash doimiy kurslarini quyidagi usullar orqali tashkil etish:

- O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan Respublika tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish markazi va uning hududiy filiallari bilan, jumladan, kasb-hunar kollejlari negizida mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida, o'zaro hamkorlikni tashkil etish;

- markaz faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari, xorijiy donorlar va chet davlatlarning tadbirkorlarni o'qitish bo'yicha muqobil markazlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- tadbirkorlarga biznes yuritish asoslari, biznes-rejalar tuzish, tadbirkorlik faoliyati sohasida qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, menejment, moliyaviy boshqaruv va boshqa zarur fanlarga o'qitishni tashkil etish bo'yicha tadbirkorlik sub'yektlari uchun o'quv kurslarini ishlab chiqish va o'tkazish;

- tadbirkorlarga xodimlarni tanlash va o'qitishda, ularning kasb malakasini doimiy oshirishda ko'maklashish, hududlar va tadbirkorlik sohalarida malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda,

oʻrta maxsus, kasb-hunar va oliy taʼlim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashga davlat buyurtmalarini shakllantirishda ishtirok etish;

- taʼlimni tashkil etish uchun oliy oʻquv yurtlari, kasb-hunar kollejlarning oʻqituvchilari, amaliyotchi-mutaxassislar, yuqori natijalarga erishgan tadbirkorlar va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarni jalb qilish sohasida** – respublikamiz tadbirkorlik sub'yektlarining xalqaro ishbilarmonlik hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, mahalliy korxonalar mahsulotlarining tashqi bozorlarga chiqarilishini taʼminlash, milliy brendlarni xorijda faol ilgari surish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, jumladan:

- biznes-forumlar, koʻrgazmalar va yarmarkalarni tashkil etish va ularda mahalliy tadbirkorlik sub'yektlarining keng ishtirokini taʼminlash;

- tadbirkorlik sub'yektlariga ishonchli hamkorlar, yangi bozorlarni izlash va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish, eksport turlarini kengaytirish va tadbirkorlik sub'yektlarining eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilishda yordam koʻrsatish;

- tashkil etilgan kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarda ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori boʻlgan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish boʻyicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga oid loyihalarni amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'yektlari, jumladan xorijiy investorlarga har tomonlama yordam koʻrsatish;

- mazkur vazifalarni amalga oshirishda respublikamizning chet eldagi diplomatik vakolatxonalarining savdo-iqtisodiy masalalari boʻyicha maslahatchilari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining chet eldagi vakolatxonalarini bilan faol oʻzaro hamkorlikni taʼminlash.

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi belgilangan aniq strategik maqsadlar va asosiy vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi, Savdo-sanoat palatasi Prezidiumi majlislarida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini muntazam ko‘rib chiqsin.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatining strategik maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishda har tomonlama yordam ko‘rsatishni ta'minlaydi.

Farmonning keyingi matnlarida Savdo-sanoat palatasining ayrim takliflari ma'qullangan va uning huquqlari sanab o‘tilgan. Shuningdek, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari tashkil etilishi belgilangan va markazlar faoliyatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari sanab o‘tilgan.

## **2-§. Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy tizimi.**

Davlat va huquq mavjud bo‘lgan har qanday jamiyatda huquqiy himoya tizimi ham mavjud bo‘ladi. Huquqiy himoya tizimi huquqni qo‘llash amaliyotining tarkibiy qismidir. Huquqni qo‘llash amaliyotida, ijtimoiy hayotda turli subyektlarni manfaati to‘qnashuvi, ular o‘rtasida bahs-munozaralar va nizolar kelib chiqishi mumkin. Biroq bu o‘rinda huquqiy himoya tizimi huquqiy nizolarni hal etish tizimi bilan bir xil, ayniy degan tasavvur tuilmasligi lozim. Huquqiy himoya tizimi garchi muayyan holatlarda huquqiy nizolarni hal etish tizimi bilan tutashsa ham huquqiy maydonda o‘ziga xos nisbiy mustaqil segment sifatida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy himoya tizimi huquq subyektlarini o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini normal amalga oshirishini ta’minlash, ularni har qanday buzilishlardan va tajovuzlardan saqlash maqsadida qo‘llaniladigan, huquq normalarida belgilab qo‘yilgan yuridik ta’sir choralari va ularning amal qilishini ta’minlovchi institutsional, protsessual normalar majmuidan iborat.

Huquqiy himoya tizimi quyidagi elementlardan iborat:

a) himoyalanuvchi subyekt tomonidan qo‘llaniladigan yuridik ta’sir choralari. Bunday ta’sirni yuridik ta’sir choralari sifatida namoyon bo‘lishi nafaqat ularni huquq normalarida belgilab qo‘yilganligida, balki huquqiy oqibatlar vujudga keltirishida ham ko‘rinadi. Yuridik ta’sir choralari himoyalanuvchi subyekt yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Yuridik ta’sir choralari tizimida huquqlarni himoya qilish usullari markaziy o‘rinni egallaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasida fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari sifatida, bitimni haqiqiy emas deb topish, bitimni haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llashni talab qilish, zararni qoplashni talab qilish, huquqbuzarlikni to‘xtatish, huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishni talab qilish shular jumlasidandir;

b) huquqiy himoya tizimini institutsional tuzilmalari ham huquqiy himoyani qo‘llanishi va samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi. Institutsional tuzilmalar o‘ziga xos tashkiliy-huquqiy qurilmalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tashkiliy-huquqiy tuzilmalar huquqiy himoyani amalga oshirish yoxud himoyalanuvchi subyektga bunday vazifani bajarishga ko‘maklashish funktsiyalarini bajaradi. Aynan institutsional tuzilmalar huquqiy himoya tizimini barqarorligi, doimiyliги, tizimlashni belgilaydi. Institutsional tuzilmalar ham ommaviy huquqiy, ham xususiy huquqiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Davlat organlari tizimida maxsus ixtisoslashgan idoralar – huquqni muhofaza qiluvchi organlar (prokuratura, ichki ishlar, monopoliyaga qarshi kurash organlar va h.k.) tashkil etadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning har birining o‘ziga xos faoliyat yo‘nalishi, maqsadlari, vazifalari va funktsiyalari mavjud, biroq bularning barchasi buzilgan huquqlarni himoya qilish funktsiyasining muayyan jihatlarini qamrab oladi yoxud ushbu vazifalar bilan uzviy bogliq holda amalga oshiriladi. Shu sababli ham ularni huquqiy himoya tizimining institutsional tuzilmalar ichida alohida o‘rin egallashini qayd etish lozim;

v) huquqiy himoya tizimi tarkibida protsessual vositalar ham muhim rol o‘ynaydi.

Aynan huquqlarni himoya qilish jarayonida muayyan tartib, taomillar, protsessual harakatlar ketma-ketligi va uzviyligi, yuridik hujjatlar shakl-shamoyili belgilab qo'yilganligi protsessual jarayon ishtirokchilari uchun qulaylik tudiradi.

O'z huquqlarini himoya qilishni talab etayotgan yoki himoyani amalga oshirayotgan subyekt protsessual tartib mavjudligi va unga qat'iy rioya qilish shartligi sababli boshqa shaxslarni, ayniqsa, ba'zi davlat yoxud nodavlat tashkilotlar xodimlarining o'zboshimchaliklari, byurokratik munosabatlari ta'sirini keskin kamaytiradi yoxud oldini oladi. Ushbu protsessual vositalar ommaviy-huquqiy ham, xususiy-huquqiy ham, universal-huquqiy ham, lokal-huquqiy ham bo'lishi mumkin. Huquqiy himoya tizimi har qanday huquq tizimi – oilasida (anglo-sakson, qit'a, musulmon va hatto patriarxal huquq oilasida ham) mavjud. Huquqiy himoya tizimi keng ma'noda huquq-tartibot va odil sudlov tizimiga tayanadi. Huquqiy himoya tizimi undan foydalanuvchi subyektlar doirasiga qarab umumiy va maxsus huquqiy himoya tizimlariga tabaqalanadi. Umumiy huquqiy himoya tizimi huquqiy maydonda harakatlanuvchi barcha subyektlarni – fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, xorijiy yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlarni qamrab oladi. Ushbu subyektlarni barchasi o'zlarining buzilgan huquqlarini huquqiy himoya tizimidan foydalangan holda himoya qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Albatta, amalda ko'proq undan fuqarolar va yuridik shaxslar doimiy ravishda foydalanadilar.

Umumiy huquqiy himoya tizimining asosiy jihatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muayyan darajada o'z ifodasini topgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 13-moddasi (demokratik huquq va erkinliklar qonun bilan qo'riqlanishi), 8-moddasi (teng huquqlilik), 19-moddasi (huquq va erkinliklar daxlsizligi), 20-moddasi (huquq va erkinliklarni amalga oshirish shartlari), X-bobi (huquq va erkinliklar kafolatlari) shular jumlasidandir. Umuman olganda, Konstitutsiyaning juda ko'p normalarida subyektlarni muayyan huquqlari va erkinliklari yoki ularni ta'minlash kafolatlari mujassamlangan.

Davlat kuchli huquq-tartibot va odil sudlov tizimini yaratish, uni tashkiliy – huquqiy va normativ ta'minlash orqali umumiy huquqiy himoya tizimini doimiy va uzluksiz ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Barcha subyektlar hech qanday to'siqlarsiz va istisnolarsiz ushbu tizim imkoniyatlaridan foydalanishga xaqlidir. Shuni nazarda tutish lozimki, ayrim toifadagi shaxslar uchun maxsus huquqiy himoya tizimini joriy etilganligi Konstitutsiyaning 18-moddasida belgilab qo'yilgan barcha fuqarolarni teng huquqliligi tamoyiliga aslo zid emas.

Alohida huquqiy himoya tizimidan foydalanuvchilar aholini elita qismi sifatida baholanmaydi. Ular aholini boshqa qatlamlariga mansub kishilarni huquqlarini kamsitilish, erga urish evaziga qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'lmaydilar. Aksincha, masalan, voyaga etmaganlar va nogironlarga alohida huquqiy himoya tizimi joriy etilmasa, u holda ular boshqa kishilarga nisbatan imkoniyatlari cheklanganligi sababli noqulay ahvolga tushib qolgan bulur edi. Alohida maxsus huquqiy himoya tizimini joriy etish orqali "zaif" subyektlar boshqa subyektlar imkoniyatlari darajasi bo'yicha tenglashadi. Demak, maxsus huquqiy himoya tizimi eng avvalo, subyektlar teng huquqliligini real jihatdan ta'minlashga qaratiladi. Shu ma'noda maxsus huquqiy himoya tizimi huquq tartibotning zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuni ishonch bilan takidlash mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi shakllantirildi va uning tashkiliy mexanizmi yaratildi.

O'zR "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'risida"gi Qonunning 31-moddasida, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining takliflari davlat organiga yoki xo'jalik boshqaruvi organiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo'lib, bu haqda taklif kiritgan tadbirkorlik faoliyati subyektiga o'n kunlik muddat ichida ma'lum qilinadi. Arizalar yoki shikoyatlar masalani mohiyatiga ko'ra hal etishi shart bo'lgan davlat organiga yoki xo'jalik boshqaruvi organiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda, qo'shimcha o'rganishni va tekshirishni talab etmaydiganlari esa, o'n besh kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi.



Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy - huquqiy asoslari deganda avvalo, tadbirkorlik subektlarini vujudga kelishi, bunda subyektlarning mulk huquqi, subyektlarning davlat ro'yxatidan o'tishi, listenziya olish jarayonlari va shunga o'xshash boshqa jarayonlarni tashkil qiladi. Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi o'zining yaqqol ifodalangan tashkiliy – huquqiy tuzilmalariga ega bo'lib, bu tuzilmalar ichida adliya organlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu holat faqat mamlakatimiz huquq tizimi uchungina xos holatdir. Xorijiy mamlakatlarda ham tadbirkorlarning huquqiy himoya mexanizmi yaratilgan, biroq alohida, maxsus vakolatli tashkiliy tuzilmalar mavjud emas.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini huquqiy himoya qilishda davlat organlari (sud, prokuratura, adliya, biznes ombudsman, tuman, shaxar va viloyat hokimliklari) va nodavlat tizimlari (savdo-sanoat palatasi, fermer xo'jaliklari uyushmasi) bab-baravar faoliyat ko'rsatadi. Tadbirkorlik subyektlarini vujudga kelish, ro'yxatga olish, faoliyatni amalga oshirish, qayta tashkil etish, tugatish jarayonlari davlat hokimiyati boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy ishtirokchilari sifatida tan olingan tijoratchi tashkilotlarning huquqiy maqomi O'zRning fuqarolik kodeksida va boshqa shu soxada qabul qilingan qonun hujjatlarda o'z ifodasiga egadir. Masalan, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar, qo'shimcha ma'suliyatli jamiyat, aktsiyadorlik jamiyati, ishlab chiqarish kooperativlari, fermer xo'jaliklari va dexqon xo'jaligi to'grisidagi qonunlarda belgilab qo'yilgan. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida tadbirkorlikni amalga oshirish ham o'z normativ-huquqiy asoslariga ega. Nizolarni hal etishning davlat tizimida xo'jalik nizolari muayyan vakolatli davlat idoralari tomonidan hal etiladi. (masalan, kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha nizolar tuman hokimligi huzuridagi inspeksiya, intellektual mulk ob'ektlariga huquqiy muhofaza hujjati berish bilan bogliq nizolar O'zbekiston Intellektual mulk Agentligi huzuridagi Appelyatsiya kengashi tomonidan va h.k.). Ko'p hollarda davlat idorasi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari,

mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Xo‘jalik nizolarini hal etish uchun alohida sud tizimining mavjudligi tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilishni osonlashtiradi va real amalga oshirilishni o‘ziga xos kafolati bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda xo‘jalik sudi iqtisodiy sudga o‘zgartirildi va iqtisodiy sudlarda tadbirkorlar bilan bogliq ishlarni ko‘rishda sudlar zamonaviy axborot texnologiyalari izchillik bilan joriy etilmoqda. Bu esa tadbirkorlik subyektlari uchun o‘z huquqlarini himoya qilishni masofaviy amalga oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga ularning vaqtini va mablaglarini tejash natijada tadbirkor o‘z faoliyatini to‘laqonli shuullanishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Konstitutsiya normalari asosida yaratilayotgan shart-sharoitlarda mamlakat iqtisodiy rivojining strategik maqsadi, ya’ni bozor munosabatlari tizimini shakllantirish va mustahkamlash aniq va ravshan belgilab qo‘yilgan edi. Biroq ushbu iqtisodiy tizimni barpo etish yo‘llari, davlat va iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, davlatni iqtisodiyotga huquqiy ta’sir ko‘rsatish shakllari va vositalari hali mukammal ishlab chiqilmagan edi. Mana shunday sharoitda Konstitutsiyaning XII-bobi jamiyatni iqtisodiy negizi to‘risida konstitutsiyaviy normalarni o‘zida mujassam etdi. Bugungi kunda ushbu normalar mazmunini tahlil etar ekanmiz, ularni nihoyatda zargarona aniqlik bilan belgilanganligini e’tirof etish lozim.

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy negizining asosida yotadi. Xuddi shu sababli ham Asosiy qonunimizda mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qator konstitutsiyaviy printsiplar belgilab qo‘yilgan. Birinchi galda O‘zbekiston iqtisodiyoti negizini xilma xil shakllardagi mulk tashkil etishi belgilab qo‘yilgan. Demak, bundan mamlakatimizda qandaydir mulk shaklini tanho hukmron mavqega ega bo‘lmasligi to‘risida xulosa chiqarish mumkin. Bu o‘rinda Konstitutsiyada mulk shakllari sanab chiqilmaydi, ularning ro‘yxati belgilab qo‘yilmaydi. Bu esa kelgusida istiqbolda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan u yoki bu mulk shakllariga to‘siqlar qo‘yishni istisno

etilishini anglatadi. Konstitutsiyada shuningdek, barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-baravar himoya etilishi kafolatlanishi to'risida konstitutsiyaviy printsip o'z ifodasini topgan. Ushbu printsip shunchaki deklarativ xarakterga ega bo'lmasdan, keyinchalik fuqarolik qonunlarida yanada rivojlantirildi va muayyanlashtirildi. Davlat – mulkdor, davlat mulki ya'ni ommaviy mulk mulkning alohida shakli hisoblanadi.

Biroq davlat na siyosiy hokimiyat subyekti sifatida, na qonun chiqarish hokimiyatini sohibi sifatida o'z mavqeidan foydalangan holda ommaviy mulk uchun alohida imtiyozli holatni belgilab bermaydi. Aksincha barcha mulk shakllarining teng huquqligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Konstitutsiyada shuningdek, mulk shakllari orasida xususiy mulk shakli to'risida alohida so'z yuritiladi. Bir qarashda Konstitutsiyaning 53-moddasining birinchi va ikkinchi qismlari orasida ziddiyat bordek tuyuladi. Agar 53-moddaning birinchi qismida barcha mulk shakllarining teng huquqligi rasman bayon etilsa, 53-moddaning ikkinchi qismida esa mulk shakllari ichida xususiy mulkka alohida e'tibor beriladi. Aslini olganda bunday ziddiyat mavjud emas. Chunki, garchi xususiy mulk alohida ta'kidlab ko'rsatilsa ham, Konstitutsiyaning 53-moddasi ikkinchi qismi barcha mulk shakllari uchun ta'sir kuchiga ega. Shu bilan birga, xususiy mulkka alohida uru berilgani bejiz emas. Chunki, Konstitutsiya qabul qilingunga qadar xususiy mulk amalda to'laqonli huquqiy maqomga ega bo'lmagan. Aksincha, nisbatan yaqin o'tmishda u qoralanib, yuridik jihatdan qonundan tashqari deb e'lon qilingan. Boshqa jihatdan olganda esa, aynan xususiy mulk erkin raqobat va shartnomalar erkinligi hamda bozor munosabatlarini rivojlantirishning asosiy shartidir. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tadbirkorlik subyektlari o'z molmulklariga ega bo'lishi lozim.

Davlat mulki – ommaviy mulk o'zining alohida tayinlanish maqsad va vazifalariga ega. Bu vazifalar davlatning o'ziga xos funksiyalari, ya'ni mudofaa, xavfsizlik, sotsial funksiyalar, davlatni normal faoliyatini tashkil etish va shu kabilar bilan uzviy bogliq. Iqtisodiyotda xususiy sektor subyektlari tadbirkorlikni asosiy sube'ktlari sifatida namoyon

bo'lishi tabiiy. Bundan esa, xususiy mulkni jamiyat iqtisodiy negizini rivojlantirishda, bozor tizimi va tadbirkorlikni taraqqiy etishida asosiy moddiy-mulkiy manba bo'lishi to'risida xulosa kelib chiqadi. Demak, qonun chiqaruvchi tomonidan Konstitutsiyaning 53-moddasi ikkinchi qismida xususiy mulkka uru berilishi har jihatdan o'rinli va maqsadga muvofiq bo'lgan. Navbatdagi konstitutsiyaviy printsiplik mulk daxlsizligi bilan bogliq. FKning 166-moddasida mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida va boshqa qator qonunlarda mulk huquqini bekor bo'lish asoslari va tartibi batafsil belgilab qo'yilgan. Mulkdor har qanday holatda emas, balki o'zining ayri-huquqiy harakatlari yoki jamiyat manfaatlari taqozosiga ko'ra, muayyan cheklangan holatlardagina o'z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin. Asosiy qonunimizda mulk huquqini mazmuni va mulkdor vakolatlarini amalga oshirish chegarasi belgilab qo'yilgan. Mulkdor vakolatlari, eng avvalo, o'z mol - mulkiga o'z xohishiga ko'ra egalik qilish, foydalanish, tasarruf qilishda namoyon bo'ladi. Biroq, mulkdor vakolatlari mutlaqo chegarasiz emas. Mulkdor o'z mol -mulkidan foydalanish jarayonida ekologik muhitga zarar etkazmasligi, boshqa subyektlarni huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Konstitutsiyada jamiyat iqtisodiy negizlari bilan bogliq yana bir konstitutsiyaviy printsiplik bu - iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi printsiplik hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyat erkinligining mohiyati shundan iboratki, fuqarolar va yuridik shaxslar qonunlarda ta'qiqlanmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bilan shuullanishlari mumkin. Ushbu iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchisi tomonidan foyda olish maqsadi ko'zda tutilsa tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Agarda bunday maqsadni ko'zlamasa hayriya, birgalikdagi faoliyat va shu kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati erkinligi fuqaro yoki tijoratchi yuridik shaxsga qonunda ta'qiqlanmagan har qanday faoliyat sohasi bo'yicha tadbirkorlikni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq har qanday iqtisodiy faoliyatni, tadbirkorlikni va mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi har bir subyekt o'z faoliyati natijalaridan

bahramand bo‘luvchi iste‘molchilar huquqi ustunligini unutmasliklari lozim. Bozor sharoitida har qanday mehnat faoliyati, tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiy faoliyat pirovard natijasi iste‘molchilarning muayyan ehtiyojlarini qanoatlantirish hisoblandi. Binobarin, ushbu tamoyilni davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda qat‘iy amalga oshirishi shart bo‘lgan o‘ziga xos konstitutsiyaviy printsiplarning sifatida e‘tirof etish o‘rinli bo‘lur edi. Yuqoridagi konstitutsiyaviy printsiplar iqtisodiyotni tartibga soluvchi har qanday qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida yotuvchi asosiy rahbariy qoida bo‘lib qolishi, ularni Konstitutsiyaga to‘liq muvofiqligini ta‘minlovchi asosiy yuridik shart hisoblanadi.

### **3-§. Tadbirkorlik faoliyati huquqiy himoya tizimini ta‘minlash tartibi.**

Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimining yana bir tarkibiy qismi bo‘lib tadbirkorlik, xo‘jalik yuritish faoliyatini huquqiy himoya tizimini huquqiy ta‘minlash hisoblanadi. Bu o‘rinda shuni ta‘kidlash lozimki, xo‘jalik yuritish, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish darajasi boshqa faoliyat turlariga nisbatan ancha yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan. Tadbirkorlik subyektlarini vujudga kelish, ro‘yxatga olish, faoliyatni amalga oshirish, tugatish, qayta tashkil etish jarayonlari to‘la huquqiy tartibga solingan. Tadbirkorlik subyektlarining deyarli barcha turlari o‘zining qonuniy huquqiy maqomiga ega (masalan, to‘liq shirkat, kommandit shirkati, ma‘suliyati cheklangan jamiyat, qo‘shimcha ma‘suliyatli jamiyat, aktsiyadorlik jamiyati, ishlab chiqarish kooperativlari, fermer xo‘jaliklari va sh.k.).

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida tadbirkorlikni amalga oshirish ham o‘z normativ-huquqiy asoslariga ega. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy ta‘minlanganlik darajasini yuqoriligi – bu o‘rinda kim tomonidandir o‘zboshimchaliklar sodir etilishini kamaytiradi va oxir oqibatda huquqiy himoyani yuksak saviyasini ta‘minlaydi.

Albatta, tadbirkorlik faoliyatini batafsil huquqiy tartibga solinganligi juda muhim ijobiy holat hisoblanadi. Ayni vaqtda bu borada barcha muammolar hal etilgan deb aytish qiyin. Afsuski, tadbirkorlikning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi normativ massivda aksariyat ko‘pchilik

turli idoralar me'yoriy hujjatlari tashkil etadi. Odatda qonunlarda mustahkamlangan normativ umumiy yo'nalish bilan idoraviy manfaatlar mustahkamlab qo'yiladi, bu esa xolislik, adolat, oqilonalik, insofilik kabi umumiy tamoyillar mazmuniga har doim ham to'la muvofiq kelavermaydi. Shu sababli ham, rivojlangan mamlakatlar tajribasida idoraviy hujjatlar orqali huquqiy tartibga solish iloji boricha kam qo'llaniladi. Shu sababli ham kelgusida xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda idoraviy me'yoriy hujjatlar (Markaziy Bank, Moliya, Iqtisodiyot vazirliklari, Davlat bojxona qo'mitasi, Soliq qo'mitasi kabi idoralar chiqargan hujjatlar) o'rniga qonunlar bilan tartibga solishga keng o'rin berish lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya qilishning huquqiy asoslari eng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan qonunosti hujjatlari alohida kontseptual ahamiyat kasb etadi. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirish maqsadida 2005 yil 24 iyunda qabul qilingan PF-3622-son "Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'risida"gi Farmoni, 2011 yil 24 avgustda ishbilarmonlik muhitini znada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport slohiyatini rivojlantirish, atoli bandligini va daromadlarini ta'minlash maqsadida qabul qilingan PF-4354-son "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'risida"gi, 2011 yil 4 apreldagi PF-4296-son "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'risida"gi, 2011 yil 25 avgustdagi PQ-1604-son

“Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘risida”gi, 2014 yil 15 apreldagi PQ-2164-son “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bogliq tartibotlarni yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘risida”gi, 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘risida”gi Farmon va qarorlarini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, 2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘risida”gi Farmoniga ko‘ra 2014 yil 1 iyundan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan me‘yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlari talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralari qo‘llash taqiqlanishi belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga ushbu Farmonga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuri dik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga yuri dik javobgarlikning yangi choralari belgilaydigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlari ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, uch oydan oldin bo‘lmagan muddatda kuchga krishi belgilandi.

2014 yil 7 apreldagi PF-4609-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘risida”gi Farmonga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuri dik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga yuri dik javobgarlikning yangi choralari belgilaydigan me‘yoriy-huquqiy hujjatlari ular rasman chop etilgan fursatdan boshlab, uch oydan oldin bo‘lmagan muddatda kuchga krishi belgilandi.

Nizolarni hal etish davlat tizimida xo‘jalik-tadbirkorlik nizolari muayyan vakolatli davlat idoralari tomonidan hal etiladi. (Masalan,

kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha nizolar tuman hokimligi huzuridagi inspeksiya, intellektual mulk ob'ektlariga huquqiy muhofaza hujjati berish bilan bogliq nizolar O'zbekiston Intellektual mulk Agentligi Appelyatsiya Kengashi tomonidan va h.k.). Ko'p hollarda davlat idorasi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Sudga murojaat qilish huquqi Konstitutsiyamizning 44-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Tadbirkorlik yoki xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan bogliq nizolar iqtisodiy sudlarga ta'lluqli bo'lib, ish yuritish tartibi umumiy sudlarni ish yuritish tartibidan nisbatan soddaligi, tezkorligi bilan ajralib turadi (masalan, sud buyrui tartibining mavjudligi). Xo'jalik yurituvchi subyektlar da'vo arizasi berishda o'z pul mablag'lariga ega bo'lmasalar, davlat boji to'lashni hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar kechiktirishga yo'l qo'yiladi. Xo'jalik nizolarini hal etish uchun alohida sud tizimining mavjudligi xo'jalik qonuniy huquq va manfaatlarini huquqiy himoya qilishni osonlashtiradi va real amalga oshirilishni o'ziga xos kafolati bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik(tadbirkorlik) sohasida vujudga kelgan nizolarni hal etishning nosud tizimi ham mavjud. Masalan, talabnoma bildirish tartibida nizolarni hal etishga yo'l qo'yiladi. "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'risida"gi Qonunning 17-18-moddalarida talabnoma bildirish orqali xo'jalik nizolarini hal etish asoslari va tartibi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari taraflar kelishuv bitimi tuzish, nizoni hakamlar sudiga berish orqali ham hal etishlari mumkin. Hakamlar sudining qarori davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi, shuningdek muayyan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ushbu qaror ustidan sudga (xo'jalik sudiga) shikoyat qilish mumkin. Nizolarni hal etishning xalqaro tizimi ham mavjud. Odatda xorijiy tadbirkorlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar bu borada vujudga kelgan nizolarni hal etish uchun xorijiy davlatlar sudlariga yoki xalqaro arbitrajlariga murojaat etishlari mumkin. Bunda albatta har qanday nizolar emas, balki O'zbekiston



Respublikasi Konstitutsiyasida yo‘l qo‘yilgan nizolar xorijiy davlatlar sudlarida yoki xalqaro arbitrajida ko‘rib hal etilishi mumkin (masalan, bankrotlik bo‘yicha ishlar, davlat byudjet oldidagi majburiyatlar bilan bogliq nizolar, horijiy yurisdiksiya bo‘la olmaydi.)

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimida Savdo-sanoat palatasi muhim o‘rin egallaydi. Savdo-sanoat palatasi tarmoq xo‘jalik birlashmalari tarkibiga kirmaydigan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini a‘zolik shart bo‘lgan holda shartnoma asosida birlashtiruvchi davlatga qarashli bo‘lmagan notijorat tashkilotidir. Palata O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga ko‘maklashib, bozor infrastrukturasi yaxlit tizimini shakllantirish, tadbirkorning faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, tadbirkorlikning barcha turlarini, O‘zbekiston tadbirkorlarining boshqa mamlakatlar tadbirkorlari bilan savdo iqtisodiy va ilmiytexnikaviy aloqalarini rivojlantirish maqsadida tuziladi. Palata o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004 yil 3 dekabrda 713-II-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini asosida amalga oshiradi.

**O‘zbekiston Savdo-sanoat Palatasining asosiy vazifalari** - O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni, eng avvalo kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish; tadbirkorlarga chet ellik sheriklar bilan amaliy muloqotlar va aloqalarni kengaytirishda, eksport mahsulotini tashqi bozorlarga olib chiqishda, shuningdek raqobatbardosh tayyor mahsulot chiqarishni ta‘minlovchi yangi ishlab chiqarishlar barpo etish hamda mavjud ishlab chiqarishlarni texnikaviy jihatdan qayta jihozlash uchun to‘ridan-to‘ri chet el investitsiyalarini jalb etishda ko‘maklashish; boshqa davlatlarning savdo-sanoat palatalari va tadbirkorlar jamoat birlashmalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda rivojlantirish; tadbirkorlarga keng turdagi xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan axborot ta‘minoti va maslahat yordami berish, O‘zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilari haqidagi, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot va investitsiyaviy imkoniyatlar to‘risidagi axborotni, shuningdek potensial sheriklarga va zamonaviy

texnologiyalar xarid qilish imkoniyatlariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi biznes-kataloglar e'lon qilinishini tashkil etish; tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhitni shakllantirish, xalqaro huquq va biznes yuritish amaliyotining umum e'tirof etilgan normalarini joriy qilish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy va iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash chora-tadbirlarini ko'rish; tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish, shu jumladan davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari bilan munosabatlarda, shuningdek sudda ifoda etish hamda himoya qilish; tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar ta'limi va ularni tayyorlash tizimi rivojlantirilishini, tadbirkorlarni o'qitish va ularning malakasini oshirish tashkil etilishini qo'llab-quvvatlash.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi tadbirkorlik tuzilmalari xususan fermer xo'jalik huquqiy himoya tizimida Fermer xo'jaliklari kengashlari murim o'rin egallaydi. Ular o'z faoliyatlarini "Fermerlar kengashi to'risida"gi ustavga muvofiq amalga oshiradi. Mazkur ustavga muvofiq O'zbekiston Fermerlari kengashi o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi: respublikada fermerlikni rivojlantirishning dolzarb muammolarini o'rganadi va fermerlikni rivojlantirish sohasida qonunchilikni takomillashtirish, fermer xo'jaliklarining moddiy-texnik va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularning mulkiy huquqlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish; davlat organlari va xo'jalik boshqaruv organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ular faoliyat masalalariga doir normativ-huquqiy hujjat loyihalari tayyorlanayotganda ularning so'roviga ko'ra ushbu loyihalar bo'yicha xulosalar berish; fermer xo'jaliklarining iqtisodiy ahvoli va moddiy-texnik ta'minlanganligini tahlil qiladi hamda uning natijasiga ko'ra tegishli taklif va choratadbirlar ishlab chiqish; tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, korxonalar bilan fermer xo'jalik o'rtasida tuzilgan shartnomalarning, o'z vaqtida va to'liq bajarilishini monitoring qilishda ishtirok etish; bozorlarda talab va takliflarni o'rganib chiqib o'zining a'zolariga kerakli bo'lgan maxsulotlarning bozor narxlari bo'yicha amaliy ko'mak berish

hamda ushbu ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish; O'zbekiston fermerlari kengashi a'zolari fermerlarning huquqlari buzilganligi yuzasidan va ularning qonuniy manfaatlarini ko'zlab, davlat organlariga takliflar kiritish; qonunda belgilangan tartibda (jumladan, davlat tuzilmalari bilan birgalikda) o'quv markazlarini, biznes-maktablarini va turli xil professional tayyorgarlik va rahbarlarni qayta tayyorlash hamda fermer xo'jalik mutaxassislarini zamonaviy darajada va standartlarga tayyorlash kurslari, xususan boshqarish asoslari va biznesni yuritish, buxgalterlik hisobi, suurta, banklar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantiradi; xalqaro, respublika va xududiy ko'rgazma va yarmarkalarni tashkil etish, boshqa davlatlarning shunday tashkilotlari bilan aloqalar o'rnatish va rivojlantirish, o'zining a'zolarini chet davlatlarga xizmat safari va stajirovkaga yuborish, O'zbekistonga tegishli xorijiy tashkilotlar vakillarini taklif qilish; kengash a'zolariga kredit olish va o'zlashtirishda konsultativ va metodik yordam berish, kredit resurslarga, jumladan xorijiy kredit resurslarini olishda imkoniyatlarni kengaytirish; hududiy va tuman fermerlar kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirish; qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish.

#### **4-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) subyektlari faoliyatini nazorat qilish tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

Tadbirkorlarning huquqiy himoya tizimining markazida tadbirkor bilan uning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat xizmatchisi o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch va insofga asoslangan qonuniy munosabatlarni vujudga keltirish va uni doimiy barqaror ravishda saqlab turish yotadi. Bu vazifa ancha murakkab hisoblanadi. Uni amalga oshirishda quyidagi omillarni hisobga olish lozim bo'lib jumladan:

*birinchidan*, tadbirkorlik faoliyati muayyan moddiy boyliklar, pul mablaglari bilan uzviy bogliq ravishda amalga oshiriladi. Shu sababli ham ushbu moddiy qiymatliklarni muomalada bo'lish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat talab etiladi. Nazoratga olib, o'z majburiyatlarini

bajarishda ta'magirlikka, suiiste'molliklarga yo'l qo'yilmasligi alohida muhim ahamiyatga ega.

*ikkinchidan*, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilish oqilona tashkil etilmo, tadbirkorlik subyektiga o'z xo'jalik faoliyatini amalga oshirishga aslo to'sqinlik qilmasligi lozim.

*uchinchidan*, nazorat ochiq, oshkor, shaffof bo'lmoi, nazorat asoslari, tartibi, usul va vositalari aniqravshan belgilab qo'yilmoi shart. Aks holda har xil o'zboshimchaliklar kelib chiqishi mumkin.

*to'rtinchidan*, tadbirkorlik subyekti nazorat jarayonida o'z qonuniy huquq va manfaatlariga putur etgan deb hisoblagan taqdirda, sud orqali himoyalanih imkoniyatlariga ega bo'lish lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomondan nazorat qilish tartibi to'grisida"gi 1998 yil, 24 dekabrda qabul qilingan qonuni, shuningdek "Tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari kafolati to'risida"gi Qonunning 39-40-moddalari bilan qo'yilgan bunday shakllar tekshirish, taftish, muqobil tekshirishda, nazorat tartibida tekshirishda, statistik axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish, idora qaramoidagi organlarni tekshirishdan o'tkazishdan iborat. Qonunda tekshirish, taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish tushunchalari aniq belgilab qo'yilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga aralashmaslik.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish muddatlari o'ttiz kalendar kunidan oshmasligi lozim. Alohida hollarda maxsus vakolatli organning qaroriga binoan bu muddat uzaytirilishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejadan tashqari tekshirish uchun maxsus vakolatli organning tekshirilayotgan ob'ekt nomini, tekshiruv o'tkazish maqsadi, muddatlari hamda uni o'tkazish sabablarining asosliligi ko'rsatilgan holda rejadan tashqari tekshirish o'tkazish to'risida chiqargan qarori, shuningdek tekshirishni amalga

oshiruvchi tegishli nazorat qiluvchi organning buyrui asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ularning xo‘jalik faoliyatini taftish qilish bilan bogliq bo‘lmagan holda tekshirish tegishli nazorat qiluvchi (yoninga qarshi, energetika nazorati va boshqa) organlar tomonidan, qoida tariqasida, bir marta o‘tkaziladigan kompleks tekshiruv davomida amalga oshiriladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tekshiruvchilarning qonuniy talabiga binoan tekshirish o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallar va hujjatlarni taqdim etishga, ularni tekshirish ob’ektlariga kiritishga, tekshiruvchilarga o‘z vazifalarini bajarishlari uchun ko‘maklashishga majburdirlar.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emas. Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida qonun xujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular o‘zlariga berilgan vakolat doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bogliq chora-tadbirlarni ko‘rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishga haqli emas.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqiy himoya tizimini yana bir bo‘ini – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmat bo‘linmalari hisoblanadi. Ayniqsa xo‘jalik shartnomalari tuzishda yuridik xizmat bo‘linmalari faol ishtirok etadi. Agar tadbirkorlik subyekti o‘z yuridik xizmatiga ega bo‘lmasa (masalan, yakka tadbirkor, fermer xo‘jaligi va x.k.), u holda ular haq evaziga yuridik xizmat ko‘rsatish shartnomalari orqali advokatlar xizmatidan foydalanishlari shart (“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘risida”gi Qonunning 20-moddasi).

Har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z yuridik xizmati bo‘lishi uning huquqiy himoyasini tashkiliy ta’minlovchi kafolat hisoblanadi. Yuridik xizmat bo‘linmalari xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining

barcha yoʻnalishlarida va sanalarida, barcha bosqichlar uzluksiz va doimiy ravishda, birinchidan xoʻjalik yurituvchi subyekt faoliyatini qonuniyligini, oʻz manfaatlariga mosligini taʼminlasa, ikkinchidan, boshqa har qanday subyektlarni xatti-harakatlari uning qonuniy huquq va manfaatlariga xilof boʻlmasligini kuzatib boradi va zarur hollarda tegishli huquqiy himoyani tashkil etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 24 avgustdagi “Xoʻjalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati toʻrisida”gi 182-son qaroriga 2-ilova qabul qilingan Nizom Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etiladigan xoʻjalik boshqaruvi organlari hamda davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari yuridik xizmati faoliyatiga qoʻyiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi. Mazkur nizomga muvofiq, quyidagilar korxonalar yuridik xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi: korxonalar va uning tarkibiy boʻlinmalari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni taʼminlashda qatnashish; korxonalar va uning tarkibiy boʻlinmalari xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirishda qatnashish; korxonalar va uning tarkibiy boʻlinmalari mulkining saqlanishini huquqiy vositalar orqali taʼminlash ishlarini tashkil qilish; korxonalarda shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-daʼvo ishlarini yuritishda qatnashish; sudlarda va boshqa idoralarda korxonaning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish.

Shu bilan birga, korxonaning yuridik xizmati oʻziga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1) qonuniylikni taʼminlash va huquqiy madaniyatni oshirish sohasida:

korxonalar rahbariyatiga taqdim qilinadigan buyruqlar, farmoyishlar va huquqiy tuzdagi boshqa hujjatlar loyihalarini amaldagi qonunchilikka muvofiqlik yuzasidan tekshiradi hamda eʼtiroz va takliflari boʻlmasa, ularga viza qoʻyadi. Bunda loyihaga yuridik xizmat tomonidan korxonaning boshqa tarkibiy boʻlinmalaridan (xodimlaridan) keyin viza qoʻyiladi;

korxonada va uning tarkibiy bo'linmalarida qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish hamda ularning oldini olish yuzasidan takliflar kiritadi;

korxonada mehnat haqidagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlashda, shu jumladan mehnatga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni (mehnat shartnomasi, jamoaviy shartnoma, jamoaviy bitimlar va boshqalarni) ishlab chiqishda qatnashadi, ushbu hujjatlar loyihalarini qonunchilikka muvofiqlik yuzasidan tekshiradi va huquqiy xulosa beradi;

korxonaning kasaba uyushmasi va xodimlarning boshqa vakillik organlariga o'z vakolatlarini amalga oshirishda yuridik yordam ko'rsatadi;

korxonada va uning tarkibiy bo'linmalari xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish tadbirlarini tashkil etish to'risida takliflar kiritadi, bunday tadbirlarni o'tkazishda qatnashadi;

korxonada xodimlarining murojaatlari bo'yicha ularga korxonada faoliyatiga tegishli huquqiy hujjatlarni topishda ko'maklashadi, zarur hollarda ushbu hujjatlar bo'yicha tushuntirishlar beradi;

2) mulkning saqlanishini huquqiy vositalar orqali ta'minlash sohasida: mulkni saqlash masalalari bo'yicha huquqiy tuzdagi hujjatlar loyihalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi va ularni tayyorlashda ishtirok etadi;

boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan birgalikda korxonada mulkning talontaroj qilinishi, kamomad va noishlab chiqarish xarajatlarining kelib chiqishi sabablari va sharoitlarini tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'radi, mulkning talon-taroj qilinishi va kamomad holatlari bo'yicha materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga yuborish uchun rasmiylashtiradi;

moddiy boyliklar va pul mablag'larini hisobdan chiqarish to'risidagi hujjatlar loyihalari, shuningdek qonun buzilishlari va suiiste'mollar aniqlangan auditorlik tekshiruvlari va xatlovdan o'tkazish dalolatnomalari bo'yicha huquqiy xulosalar beradi;

shartnomaviy-huquqiy, talabnoma-da'vo ishlari va huquqiy himoya qilish sohasida:

boshqa tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda korxonaning shartnomalarini tayyorlash va tuzish ishlarida qatnashadi, ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi, shartnomalar loyihalariga, agar e’tirozlari va takliflar bo‘lmasa, viza qo‘yadi. Bunda loyihalarga yuridik xizmat tomonidan korxonaning boshqa vakolatli tarkibiy bo‘linmalaridan (xodimlaridan) keyin viza qo‘yiladi.

qonunchilikda belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi shartnomalarning qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan yozma xulosalarni tayyorlaydi va imzolaydi;

shartnomalarni tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi, korxonada tomonidan tuzilgan shartnomalarning zarur darajada bajarilishi bo‘yicha takliflar kiritadi;

korxonaning manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha talabnomalar tayyorlashda va korxonaga nisbatan bildirilgan talabnomalarni ko‘rib chiqishda qatnashadi, korxonada talabnomalar bildirish va ularni ko‘rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

tegishli bo‘linmalar bilan birgalikda korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o‘rganadi, ularning miqdorini kamaytirish choralarini ko‘radi;

shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha da’vo ishlarini olib boradi;

korxonaning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni tayyorlashda va belgilangan tartibda sud majlislarida qatnashadi;

4) boshqa sohalarda:

tarkibiy bo‘linmalarning huquqiy ishlariga metodik yordam ko‘rsatadi, yuridik xizmat faoliyatining turli yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyanomalar va ko‘rsatmalarni ishlab chiqadi;

normativ-huquqiy hujjatlarning saqlanishini va nazorat qilinishini ta’minlaydi, huquqiy nashrlarga obuna bo‘lish haqida xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga takliflar kiritadi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.



Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda tadbirkorlarni huquqiy himoya tizimi milliy qonunchiligimizning alohida kompleks instituti bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ularga berilgan imtiyozlar, engilliklar, afzalliklar, alohida kafolatlar, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan davlat va nodavlat organlarining maxsus vakolatlarini, xo‘jalik – tadbirkorlik sohasida vujudga kelgan nizolarni ko‘rib chiqish va hal etishning alohida tartibini o‘z ichiga oladi.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1. Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish tizimini tashkil etishning zaruriyati.
2. Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy tizimi.
3. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya tizimini huquqiy ta’minlash.
4. Tadbirkorlik (biznes) subyektlarini nazorat qilishda huquqiy himoya tizimining amal qilishining o‘ziga xos xususiyatlari.

### ***Bobni o‘zlashtirish uchun masalalar***

Tadbirkorlik uchun subyektlarini maxsus huquqiy himoya tizimini yaratishni mohiyati zaruriyati nimalardan iborat.

Tadbirkorlik subyektlarini maxsus huquqiy himoya qilish tizimini ishtirokchilari bu borada qanday vakolatlarga ega.

3. “Ziyo” MChJ “Pakkart” chet el kompaniyasi bilan yangi texnologiya

sotib olish to‘risida shartnoma tuzadi. “Pakkart” kompaniyasi shartlashilgan texnologiya o‘rniga eski texnologiyani etkazib beradi. “Ziyo” MChJ oir moliyaviy ahvolda bo‘lganligi sababli sudga da’vo bilan murojaata qilishda keyinchalik vujudga keladi. Savdo sanoat palatasining Toshkent shafar hududiy boshqarmasi uning manfaatini ko‘zlab sudga da’vo bilan murojaat qiladi. “Pakkart” kompaniyasi savdo-sanoata Palatasini da’vo bilan murojaat qilishini haqiqiy emas deb hisoblaydi.

Savdo-sanoat palatasini o‘z a‘zolarini huquq va manfaatlarini himoya

qilish bo‘yicha vakolatlarni tavsiflang.

Ushbu masalaga huquqiy echim toping.

“Anhor firmasi” “Bahor firmasi” bilan shartnoma tuzib unga ko‘ra, “Anhor firmasi” “Bahor firmasi”ga shartnoma asosida traktorlar uchun ehtiyot qismlar etkazib berishi lozim edi. “Anhor firmasi” shartnoma shartlari bajargandan keyin ikki oy o‘tgach “Bahor” firmasi yoqili moylash materiallarini ayriqonuniy ravishda boshqa chet mamlakatga sotganligi yuzasidan jinoyat ishi qo‘zatildi. Ushbu ishni tergov qilayotgan tergovchi ayni paytda “Anhor” firmasining bir yillik faoliyati bo‘yicha ham muqobil tarzda tekshirish o‘tkazish to‘risida qaror qabul qiladi. “Anhor” firmasining rahbari tergovchining qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3619-son Farmoniga zid ekanligini ko‘rsatib tekshirish noqonuniy ekanligini ta’kidlaydi.

1. Muqobil tekshirishlar tartibi va asoslariga tavsif bering.
2. Masalaga huquqiy baho bering.

## **7.BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI USTIDAN DAVLAT NAZORATI**

- 1.Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati tushunchasi, printsiplar va huquqiy asoslari.
  - 2.Nazorat qiluvchi organlar va ularning vakolatlari.
  - 3.Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati shakllari.
  - 4.Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish turlari.
- Mavzuni mustaxkamlas uchun savollar*  
*Bobni o'zlashtirish uchun testlar*

### **1- Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati tushunchasi, printsiplari va huquqiy asoslari.**

Nazorat iqtisodiyotni va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalaridan bir hisoblanadi. Davlat nazorati davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan uni davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida qarash lozim. Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati deganda tijorat va notijorat tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar talabiga rioya qilinishi ustidan tekshirish va kuzatish tizimi tushuniladi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazoratini davlat organlari, shu jumladan prokuratura organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy **printsiplarini umuiy tartibda ikki** gruxga bo'lish mumkin:

- a) nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkoralik, ya'ni boshqa shaxslarning xohishi va istaklaridan, ularning subyektiv irodalaridan qat'i nazar, tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan suiiste'molliklarsiz tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshirishlar o'tkazishni tartibga soluvchi qonun normalari asosida amalga oshirishlari lozimligi;

b) yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

v) tadbirkorlik subyekti huquqlarining ustuvorligi, unga muvofiq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektining foydasiga talqin etiladi;

g) tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashmaslik.

Demak, ushbu tamoyillarning mazmun va moxiyatidan bizga ma'lum bo'ldiki, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning tamoyillari barcha nazoratlarni o'tkazishda bevosita amal qilinishi shart bo'lgan huquqiy normalar sifatida qaraladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, *“Tadbirkorlik subyektlari va xususiy mulk egalari uchun huquq va kafolatlarni qonuniy himoya qilish normalarini kuchaytirish darkor. Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim”*.

Ushbu ta'kidlagan so'zlardan kelib chiqib, fikrimizcha yuqorida zikr qilingan tamoyillar qatoriga navbatdagi tamoyilni qo'yidagicha talqin qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

j) tadbirkorlik faoliyati subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga noqonuniy aralshuv uchun javobgarlik.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashmaslik deganda nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emasligi tushuniladi. Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarining faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular o'zlariga berilgan vakolat doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bogliq chora-tadbirlarni ko'rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan tadbirkorlik subyektlarining

boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishga haqli emas.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari dehqon va fermer xo‘jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga, shu jumladan ularning agrotexnika usullarini, etishtiriladigan mahsulot turini tanlashiga, ana shu mahsulotning bahosini hamda realizatsiya qilish yo‘nalishini belgilash ishlariga aralashishga haqli emas, davlat ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan xaridlar bundan mustasno. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy qarorlari yoki boshqa harakatlari natijasida tadbirkorlik subyektiga etkazilgan zararlar, shu jumladan, boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari birlashmalarining a‘zosi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishlar tadbirkorlik faoliyati subyektlari so‘roviga ko‘ra mazkur birlashmalar vakillari ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

### **Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazoratining huquqiy asoslari**

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bogliq munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘risida”, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘risida” (yangi tahriri), “Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘risida”, “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartibtaomillari to‘risida”gi qonunlari, 2005 yil 14 iyundagi “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘risida”gi PF-3619-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.11.2022 yildagi PF-244-son Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni shular jumlasidandir.

O‘zbekistonda Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning aniq maqsad va chegaralarini belgilash, tadbirkorlik subyektlari tomonidan

yangi mahsulot va xizmat turlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ular uchun tartibga solish yukini kamaytirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida:

Adliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil hamda Savdo-sanoat palatasining davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini faqatgina quyidagi vositalar orqali tartibga solish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin:

tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha litsenziyalash, ruxsat berish hamda xabardor qilish tartib-taomillarini joriy etish;

texnik jihatdan tartibga solish;

tarif va notarif tartibga solish;

qonunda belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlarining javobgarligini majburiy sug‘urta qilish;

davlat nazorati;

raqobatni himoya qilish;

qonun bilan tadbirkorlik subyektlari hamda ularning mansabdor shaxslari javobgarligini o‘rnatish;

hisobotlarni joriy etish;

o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotga a‘zolik (ishtirok etish) asosida o‘zini o‘zi boshqarishni joriy etish.

Qonunlar bilan tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning boshqa vositalari ham belgilanishi mumkin.

Farmonda belgilab qo‘yildiki:

tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalari tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan va realizatsiya qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarning inson hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsizligini, uning qonuniy manfaatlari himoyasini ta‘minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, davlat

xavfsizligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida faqat normativ-huquqiy va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar asosida joriy etiladi;

normativ-huquqiy yoki texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat hisoblanmagan hujjatlarda belgilangan tartibga solish vositalari huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Quyidagi talablar 2023-yil 1-yanvardan bekor qilindi:

tadbirkorlik subyekting ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinganda kreditorlarni yozma ravishda xabardor qilish va ommaviy axborot vositalarida bu haqida e'lon berish;

yangi import avtomobillarini sotish faqat yuridik shaxslar — ishlab chiqaruvchi korxonalarining rasmiy dilerlari tomonidan amalga oshirilishi;

elektr energiyasini elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan hajmlardan (oylik shartnomaviy miqdordan) ortiqcha iste'mol qilgan yuridik shaxslarga elektr energiyasi yetkazib berishni to'xtatib qo'yish;

yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarni Yagona milliy mehnat tizimida hisobga olish orqali davlat soliq xizmati organlarida alohida hisobga qo'yish.

Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2023-yil 1-martdan:

soliq to'lovchilarga soliq organlarining sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditi natijalari bo'yicha qabul qilgan qarorlari ustidan to'g'ridan to'g'ri sudga shikoyat qilish huquqi beriladi;

axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha yuridik shaxslarga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali tijorat xizmatlarini ko'rsatishga ruxsat beriladi. Bunda, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali nodavlat xizmatlar ko'rsatish tartibi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxs tomonidan belgilanadi;

Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan amalga oshiriladigan bir shartnoma summasi bazaviy hisoblash miqdorining 3 500 baravari va

undan yuqori bo‘lgan davlat xaridlari bo‘yicha buyurtmalar to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida bajarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

vazirlik (idora, muassasa) va uning tarkibidagi tashkilot (muassasa) o‘rtasida qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 3 500 baravari va undan yuqori bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinishi taqiqlanadi.

Adliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2023-yil 1-yanvardan boshlab 1-ilovaga muvofiq sohalar bo‘yicha yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi mahsulot va xizmatlarni yoki boshqa intellektual faoliyat natijalarini nazorat qilinadigan cheklangan muhitda sinovdan o‘tkazish bo‘yicha faoliyatini maxsus tartibga solishni nazarda tutuvchi “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini (keyingi o‘rinlarda — Maxsus huquqiy rejim) joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2023-yil 1-yanvardan:

a) Maxsus huquqiy rejim doirasida tadbirkorlik subyektlariga quyidagilarga ruxsat etiladi:

yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, aprobatsiya qilish va joriy qilish yo‘nalishlaridagi faoliyatini cheklangan vaqt, hudud va shaxslar doirasida maxsus tartibga solish orqali ayrim qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilmaslik;

litsenziyasiz va ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tmasdan faoliyatni amalga oshirish, bundan davlat siri va qonunchilikka muvofiq foydalanish cheklangan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar mustasno;

b) Maxsus huquqiy rejim tegishli vakolatli organ va tashabbuskor o‘rtasida har bir loyiha bo‘yicha alohida tuziladigan kelishuvga asosan joriy etiladi. Bunda:

kelishuvda loyihani amalga oshirishning talab va shartlari, shu jumladan muddati, hududi va shaxslar doirasi, tashabbuskorga tatbiq etilmaydigan qonunchilik normalari ro‘yxati hamda loyiha natijalarini baholash mezonlari (indikatorlari) belgilanadi;



har bir loyiha bo'yicha Maxsus huquqiy rejimning amal qilish muddati ko'pi bilan uch yilni tashkil etadi;

v) Maxsus huquqiy rejim yakunlari bo'yicha tegishli vakolatli organ tomonidan bir oy muddatda:

sinovdan o'tkazilgan mahsulot va xizmatlarni joriy etishning maqsadga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkaziladi;

mahsulot va xizmatlarni joriy etish maqsadga muvofiq deb topilganda, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Vazirlar Mahkamasi 2023-yil 1-yanvarga qadar "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimini joriy etish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni, shu jumladan uni aniq yo'nalishlar kesimida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlasin.

Adliya vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda 2025-yil 1-yanvarga qadar Maxsus huquqiy rejim joriy etilgan loyihalar tahlili natijalari bo'yicha "Maxsus huquqiy rejim to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablar yagona elektron reyestriga (keyingi o'rinlarda — Yagona reyestr) kiritish, takrorlanuvchi va o'z ahamiyatini yo'qotgan majburiy talablarni qayta ko'rib chiqish tartibi joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilindi va belgilansinki:

a) Yagona reyestr tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish vositalari bo'yicha o'rnatilgan barcha talablar, ularning muddatlari, ular bilan bog'liq moliyaviy xarajatlar, talablarga muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar, nazorat qiluvchi organlar, tekshiruv shakllari hamda javobgarlik choralarini o'z ichiga oladi;

b) Yagona reyestriga ma'lumotlar tegishli sohani tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan kiritiladi;

v) Adliya vazirligi Yagona reyestrning operatori hisoblanadi, Yagona reyestr yuritilishini uslubiy ta'minlaydi, shuningdek, davlat

organlari va tashkilotlarining ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

g) Yagona reyestr quyidagi bosqichlarda shakllantiriladi:

birinchi bosqichda (2023-yil) — qurilish, savdo, umumiy ovqatlanish, ta'lim va transport sohalaridagi majburiy talablar ro'yxati shakllantiriladi;

ikkinchi bosqichda (2024-2025-yillar) — barcha sohalaridagi majburiy talablar ro'yxati shakllantiriladi;

d) Yagona reyestrni shakllantirish jarayonida majburiy talablarning dolzarbligi tanqidiy tahlil qilinadi, tartibga solish ta'siri baholanadi va ularning soni qisqartiriladi;

e) Yagona reyestr 2025-yil 1-iyuldan boshlab to'liq ishga tushiriladi. Bunda, Yagona reyestrda kiritilmagan majburiy talablarni bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilanmaydi, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Yagona reyestrda kiritilmagan majburiy talablarning bajarilishini tekshirish taqiqlanadi.

Yagona reyestrni shakllantirish sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlash.

Adliya vazirligi ikki oy muddatda Yagona reyestrni shakllantirish, yuritish va ma'lumotlarni yangilab borish tartibini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish.

Tadbirkorlik subyektlari uchun tartibga solish yukini kamaytirish bo'yicha ishchi guruh (keyingi o'rinlarda — Ishchi guruh) 3-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etish.

Tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha qulaylik yaratish hamda sohadagi byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlash topshirigi belgilandi.

Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda:

mazkur Farmon bilan joriy etilgan yangi tartib-taomillarni amalga oshirish mexanizmlarining Tadbirkorlik kodeksi loyihasida nazarda tutilishini ta'minlash;

qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish belgilandi.

Prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat nazorati O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), soliq tekshiruvi orqali amalga oshiriladigan davlat nazoratining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tomonidan 2006 yil 11 martdagi 06-01-01-son qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 6 mayda 1573-son bilan ro'yxatga olingan "Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to'risida" Nizom (yangi tahriri) bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishlarni tashkil tartibi belgilangan.

Yuqorida qayd qilingan qonun hujjatlarini qo'llashda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida moratoriylar belgilash amaliyoti ham joriy qilingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'risida"gi PF-4609-son Farmoniga muvofiq soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'laydigan, shuningdek ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlarini va rentabelligini ta'minlovchi kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliq tekshiruvidan o'tkazishga qo'llanilgan moratoriy 2017 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan muddatgacha uzaytirilgan (yuridik shaxslarni tugatishdagi, qo'zatilgan jinoiy ishlar doirasidagi, shuningdek byudjet va markazlashtirilgan mablaglar va resurslaridan foydalanish bilan bogliq rejadan tashqari tekshiruvlar bundan mustasno).

## **2-§. Nazorat qiluvchi organlar va ularning vakolatlari**

Nazorat qiluvchi organlar - tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga oid qonun hujjatlari bilan vakolat

berilgan vazirliklar va idoralardir. Nazorat qiluvchi organlarga soliq va moliya idoralari, prokuratura, ichki ishlar, bojxona, statistika organlari va davlat nazorat inspeksiyalari nazorat qiluvchi organlar sirasiga kiradi.

Xo‘jalik (Tadbirkorlik) subyektlarini tekshirishni tashkil qilishni yanada takomillashtirish bo‘yicha tekshirishlar sonini kamaytirish, turli nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshirishlarda parallelchilik va takrorlash faktlarini bartaraf etish, ularning korxonalar, xo‘jalik faoliyatiga iqtisodiy zarar etkazuvchi asossiz aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik shuningdek, tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining yangilangan tarkibi va u haqdagi Nizom tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi – maxsus vakolatli organ hisoblanadi va u chiqargan qarorlarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishga doir qismi nazorat qiluvchi organlar uchun majburiy hisoblanadi.

**Maxsus vakolatli organning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:** tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishning, shu jumladan, kompleks tekshiruvlar hamda taftishlarning nazorat qiluvchi organlar bir-birining ishini takrorlashiga yo‘l qo‘ymaydigan muvofiqlashtiruvchi rejalarini ishlab chiqish;

nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvlar o‘tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejalariga rioya qilishini nazorat qilish hamda rejadan tashqari tekshiruvlar maxsus vakolatli organ bilan kelishmay o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

**Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari.**

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish jarayonida o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarni amalga oshirishga haqlidir:

✓ tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlaridan tekshirish o‘tkazish bilan bevosita bogliq bo‘lgan zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;

✓ tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;

✓ tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tadbirkorlik subyektlari mulkdorlari oldiga aybdor shaxslarning javobgarligi to‘risidagi masalani qo‘yish; tekshiruvga auditorlik tashkilotlarini va (yoki) ekspertlarni belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb etish;

✓ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda moliyaviy yoki ma‘muriy jazo choralari qo‘llash; rejali tekshirishlarni o‘tkazish muddatini ko‘chirish to‘risida, basharti bunga ob‘ektiv asoslar bo‘lsa, maxsus vakolatli organga taqdimnoma kiritish. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining qonuniy talablari tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarish uchun majbur hisoblanadi.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish jarayonida o‘z vakolatlari doirasida quyidagilarni bajarishga majburdirlar:

➤ tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektlariga tekshirish o‘tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarni ko‘rsatish;

➤ tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to‘sqinlik qilmaslik;

➤ tekshirishlarni qayd etish daftarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yozib qo‘yish;

➤ davlat siri, tijorat yoki boshqa sirlar saqlanishini ta‘minlash;

➤ tekshirish natijalarini dalolatnoma (ma‘lumotnoma) bilan rasmiylashtirib, uning bir nusxasini tekshirish tugagan kuni tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektida qoldirish; huquqbuzarlik hollari aniqlangan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rish.

### **Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar ya‘ni tadbirkorlar nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan

bevosita sudga yoki bo‘ysunish tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga shikoyat qilinishi mumkin. Bo‘ysunish tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga shikoyat berish shunday shikoyatni sudga berish huquqini istisno etmaydi.

Sudga shikoyat berilganida ustidan shikoyat qilinayotgan harakatni yoki qarorni ijro etish sudning qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar to‘xtatib turiladi, favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va solii uchun boshqa haqiqiy xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bogliq bo‘lgan harakatlar yoki qarorlar bundan mustasno. Tadbirkorlik subyekti sudga shikoyat berganligi to‘risida nazorat qiluvchi organni tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda xabardor qilishi shart. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishlar huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishga kirishishiga mazkur shaxslarda nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan tekshiruvlar o‘tkazish rejasidan ko‘chirma yoki rejadan tashqari yoxud muqobil tekshiruv o‘tkazish to‘risida ushbu organ tomonidan qabul qilingan qarorning ko‘chirma nusxasi, shuningdek nazorat qiluvchi organning tekshirish maqsadlari, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi va tekshiruv o‘tkazish muddatlari ko‘rsatilgan buyruining ko‘chirma nusxasi, tekshiruvchi mansabdor shaxslarning tekshiruvlar o‘tkazishga ruxsat berilganligi to‘risidagi maxsus guvohnomasi hamda shaxsiy guvohnomasi bo‘lgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazayotganda tekshirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazish kitobiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli yozuv kiritadi. Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish choida tadbirkorlik subyektlarining tijorat siri, xizmat siri va qonun bilan ko‘riqlanadigan boshqa sirlari, shuningdek oshkor etilmagan axboroti sir saqlanishini

ta'minlashi shart. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti (bundan keyingi matnda Departament deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi mustaqil ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qilish organi hisoblanib, soliq, valyutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlari hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terroristik faoliyatni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek davlatga etkazilgan iqtisodiy zararni undirib olish uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Departamentning asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:**

- soliq, valyutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'risidagi qonun hujjatlari bajarilishini nazorat qilish;

- davlat soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilarning qamrab olinishi va hisobini to'liqligini ta'minlash, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, qochish mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, "xufyona" iqtisodiyotning shakllanishi yo'llarini, korrupsiya holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- valyuta operatsiyalari bo'yicha hisobga olish va hisobotlarning to'liqligi va ob'ektivligini nazorat qilish;

- xorijiy valyuta mablaglarining qonunga xilof ravishda chetga chiqib ketishi, olib kirilishi va olib chiqilishi, ularning noqonuniy muomalada bo'lishi, valyuta ayirboshlash operatsiyalari bilan bogliq boshqa qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish.

**Departament o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni bajaradi:**

*Soliq sohasidagi jinoyatlar va huquq buzilishlariga qarshi kurashish sohasida* ishlab chiqarish, foyda (daromad) hajmlarini yashirish, sotilgan mahsulot, tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlarini pasaytirish mexanizmlarini o'rganish va aniqlash, xo'jalik yurituvchi

subyektlar tomonidan hisobga olinmagan (tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lmagan) mahsulotlar (tovarlar) sotilishi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq inspeksiyalarida hisobga turishdan bo'yin tovlashi mexanizmlarini o'rganish va aniqlash; xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan byudjetga soliqlar va to'lovlarning to'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini tekshirish.

*Valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida* xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirishda qonun buzilishlarini aniqlash, oldini olish, bartaraf etish va profilaktik chora-tadbirlarni ko'rish; xorijiy valyuta mablaglarining noqonuniy aylanishi, yashirib qolinishi, chetga chiqib ketish kanallarini, hamda xorijiy valyutani sotish bo'yicha majburiyatlardan bo'yin tovlash yo'llarini o'rganish va aniqlash;

*respublika hududida rezidentlar va norezidentlar* tomonidan xorijiy valyutada ish haqi to'lash va hisob-kitob qilish hollarini aniqlash va ularning oldini olish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki Departament tadbirkorlik subyektlari soliq va valyuta bo'yicha amalga oshiradigan faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini nazorat qiluvchi davlat organlari qatoriga litsenziyalovchi organlar, ya'ni qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar ham kiradi. Litsenziyalovchi organlarning vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi: faoliyatning ayrim turlarini qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalash; qonunda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning tegishli turlarini litsenziyalash tartibi to'risidagi nizomlarni tasdiqlash; litsenziya talablari va shartlariga litsenziyatlar rioya etishini nazorat qilish; litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish; litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash; litsenziyalarning amal qilishini tugatish; litsenziyalarni bekor qilish; litsenziyalar reestrini yuritish. Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda litsenziyalovchi organlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish alohida ahamiyatga ega.



Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda litsenziyalovchi organlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga egadirlar:

litsenziatlar litsenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshiruvlar o'tkazish;

litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlari buzilganligidan guvohlik beruvchi faktlar mavjud bo'lgan hollarda, litsenziat litsenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish; litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilayotganda yuzaga keladigan masalalar bo'yicha litsenziatdan zarur ma'lumotlarni talab qilish va olish;

tekshiruv natijalari asosida litsenziat yo'l qo'ygan litsenziya talablari va shartlarining aniq qoidabuzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish; litsenziat zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash.

### **litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish.**

Nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlari buzilishlariga yo'l qo'yilganligini aniqlaganlari taqdirda o'z vakolatlari doirasida litsenziyani bergan litsenziyalovchi organga aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabar qiladilar.

### **3-§. Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati shakllari**

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: tekshirish, shu jumladan taftish, nazorat tartibida tekshirish; statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish; idora qaramoidagi organlarni tekshirishdan o'tkazish. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish orqali davlat tomonidan nazorat qilish,

shuningdek idora qaramoidagi organlarni tekshirishdan o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

*Tekshirish* – deganda tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi tushuniladi.

Moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) deganda - soliq va valyuta to'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslash tushuniladi.

Tadbirkorlik subyekti belgilangan tartibda taqdim etgan moliya va soliq hisobotini, shuningdek tadbirkorlik subyektining faoliyati to'risida davlat soliq xizmati organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida o'tkaziladigan kameral nazorat natijalari bo'yicha qoidabuzarliklar aniqlangan hollardagina davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. O'tkazilayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishlar ularning to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi kerak. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari birlashmalarining a'zosi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishlar tadbirkorlik faoliyati subyektlari so'roviga ko'ra mazkur birlashmalar vakillarining ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi a'zosi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini tekshirish palata vakillari ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

Tekshirishlarni o'tkazish uchun asos sifatida - nazorat qiluvchi organlar tomonidan yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejali tekshirish, shu jumladan, moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishlar uchun, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, quyidagilar asos bo'ladi: maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishni o'tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejasidan

ko‘chirma; nazorat qiluvchi organning muvofiqlashtiruvchi reja asosida chiqarilgan,

tekshirish maqsadi, tekshiruvchi mansabdor shaxslarning tarkibi va tekshirishni o‘tkazish muddatlari ko‘rsatilgan buyrui.

Prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish uchun qo‘zatilgan jinoiy ish mavjudligi asos bo‘ladi. Bunda tekshiruvga tadbirkorlik subyektlarining faqat qo‘zatilgan jinoyat ishi bilan bogliq faoliyati qamrab olinishi mumkin bo‘lib, bu haqda tekshiruvni tayinlash to‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlarining yuridik shaxslarning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organning yuridik shaxs tugatilish jarayonida ekanligi to‘risidagi bildirishi asosida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi, tekshirish muddati o‘ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak.

Bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yiimlar, ijara haqi to‘liq tushishi va ularning topshirilishi hisobga olinishiga, fiskal xotirali nazoratkassa mashinalaridan, to‘lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo‘yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanilishiga, shuningdek savdo va xizmat ko‘rsatish qoidalariga rioya etilishiga oid qisqa muddatli tekshiruvlar davlat soliq xizmati organlarining faqat qonun hujjatlarida vakolat berilgan bo‘linmalari tomonidan mazkur bo‘linmalar boshliqlarining buyruqlari asosida o‘tkazilib, keyinchalik bu haqda maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo‘linmasi qisqa muddatli tekshiruv o‘tkazilgan kundan e‘tiboran bir ish kuni ichida xabardor qilinadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tekshiruv o‘tkazish uchun asosga ega bo‘lmagan shaxslarning tekshiruv o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslik, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha ularning talablarini bajarmaslik hamda tekshiruv predmetiga taalluqli bo‘lmagan materiallar bilan ularni tanishtirmaslik huquqiga ega. Tekshirishlar natijalari dalolatnoma

(ma'lumotnoma) bilan rasmiylashtirilib, tekshirish tugagan kuni uning bir nusxasi tekshirilayotgan tadbirkorlik faoliyati subyektida qoldiriladi.

Statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish - tadbirkorlik faoliyati subyektlari hisob va hisobotni qonun hujjatlariga muvofiq yuritadi. Hisobot tadbirkorlik subyektining xohishiga ko'ra qoozda va (yoki) elektron shaklda tayyorlanishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlarining elektron shaklda taqdim etilgan hisoboti tadbirkorlik subyektining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. Davlat tadbirkorlik subyektlari tomonidan elektron shaklda hisob yuritilishini dasturiy ta'minotni imtiyozli shartlarda yoki bepul tarqatish orqali rabatlantiradi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari faqat davlat statistika organlari va davlat soliq xizmati organlariga, yakka tartibdagi tadbirkorlar esa, davlat soliq xizmati organlariga belgilangan shakllarda hisobot taqdim etadi.

Davlat organlarining tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan qo'shimcha hisobot turlarini belgilashi man etiladi.

Endilikda tadbirkorlik soxasidagi tekshiruvlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 15 martdagi "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [PF-5690](#)-son Farmoniga asosan biznes – ombudsman muvofiqlashtiradi.

Ushbu xujjatga muvofiq endilikda *birinchidan*, 2019 yil 1 apreldan boshlab, Bosh prokuratura tekshiruvlarni muvofiqlashtirishni to'xtatdi. Ushbu vakolatlar Prezident huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil tasarrufiga o'tkazildi. Biznesombudsmanning tekshiruvlarga oid qarorlari nazorat qiluvchi organlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Eslatib o'tamiz, tekshiruvlar 2 guruhga bo'linadi:

➤ vakolatli organ bilan kelishilgan holda o'tkaziladigan (4 turdagi);

➤ tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimiga ma'lumotlarni kiritish orqali vakolatli organi xabardor etish tartibida o'tkaziladigan (29 turdagi). 27.07.2018 yildagi PF-5490-son Farmon.

2019 yil oxirigacha moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga moratoriyni hisobga olgan holda, ya'ni 1 apreldan biznes-ombudsman qonun buzilishiga doir murojaatlar bo'yicha, shuningdek xavfni tahlil qilish natijalari bo'yicha biznesda tekshiruvlar o'tkazishga rozilik bera boshladi, ushbu tekshiruvlar muddatlari uzaytirildi yoki ushbu muddatlarni ko'chirishga ruxsat berildi. Demak, endilikda biznes ombudsmanning roziligisiz bunday tekshiruvlar o'tkazish – qonunga xilof hisoblanadi.

Bundan tashqari, tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimi ham tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil tasarrufiga o'tkazildi.

Bunda quyida 4 ta holatga e'tibor qaratilgan:

*Birinchidan*, vakolatlar shaxsan biznes-ombudsmanga berildi, uning apparatidagi xodimlarga emas, balki, xronometraj ko'zdan kechirish va mavzuli ekspress-o'rganish tekshiruv turlariga kirmaydi. Shu sababli soliq organlari ushbu nazorat tadbirlarini, ilgorigidek, kelishmay o'tkazishni davom etadilar;

Pandemiya sharoitida ya'ni, 2019 yil 16 martdan (15.03.2019 yildagi PF-5690-son Farmon e'lon qilingan sana) 31 martgacha bo'lgan davrda biznesda tekshiruvlar o'tkazilishini prokuratura organlari muvofiqlashtirdi.

*Ikkinchidan*, biznes-ombudsman biznesda tekshiruvlar o'tkazish qonuniyligini nazorat qiladi.

Ushbu holat O'zbekiston Respublikasining MJTKning 241-2-moddasi bo'yicha (*tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish*) ma'muriy huquqbuzarlik to'grisidagi bayonnomalarni rasmiylashtirish vakolatini ham nazarda tutadi.

Biroq ushbu jarayonda prokuraturaning o'rni yuqoriligicha bo'lib qoladi. O'RJKning 192-2-moddasi (*tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini*

*buzish*) – prokuratura tergovchilari tomonidan olib boriladi (*JPKning 345-moddasi 2-qismiga qarang*). Shu sababli noqonuniy tekshiruv bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zgatish to‘grisidagi qarorni prokuratura qabul qiladi.

Bundan tashqari, prokuratura umumiy vakolatlari doirasida har qanday qonunbuzarlik yuzasidan prokuror aralashuvi choralari ko‘rishga haqli. Shu munosabat bilan tekshiruvlar ustidan shikoyatlar bilan prokuraturaga murojaat qilishga yo‘l qo‘yiladi.

*Uchinchidan*, biznesda tekshiruvlar o‘tkazish sohasidagi normativ baza o‘zgaradi. Vazirlar maxkamasi nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarni kelishish va o‘tkazish tartibi to‘grisidagi nizom ishlab chiqildi.

*To‘rtinchidan*, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarning qonuniyligi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish Savdosanoat palatasi zimmasiga yuklatildi. Eslatib o‘tamiz, SSPning ushbu masalalarga oid vakolatlari “O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to‘grisida”gi Qonunning 14-moddasida mustahkamlangan.

Batafsil tanishish uchun qo‘yidagi saytga qaralsin. [https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda\\_yangi/tekshiruvlarni\\_biznesom\\_budsman\\_muvofiqlashtiradi](https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/tekshiruvlarni_biznesom_budsman_muvofiqlashtiradi).

#### **4-§. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish turlari**

Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining to‘sqinliksiz amalga oshirilishini ta‘minlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018 yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida” PF-5490-son Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmon asosida respublikada amalda bo‘lgan muqobil tekshiruvlar va rejadan tashqari tekshiruvlarning barcha turlari bekor

qilindi, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi bir qator listenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartibtaomillari qisqartirildi hamda soddalashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar mamlakatda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi reytingiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati sohasida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda, ularning hal etilishi biznesni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta‘minlash imkonini beradi. Xususan:

*birinchidan*, nazorat qiluvchi organlar va insofli tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida ishonchli hamkorlikni o‘rnatishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konstepstiyasining qabul qilinganligi amaldagi tekshiruvlar tizimini, davlat nazoratining boshqa turlarini, shuningdek, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish tartibini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi;

*ikkinchidan*, qonun hujjatlarida zamon talablariga javob bermaydigan ayrim huquqiy mexanizmlarning mavjudligi sababli soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, penyalalar va moliyaviy jarimalar bo‘yicha qarzdorliklar sun‘iy yo‘l bilan yigilib bormoqda;

*uchinchidan*, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelayotgan davlat organlarining samarasiz va ortiqcha nazorat funkstiyalari amal qilmoqda;

*to‘rtinchidan*, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarning tashkiliy jihatlari va tartib-taomillarini kompleks tartibga solish hamda ularning qonuniyligi monitoringini olib borishning yagona yaxlit tizimi mavjud emasligi nazorat qiluvchi organlar faoliyatining shaffofligini ta‘minlash va o‘tkaziladigan tekshiruvlarning asosliligini xolis baholash imkonini bermayapti;

*beshinchidan*, o‘tkaziladigan tekshiruvlarning ochiqligi, oshkoraligi va xolisligini ta‘minlovchi nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan mustaqil jamoatchilik nazorati tizimi joriy etilmagan;

*oltinchidan*, ko‘chmas mulk ob’ektlarini buzib, davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun er uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga etkazilgan zararlarni qoplashning amaldagi mexanizmidagi kamchiliklar ularning huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelmoqda, tadbirkorlik subyektlarining davlatga bo‘lgan ishonchiga putur etkazmoqda, shuningdek, mamlakatning investistiyaviy jozibadorligini pasaytirmoqda.

Biznesni rivojlantirishdagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish, mamlakatda investistiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiining tashabbusi asosida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Savdo-sanoat palatasi PF-5490-son Farmoni bilan mavjud bo‘lgan qat’iy belgilangan soliq va ushbu qarzdorlik uchun hisoblangan penyalar bo‘yicha qarzdorlikni, shuningdek, moliyaviy jarimalar va sud xarajatlari (sud chiqimlari bundan mustasno) bo‘yicha quyidagilarga masalan, 2018 yil 1 aprelga qadar yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxslarga va 2018 yil 1 apreldan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan (shu jumladan, faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan) yakka tartibdagi tadbirkorlarga; davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanganligi uchun bir yillik qat’iy belgilangan soliq summasi hisoblangan jismoniy shaxslarga hisoblangan qarzdorlikni hisobdan chiqarish belgilandi.

Shu bilan birga ushbu bandning birinchi xatboshisida ko‘rsatilgan qarzdorliklarni hisobdan chiqarish, mazkur bandning tegishli ravishda ikkinchi va uchinchi xatboshilarida nazarda tutilgan shaxslar 2019 yil 1 iyulga qadar muddatda tadbirkorlik faoliyatini tiklagan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hollarda amalga oshirilishi belgilandi. *(1-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda PF-5607-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.12.2018 y., 06/18/5607/2385-son)*



Mazkur farmon asosida endilikda Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari bilan birgalikda ushbu bandeda ko‘rsatilgan shaxslarning tadbirkorlik va moliya-xo‘jalik faoliyatini tiklashda, shuningdek, ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda faol yordam bersin, bajarilgan ishlar natijalari to‘grisidagi oylik hisobotlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritib borish belgilandi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan faoliyat olib borayotgan jismoniy shaxslardan tegishli faoliyat turi bo‘yicha belgilangan stavkadan kelib chiqib hisoblangan bir yillik miqdordagi qat‘iy belgilangan soliqni bir yo‘la undirish tartibi bekor qilindi.

Shuningdek, yuqoridagi PF-5490-sonli farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga qo‘yidagi vazifalarni bajarish yuklatildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Oliy sud bilan birgalikda uch oy muddatda tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslarga hisoblangan undirish umidsiz bo‘lgan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar, mazkur qarzdorlik uchun hisoblangan penyalar bo‘yicha qarzdorlikni, shuningdek, moliyaviy jarimalar va sud xarajatlari (sud chiqimlari bundan mustasno) bo‘yicha qarzdorlikni xatlovdan o‘tkazsin, keyinchalik ko‘rsatilgan qarzdorliklarni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish choralarini ko‘rish; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi, Markaziy banki, Moliya vazirligi hamda Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasiga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorligi bo‘lgan va ikki oy davomida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatini to‘xtatish tartibi, moliya-xo‘jalik faoliyatni amalga oshirmayotgan korxonalarini tugatish tartibini soddalashtirish, shuningdek, faoliyat ko‘rsatmayotgan tashkilotlar va muassislari uzoq muddat bedarak bo‘lgan

tashkilotlarning umidsiz qarzdorligini hisobdan chiqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish huquqi berildi.

Yuqoridagi farmon asosida 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab, tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bogliq bo'lmagan rejali tekshiruvlar va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan nazorat tartibidagi tekshiruvlar bekor qilindi.

2018 yil 1 sentyabrdan e'tiboran, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish, tegishli tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, tekshiruvni tashabbus qilishni nazarda tutuvchi "xavfni tahlil etish" tizimi natijalari asosida amalga oshirish tartiblari belgilandi. *(5-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 martdagi PF-5690-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2019 y., 06/19/5690/2772-son)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5490-sonli farmoni asosida, nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar, Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxat (keyingi o'rinlarda -TEROYaT) ga olinishi belgilandi.

Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatga olinmagan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlar noqonuniy hisoblanadi shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlarning natijalari nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruv tamomlangandan keyin **uch kun** davomida Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimiga kiritish lozim.

2018 yil 1 apreldan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan tekshiruvlarni muvofiqlashtirish va nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlar o'tkazilishining qonuniyligi ustidan nazorat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (keyingi o'rinlarda — vakolatli organ) tomonidan amalga

oshirilmoqda<sup>32</sup>. Farmonning 5<sup>1</sup>-bandiga asosan belgilandiki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati Prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati organlari tomonidan faqat qo‘zgatilgan jinoiy ish bo‘yicha tergov tartibida tekshiriladi. Bunda mazkur subyektlarning faqat qo‘zgatilgan jinoiy ish bilan bogliq bo‘lgan faoliyati tekshirilishi mumkin, bu haqda tekshirishni tayinlash to‘grisidagi qarorda ko‘rsatilishi lozim. Auditorlik tekshirishlarini o‘tkazish bo‘yicha sarfxarajatlar ana shu tekshirishlarni tayinlagan tashkilotlar hisobidan qoplanadi. Hududiy soliq organlari tomonidan boshqa tumanlar (shaharlar)da ro‘yxatga olingan tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish binolari, savdo shoxobchalari qaerda joylashganidan va xizmatlar ko‘rsatiladigan (ishlar bajariladigan) joydan qat’iy nazar, ularning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmagan holda, tadbirkorlik subyekti ro‘yxatga olingan joydagi tegishli soliq organlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. *(5<sup>1</sup>-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-sonli Farmoniga asosan kiritilgan, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021 y., 06/21/6218/0398-son)* Qonunchilik buzilishi holatlari bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida yoki nazorat qiluvchi organlar tashabbusi bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining xavf-tahlili natijalari asosida o‘tkaziladigan tekshiruvlar (kameral va sayyor soliq tekshiruvi hamda soliq auditi bundan mustasno).

Yuqoridagi farmon asosida, tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlarni o‘tkazish **muddati bir kundan o‘n kungacha** belgilandi. Shunga bir izox sifatida aytish mumkinki masalan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tegishli tekshiruvdan o‘tkazishning eng uzoq muddati nazorat qiluvchi organlarning asoslantirilgan talabnomasi asosida faqat bir marta O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ruxsati bilan uzaytirilishi mumkin. Bunda tegishli tekshiruvning uzaytirilgan muddati asosiy muddatidan oshmasligi kerak.

---

<sup>32</sup> 2018 (5-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 martdagi PF-5690-sonli Farmoniga asosan xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.03.2019 y., 06/19/5690/2772son)

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishni vakolatli organ bilan kelishish, TEROYaTda ro'yxatdan o'tkazilgan holda amalga oshiriladi. *(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 noyabrdagi PF-6118son Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.11.2020 y., 06/20/6118/1562-son)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyuldagi PF-5490-son Farmoniga qilingan ikkinchi ilovada, tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida o'tkaziladigan tekshiruvlar ro'yxati tasdiqlandi.

Masalan, **tekshiruvlarning turlari** - qonunchilik buzilishi holatlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida yoki nazorat qiluvchi organlar tashabbusi bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining xavf-tahlili natijalari asosida o'tkaziladigan tekshiruvlar (kameral va sayyor soliq tekshiruvi hamda soliq auditi bundan mustasno). **Tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari** – 1-kundan 10- kungacha.

Yuqoridagi Farmonning ikkinchi ilovasida TEROYaTda **ro'yxatdan o'tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida o'tkaziladigan tekshiruvlar ro'yxati belgilangan.**

**Mazkur ro'yxatning 1-xatboshida** tekshiruvlar (nazorat funkstiyalari) keltirilgan. Masalan: Tekshiruvlar sifatida ishonchli axborotlar mavjud bo'lganida quyidagilarni qonunchilikda belgilangan tartibda olib quyish vakolati berildi. Unga ko'ra, tadbirkorlar tomonidan, tegishli ruxsatnomalarsiz ishlab chiqilgan va sotilgan alkogol va tamaki mahsulotlar, qalbaki akstiz markali yoki akstiz markasi mavjud bo'lmagan alkogol va tamaki mahsulotlar, taqiqlangan tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish holatlarining hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish bo'yicha tezkor tadbirlar o'tkazishlar bo'lishi mumkin.

**Nazorat qiluvchi organ.** O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Alkogol va tamaki bozorini tartibga

solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi. Tekshiruv muddati 1 kun.

**Tekshiruvlar:** *Sifatsiz yoki kontrafakt mahsulotlar sotilishini oldini olish maqsadida, faqatgina shunday mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha ishonchli axborotlar mavjud bo'lganda, ishlab chiqarilayotgan yoki sotilayotgan dori mahsulotlarini nazorat qilish.*

**Nazorat qiluvchi organ.** O'zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmastevtika tarmogini rivojlantirish agentligi. **Tekshiruv muddati** 1 kun.

**Navbatdagi tekshiruv turi bu** - *yo'l qurilishi, yo'l-qurilish materiallari, buyumlari va konstrukstiyalarini ishlab chiqarishda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish.*

**Nazorat qiluvchi organ.** O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspekstiyasi. Tekshiruv muddati 3 kundan oshmagan holda.

**Keyingi tekshiruv turi bu** - *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspekstiyasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tekshiruvlar.*

**Nazorat qiluvchi organ.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspekstiyasi. **Tekshiruv muddati** -30 kundan oshmagan holda.

Tadbirkorlik subyektlarini ularning xo'jalik faoliyatini taftish qilish bilan bogliq bo'lmagan holda tekshirish tegishli nazorat qiluvchi (yoninga qarshi, sanitariya, veterinariya, energetika nazorati va boshqa) organlar tomonidan, qoida tariqasida, bir marta o'tkaziladigan kompleks tekshiruv davomida amalga oshiriladi. Kompleks tekshiruvlar maxsus vakolatli organ tasdiqlagan rejalar asosida o'tkaziladi.

*Reja asosida tekshirish* – tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organning qaroriga binoan nazorat qiluvchi organlar tomonidan rejali tartibda ko'pi bilan yiliga bir marta amalga

oshirilishi mumkin, bundan xususiy korxonalar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Belgilangan normalar va qoidalarga o'z vaqtida hamda to'la hajmda rioya etuvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan ko'pi bilan ikki yilda bir marta amalga oshiriladi.

Xususiy korxonalar faoliyatini tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan ko'pi bilan ikki yilda bir marta, belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan to'rt yilda bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan uch yilda bir marta amalga oshiriladi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki uch yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Bunga quyidagi holatni misol sifatida keltirish mumkin, ya'ni Aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining byudjet hamda markazlashtirilgan mablaglar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bogliq moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilmaydi.

Nazorat qiluvchi organ rejali tekshiruv o'tkazishning boshlanishi haqida tekshiruvni o'tkazish boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin tadbirkorlik subyektini tekshiruvdan o'tkazish muddatlari va predmetini ko'rsatgan holda, yozma shaklda xabardor qilishi shart.

**Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishni o'tkazish muddatlari**

O‘zR Prezidentining 5490-sonli farmoni talablari bo‘yicha 1-kundan 10 kungacha belgilandi. O‘zR JPKning 187-7-moddasiga ko‘ra taftish o‘tkazish muddati o‘ttiz kalendar kundan iborat. Zarur bo‘lgan hollarda, tekshirilayotgan subyektning hujjatlari hajmi, faoliyatining turi va ko‘lamlari hisobga olingan holda, taftish muddati taftish o‘tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko‘ra tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan uzaytirilishi mumkin.

Taftishning umumiy muddati uni o‘tkazish muddatlari uzaytirilishi inobatga olingan holda, dastlabki tergov va sud majlisida jinoyat ishini muhokama qilishning ushbu Kodeksda belgilangan muddatlaridan oshmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘grisida 2016 yil 5-oktyabrdagi PF-4848-sonli farmoni asosida respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta‘minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning daxlsizligi kafolatlarining huquqiy mexanizmlarini yanada mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida: *kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta‘minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmaslik tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishi va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.* "Халқ сўзи", 2016 йил 6 октябрь., "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2016 йил 10 октябрь, 40-сон, 467-модда.

Shuningdek, davlat organlari, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalarga o‘z faoliyatida yuqorida ko‘rsatilgan talabni hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi tamoyilining so‘zsiz amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida, o‘z vazifalari va vakolatlarining tanqidiy tahlili

asosida huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika qilish hamda ularga yo‘l qo‘ymaslik borasidagi chora-tadbirlarni takomillashtirishga va ularning samaradorligini oshirishga doir asoslangan takliflarni kiritib borish belgilandi.

Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik va to‘sqinlik qilganlik, ularning faoliyatini asossiz to‘xtatib qo‘yganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi to‘grisidagi qonun hujjatlari normalari talablari qat’iy bajarilishini, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga etkazilgan zararning bevosita aybdorlardan undirilishini ta’minlash biriktirildi.

Ushbu farmon asosida Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlash, xususiyl mulkni har tomonlama muhofaza qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Kompleks chora-tadbirlar [dasturida](#) nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiyl javobgarlik vazirliklar va idoralarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari zimmasiga yuklatildi.

Tadbirkorlik subyektlarini *rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinib*, yuridik shaxslarning tugatilayotganida, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi holatlari bo‘yicha bergan murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qaroriga muvofiq o‘tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar bundan mustasno sifatida o‘rnatildi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi *muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi*. Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbuzarliklar sodir etgan tadbirkorlik subyektlari va ularning xodimlari yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarliklarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ixtiyoriyl ravishda bartaraf etgan va etkazilgan moddiy zararni qoplagan taqdirda, insonning sogligi va hayotiga zarar etkazilgan holatlar bundan mustasno, ma’muriyl va jinoiy javobgarlikdan, jarimalar va moliyaviyl sankstiyalar (penyadan tashqari) qo‘llanilishidan ozod etildi.



Yuqoridagi normativ – nuquqiy hujjatga asosan, noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq huquqbuzarliklarni birinchi marta sodir etgan shaxslar, huquqbuzarlik aniqlangan kundan e'tiboran **bir oy muddatda** yetkazilgan zararining o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik subyekti sifatida ro'yxatdan o'tgan va ruxsat etuvchi zarur hujjatlarni rasmiylashtirgan taqdirda ma'muriy va jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazo qo'llanilmaydi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etiladigan ishlab chiqarish korxonalariga ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtida amalda bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini (resurs va bojxona to'lovlari bundan mustasno) besh yil mobaynida qo'llash huquqi berildi.

Tadbirkorlik subyektlari hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'grisida ariza bergan taqdirda davlat boji to'lashdan ozod etildi. Tadbirkorlik subyektlarining eksport kontraktlarini davlat bojxona xizmati organlarida hisobga qo'yish borasidagi talab valyuta nazorati organlari tomonidan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali tashqi savdo kontraktlari nazorati va monitoringini saqlab qolish sharti bilan bekor qilindi. Eksport qilinayotgan tovarlarning kelib chiqishi to'grisidagi sertifikat ilgari xuddi shunday tovar uchun aynan sertifikat olgan arizachiga bir ish kuni mobaynida berilishi ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga quyidagi asosiy vakolatlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti tashkil etildi.

Ushbu vakil institut o'z vakolati doirasida - tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tekshirilayotganda ularni huquqiy qo'llab - quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'grisidagi qonun hujjatlari normalari

va talablarining amalda ro'yobga chiqarilayotganligini o'rganish, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishiga ta'siri samaradorligini baholash, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish huquqlari berildi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni yigish xarajatlarini kamaytirish, masofaviy nazoratni keng joriy etish va soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligini oshirishni ta'minlaydigan soliq ma'murchiligi sifati va samaradorligini yanada yaxshilash, respublikaning eksport salohiyati o'sishini, to'gridan-to'gri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishni ragbatlantiradigan valyutani tartibga solishning va valyutalar kursi siyosatining ilgor bozor mexanizmlarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati yuzasidan qisqa muddatli tekshirishlarni tayinlash va o'tkazishning aniq huquqiy asoslari hamda mezonlarini nazarda tutgan holda qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining kameral nazorati samaradorligini oshirish orqali tekshirishlarni o'tkazish soni va muddatlarini qisqartirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va qonunga itoatkor tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyati kafolatlarining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida auditorlik tashkilotlari va soliq maslahatchilari ko'rsatayotgan xizmatlar sifati va taqdim etayotgan xulosalarining haqqoniyligi uchun javobgarlikni kuchaytirish yuzasidan ular faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, davlat organlari tomonidan tijorat banklari faoliyatiga, birinchi navbatda, kredit siyosatiga ma'muriy aralashuvlarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik, bankning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi goblarni tugatish, shuningdek, mijozlarning o'z pul mablaglarini erkin tasarruf etish huquqi to'liq ro'yobga chiqarilishini ta'minlash kabi vazifalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki,

Davlat soliq qo‘mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasiga asoslantirilgan takliflar kiritish yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sogliqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, "O‘zstandart" agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralarga - barcha texnik talablarni (sanitariya, ekologiya, shaharsozlik normalari va qoidalari, yongin xavfsizligi qoidalari, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar va texnik normativlarni) xatlovdan o‘tkazsin hamda ilgor xorijiy tajribani inobatga olgan holda samarasiz, eskirgan va bozor mexanizmlarining o‘rnini egallab olgan normalarni bartaraf etadigan tegishli normativ hujjatlarni ishlab chiqsinlar va qabul qilishni, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi amaldagi normativ hujjatlardan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan tuzilgan bitimlar hamda qoidalar doirasida foydalanish maqsadida ularni jahon Internet axborot tarmogidagi o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishini va doimiy yangilab borishni ta’minlash yuklatildi.

Nazorat qiluvchi organlarning tadbirkorlik subyektlari va ularning xodimlariga nisbatan ma’muriy jazolarni qo‘llash borasidagi funktsiya va vakolatlari bosqichmabosqich sud organlariga o‘tkazilib kelinmoqda. Iqtisodiy jinoyatlar sodir etish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish oqibatida etkazilgan zararni aniqlashning asoslangan yagona mezonlari va asoslarini ishlab chiqish belgilandi.

Respublikada tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, “Xususiy mulkni xar tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muxitini sifat jixatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida”gi 2016 yil 29-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-418 sonli qonun asosida, O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

**Qisqa muddatli tekshirishlar.** Qisqa muddatli tekshirishlar jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘grisidagi murojaatlari asosida maxsus vakolatli organning qaroriga ko‘ra rejadan tashqari tekshirish tarzida nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus vakolatli organning tekshirilayotgan ob'ektning nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshirish o'tkazishning maqsadi, muddatlari hamda uni o'tkazish sabablarining asosligi ko'rsatilgan qisqa muddatli tekshirish o'tkazishga doir qarorlari, shuningdek tekshirishni amalga oshiruvchi tegishli nazorat qiluvchi organning maxsus vakolatli organning qarori asosida chiqarilgan, mansabdor shaxslarning tarkibi va tekshirishni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrugi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini qisqa muddatli tekshirishdan o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi"; 14-1-modda chiqarib tashlansin; 16-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi "yoki uning hududiy bo'linmalari" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan **"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'grisida"**gi 69-II-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 mayda qabul qilingan O'RQ-328-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012 yil, N 5, 133-modda; 2013 yil, N 4, 98-modda, N 10, 263-modda; 2014 yil, N 12, 341, 343-moddalar; 2015 yil, N 8, 312-modda, N 12, 452-modda) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi: 39modda: quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirildi:

"Ushbu moddaning birinchi - to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar moliya yili mobaynida muntazam ravishda to'lanmagan taqdirda, rejali tekshirishlardan o'tkazilishi mumkin"; Beshinchi o'n ettinchi qismlari tegishincha oltinchi - o'n sakkizinchi qismlar deb hisoblansin; o'n uchinchi qismi "bosqichlarida" degan so'zdan keyin "yuridik xizmat vakillari va (yoki)" degan so'zlar bilan to'ldirildi; o'n to'rtinchi qismi "advokatni jalb etish yoki uning" degan so'zlar "yuridik xizmat vakillarini va (yoki) advokatni jalb etish yoki ularning" degan so'zlar bilan almashtirilsin; o'n beshinchi qismidagi "davlat soliq xizmati organlarining faqat qonun hujjatlarida vakolat berilgan bo'linmalari tomonidan mazkur bo'linmalar boshliqlarining buyruqlari asosida o'tkazilib, keyinchalik bu haqda nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organ

yoki uning tegishli hududiy bo‘linmasi qisqa muddatli tekshiruv o‘tkazilgan kundan e‘tiboran bir ish kuni ichida xabardor qilinadi" degan so‘zlar "nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus vakolatli organning jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘grisidagi murojaatlari asosida qabul qilingan qaroriga binoan davlat soliq xizmati organlarining faqat qonun hujjatlarida vakolat berilgan bo‘linmalari tomonidan o‘tkaziladi" degan so‘zlar bilan almashtirilsin; 41-moddaning ikkinchi qismidagi "rejadan tashqari yoxud muqobil" degan so‘zlar "qisqa muddatli" degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda qabul qilingan **"Xususiy korxonalar to‘grisida"**gi 558-II-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 yil, N 1-2, 8-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, N 3, 119-modda; 2007 yil, N 12, 608-modda; 2011 yil, N 9, 248-modda; 2012 yil, N 9/1, 238-modda; 2014 yil, N

5, 130-modda; 2015 yil, N 8, 312-modda) 25-moddasi quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirildi:

"Ushbu moddada ko‘rsatilgan xususiy korxonalarining moliya-xo‘jalik faoliyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar moliya yili mobaynida muntazam ravishda to‘lanmagan taqdirda, rejali tekshirishlardan o‘tkazilishi mumkin".

O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan **"Oilaviy tadbirkorlik to‘grisida"**gi O‘RQ-327-sonli Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012 yil, N 4, 111-modda; 2013 yil, N 4, 98-modda; 2015 yil, N 8, 312-modda) 27-moddasi quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirildi:

"Ushbu moddada ko‘rsatilgan oilaviy korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar moliya yili mobaynida muntazam ravishda to‘lanmagan taqdirda, rejali tekshirishlardan o‘tkazilishi mumkin". O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda qabul qilingan O‘RQ-360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan **O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi** (O‘zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 yil, 12-songa 1-ilova; 2014 yil, N 9, 244-modda; 2015 yil, N 12, 452-modda) 173-moddasi uchinchi qismining sakkizinchi xatboshisi "bundan tadbirkorlik subyektlari mustasno" degan soʻzlar bilan toʻldirildi. Ushbu Qonun 2017 yil 1 yanvardan eʼtiboran kuchga kirdi.

### **5-§. Kredit shartnomasi yuzasidan majburiyatlarning buzilishi va uning uchun javobgarlik**

Tadbirkorlik subyektlariga kredit berish bilan bogʻliq munosabatlarda majburiyatlarni oʻz vaqtida, toʻliq, real bajarilishini taminlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki majburiyatlarni real va lozim darajada bajarilishi fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari huquqlarini himoya qilishning muhim shartlaridan boʻlib hisoblanadi.

Bank krediti bilan bogʻliq huquqiy munosabatlarda kredit shartnomasi shartlarini buzganlik uchun qoʻlla-niladigan javobgarlikning asosiy shakllari boʻlib ayb-dor shaxsga neustoyka qoʻllash, undan yetkazilgan zararni undirib olish kabilar sanaladi. Bunday munosabatlarda neustoykaning miqdori odatda tomonlar kelishuviga koʻra belgilanadi va shartnomada koʻzda tutiladi. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik qoʻllashning prinsiplari va umumiy shartlari Oʻzbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi “Xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi toʻgʻrisida”gi qonunida belgilab qoʻyilgan.

Bank krediti boʻyicha olingan kredit oʻz vaqtida qaytarilmaganligi uchun oshirilgan miqdorda foiz haq toʻlash nazarda tutilishi mumkin. Oshirilgan miqdordagi foiz xaq olinishi majburiyatni buzganlik uchun jazo chorasi sifatida qoʻllanilganida u neustoykaning bir shakli sifatida baholanishi mumkin. Biroq, tadbirkorlik subyektiga bank tomonidan odatdagidan qoʻlayroq shaklda (blankali) kredit berilganida ham oshirilgan foiz haq olinishi nazarda tutilishi mumkin. Bunday holda oshirilgan foiz haq jazolash xususiyatiga ega boʻlmaydi va shartnoma muddatlari buzilmasa-da, qoʻllanilaveradi.

Mijoz kredit shartnomasi shartlarini buzgani, berilgan kreditdan maqsadsiz foydalangani yoki uning moliyaviy-tadbirkorlik

ko`rsatkichlari yomonlashgani taqdirda unga nisbatan javobgarlikning o`ziga xos turi kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish, avval berilgan kredit va uning uchun foiz haqni qaytarib olish, keyinchalik kredit berishni to`xtatish chorasi qo`lla-nilishi mumkin. Ajratilgan kreditni o`z vaqtida mi-jozga bermaganlik uchun bank javobgarligi qonun huj-jatlarida va kredit shartnomasida nazarda tutib qo`yi-ladi. Kredit shartnomasi bo`yicha uning taraflari ja-vobgarligi to`liq bo`lib, aybdor taraf o`z shartnomaviy hamkoriga ko`rilgan barcha zararlarini (yo`qotilgan pul yoki mulk qiymati, olinmasdan qolgan daromad (foyda), qilingan moddiy va boshqa harakatlar) to`liq hajmda qoplab berishi lozim bo`ladi. Tijorat banklari mijozlarga kredit berishga oid shartnoma munosabatlaridan tashqari boshqa faol mo-liyaviy operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Bunday munosabatlar jumlasiga lizing, faktoring, vekselni hisobga olish, forfejting kabilar kiradi. Ularning barchasi bankda jamlangan vaqtincha bo`sh mablag`larni uchinchi shaxslarga haq evaziga berishga qaratilgan bank faoliyatidan iboratdir.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1.Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati tushunchasi, printsiplari va huquqiy asoslarini tushuntirib bering.

2.Nazorat qiluvchi organlar va ularning vakolatlarini tushuntirib bering.

3.Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati shakllarini aytib bering.

4.Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish turlarini izoxlab bering.

## **8.BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR**

1-§. Tadbirkorlik shartnomasi tushunchasi, subyektlari va ahamiyati

2-§ Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, o`zgartirish va bekor qilish.

3-§ Tadbirkorlik shartnomalarini bajarish.

4-§. Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan taminlanishini tashkil etish va nazorat qilish.

5-§ Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov takidlaganidek, *“Ilgari bir korxonaning ikkinchi korxonaga mahsulot yetkazib berishi, ularni qaysi hududda joylashganligidan qati nazar markazlashtirilgan tarzda amalga oshirilar va buning uchun mablag`lar va fondlar ajratilar edi. Boshqacha qilib aytganda, mahsulot kerakmi yoki kerak emasmi, unga talab bormi yoki yo`qmi, bundan qati nazar, u butun Ittifoq bo`yicha mol yetkazib beruvchilar va istemolchilarga taqsimlanib chiqilar edi. Biriktirilgan istemolchi esa bu mahsulotni olishi va o`z navbatida, o`z mahsulotini boshqa korxonalarga yetkazib berishi shart edi. Yani korxonalar o`rtasidagi tadbirkorlik munosabatlari ajratilgan limitlar, fondlar, naryadlar va buyurtmalarga asoslangan bo`lib, shartnomalar tuzilmas, tuzilsa ham ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo`lgan hujjat sifatida qaralar edi”*.

Bozor munosabatlari sharoitida esa shartnomalar– barcha mulk shaklidagi korxonalar, shuningdek tadbirkorlar, hamda boshqaruv organlari o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o`rnatuvchi asosiy huquqiy hujjat bo`lib hisoblanadi.

Shu o`rinda 2001 yil 16 fevralda Vazirlar Mahkamasida bo`lib o`tgan yig`ilishda I.A. Karimov – *“bozor munosabatlarini shartnoma majburiyatlarisiz tasavvur qilib bo`lmasligini yodda tutish lozim”*- deb uqtirib o`tganlar.

Shartnomalarning yetakchilik roli va iqtisodiy munosabatlarni o`rnatishning yangi tamoyillari huquqiy jihatdan O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, mulkchilik to`grisidagi,



kooperasiya, ijara, tadbirkorlik, dehqon, fermer, shirkat xo'jaliklari, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, banklar va bank faoliyati; chet el investisiyalari va chet ellik investorlarning kafolatlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonunlar va boshqa qonunlarda belgilab qo'yilgan.

*Tadbirkorlik faoliyatida tuziladigan shartnomaviy munosabatlar, O'zR FKning ShARTNOMA TO'GRISIDA UMUMIY QOIDALARni o'z ichiga olgan 2 kichik bo'lim 26,27,28-BOBlardan tashkil topgan 353-385-moddalar asosida tartibga solinadi.*

**Shartnoma deb** ikki yoki bir necha (jismoniy yoki yuridik) shaxsning huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvga aytiladi. (FK.353m) Shartnomalarga ushbu Kodeksning 9-bobida nazarda tutilgan ikki va ko'p taraflama bitimlar to'grisidagi qoidalar qo'llaniladi.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarga, agar ushbu bobning qoidalarida va ushbu Kodeksda shartnomalarning ayrim turlari to'grisida bayon etilgan qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyatlar to'grisidagi umumiy qoidalar (ushbu Kodeksning 234-352-moddalari) qo'llaniladi.

Ikkitadan ortiq taraflar tuzadigan shartnomalarga, bunday shartnomalarning ko'p taraflamalik xususiyatiga zid bo'lmasa, shartnoma to'grisidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining o'rtasida maxsulot etkazib berish, tovar ayrboshlash, yuk tashish, transport ijarasi, ko'char yoki ko'chmas mulk ijarasi, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish, maxsulotlarni realizastiya qilish va boshqa munosabatlarni amalga oshirishda vujudga keladigan shartnomaviy munosabatlar

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Shartnomalar – bu bitim ishtirokchilarining asosiy kelishuvlarini qayd qiladigan hujjatlardir. Ular mamlakat doirasida va tashqi savdo oborotida tovarlar va moliyaviy mablaglarning harakatini ta'minlaydi.

Barcha tadbirkorlar shartnomaviy munosabatlarga kirishadilar, bu esa ulardan muayyan ishlarni talab qiladi. Jumladan korxonaning o'zida shartnomani imzolashdan oldin uning loyihasi tuziladi, kontragent bilan kelishiladi, tuzatish va qo'shimchalar kiritiladi, qonunga muvofiqligi tekshiriladi va h.k. I.B. Zokirovning fikricha, shartnomalar erkinligi tamoyilida quyidagi uchta holatni ajratib kursatish orqali tushunish mumkin: 1) subyektning shartnoma bo'yicha o'z kontragenti, ya'ni shartnoma bo'yicha sherigini tanlash erkinligi; 2) shartnoma predmetini, ya'ni aynan qanday holat yuzasidan shartnoma tuzishni tanlash erkinligi; 3) shartnoma shartlarini tanlash erkinligi.

Ushbu uchta holatni amalga oshirishda subyektga hech qanday noqonuniy ta'sir o'tkazmaslik lozim bo'ladi' A.N. Tanaga esa shartnomalar erkinligi tamoyiliga quyidagicha ta'rif beradi: *shartnomalar erkinligi - bu qonunda to'gridan-to'gri fuqarolik huquqining boshlangich negizi bo'lib, u shartnoma munosabatlari subyektlari uchun shartnoma tuzish erkinligini, tuzilayotgan shartnoma turini tanlash erkinligini va uning shartlarini belgilash erkinligini urnatadi.*

H.R. Rahmonqulovning fikricha, shartnoma erkinligi taraflarning shartnoma munosabatlariga kirishishiga doir haqiqiy istaklari va xohish-irodalari mavjud bo'lishini taqozo etadi. Bunday xohish-iroda, *birinchidan*, shartnoma tuzishga doir harakatlarda, *ikkinchidan*, shartnoma shartlarini belgilashga doir harakatlarda, *uchinchidan*, shartnoma majburiyatlarini bajarishga doir harakatlarda namoyon bo'ladi.

Demak, tadbirkorlik shartnomasi: – bu ikki va undan ortiq shaxslarning o'z huquq va erkinliklarini mustaqil tartibda vujudga keltirishni, ularni o'zgartirishga va bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvidir.

Xulosa qilganda tadbirkorlar o'rtasida tuziladigan shartnomalarning asl maqsadi va mohiyati tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar, xizmatlar uchun foyda olish va boshqa turdagi xarakatlarning bajarilishini kafolatlaydigan muxim hujjatlardan biri hisoblanadi.

## **2-§ Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, o`zgartirish va bekor qilish**

Fuqarolik kodeksi talablariga ko`ra tadbirkorlik faoliyati subyektlari shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo`l qo`yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu Kodeksda, boshqa qonunda yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin.

Taraflar turli shartnomalarning elementlarini o`z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkin. Aralash shartnoma bo`yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo`lgan shartnomalar to`g`risidagi qoidalar qo`llaniladi.

Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonunchilikda ko`rsatib qo`yilgan hollar bundan mustasno. Shartnomaning sharti taraflar kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo`yilmaganligi tufayli qo`llaniladigan norma (dispozitiv norma) da nazarda tutilgan hollarda taraflar o`zaro kelishib, uning qo`llanishini bekor qilishlari yoki unda nazarda tutilganidan boshqacha shartni belgilashlari mumkin. Bunday kelishuv bo`lmaganda shartnomaning sharti dispozitiv norma bilan belgilanadi. Agar shartnoma shartlari taraflar yoki dispozitiv norma bilan belgilab qo`yilgan bo`lmasa, tegishli shartlar taraflar o`rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo`llanilishi mumkin bo`lgan ish muomalasi odatlari bilan belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari fuqarolik huquqiy shartnomalarni haq evaziga yoki tekinga tuzishlari mumkin. Haq evaziga tuziladigan shartnomalarda shartnoma bo`yicha taraf o`z burchlarini bajarganligi uchun haq olishi yoki unga boshqa muqobil to`lov to`lanishi lozim bo`lsa, bunday shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Tekinga tuziladigan shartnomalarda shartnoma bo`yicha bir taraf ikkinchi tarafga undan haq yoki boshqa muqobil to`lov olmasdan biron narsani berish majburiyatini olsa, bunday shartnoma tekinga tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Agar qonunchilikdan, shartnomaning mazmuni

yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'rtasida tuziladigan deyarli barcha shartnomalarda uning asosiy shartlaridan biri shartnoma baxosi hisoblanadi. Unga ko'ra, shartnomani bajarganlik uchun taraflarning kelishuvi bilan belgilangan bahoda haq to'lanadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat organlari belgilaydigan yoki tartibga soladigan baholar (tariflar, rassenkalar, stavkalar va h.k.) qo'llaniladi. Shartnoma tuzilganidan keyin bahoni o'zgartirishga qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yo'l qo'yiladi.

Haq to'lashni nazarda tutadigan shartnomada baho nazarda tutilmagan va shartnoma shartlari bo'yicha belgilanishi mumkin bo'lmagan hollarda shartnomani bajarganlik uchun o'xshash vaziyatlarda odatda shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo'yicha haq to'lanishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyatida tuziladigan shartnomalarning ikkinchi muxim shartlaridan biri bu shartnomaning amal qilish muddati hisoblanadi. Shartnomada kelishilgan muddat shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Taraflar o'zlari tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'yishga haqlidirlar. Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnoma bo'yicha majburiyatlari bekor bo'lishiga olib keladi, deb belgilanishi mumkin. Bunday shart yozib qo'yilmagan shartnoma taraflar majburiyatni bajarishining shartnomada belgilab qo'yilgan oxirgi muddatigacha amal qiladi, deb hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Fuqarolik kodeksi talablari asosida tadbirkorlik faoliyati subyektlari dastlabki shartnoma bo'yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda

tutilgan shartlar asosida shartnoma tuzish (asosiy shartnoma) majburiyatini olishlari mumkin.

Dastlabki shartnoma asosiy shartnoma uchun belgilangan shaklda, bordiyu, asosiy shartnomaning shakli aniqlanmagan bo'lsa, yozma shaklda tuziladi. Dastlabki shartnomaning shakli to'g'risidagi qoidalarga rioya qilmaslik uning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Dastlabki shartnomada asosiy shartnomaning narsasini, shuningdek boshqa muhim shartlarini belgilab qo'yish imkonini beradigan shartlar bo'lishi kerak. Dastlabki shartnomada taraflar qancha muddatda asosiy shartnomani tuzish majburiyatini olishi ko'rsatiladi. Agar dastlabki shartnomada bunday muddat belgilab qo'yilgan bo'lmasa, asosiy shartnoma dastlabki shartnoma tuzilgan paytdan boshlab bir yil ichida tuzilishi shart.

Dastlabki shartnomani tuzgan taraf asosiy shartnomani tuzishdan bosh tortgan taqdirda FKning 377-moddasining oltinchi va yettinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi. Agar taraflar asosiy shartnomani tuzishlari lozim bo'lgan muddatning oxirigacha u tuzilmasa yoki taraflarning birontasi ham ikkinchi tarafga ana shunday shartnoma tuzish haqida taklif yubormasa, dastlabki shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bekor bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari fuqarolik kodeksi talablari asosida uchinchi shaxs foydasiga shartnoma tuzishlari mumkin. Bunda taraflar qarzdor ijroni kreditorga emas, balki shartnomada ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan, qarzdordan majburiyatni o'z foydasiga bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxsga bajarishi majbur deb belgilab qo'ygan shartnoma uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnoma deyiladi.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o'zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning rozilgisiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas. Qarzdor kreditorga qarshi qo'yishi mumkin bo'lgan e'tirozlarini shartnomada uchinchi shaxsning talablariga qarshi qo'yishga haqli. Uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'ziga berilgan huquqdan foydalanishdan voz kechgan taqdirda, basharti

qonunchilik va shartnomaga zid bo'lmasa, kreditor bu huquqdan foydalanishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari shartnoma tuzishda O'zR FKsining 364-moddasida belgilangan asosiy qoidalarga amal qilishi lozim. Ushbu moddada, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Shartnomaning narsasi to'g'risidagi shartlar, qonunchilikda bunday turdagi shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar, shuningdek taraflardan birining arizasiga ko'ra kelishib olinishi zarur bo'lgan hamma shartlar muhim shartlar hisoblanadi. Shartnoma taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf uni aksteptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari shartnoma tuzishda shartnomaning tuzilish payti muxim qoidalardan biri hisoblanadi. Unda ya'ni oferta yo'llagan shaxs uning aksteptini olgan paytda shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Agar qonunga muvofiq shartnoma tuzish uchun mol-mulkni topshirish ham zarur bo'lsa, shartnoma tegishli mol-mulk topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi (O'zbResFKning 185-moddasi).

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari shartnomaviy munosabatlarga kirishishda uning shakliga e'tibor qaratishlari muxim hisoblanadi. Unga ko'ra, agar qonunda muayyan turdagi shartnomalar uchun ma'lum bir shakl belgilab qo'yilgan bo'lmasa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin. Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'lganda esa — shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo'lsalar, garchi qonunda bu turdagi shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo'lmasa-da, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin. Agar shartnoma tuzish haqidagi yozma taklif ushbu Kodeks 370-moddasining to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan tartibda olingan bo‘lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan tuziladigan shartnomaviy munosabatlarning dastlabki jarayonida oferta yo‘llash tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, shartnoma tuzishda bir yoki bir necha muayyan shaxsga yuborilgan, etarli darajada aniq bo‘lgan va taklifni kiritgan shaxsning o‘zini taklif yo‘llagan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif oferta hisoblanadi. Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo‘lishi kerak. Oferta uni yo‘llagan shaxsni oferta yo‘llagan shaxs bilan u ofertani olgan paytdan boshlab bog‘laydi. Agar ofertani chaqirib olish to‘g‘risidagi bildirish ofertaning o‘zidan oldin yoki u bilan bir vaqtda kelgan bo‘lsa, oferta olinmagan hisoblanadi.

Shartnomani tuzish paytida ofertaning chaqirib olinmasligi fuqarolik kodeksida belgilangan. Unda qabul qiluvchi taraf olgan oferta uni akseptlash uchun belgilab qo‘yilgan muddat mobaynida chaqirib olinishi mumkin emas, bosharti boshqacha tartib ofertaning o‘zida shart qilib qo‘yilgan bo‘lmasa yoki taklifning mohiyatidan yoxud u yo‘llagan paytdagi vaziyatdan anglashilmasa.

Tadbirkorlar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarda ofertaga taklif etish qoidasi asosida nomuayyan shaxslar doirasiga yo‘llagan reklama va boshqa takliflar, agar taklifda boshqacha hol to‘gridan-to‘gri ko‘rsatilgan bo‘lmasa, ofertaga taklif etish deb qaraladi. Shartnomaning barcha asosiy shartlarini o‘z ichiga olgan, taklif kiritayotgan shaxsning javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif oferta (ommaviy oferta) hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatida tuziladigan shartnomalarning navbatdagi bosqichi aksept bo‘lib, unda oferta yuborilgan shaxsning uni qabul

qilganligi haqidagi javobi akstept hisoblanadi. Akstept to'liq va pisanadasiz bo'lishi kerak. Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo'yicha avvalgi munosabatlaridan boshqacha ma'no kelib chiqmasa, sukut saqlash akstept bo'lmaydi. Ofertani aksteptlash uchun belgilangan muddatda olgan shaxsning unda ko'rsatilgan shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan qilgan harakatlari (tovarlarni jo'natish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish, tegishli summani to'lash va h. k.), agar qonunchilikda yoki ofertada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoki ko'rsatilmagan bo'lsa, akstept hisoblanadi. Shuningdek, FKda akstept bilan bogliq boshqa tartiblar xam belgilangan. (FKning 371-moddasi Aksteptni chaqirib olish, 372-moddasi Akstept muddati ko'rsatilgan oferta asosida shartnoma tuzish, 373-moddasi Akstept muddati ko'rsatilmagan oferta asosida shartnoma tuzish, 374-moddasi Kechikib olingan akstept va 375-moddasida boshqa shartlar asosidagi aksteptlar nazarda tutilgan)

Tadbirkorlik shartnomalarida shartnomaning tuzilgan joyi muxim shartlardan biri bo'lib, FKga asosan agar shartnomada uning tuzilgan joyi ko'rsatilgan bo'lmasa, shartnoma oferta yo'llagan fuqaroning yashash joyida yoki yuridik shaxsning joylashgan erida tuzilgan hisoblanadi.

FKning 378-moddasida shartnoma oldidan bo'ladigan nizolar belgilangan bo'lib, unda shartnoma tuzish chogida yuz bergan kelishmovchiliklar O'zR FKsning 377-moddasiga muvofiq qarab chiqish uchun sudga berilgan hollarda shartnomaning taraflar o'rtasida kelishmovchiliklar chiqishiga sabab bo'lgan shartlari sud qaroriga muvofiq belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining kimoshdi savdosida shartnoma tuzish talablarida agar shartnomaning mazmunidan boshqacha tartib anglashilmasa, u kim oshdi savdosini o'tkazish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Shartnoma kimoshdi savdosida golib chiqqan shaxs bilan tuziladi. Ashyoning mulkdori yoki mulkiy huquq egasi yoxud ixtisoslashgan tashkilot kimoshdi savdosining tashkilotchisi bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan tashkilot ashyoning mulkdori yoki mulkiy huquq egasi bilan shartnoma tuzish asosida ish olib boradi va ular nomidan yoki o'z nomidan harakat qiladi. Ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunda



ko'rsatilgan hollarda ashyoni yoki mulkiy huquqni sotish to'grisidagi shartnomalar faqat kimoshdi savdosi o'tkazish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Kimoshdi savdosi aukstion yoki tanlov shaklida o'tkaziladi. Kimoshdi savdosining shakli, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, sotiladigan ashyoning mulkdori yoki sotiladigan mulkiy huquqning egasi tomonidan belgilanadi. Faqat bitta ishtirokchi qatnashgan aukstion va tanlov o'tkazilmagan hisoblanadi.

O'zR FKsning 380 va 381-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, sud qarorini ijro etish tartibida o'tkaziladigan kimoshdi savdosiga nisbatan ham qo'llaniladi.

Shartnomalar tuzish – biznes uchun kundalik amaliyotdir. Korxonada shartnomaviy ishni tashkil qilish ayrim savollarga javoblarni talab qiladi. Nimadan boshlash kerak? Shartnomaga qanday bo'limlarni kiritish kerak? Qanday shartnoma xatolarini oldini olish yoki yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish mumkin? Bu haqda batafsil keyingi qismlarda ko'rib chiqamiz.

O'zR FKning 382-moddasi talablari asosida tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'rtasida tuziladigan shartnomalarni o'zgartirish va bekor qilish asoslari belgilangan. Agar ushbu Kodeksda, boshqa qonunlarda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

- 1) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;
- 2) ushbu Kodeks, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o'zga hollarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar etkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi. Bir taraf shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bosh tortib, qonun yohud taraflarning kelishuvida bunga yo'l qo'yilsa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hisoblanadi.

O‘zR FKsning 383-moddasida vaziyat jiddiy o‘zgarishi munosabati bilan shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tartibi belgilanib, unda shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo‘lgan vaziyatning jiddiy o‘zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘ladi. Vaziyatning taraflar oldindan ko‘ra bilganlarida shartnomani umuman tuzmasliklari yoki ancha farq qiladigan shartlar bilan tuzishlari mumkin bo‘lgan darajada o‘zgarishi uning jiddiy o‘zgarishi hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani jiddiy o‘zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo‘lsalar, shartnoma manfaatdor tarafning talabi bilan sud tomonidan bekor qilinishi, ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra esa — o‘zgartirilishi mumkin, yoki ayni vaqtda quyidagi shartlar mavjud bo‘lsa:

1) shartnomani tuzish paytida taraflar vaziyatda bunday o‘zgarish yuz bermaydi, deb hisoblagan bo‘lsalar;

2) vaziyatning o‘zgarishini keltirib chiqargan sabablarni, ular paydo bo‘lganidan keyin manfaatdor taraf shartnomaning xususiyatiga va muomala shartlariga ko‘ra o‘zidan talab qilinadigan darajada vijdoniylik va ehtiyotkorlik qilgan bo‘lishiga qaramay, bu sabablarni yenga olmagan bo‘lsa;

3) shartnomani uning shartlarini o‘zgartirmasdan bajarish taraflar mulkiy

manfaatlarning shartnomaga mos keladigan nisbatini buzsa va manfaatdor tarafga zarar yetkazsa, natijada ular shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘lsalar;

4) ish muomalasi odatlaridan yoki shartnomaning mohiyatidan vaziyatning o‘zgarishi xavfiga manfaatdor taraf uchrashi kerakligi anglashilmasa.

Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi oqibatida shartnoma bekor qilinganida sud har qanday taraf talabi bilan shartnomani bekor qilish oqibatlarini aniqlashda taraflarning ushbu shartnomani bajarish bilan

bogʻliq xarajatlarini ular oʻrtasida adolatli taqsimlash zarurligiga asoslanadi.

Vaziyatning jiddiy oʻzgarishi munosabati bilan shartnomaning oʻzgartirilishiga shartnomani bekor qilish ijtimoiy manfaatlarga zid boʻlgan yoki taraflarga shartnomani sud tomonidan oʻzgartirilgan shartlar asosida bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlardan ancha ortiq zarar keltiradigan favqulodda hollarda sud qarori bilan yoʻl qoʻyiladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida shartnomani oʻzgartirish va bekor qilish OʻzR FKsning 384-moddasi asosida hal etiladi. Unga koʻra, shartnoma qanday shaklda tuzilgan boʻlsa, uni oʻzgartirish yoki bekor qilish toʻgʻrisidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi, basharti qonunchilikdan, shartnoma yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa. Bir taraf shartnomani oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda koʻrsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat boʻlmaganida esa — oʻttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, shartnomani oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari oʻrtasida tuzilgan shartnomani oʻzgartirish va bekor qilishning oqibatlari OʻzR FKsning 385-moddasi talablariga amal qilgan xolda xarakat qilishlari shart. Ushbu moddada shartnoma oʻzgartirilganida taraflarning majburiyatlari oʻzgartirilgan holda saqlanib qoladi. Shartnoma bekor qilinganida taraflarning majburiyatlari bekor boʻladi. Shartnoma oʻzgartirilgan yoki bekor qilingan taqdirda, agar kelishuvdan yoki shartnomani oʻzgartirish xususiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, taraflar shartnomani oʻzgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, shartnoma sud tartibida oʻzgartirilgan yoki bekor qilinganida esa — sudning shartnomani oʻzgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab majburiyatlar oʻzgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi. Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilab qoʻyilgan boʻlmasa, taraflar shartnoma oʻzgartirilguncha yoki bekor qilinguncha majburiyat boʻyicha oʻzlari bajargan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emaslar.

Agar shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilishga taraflardan birining shartnomani jiddiy buzishi asos bo'lgan bo'lsa, ikkinchi taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish tufayli etkazilgan zararni to'lashni talab qilishga haqli.

**Tadbirkorlik shartnomasini tuzilish jihatidan shartli ravishda to'rt qismga ajratish mumkin:**

- 1) kirish;
- 2) shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatlari;
- 3) shartnomaning qo'shimcha shartlari;
- 4) shartnomaning boshqa shartlari.

Tadbirkorlik shartnomasining kirish qismida quyidagilar – shartnomaning nomi (mahsulot yetkazib berish, kredit, transport vositalari ijarasi, qurilish pudrati va x.k.); shartnomani imzolash vaqti va joyi; shartnoma taraflarining to'liq nomi, shartnoma bo'yicha taraflarning atalishi (masalan: “mahsulot yetkazib beruvchi”, “pudratchi” va sh.k.); shartnomani imzolayotgan shaxsning mansabi va naslnasabining to'liq nomi, shuningdek unga shartnomani imzolash huquqini beruvchi hujjat (ustav, nizom yoki ishonchnoma) ko'rsatilishi lozim.

Yuqoridagilarni shartnomada to'liq va aniq ifodalanishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, shartnomaning aniq nomlanishi taraflarga va boshqa shaxslarga qanday huquqiy munosabatlar haqida so'z yuritilayotganligi to'g'risida o'sha zahoti tushuncha bersa, shartnoma imzolangan vaqt (yil, oy, kun) shartnoma imzolangan paytni to'g'ri aniqlash va amal qilish muddatini qachon tugashi, yani bu bilan bog'liq yuridik oqibatlarni belgilash imkoniyatini beradi. Tadbirkorlik shartnomasining ikkinchi qismi uning katta ahamiyatga ega bo'lgan shartlarini o'z ichiga oladi: shartnoma predmeti; birinchi tarafning shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari; ikkinchi tarafning shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari; taraflarning o'z majburiyatlarini bajarish muddatlari; taraflar majburiyatlarini bajarish joyi; taraflar majburiyatlarini bajarish usullari (harakatlar tartibi, ketmaketligi va h.k.).

Ushbu shartlarning mazmuni shartnomaning turiga va uning qanday holatga nisbatan tuzilishiga bog`liq bo`ladi va O`zR FKİ va amaldagi normativ hujjatlar qoidalari asosida shakllanadi.

Tadbirkorlik shartnomasining uchinchi qismi shunday shartlarni o`z ichiga oladiki, ularni shartnomada ko`zda tutish majburiy emas. Ammo, bunday shartlar mavjud bo`lgan taqdirda taraflar huquq va majburiyatlariga, shuningdek ularni bajarish tartibiga sezilarli tasir qiladi.

Tadbirkorlik shartnomasining qo`shimcha shartlariga – shartnomani amal qilish muddati; taraflarning javobgarligi; majburiyatlarning bajarilishini taminlash usullari; shartnomani bir tarafdama bekor qilishning asoslari va oqibatlarini; shartnoma bo`yicha malumotlarni sir saqlash haqidagi; nizolarni hal qilish tartibi kabilar kiradi.

Taraflarning shartnoma bo`yicha o`z majburiyatlarini bajarish muddatlari ko`rsatilgan taqdirda ham tadbirkorlik shartnomasining amal qilish muddati ko`rsatilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat shartnomani amal qilish muddati qachon tugashini bilish va taraflar shartnomani bajarishdan bosh tortganlik uchun talabnoma va davo qilish muddatini boshlanishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda taraflarning o`z majburiyatlarini bajarishlarini taminlash maqsadida shartnomada tarafalarning javobgarligi ko`zda tutiladi. Odatda, har bir shartnomada javobgarlik kelishilgan shartlarning birini bajarmagan tarafga nisbatan neustoyka (jarima, penya) ko`rinishida sanksiya belgilanishi bilan ifodalanadi.

Tadbirkorlik shartnomasining qo`shimcha shartlaridan yana biri – bu majburiyatlarning bajarilishini taminlash usullaridir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik shartnomasining bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan taminlanishi mumkin.

Odatda tadbirkorlik shartnomalari faqat taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin, ammo taraflar shartnomada uni bir tarafning tashabbusi bilan ham bekor qilish to`g`risidagi shartlarni kiritishlariga yo`l qo`yiladi.

Shuningdek shartnomada uning qaysi shartlari sir saqlanishi va taraflar tomonidan oshkor qilinishi mumkin emasligi belgilab qo'yilishi mumkin.

### **Tadbirkorlik faoliyatida shartnoma tuzishni qanday tashkil etish lozim.**

Korxonada shartnomaviy ish ko'pincha rasmiylashtirishga to'g'ri keladigan shartnomalarning namunaviy shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlashdan boshlanadi. Tayyor shablonlardan foydalanish vaqtini tejashda qulay: shartnomani "boshidan" yozgandan ko'ra unga ayrim aniqlashtirishlar va tuzatishlarni kiritish oson va tez.

Faoliyatning xususiyatlarini inobatga olgan holda kelgusi ish uchun shartnomalarning bir nechta shakllarini tayyorlab qo'yish mumkin. Hatto shartnomaning bir turi doirasida uning kichik turlarini ko'zda tutish mumkin. Masalan, tovarlar o'zi olib ketish va xaridorga biryo'la yoki muayyan davrda partiyalar bilan etkazib berish shartlarida etkazib berilishi mumkin. Shunday qilib, kontragentlar bilan o'zaro munosabatlarning xususiyati bu erda belgilovchi omil hisoblanadi.

Biroq shuni tushunish lozimki, tayyor shablonlardan foydalanish tizimi a'lo darajaga etishishiga hali ancha bor.

***Birinchi***dan, barcha ehtimoliy variantlarni oldindan ko'zda tutib bo'lmaydi va ertami-kechmi kutilmagan vaziyatga to'qnash kelishga to'g'ri keladi.

***Ikkinchi***dan, qachondir foydalanishga kiritilgan shartnomalar eskiradi va qonunchilikdagi dolzarb o'zgarishlarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqishni taqazo qiladi.

Shartnoma bo'limlari va soha mutaxassislari bo'lmagan tashkilotlarda bu

ish kim tomonidan bajarilishi ham muhim. Lavozim yo'riqnomalari va boshqa lokal hujjatlar mavjud bo'lmagan mutlaqo kichik firmalarda shartnomalarni tuzish va rasmiylashtirish ustida qisman rahbar, bosh buxgalter va sotish bo'yicha menejer ishlashlariga to'g'ri keladi.

Bunda shuni inobatga olish joizki, qonun cheklovlarsiz har qanday shartnomani tuzish imkonini bersada, yakuniy hujjat shakllar va ayrim hollarda mazmun jihatdan qonunchilik talablariga muvofiq kelishi kerak.

Tushunarli, faqat huquq sohasidagi mutaxassis bunday muvofiqlikni lozim darajada ta'minlashi mumkin. Aytilganlarni inobatga olib, hech bo'lmaganda dastlabki bosqichda ishga yuristni jalb qilishni tavsiya qilamiz.

Korxonada rasmiylashtirilayotgan shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazishga kelishib olinsa, yanada yaxshi. Bunday xizmatlar uchun xarajatlari katta emas va ehtimoliy sud xarajatlari yoki jarima sanksiyalarida iqtisod qilish hisobiga ortigi bilan qoplanadi.

Respublikamizda iqtisodiyot va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan nizolarni hal qilish tadbirkorlik sudlari sudloviga taalluqlidir. Biroq, tadbirkorlik prosessual qonunchiligida fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan hamda tadbirkorlik sudiga taalluqli bo'lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan hakamlar sudida ko'rish uchun topshirilishi mumkinligi belgilangan. Qoida tariqasida, da'volar javobgar joylashgan joydagi tadbirkorlik sudiga taqdim etiladi. Ammo, da'voni javobgar joylashgan joyda taqdim etish va davogarning tanlashi bo'yicha sudlovga tegishlilik asosida taraflarning roziligi bilan o'zgartirilishi hamda nizoni hal qilishi lozim bo'lgan tadbirkorlik sudining nomi shartnomada aniq belgilanishi ham mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasining to'rtinchi qismida - taraflar o'rtasidagi munosabatlar shartnomadan tashqari yana qanday yo'llar bilan tartibga solinishini; taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi; shartnoma tuzishdan oldin olib borilgan ishlar va ularning shartnoma imzolanganidan keyingi natijalari; taraflarning rekvizitlari; shartnoma nusxalari soni haqidagi malumotni; shartnoma matniga o'zgartirishlar kiritish tartibini; taraflar vakillarining imzolari olinishi lozim.

Taraflar shartnomada o'z zimmlariga olgan aniq majburiyatlarni belgilab olishi tabiiy bir holdir. Unga shartnoma bo'yicha taraflar o'rtasidagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini kiritishning hojati yo'q. Shuning uchun, odatda shartnomaning boshqa sharti sifatida unga quyidagi jumla kiritiladi: "Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan shartlar bo'yicha taraflar amaldagi qonunchilikka rioya qiladilar".

Taraflar o`rtasidagi aloqalarni o`rnatish haqidagi shartlarda – axborot berish va shartnomaning bajarilishiga taalluqli bo`lgan masalalarni hal qilishga vakolatli shaxslar (nomlari yoki mansabi), shuningdek aloqa turlari (telefon, faks va h.k) ko`rsatiladi.

Shartnoma tuzishdan oldin olib borilgan ishlar va ularning shartnoma imzolanganidan keyingi natijalari to`g`risidagi badda taraflar shartnomani tuzish bo`yicha olib borilgan barcha muloqotlar, yozishmalar, oldindan kelishib olishlar va shu maqsaddagi bayonnomalar o`z kuchini yo`qotganligi belgilanadi.

Taraflarning rekvizitlariga – pochta indeksi, manzili, hisob–kitob raqami, bank muassasaning nomi, kodi, MFO, soliq to`lovchining identifikatsiya raqami, yuklash rekvizitlari kiradi va ular tadbirkorlik shartnomasida aniq ko`rsatilishi lozim. Shartnoma nusxalari soni va uning haqiqiyliги unda ko`rsatiladi. Shartnoma matniga o`zgar-tirishlar kiritish tartibining belgilanishi shartnomani qalbakilashtirilishini oldini oladi.

Har bir shartnomada malum bir shaxsning xohish-istaklari bayon qilinishi munosabati bilan shartnoma o`sha shaxs yoki uning to`liq vakolatga ega bo`lgan vakili tomonidan imzolanadi, shuningdek, shartnomada yuridik xizmat xodimi yoki advokatning imzosi bo`lishi talab qilinadi.

Tadbirkorlik shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Qonunchilikda shartnoma yozma shaklining uch xil turi ko`rsatilgan. Amaliyotda shartnomaning oddiy yozma shakli keng tarqalgan bo`lib, u taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo`li bilan tuziladi.

Tadbirkorlik shartnomasi, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo`li bilan tuzilishi mumkin. Agar qonun hujjatlariga yoki taraflardan birining talablariga zid bo`lmasa bitim tuzish chog`ida imzodan faksimile usulida nusxa ko`chirish vositalaridan foydalanishiga yo`l qo`yiladi.

Tadbirkorlik shartnomasining oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi. Tadbirkorlik shartnomasi qonunda ko`rsatilgan hollarda va taraflardan birining talabi bo`yicha notarial



tasdiqlanishi shart. Shartnomani notarial tasdiqlash notarius yoki bunday no-tarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo`lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan shartnomada tasdiqlovchi ustxat yozib qo`yish yo`li bilan amalga oshiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlarida ayrim tadbirkorlik shartnomalarini davlat ro`yxatidan o`tkazish belgilab qo`yilgan. Masalan, yer uchastkalari va boshqa ko`chmas mol-mulk bilan bog`liq tadbirkorlik shartnomalari (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara va boshqalar) davlat ro`yxatidan o`tkazilishi kerak. Shartnomaning notarial shakliga yoki uni davlat ro`yxatidan o`tkazish talabiga rioya qilmaslik tadbirkorlik shartnomasining haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday shartnoma o`z-o`zidan haqiqiy bo`lmaydi.

Tadbirkorlik shartnomalarini tuzishda ayrim qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlar tomonidan o`rnatilgan muhim xususiyatlarni hisobga olish zarurdir. Masalan, O`zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi qo-nunida jamiyatning mol-mulkini olishi yoki uni tasarrufidan chiqarishi bilan bog`liq “yirik bitimlar” (shartnomalar) alohida qayd qilingan.

Unda quyidagilar yirik bitimlar (shartnomalar) deb hisoblanadi:

bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat aktivlari balans qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo`lgan mol-mulkni jamiyatning olishi yoki tasarrufidan chiqarishi bilan bog`liq yoxud jamiyat bevosita yoki bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog`liq bitim yoki o`zaro bog`-langan bir necha bitim (oddiy tadbirkorlik faoliyatini yuritish asnosida sodir etiladigan bitimlar bundan mustasno); jamiyat tomonidan ilgari joylashtirilgan oddiy (odatdagi) aksiyalarning yigirma besh foizidan ko`prog`ini tashkil etadigan oddiy (odatdagi) aksiyalarni yoki oddiy (odatdagi) aksiyalarga ayriboshlanadigan imtiyozli aksiyalarni joylashtirish bilan bog`liq bir yoki o`zaro bog`langan bir necha bitim.

Yirik bitimga sabab bo`lgan mol-mulk qiymatini aniqlash jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Qiymati bitim tuzish to`g`risida qaror qabul qilina-yotgan sanada jamiyat aktivlari balans qiymatining yigirma besh foizidan ellik

foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida bo`lgan yirik bitim tuzish to`g`risidagi qaror kuzatuv kengashi tomonidan yakdillik bilan qabul qilinadi, bunda kuzatuv kengashining tarkibdan chiqib ketgan azolari ovozi hisobga olinmaydi.

Yirik bitim tuzish masalasida jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan hollarda yirik bitim tuzish to`g`risidagi masala kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig`ilishi hukmiga havola etilishi mumkin.

Bitim tuzish to`g`risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat aktivlari balans qiymatining ellik foizidan ortiq qiymatni tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to`g`risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig`ilishi tomonidan yig`ilishda qatnashayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo`lgan aksiyadorlarning to`rt dan uch qismdan iborat ko`pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuning uchun ham tadbirkorlik shartnomalarini tuzish jarayonida shartnomani imzolayotgan shaxs vakolatini tekshirish muhim ahamiyatga ega.

Agar shaxsning tadbirkorlik shartnomasini tuzish vakolatlari shartnoma bilan yoki yuridik shaxs vakolatlari uning tasis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo`yilganiga nisbatan yoinki shartnoma tuzilayotgan vaziyatdan aniq ko`rinib turgan deb hisoblanishi mumkin bo`lgan vakolatlariga nisbatan cheklab qo`yilgan bo`lsa va shartnomani tuzish paytida bunday shaxs yoki organ ana shu cheklashlar doirasidan chiqib ketgan bo`lsalar, shartnomadagi ikkinchi taraf mazkur cheklashlarni bilgan yoki oldindan bilishi lozim bo`lganligi isbotlangan hollardagina shartnoma cheklash belgilanishidan manfaatdor bo`lgan shaxsning davosi bo`yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo`lib qoladi. Taraflar o`zlari tuzgan tadbirkorlik shartnomasining shartlarini ularning shartnoma tuzilishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo`llaniladi deb belgilab qo`yishga haqlidirlar. Tadbirkorlik shartnomasi shartnomaga shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo`lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq

bajarilishi lozim. Tadbirkorlik shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq o`zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Tadbirkorlik shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo`lsa, taraflarning uni o`zgartirish yoki bekor qilish to`g`risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik shartnomasini o`zgartirish haqidagi kelishuvda quyidagilarning ko`rsatilishi maqsadga muvofiq bo`ladi, yani: qaysi shartnoma o`zgartiriladi (shartnomaning raqami, sanasi, nomi); shartnomani o`zgartirish sababi; o`zgartirilayotgan yoki qo`shimchalar kiritilayotgan shartlar va ularning yangi tahriri; o`zgartirish kiritilgandan keyin avvalgi shartlarning yuridik kuchini yo`qotishi haqidagi band; o`zgartirish yoki qo`shimcha kiritilishidan oldin mazkur shartlar bo`yicha yuzaga kelgan masalalarni hal qilish tartibi.

Taraflarning shartnomani bekor qilish haqidagi kelishuvida esa quyidagi malumotlar kiritilishi lozim: qanday shartnoma bekor qilinayotganligi; qaysi vaqtdan shartnoma bekor qilinayotganligi; shartnoma bekor qilinishidan oldin mazkur shartnoma yuzasidan vujudga kelgan masalalarni hal qilish tartibi; shartnoma bekor qilin-gandan keyin taraflarning mazkur shartnoma bo`yicha talab qilish huquqlari o`z kuchini yo`qotishi to`g`risidagi band.

Tadbirkorlik shartnomasini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki tadbirkorlik shartnomasining shartlarini bir taraflama o`zgartirishga yo`l qo`yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Taraflardan birining talabi bilan tadbirkorlik shartnomasi tadbirkorlik sudining qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf tadbirkorlik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o`zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Taraflardan birining tadbirkorlik shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u tadbirkorlik shartnomasi tuzishda umid qilishga haqli bo`lgan narsadan ko`p darajada mahrum bo`ladigan qilib zarar yetkazishi tadbirkorlik shartnomasini jiddiy buzish hisobla-nadi.

Bir taraf shartnomani o`zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda

ko`rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo`lmaganida esa – o`ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, tadbirkorlik shartnomasini o`zgartirish yoki bekor qilish to`g`risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin. Demak, tadbirkorlik shartnomalari qonunchilik hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan hollarda bir taraflama yoki xo`jalik sudining hal qarori bilan bekor qilinishi mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish ham yozma shaklda amalga oshiriladi. O`zbekiston Respublikasining “Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida”gi qonunida ichki tadbirkorlik shartnomalarini tuzish qoidalari belgilangan. Ichki tadbirkorlik shartnomasi, qoida tariqasida, tadbirkorlik subyekti va uning tarkibiy bo`linmalari o`rtasida yoki tadbirkorlik subyekt va uning xodimi (bir guruh xodimlari) o`rtasida tuziladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, tadbirkorlik subyektlari mahsulot yetkazib berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko`rsatish yuzasidan ichki tadbirkorlik shartnomalarining o`zlari boshqa tadbirkorlik subyektlari bilan tuzgan tadbirkorlik shartnomalaridagidan kam bo`lmagan hajmda tuzilishini taminlashlari shart.

*Ichki tadbirkorlik shartnomalariga* oilaviy pudrat, fermer xo`jaligi bilan shirkat xo`jaligi o`rtasidagi shartnomalar misol bo`la oladi. Ichki tadbirkorlik shartnomalari o`z huquqiy tabiatiga ko`ra fuqarolik-huquqiy va mehnat-huquqiy shartnoma bo`lib hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo`lmasa, ichki tadbirkorlik shartnomalariga nisbatan O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 353-385-moddalarining normalari qo`llaniladi.

### **3-§ Tadbirkorlik shartnomalarini bajarish**

Tadbirkorlik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo`lmagan hollarda esa – ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Tadbirkorlik shartnomasini bajarish jarayoni izchil amalga oshiriladigan harakatlar tizimidan iborat bo`lib, bu tizimni ikki bosqichga, yani moddiy va huquqiy bosqichlariga ajratish mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasini bajarishning moddiy bosqichi ikkita o`zaro bog`liq harakatlarni: bir tarafning tovarlarni, bajargan ishi va ko`rsatgan xizmati natijalarini berishni hamda ikkinchi tarafning bu narsalarni qabul qilib olishini o`z ichiga oladi. Shartnomani bajarish muddati, uni bajarish joyi, shartnomaning bahosi, shartnomani bajarish usullari ana shunday talablar jumlasidandir.

Tadbirkorlik shartnomasida uning bajarish vaqti nazarda tutilgan yoki uni aniqlash imkoni mavjud bo`lsa, u holda shartnomaviy majburiyat o`sha vaqtda bajarilishi kerak. Umumiy qoidaga ko`ra, taraf shartnomani muddatidan ilgari bajarishi mumkin emas. Biroq, agar taraflar uchun bunday holat shartnomada nazarda tutilgan va bunga ikkinchi taraf rozilik bergan bo`lsa majburiyatni muddatidan ilgari bajarishi mumkin. Shartnomaviy majburiyatni bajarish muddati talab qilib olish payti bilan belgilab qo`yilgan bo`lsa, birinchi taraf (kreditor) har qachon ijroni talab qilishga, ikkinchi taraf (qarzdor) esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo`ladi. Tadbirkorlik shartnomasi bo`yicha majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun yoki shartnomaning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Agar qonun hujjatlarida yoki tadbirkorlik shartnomasida majburiyatning bajarish joyi ko`rsatilmagan bo`lsa va majburiyatning mohiyatidan yoki ish muomalasi odatlaridan anglashilmasa, umumiy qoidaga ko`ra majburiyat - qarzdorning yashash joyida, agar qarzdor yuridik shaxs bo`lsa, uning joylashgan yerida bajarilishi kerak. Ammo, bu qoidaning bir nechta istisnolari mavjuddir: ko`chmas mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo`yicha mol-mulk turgan joyda; tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo`yicha – tovarni kreditorga yetkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida; qarzdorning tovarni topshirish yuzasidan o`zga majburiyatlari bo`yicha – tovarni tayyorlash va saqlash joyida, basharti majburiyatning kelib chiqishi paytida bu joy kreditorga malum

bo`lgan bo`lsa; pul majburiyatlari bo`yicha-majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo`lsauning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yerida bajariladi. Tadbirkorlik shartnomasida tovarning (ishning, xizmatning) narxi ko`rsatilgan bo`lsa, ikkinchi taraf tovarni (ishni, xizmatni) shartnomada ko`rsatilgan bahoda qabul qilib oladi. Shartnoma tuzilgandan keyin baholarni shartnomada nazarda tutilgan holat va shartlardagina o`zgartirish mumkin.

Tadbirkorlik shartnomasini bajarish usuli - bu unda belgilangan majburiyatlarni bajarish jarayonida taraflar amalga oshiradigan harakatlar majmuidir. Umumiy qoidaga ko`ra, agar majburiyatlarni qismlarga bo`lib bajarish nazarda tutilmagan bo`lsa, bir martada batamom bajarilishi kerak. Shartnoma bo`yicha taraflarning o`zaro majburiyatlari bir vaqtda bajarilishi lozim, agar shartnomada boshqa holatlar ko`rsatilgan bo`lmasa. Shuning uchun taraflar xo`jalik shartnomasini tuzishda vujudga keladigan o`z majburiyatlarini bajarish tartibini aniq va puxta, qonun talablariga muvofiq ravishda belgilashlari shart.

Tadbirkorlik shartnomasini bajarish tartibining ikkinchi bosqichi, ushbu bosqichda shartnoma bo`yicha bajarilgan ishni, ko`rsatilgan xizmatni, yetkazilgan tovarni son va sifat jihatdan tekshirish, shuningdek, bajarish faktini hujjat bilan tasdiqlashdan iborat. Shartnoma bo`yicha bir taraf ikkinchi taraf oldida o`z majburiyatlarini moddiy jihatdan bajarishi, uning o`z majburiyatlarini yuridik jihatdan bajarganligini anglatmaydi. Boshqacha qilib aytganda, birinchi taraf o`z majburiyatlarini bajarganligini tasdiqlovchi hujjat bilan rasmiylashtirgandan keyingina ikkinchi taraf oldidagi ana shu majburiyatlaridan xalos bo`ladi. Demak, shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatni bajarilganligini tasdiqlash uni hujjat bilan rasmiylashtirilishini talab qiladi.

Tadbirkorlik shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilar bo`lishi mumkin: a) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni topshirish-qabul qilib olish dalolatnomasi; b) bank muassasasi tomonidan tasdiqlangan va tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi to`langanligi haqidagi to`lov hujjati; v) transport tashkiloti tomonidan berilgan va tovar uni oluvchi manziliga jo`natilganligi

haqidagi yuk xati; g) tovar sotuvchining omboriga topshirilgani-qabul qilib olingani haqidagi hujjat; d) boshqa hujjatlar va guvohnomalar.

Tovarlar odatda, hisob-faktura, ro`yxat, o`rash yorliqlari, yuk xati va boshqa kuzatuv hujjatlari bo`yicha soniga qarab qabul qilib olinadi. Tovarni qabul qilib oluvchi taraf yuk tashish paytida tovarni saqlash qanday taminlanganligi (plomba va idishlar buzilmaganligi, marka belgisi mavjudligi va h.k) ni tekshirib ko`radi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni sifatiga qarab qabul qilish yetkazib berilgan tovar (bajarilgan ishlar yoki ko`rsatilgan xizmatlar) ning sifatini tasdiqlovchi hujjatlar – texnik pasport, sertifikat, sifat haqida guvohnoma va boshqa hujjatlar bo`yicha amalga oshiriladi.

Tovarni soni va sifati haqidagi qabul qilish hujjati tovar yetkazib beruvchiga nisbatan tegishli etirozlar bildirish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Tovarlarini soni va sifati bo`yicha qabul qilish qoidalarini buzilishi esa bildirilgan talabnoma va davolarni rad qilinishiga olib keladi. Tadbirkorlik shartnomalari bo`yicha majburiyatlar bajarilganligini rasmiylashtirishning yana bir usuli – ayni bir taraflarning bir-biriga bog`lovchi ikki yoki bir necha majburiyatlarni bajarish shakli bo`lgan o`zaro talablarni hisobga o`tkazishdir. Bunda bir tarafning ta-lablarini qanoatlantirish boshqa majburiyatdan kelib chiquvchi qarshi taraf talablarini bajarish yo`li bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi shartlarga rioya qilinganda o`zaro talablarni hisobga o`tkazish mumkin bo`ladi: a) har ikki tarafning bir-biriga nisbatan talablari bo`lishi; b) talablar bir-biriga o`xshash bo`lishi; v) majburiyatlarni bajarish muddati kelgan bo`lishi lozim. Hisobga o`tkazish taraflarning kelishuviga muvofiq bayonnoma yoki ikki taraf o`rtasida tuziladigan boshqa hujjat yohud taraflardan birining arizasi shaklida rasmiylashtirilishi mumkin.

#### **4-§. Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan taminlanishini tashkil etish va nazorat qilish.**

Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan taminlanishini tashkil etish O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi

to'g'risida"gi 1998 yil 29 avgustdagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-iyundagi PQ-5168-son Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14-sentyabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'risida" gi farmoni, va boshqa normativ hujjatlar shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan taminlanishini tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik shartnomasi subyektlariga huquqiy xizmat ko'rsatish ularning yuridik xizmatlari yoki shu maqsadda shartnoma asosida jalb etilgan advokatlar tomonidan amalga oshiriladi.

**Yuqoridagi qonunga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati vakolatiga:**

❖ tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

❖ tadbirkorlik shartnomalari bajarilishi ustidan o'zaro tekshiruvlar o'tkazilishini nazorat qiladi;

❖ tadbirkorlik yurituvchi subyekt rahbariga imzolash uchun taqdim etilayotgan tadbirkorlik shartnomalari loyihalarining va ular bilan bog'liq huquqiy tUSDagi boshqa hujjatlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshiradi;

❖ tayyorlangan tadbirkorlik shartnomasi va u bilan bog'liq huquqiy tUSDagi boshqa hujjat loyihasi qonun hujjatlari talablariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, o'z etirozini asoslagan holda uni qo'shimcha ravishda ishlab chiqish uchun qaytaradi;

❖ shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etish kabi vakolatlar kiradi.

Tadbirkorlik shartnomalari ularni imzolash uchun tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshiruv o'tkazilib, tuzilayotgan xar bir shartnoma ular tomonidan imzolanishi kerak.

Qonun hujjatlariga ko'ra tuzilayotgan shartnoma, eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo'jalik shartnomalari



yuridik xizmatning yoki advokatning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Shartnomaning xulosa qismida quyidagilar ko`rsatilishi lozim:

✓ tadbirkorlik shartnomasida ko`rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;

✓ tadbirkorlik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;

✓ taraflarning javobgarligi meyor va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

Tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish, shuningdek shartnoma tuzish erkinligi prinsipiga rioya qilinishni taminlash maqsadida amaldagi qonunlar bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tadbirkorlik shartnomalarini tuzish hamda bajarish jarayonidagi vakolatlari aniq belgilab qo`yilgan.

Masalan, mahalliy davlat qokimiyati organlari o`z vakolatlari doirasida: davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko`rsatish shartnomalarini, shuningdek kontraktasiya shartnomalarini tuzish va bajarish ishlarini muvofiqlashtirib boradi; tadbirkorlik yurituvchi subyektlar o`rtasidagi shartnoma munosabatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish chora-tadbirlarini ko`rishlari shart.

Davlat boshqaruv organlari xususan, adliya organlari o`z vakolatlari doirasida, tadbirkorlik shartnomalarini tuzishda yordam ko`rsatishi va tadbirkorlik shartnomalari hamda ularni bajarishning ahvoli to`g`risidagi statistika malumotlarini umumlashtiradi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tadbirkorlik shartnomalarining bajarilish jarayonini nazorat qiladi, tadbirkorlik subyektlari yuridik xizmatlarining ishini tashkil etishga, yuridik maslahatchilarning malakasini oshirishga ko`maklashadi, tadbirkorlik shartnomasini tuzish, bajarish, o`zgartirish va bekor qilish jarayonida qonun hujjatlarining buzilishiga yo`l qo`yilganligi fakti aniqlangan taqdirda, aybdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo`yadi.

Demak, adliya idoralari xam tadbirkorlik shartnomalarini bajarilishi jarayonlarini nazorat qilish vakolatiga ega.

Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, bajarish, o`zgartirish va bekor qilishga qaratilgan qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni qonunlarga muvofiq prokuratura organlari amalga oshiradilar. Bu organlar aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish, tadbirkorlik yurituvchi subyektga yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko`radilar.

Adliya organlari tadbirkorlik subyektlariga shartnoma majburiyatlarini tuzish va bajarish chog`ida huquqiy yordam ko`rsatadi, shuningdek o`z vakolatlari doirasida tadbirkorlik shartnomalarining bajarilish jarayonini nazorat qiladi.

### **5-§ Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 24-bobida majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik tartib-taomillari belgilangan. Ushbu bobning 324-moddasida qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to`lashi shart. Agar qonunchilikda yoki shartnomada o`zgacha tartib nazarda tutilgan bo`lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo`lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo`lmasa, — da`vo qo`zgatilgan kunda mavjud bo`lgan narxlar e`tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to`lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo`lgan narxlarni e`tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.

Boy berilgan foydani aniqlashda kreditor tomonidan uni olish uchun ko`rilgan choralar va shu maqsadda ko`rilgan tayyorgarliklar hisobga olinadi.

Mavzuni kengroq tushunish uchun FKning 14, 236 - 258, 325 - 339-moddalariga qarash tavsiya etiladi. Qo`shimcha ma`lumotlar uchun esa Oliy xo`jalik sudi Plenumining 28.02.2003 yildagi "O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bogliq normalarini qo`llashning ayrim masalalari to`grisida"gi 110-son qarorining 11bandining ikkinchi xatboshisi.

Agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilangan bo'lsa, zararining neustoyka bilan qoplanmagan qismi to'lanadi. Qonunda yoki shartnomada zararni emas, balki faqat neustoykani undirib olishga yo'l qo'yiladigan; zarar ham neustoykadan tashqari to'la hajmda undirib olinishi mumkin bo'lgan; kreditorning tanloviga ko'ra yoki neustoyka yoxud zarar undirib olinishi mumkin bo'lgan hollar belgilanishi mumkin. Ushbu tartib qoidalar FK-325-moddasida va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'grisida"gi Qonunining 34-moddalarida mustaxkamlangan.

Agar to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibliigi ko'rinib tursa, sud neustoykani kamaytirishga haqli. Bunda qarzdor majburiyatni qay darajada bajarganligi, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarning mulkiy ahvoli, shuningdek kreditorning manfaatlari e'tiborga olinishi kerak.

Sud alohida hollarda qarzdor va kreditorning manfaatlarini hisobga olib, kreditorga to'lanishi lozim bo'lgan neustoykani kamaytirish huquqiga ega. *FKning 326-moddasi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 15.06.2007 yil 15 iyundagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'grisidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 163-son qarorining 4-bandi.*

Pul majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlik - boshqa shaxslarning pul mablaglarini gayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to'lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamgarish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablaglar summasiga foiz to'lanishi kerak.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi. Qarz sud tartibida undirib olinganida sud kreditorning talabini da'vo qo'zgatilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab qondirishi mumkin. Ushbu

qoidalar qonunda yoki shartnomada boshqa foiz miqdori belgilangan bo‘lmasa qo‘llaniladi.

Kreditorning pul mablaglaridan qonunsiz foydalanish tufayli unga yetkazilgan zarar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga asosan unga tegishi kerak bo‘lgan foizlar summasidan oshib ketsa, kreditor qarzdordan zararining bu summadan ortiqcha bo‘lgan qismini to‘lashni talab qilishga haqli. *FKning 327moddasi shuningdek, FKning 236 — 258, 324 — 326, 328 — 339, 785, 1023moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999 yildagi “Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘grisida”gi 16-son qarorining 22-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 15.06.2007 yil 15 iyundagi “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘grisidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 163-son qarorining 4-bandining ikkinchi xatboshisi, 5 — 11-bandlari, 12-bandining ikkinchi xatboshisi, 13-bandi, 18-bandining ikkinchi xatboshisi.*

### **Majburiyatning qarzdor hisobidan bajarilishi.**

Qarzdor ashyoni tayyorlash va kreditorga mulk qilib, xo‘jalik yuritishga yoki operativ boshqarishga topshirish yoxud ashyoni foydalanish uchun kreditorga berish yoxud uning uchun muayyan ishni bajarish yoki unga xizmat ko‘rsatish majburiyatini bajarmagan taqdirda kreditor, agar qonunchilikdan, shartnomadan yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, uchinchi shaxslarga majburiyatni oqilona muddatda oqilona baholarda ijro etishni topshirishga yoinki uni o‘z kuchlari bilan bajarishga hamda qarzdordan qilingan zarur xarajatlarni va boshqa zararni to‘lashni talab qilishga haqli. FK 328-modda.

Shartnoma majburiyatini bajarmaganlik uchun shartnoma taraflariga subsidiar javobgarlik belgilangan. Unga ko‘ra, qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo‘shimcha ravishda javobgar bo‘lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo‘yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo‘yishi kerak. FK 329-modda.

Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo‘yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo‘lsa, bu talab subsidiar javobgar bo‘lgan shaxsga qo‘yilishi mumkin.

Kreditor asosiy qarzdorga bo‘lgan o‘z talabini qondirishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, bosharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o‘tkazish yoki mablaglarni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo‘li bilan qondirilishi mumkin bo‘lsa.

Subsidiar javobgar shaxs o‘ziga kreditor tomonidan qo‘yilgan talabni qondirishdan oldin bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirishi, bordi-yu bunday shaxsga nisbatan da’vo qo‘zgatilgan bo‘lsa — asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilishi kerak. Aks holda asosiy qarzdor o‘zining kreditorga qarshi e’tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo‘yish huquqiga ega.

Javobgarlik va majburiyatni asl holida bajarish - xususan, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyat lozim darajada bajarilmagan taqdirda neustoyka to‘lash va zararni qoplash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

Basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyat bajarilmagan taqdirda zararni qoplash va uning bajarilmaganligi uchun neustoyka to‘lash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qiladi. FK.330-modda.

Kechiktirib yuborish oqibatida o‘zi uchun ahamiyatini yo‘qotgan (ushbu Kodeks 337-moddasining ikkinchi qismi) ijroni kreditorning qabul qilishdan bosh tortishi, shuningdek voz kechish haqi tarzida belgilangan neustoykani to‘lash (ushbu Kodeksning 342-moddasi) qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qiladi. Shuningdek Kodeksning 236 — 258, 324 — 329, 331 — 339, 436-moddalari,

O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘grisida” gi Qonuni 34-moddasining uchinchi qismi.

Xususiy belgili ashyoni topshirish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari-xususiy belgili ashyoni kreditorning mulki qilib, uning xo‘jalik yuritishiga, operativ boshqaruviga yoki foydalanishiga topshirish majburiyati bajarilmagan taqdirda kreditor bu ashyoni olib qo‘yishni va

majburiyatda nazarda tutilgan shartlar asosida o'ziga topshirishni talab qilishga haqli. Bu huquq ashyo bir xil huquqqa ega bo'lgan uchinchi shaxsga topshirilgan bo'lsa, bekor bo'ladi. Agar ashyo hali topshirilmagan bo'lsa, vaziyat qaysi kreditorning foydasiga oldinroq vujudga kelgan bo'lsa, o'sha kreditor ustunlikka ega bo'ladi, basharti buni aniqlash mumkin bo'lmasa, oldin da'vo qo'zgatgan kreditor ustunlikka ega bo'ladi.

Kreditor majburiyat narsasi bo'lgan ashyoni o'ziga topshirishni talab qilish o'rniga, zararning qoplanishini talab qilishga haqli. 331-modda.

Majburiyatlar bo'yicha javobgarlik hajmini cheklash, majburiyatlarning ayrim turlari bo'yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bogliq majburiyatlar bo'yicha qonunda zararni to'la qoplashga bo'lgan huquq cheklab qo'yilishi mumkin (cheklangan javobgarlik).

Qo'shilish shartnomasi yoki kreditor iste'molchi sifatida ish olib boruvchi fuqaro bo'lgan boshqa shartnoma bo'yicha qarzdorning javobgarlik hajmini cheklash to'grisidagi kelishuv haqiqiy emas, basharti majburiyatlarning ushbu turi yoki ushbu tartibbuzarlik uchun javobgarlik hajmi qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa va agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni keltirib chiqaradigan vaziyatlar yuz berguncha kelishuvga erishilgan bo'lsa. FK. 332-modda.

Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi. Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bogliq bo'lgan hamma choralarni ko'rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi. 333modda.

Fuqarolik kodeksining 334-moddasida, shartnoma taraflarining agarda aybi bo'lmasa, bunday xolatda majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanish tartib-taomili mustaxkamlangan. Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga

engib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo‘lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo‘ladi. Qarzdorning shartlashuvchi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo‘qligi, qarzdorda zarur pul mablaglarining bo‘lmaganligi bunday vaziyatlar jumlasiga kirmaydi.

Majburiyatni qasddan buzganlik uchun javobgarlikni bartaraf qilish yoki cheklash to‘grisidagi avvaldan kelishilgan bitim u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas. *FKning 14, 116, 236 - 258, 324 - 332, 334 - 339-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 04.03.2002 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘grisida»gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 103-son qarori 11-bandining birinchi xatboshisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 15.06.2007 yildagi “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘grisidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 163-son qarori 12-bandining ikkinchi xatboshisi.*

Uchinchi shaxslarning harakatlari uchun qarzdorning javobgarligi, basharti, qonunchilik yoki shartnomada bevosita ijrochi bo‘lgan uchinchi shaxsning javobgarligi belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javob beradi. 334-modda.

Kreditorning aybi - agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmashligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli etkazilgan zarar miqdorining ko‘payishiga ko‘maklashgan bo‘lsa, shuningdek kreditor majburiyatni bajarmaslikdan etkazilgan zararni kamaytirish choralarini qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko‘rmagan bo‘lsa, sud ishning holatlariga qarab to‘lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to‘lashni batamom rad etishga haqli. 335-modda.

Ikki taraflama shartnomani bajarmaslik oqibatlari - agar ikki taraflama shartnomada bir taraf o'zi javobgar bo'lgan vaziyat tufayli uni bajarishi mumkin bo'lmay qolsa, ikkinchi taraf, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnomadan voz kechishga va shartnomaning bajarilmasligi tufayli etkazilgan zararni undirib olishga haqli. FK.336-modda.

Ijroning qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirib yuborilishi - ijroni kechiktirib yuborgan qarzdor kechiktirib yuborish tufayli etkazilgan zarar uchun va kechiktirib yuborish davrida tasodifan ijroni bajarish mumkin bo'lmasligi vujudga kelganligi uchun kreditor oldida javob beradi.

Agar qarzdor ijroni kechiktirib yuborganligi tufayli kreditor uchun uning ahamiyati qolmagan bo'lsa, u ijroni qabul qilishdan bosh tortishi va zararni to'lashni talab qilishi mumkin.

Agar kreditor qarzdor tomonidan taklif qilingan lozim darajadagi ijroni qabul qilishdan bosh tortgan bo'lsa yoki o'zi amalga oshirishi kerak bo'lgan va amalga oshirilgunicha qarzdor o'z majburiyatini bajara olmagan harakatlarni qilgan bo'lmasa, kreditor muddatni kechiktirib yuborgan hisoblanadi. FK.337-modda.

Kreditorning ijroni kechiktirib yuborish oqibatlari, kreditorning hartnoma bo'yicha o'ziga tegishli narsani qabul qilishni kechiktirib yuborishi qarzdorga kechiktirib yuborish tufayli etkazilgan zararni undirib olish huquqini beradi va keyinchalik majburiyatni ijro etish mumkin bo'lmay qolsa, uni javobgarlikdan ozod qiladi, qarzdorning qasddan ish tutishi yoki qo'pol ehtiyotsizlik qilish hollari bundan mustasno. FK.338-modda.

Pul majburiyati bo'yicha kreditor ijroni kechiktirib yuborgan vaqt uchun qarzdor foiz to'lashga majbur emas. *Qo'shimcha ma'lumot uchun Oliy xo'jalik sudi Plenumining 15.06.2007 yildagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'grisidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida" gi 163-son qarori 17-bandiga qarash tavsiya etiladi.*



Shuningdek, FKning 339-moddasida, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmagan tarafga ya'ni ijroning kechiktirib yuborilganligi uchun kreditorni javobgarlikdan ozod qilish tartib qoidalari belgilangan.

Agar kreditor ijroning kechiktirib yuborilishi qonunga muvofiq yoki kreditorning topshirigi bilan ijroni qabul qilish vazifasi yuklatilgan shaxslar qasddan ish tutganligi yoki ehtiyotsizligi tufayli kelib chiqqanligini isbotlasa, u ijroning kechiktirib yuborilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1. Tadbirkorlik shartnomasi tushunchasi, subyektlari va ahamiyati.
2. Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish
3. Tadbirkorlik shartnomalarini bajarishni ta'minlash usullarini sanab bering.
4. Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan taminlanishini tashkil etish.
5. Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish va bajarishni nazorat qilish
6. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

### ***Bobni o'zlashtirish uchun testlar***

1. *“bozor munosabatlarini shartnoma majburiyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmashligini yodda tutish lozim” degan fikr kim tomondan igari surilgan?*

A. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan.

B. Akademik X. Raxmonqulov tomonidan.

S. Professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist I. Zokirov tomonidan. D. Professor R.J. Ro'ziev tomonidan.

2. *I.B. Zokirovning fikricha, shartnomalar erkinligi tamoyilini quyidagi qaysi holatlarni ajratib kursatish orqali tushunish mumkin?*

A. subyektning shartnoma bo'yicha o'z kontragenti, ya'ni shartnoma

bo'yicha sherigini tanlash erkinligi; shartnoma predmetini, ya'ni aynan qanday holat yuzasidan shartnoma tuzishni tanlash erkinligi; shartnoma shartlarini tanlash erkinligi.

*B. subyektning shartnoma bo'yicha o'z kontragenti, ya'ni shartnoma bo'yicha sherigini tanlash erkinligi; shartnoma predmetini, ya'ni aynan qanday holat yuzasidan shartnoma tuzishni tanlash erkinligi; shartnoma majburiyatini tanlash erkinligi.*

*S. subyektning shartnoma bo'yicha o'z kontragenti, ya'ni shartnoma bo'yicha sherigini tanlash erkinligi; shartnoma predmetini, ya'ni aynan bir turdagi holat yuzasidan shartnoma tuzishni tanlash erkinligi; shartnoma shartlarini tanlash erkinligi.*

*D. subyektning shartnoma bo'yicha o'z manfaatini, ya'ni shartnoma bo'yicha sherigini tanlash erkinligi; shartnoma predmetini, ya'ni aynan qanday holat yuzasidan shartnoma tuzishni tanlash erkinligi; shartnoma shartlarini tanlash erkinligi.*

*3. Quyidagi Pul mablag'lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaslik, to'lov intizomini buzganlik, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarni bankrotlik darajasigacha olib kelganlik uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbarlarini va boshqa xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod etishga qadar bo'lgan intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga taqdimnomalar kiritish huquqi berilgan.*

*A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 4 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.*

*B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 5 martdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.*

*S. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 2-maydagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.*

*D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 29 avgustdagi Farmoniga muvofiq iqtisodiy sudlariga berildi.*

*4. Quyidagi to'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasi taqdim etmaganlik, chekni*

*bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o`zi to`lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning necha foizi miqdorida jarima to`laydi.*

A. 15 foizi miqdorida jarima to`laydi.

B. 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to`lov summasining 50 foizidan ortiq bo`lmagan miqdorda penya to`laydi. S. 20 foizi miqdorida jarima to`laydi.

D. hisob varaqdan mablag`larni asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarilgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to`laydi.

5. *Quyidagi to`lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to`lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to`lov topshiriqnomasi taqdim etmaganlik, chekni bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o`zi to`lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning necha foizi miqdorida jarima to`laydi.*

A. 15 foizi miqdorida jarima to`laydi.

B. 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to`lov summasining 50 foizidan ortiq bo`lmagan miqdorda penya to`laydi. S. 20 foizi miqdorida jarima to`laydi.

D. *Hisob varaqdan mablag`larni asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarilgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to`laydi.*

## **9.BOB. TADBIRKORLIK SOXASIDA VUJUDGA KELADIGAN NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

1. Tadbirkorlik nizolari tushunchasi va uning kelib chiqish asoslari.
2. Tadbirkorlik nizolarini hal qilishning alternativ usullari.
3. Tadbirkorlik nizolarini xal etishning sud taribi va sud hujjatlarini qayta ko`rish.
4. Iqtisodiy sud hujjatlarining ijrosi.
5. Xo`jalik yurituvchi subyektlarning ishchanlik obro`sini himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari.

*Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar*

*Bobni o`zlashtirish uchun testlar*

### **1-§. Tadbirkorlik nizolari tushunchasi, turlari va ularning kelib chiqish asoslari**

Tadbirkorlik nizolari deganda, har qanday yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan jismoniy shaxslarning huquqlari yoxud qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarining buzilishi natijasida ular o`rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar tushiniladi.

Bu nizolar-iqtisodiyot sohasidagi yuridik shaxslar, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar o`rtasidagi fuqaroviy, mamuriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi.

#### **Tadbirkorlik nizolarini quyidagi turlarga bo`lish mumkin:**

- qonunda nazarda tutilgan tartibda shartnoma yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar yoki shartnoma yuzasidan kelib chiqqan bo`lib, hal etish uchun iqtisodiy sudga topshirish haqida taraflar o`zaro kelishgan ixtiloflar;
- shartnoma shartlarini o`zgartirish yoki shartnomani bekor qilish haqidagi nizolar; mulk huquqini tan olish to`g`risidagi nizolar;

- majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi to`g`risidagi nizolar;
- mulkdor yoki mulkning boshqa qonuniy egasi tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish to`g`risidagi nizolar;
- mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog`liq bo`lmagan holda buzilganligi to`g`risidagi nizolar;
- yetkazilgan zararni qoplash to`g`risidagi nizolar.
  - Bu turdagi nizolar davlat organlari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining g`ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi)dan;
  - davlat organi yoki fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo`lmagan hujjat chiqarilishi natijasida yetkazilgan zarar bilan bog`liq holatlardan;
  - sha`n, qadr-qimmat va ishchanlik obro`sini himoya qilish to`g`risidagi nizolar; davlat organlari va fuqarolar o`zini-o`zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga muvofiq bo`lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas deb topish to`g`risidagi nizolar;
  - undirish so`zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatini yoki boshqa hujjatni ijro etilishi mumkin emas deb topish to`g`risidagi nizolar;
  - davlat ro`yxatiga olishni rad etganlik yoki belgilangan muddatda davlat ro`yxatiga olishdan bosh tortganlik ustidan berilgan shikoyatlar bilan bog`liq nizolar;
  - agar qonunda so`zsiz (akseptsiz) tartibda jarima undirilishi nazarda tutilmagan bo`lsa, tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolardan jarimalar undirish to`g`risidagi nizolar;
  - tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonun hujjatlarining talablarini buzgan holda so`zsiz (akseptsiz) tartibda

hisobdan chiqarilgan pul mablag`larini budjetdan qaytarish to`g`risidagi nizolardan iborat bo`lishi mumkin.

## **2-§. Tadbirkorlik nizolarini hal qilishning alternative usullari**

Nizolarni hal qilishning muqobil usuli (mediatsiya). O`zbekiston va xorijiy tajriba Qadimdan biron-bir oila, urug`, mahallada nizo kelib chiqadigan bo`lsa, o`sha urug` yoki mahallaning yoshi ulug`, barcha hurmat qiladigan a`zolari nizolashayotgan taraflarni insofga chaqirib, ularning orasini isloh qilishga, nizoni tinch yo`l bilan bartaraf etishga harakat qilishgan va bu amaliyot hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

Bundan mediatsiya tartib-taomillari mamlakatimiz aholisi uchun mutlaqo yangi tushuncha emasligini bilib olish qiyin emas. Biroq, nizolarni hal qilishda mediatsiyani qo`llashning huquqiy asosini yaratish vazifasi yaqin yillargacha o`z yechimini topmadi. 2018-yil 12-iyunda O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan "Mediatsiya to`g`risida"gi Qonun qabul qilindi va Senat tomonidan shu yilning 28-iyun kuni ma`qullandi. Mazkur Qonun 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. O`zbekiston Respublikasida mediatsiyani qo`llash doirasi "Mediatsiya to`g`risida"gi Qonun bilan aniq belgilab qo`yilgan. Qonunning 3-moddasiga ko`ra, quyidagilarga nisbatan mediatsiya tartib-taomillari qo`llaniladi:

- fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog`liq kelib chiqadigan nizolarga;
- yakka mehnat nizolariga;
- oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga.

Mediatsiya nizolarni hal qilishning boshqa usullari, xususan nizolarni sud tartibida hal qilishdan o`zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. **Birinchi**dan, nizolarni mediatsiya vositasida hal qilish sud tartibiga nisbatan ancha qisqa muddatlarda amalga oshiriladi. Nizolarni sud tartibida ko`rib chiqish uchun ketadigan muddatning ko`pligi muammosi faqatgina O`zbekiston uchun tegishli emas. Misol uchun, Italiyada quyi turuvchi sudlarda ishni ko`rib chiqish uchun o`rtacha 3 yil kerak bo`ladi. Agar sud qarori ustidan shikoyat qilinsa, bu muddat 10

yilga choʻziladi. Buyuk Britaniyada 73% daʼvogarlar Angliya sud tizimining urfdan qolganligi hamda samarasizligidan shikoyat qilishadi. London shahridagi sudlar tomonidan ishni koʻrib chiqish uchun kamida 161 hafta, shahar tashqarisidagi sudlar tomonidan esa 195 hafta talab etiladi. “Mediatsiya toʻgʻrisida”gi Qonunning 23-moddasida mediator va taraflar mediatsiya tartib-taomili oʻttiz kundan ortiq boʻlmagan muddatda tugallanishi uchun barcha mumkin boʻlgan choralarni koʻrishi kerakligi, zarur boʻlgan taqdirda, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati taraflarning oʻzaro roziligi bilan oʻttiz kungacha uzaytirilishi mumkinligi belgilangan. Ushbu moddada mediatsiyani amalga oshirishning eng uzoq muddatlari belgilangan. Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, aksariyat hollarda mediatsiyani amalga oshirish muddati bir ish kunini, baʼzan bir necha soatlarni tashkil etadi. Xususan, 2018-yil 30-noyabrda holatiga koʻra, Singapur mediatsiya markazida tomonlar oʻrtasida mediativ kelishuv tuzilishi bilan yakunlangan ishlarning 90%dan ortigʻi bir ish kunida hal qilingan.

**Ikkinchidan,** mediatsiya tartib-taomillari qoʻllanilganda ishga taalluqli barcha maʼlumotlar mutlaqo sir tutiladi. Oʻrtadagi nizo va unga oid faktlardan faqatgina taraflar va ularning vakillari hamda mediator xabardor boʻlishi mumkin va ularga qonun bilan bu axborotlarni oshkor qilmaslik majburiyati yuklatiladi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi “Mediatsiya toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-moddasida mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida oʻzlariga maʼlum boʻlib qolgan maʼlumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining yoki vakilining yozma roziligisiz oshkor qilishga haqli emasligi, mediatsiya ishtirokchilari oʻzlariga mediatsiya jarayonida maʼlum boʻlib qolgan holatlar haqida guvoh sifatida soʻroq qilinishi mumkin emasligi, shuningdek ulardan mediatsiyaga taalluqli axborotni talab qilib olish mumkin emasligi, 25-moddasida mediatsiyani qoʻllash chogʻida mediator taraflarning roziligisiz nizoning mohiyati boʻyicha oshkora bayonotlar berishga haqli emasligi, 27-moddasida agar mediator taraflarning biridan mediatsiyaga taalluqli axborotni olgan boʻlsa, u bu axborotni faqat uni taqdim etgan tarafning roziligi bilan boshqa tarafga oshkor qilishi mumkinligi belgilangan. Maxfiylik prinsipi ayniqsa oilaviy

nizolar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarda muhim ahamiyatga ega. Chunki, biron-bir tadbirkorlik subyekting boshqa bir tadbirkorlik subyekti yoxud mijoz bilan nizolashayotganligining oshkor bo‘lishi ushbu tadbirkorlik subyekting ishchanlik obro‘sigga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, potensial mijozlar hamda hamkorlarning unga bo‘lgan ishonchi yo‘qolishi, u bilan shartnomaviy munosabatga kirishishdan o‘zlarini tiyishiga olib kelishi mumkin. Nizoni mediatsiya usulida hal qilish bunday salbiy oqibatlardan ishonchli himoya bo‘lib xizmat qiladi.

**Uchinchi**dan, mediatsiya vositasida hal qilinadigan nizolarda har ikkala taraf uchun ham maqbul kelishuvga erishiladi. Sud tartibida ko‘riladigan nizolar bo‘yicha bir taraf foydasiga chiqarilgan qaror ikkinchi tarafning ziyoniga xizmat qiladi. Natijada bir ishni ko‘rish appelyatsiya, kassatsiya, nazorat tartiblari bilan oylab, hatto yillab cho‘zilib ketishi mumkin. Mediatsiyani qo‘llashda taraflar ixtiyoriy ravishda mediativ kelishuv tuzish orqali nizoni hal qilish yo‘llari va usullari, kelishuvda belgilangan majburiyatlarni bajarish muddatlari hamda ushbu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlarini ham belgilab qo‘yishlari mumkin. Xususan, “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo‘yicha taraflar kelib chiqqan nizo yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o‘zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, taraflar o‘rtasida yozma shaklda mediativ kelishuv tuzilishi, mediativ kelishuv uni tuzgan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo‘lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilishi, mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda taraflar o‘z huquqlari himoya qilinishini so‘rab sudga murojaat etishga haqliligi, mediativ kelishuv bajarilmasligining oqibatlari taraflar tomonidan ushbu kelishuvning o‘zida belgilab qo‘yilishi mumkinligi belgilangan.

Nizolarni hal qilishda mediatsiyani qo‘llashning keng yoyilishi sudlar uchun ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Ish hajmining noreal darajada ko‘pligi barcha davlatlar sudlari uchun umumiy muammo hisoblanadi. Jumladan, Hindistonda har bir sudyaga 2147ta ish to‘g‘ri keladi. Ko‘rib



chiqilishi kerak bo'lgan ishlarning umumiy soni 31,280,000tani tashkil etadi. Bu ishlarning Hindiston sudlari tomonidan ko'rib chiqilishi 2330-yilga kelib tugallanishi mumkin. Xitoy xalq respublikasida 2012-yilda sudlar ish yurituvda 200 000dan ortiq ish mavjud edi. Janubiy Afrikada 2004-2005-yillar davomida sudlarga 128 000ta da'vo arizasi kelib tushgan va shulardan 62%i o'sha davr oralig'ida hal qilingan. Germaniyada esa, 4771 nafar quyi turuvchi sudyalardan tomonidan ko'rilgan ishlar bor yo'g'i 1416 nafar yuqori turuvchi sudyalardan tomonidan appelyatsiya tartibida ko'rib chiqiladi. Nizolarni mediatsiya vositasida hal qilish sudlar ish hajmining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Buni xalqaro tajriba ham isbotlaydi. Xususan, Dehli va Bangalor mediatsiya markazlari tashkil etilgan paytda ikki oy davomida 39 969ta ishni, Dubay mediatsiya markazi esa, bir oy davomida sudlar ish yurituvda bo'lgan ishlarning 1/3 qismini mediatsiya tartib-taomillarini qo'llagan xolda ko'rib chiqdi. Bundan ko'rinib turibdiki, mediatsiyani qo'llash nafaqat nizolashayotgan taraflar, balki sudlar uchun ham ijobiy ta'sirga ega.

O'zbekiston Respublikasida mediatorning faoliyati professional va noprofessional asosda tashkil etiladi. "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida professional mediator sifatida birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, ikkinchidan, Professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxs faoliyat ko'rsatishi mumkinligi belgilangan. Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini yigirma besh yoshga to'lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan shaxs amalga oshirishi mumkin. Qiyoslash uchun Rossiya Federatsiyasida ham mediatorlik faoliyati professional va noprofessional asosda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasidan farqli o'laroq, Rossiya qonunchiligida har ikki asosda faoliyatni amalga oshiradigan mediatorlar uchun ham yoshga doir talablar belgilangan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida shaxs professional mediator bo'lishi uchun 25 yoshga, noprofessional mediatorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun 18 yoshga to'lgan hamda to'liq muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasida Professional mediatorlar reyestri

hududiy adliya boshqarmalari tomonidan yuritiladi va reyestr hamma uchun ochiq holatda tegishli adliya organlari hamda Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Shaxsni Professional mediatorlar ro'yxatiga kiritish tartibining soddaligi mediatorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bir misolidir. "Professional mediatorlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning (ro'yxat raqami 3092-son, 2018-yil 29-noyabr) 6-bandiga muvofiq maxsus o'quv kursini tugatgan shaxs doimiy yashash joyidagi adliya organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

-Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda Reyestrga kiritish haqidagi ariza;

-pasport nusxasi;

-Nizomning 2-ilovasiga muvofiq to'ldirilgan so'rovnoma;

-maxsus o'quv kursini tugatganligi to'g'risidagi hujjat nusxasi.

Professional mediatorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Reyestrga kiritish uchun to'lov undirilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida mediatsiya xalqaro tajribada sinovdan o'tib, o'zining bir qator afzalliklari bilan dunyo mamlakatlari milliy qonunchiligidan munosib o'rin egallab kelmoqda. Ko'plab davlatlar mediatsiya to'g'risidagi o'zlarining qonunlarini qabul qilishdi va mamlakat doirasida hamda xalqaro miqyosdagi mediatsiya markazlarini tashkil etishdi. Bunga Singapur, Buyuk Britaniya, Hindiston kabi davlatlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu jarayondan O'zbekiston ham chetda qolmadi. Xususan, 2018-yil 12-iyunda "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2019-yil 31-yanvarda Adliya vazirining 54-mh-son Buyrug'i bilan tasdiqlangan "Mediatorlarni tayyorlash dasturi" doirasida professional mediatorlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Mediatsiya O'zbekiston qonunchiligida yangi institutlardan ekanligini hisobga olgan xolda ushbu institutni yana-da rivojlantirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar mavjuddir.

Tadbirkorlik nizolarini hal qiluvchi navbatdagi organ O'zbekiston respublikasining iqtisodiy sudi tashkil qiladi. Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib hal qilinadigan ishlar ro'yxati O'zR Iqtisodiy prosessual kodeksida

keltirilgan. Unga ko'ra, tuzilishi majburiyligi qonunda nazarda tutilgan shartnomani tuzishda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar to'risidagi; shartnoma taraflari tomonidan ko'rib chiqilishi sudga o'tkazilishi kelishilgan shartnomani tuzishda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqidagi; shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'risidagi; bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi; majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi to'risidagi; mulk huquqini tan olish haqidagi; mulkdor yoki mulkning boshqa qonuniy egasi tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsning ayriqonuniy egaligidan talab qilib olish to'risidagi; intellektual faoliyat obyektlari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga mulkiy huquqlari buzilganligi haqidagi; mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bogliq bo'lmagan holda buzilganligi to'risidagi; zararining o'rnini qoplash haqidagi; ishchanlik obro'sini himoya qilish to'risidagi; undirish so'zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatini yoki boshqa hujjatni ijro etish mumkin emas deb topish haqidagi; agar qonunda jarimalarni so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirish nazarda tutilmagan bo'lsa, nazorat qiluvchi organlar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolardan jarimalar undirish to'risidagi xamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonun hujjatlari talablarini buzgan holda so'zsiz (akseptsiz) tartibda hisobdan chiqarilgan pul mablaglarini budjetdan qaytarish kabi nizolarni hal etish belgilangan.

Xo'jalik tadbirkorlik nizolarni hal qilishning navbatdagi turi hakamlik sudlarida hal qilish hisoblanadi. Mazkur tartib-taomillar ushbu kodeksning 29 moddasida o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqib, yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hamda iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan, iqtisodiy sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar hakamlik sudiga ko'rish uchun topshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10-moddasida fuqarolik huquqlarini himoya qiluvchi organlar sifatida hakamlik sudlari ham ko'rsatilgan bo'lib, bu tadbirkorlik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo'riqlashning turli-tuman shakllari

ichida muhim o`rin tutadi. O`zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to`g`risida”gi qonuni qabul qilinishi bilan hakamlik sudi (doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi) - fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o`rtasida vujudga keluvchi tadbirkorlik nizolarini hal etuvchi nodavlat organi sifatida tan olindi.

Hakamlik sudlari orqali tadbirkorlik nizolarini hal etish fuqarolik huquqlarini qo`riqlashning nodavlat mexanizmi bo`lib, bu tarzda nizolarni hal etishning qator afzalliklari mavjud. Bu afzalliklar avvalo shunda namoyon bo`ladiki, birinchidan, nizo tez ko`rilsa, ikkinchidan, kam xarajatli bo`ladi, yani davlat boji yoki boshqa sud xarajatlari davlat tomonidan o`rnatilgan tartibda va miqdorda to`lanishi talab etilmaydi, uchinchidan, nizo malum ixtisosga va malakaga ega bo`lgan shaxslar tomonidan ko`rib chiqiladi, to`rtinchidan, nizo o`tkaziladigan joy va vaqt taraflar bilan kelishib belgilanadi, beshinchidan, har bir tarafning o`zi nizoni hal etish uchun hakam tanlaydi va hokazo. Bu kabi afzalliklar tadbirkorlik munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hakamlik sudi tomonidan hal etilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Hakamlik sudi ikki turda, doimiy faoliyat ko`rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudi, yani aniq bir ishni ko`rish uchun hamda doimiy faoliyat ko`rsatish uchun tashkil etilishi mumkin.

**Doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudi** yuridik shaxs tomonidan tashkil etilishi mumkin va uning huzurida faoliyat ko`rsatadi.

Doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudi yuridik shaxs doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudini tashkil etish haqida qaror qabul qilganida, doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudining qoidalarini va hakamlik sudyalari ro`yxatini tasdiqlaganida tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudini tashkil etgan yuridik shaxs uning tashkil etilganligi to`g`risidagi hujjatlar nusxalarini hakamlik sudi joylashgan yerdagi adliya organiga yuboradi.

Doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudi o`z nomi yozilgan blanka va yumaloq muhrga, O`zbekiston Respublikasi hududida hisob-

kitob varaqlari, valuta hisob varaqlariga hamda boshqa bank hisobvaraqlariga ega bo`lishi mumkin.

**Muvaqqat hakamlik sudi** hakamlik bitimi taraflari o`rtasida kelib chiqqan muayyan nizoni hal etish uchun ular tomonidan tashkil etilib, nizo ko`rib chiqilganidan keyin muvaqqat hakamlik sudi o`z faoliyatini tugatadi. Hakamlik sudida raislik qiluvchi (nizo hayatda ko`rib chiqilayotganda) yoxud hakamlik sudyasi (nizo yakka tartibda ko`rib chiqilayotganda) hakamlik bitimi nusxasini va muvaqqat hakamlik sudi tashkil etilganligi to`g`risidagi xabarnomani mazkur sud joylashgan yerdagi adliya organiga hakamlik muhokamasi boshlanguniga qadar yuboradi.

Demak, hakamlik sudlari fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o`rtasida vujudga keluvchi tadbirkorlik nizolarini hal etishligi belgilangan.

Hakamlik sudlari mamuriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shuningdek qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etishga haqli emas. Hakamlik sudi nizolarni O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asosida hal qiladi. Hakamlik sudi shartnoma shartlariga muvofiq va ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda hal qiluv qarorini qabul qiladi.

Agar hakamlik bitimi taraflarining munosabatlari qonun hujjatlari yoki hakamlik bitimi taraflarining kelishuvi bilan to`g`ridan-to`g`ri tartibga solinmagan bo`lsa va bu munosabatlarga nisbatan qo`llaniladigan ish muomalasi odati mavjud bo`lmasa, hakamlik sudi shunga o`xshash munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalarini qo`llaydi (qonun o`xshashligi), mazkur hollarda qonun o`xshashligidan foydalanish imkoniyati bo`lmagan taqdirda esa hakamlik bitimi taraflarining huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarining mazmunidan (huquq o`xshashligi) hamda halollik, oqillik va adolat talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Hakamlik bitimi mavjud bo`lgan taqdirda, nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin. Ushbu sud bitimi yozma shaklda tuziladi. Hakamlik bitimi shartnomaning tarkibiy qismi bo`lgan shartnoma sharti yoki alohida bitim tarzida rasmiylashtirilishi mumkin.

Hakamlik bitimida hakamlik bitimi taraflari o`rtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo`lgan barcha yoxud ayrim nizolar hakamlik sudida ko`rib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida, shuningdek agar nizo doimiy faoliyat ko`rsatuvchi hakamlik sudi hal qiluviga topshiriladigan bo`lsa, mazkur hakamlik sudining nomi ko`rsatilishi lozim.

Yigirma besh yoshdan kichik bo`lmagan, nizoning xolis hal qilinishini taminlashga qodir bo`lgan, nizoning pirovard natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo`lmagan, hakamlik bitimi taraflaridan mustaqil bo`lgan va hakamlik sudyasi majburiyatlarini bajarishga rozilik bergan O`zbekiston Respublikasi fuqarosi hakamlik sudyasi etib saylanishi (tayinlanishi) mumkin.

Nizoni yakka tartibda hal qiluvchi hakamlik sudyasi oliy yuridik malumotga ega bo`lishi kerak. Nizo hayatda hal qilinayotganda hakamlik sudi tarkibining raisi oliy yuridik malumotga ega bo`lishi kerak.

Hakamlik sudi nizo holatlari tekshirilganidan so`ng hakamlik sudi tarkibiga kiruvchi hakamlik sudyalarining ko`pchilik ovozi bilan hal qiluv qarori qabul qiladi.

Hal qiluv qarori hakamlik sudining majlisida e'lon qilinadi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan paytdan etiboran kuchga kiradi.

Agar kelishuv bitimi qonun hujjatlariga zid bo`lmasa hamda boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasa, hakamlik sudi hakamlik muhokamasi taraflarining iltimosnomasiga binoan kelishuv bitimini tasdiqlash to`g`risida hal qiluv qarori qabul qiladi. Kelishuv bitimining mazmuni hakamlik sudining hal qiluv qarorida bayon qilinadi.

Taraflardan biri hakamlik sudining hal qiluv qarorini olganidan so`ng, agar hakamlik muhokamasi taraflari boshqacha shartlashmagan bo`lsalar, hakamlik muhokamasi davomida arz qilingan va ko`rib chiqilgan, ammo qabul qilingan hal qiluv qarorida o`z aksini topmagan davo talablari bo`yicha qo`shimcha hal qiluv qarori qabul qilish to`g`risidagi ariza bilan o`n kun ichida aynan o`sha hakamlik sudiga bu haqda boshqa tarafni xabardor qilgan holda murojaat etishi mumkin. Nizoni hal qilgan hakamlik sudi tarkibi mazkur ariza olingan kundan etiboran o`n kun ichida uni ko`rib chiqishi kerak.

Hakamlik sudi nizoning mazmuniga daxl qilmaydigan masalalar yuzasidan ajrim chiqaradi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori mazkur hal qiluv qarorida belgilangan tartibda va muddatlarda ixtiyoriy ijro etiladi.

Agar hakamlik sudining hal qiluv qarori hakamlik sudining hal qiluv qarorida belgilangan muddatda ixtiyoriy ijro etilmagan bo`lsa, u majburiy ijro etilishi kerak. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga<sup>33</sup> muvofiq, vakolatli sud bergan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

O`Rsi FKning 10-moddasida hakamlik sudi orqali fuqarolik huquqlarini himoya qilish imkoniyati nazarda tutilgan bo`lsa, O`zbekiston Iqtisodiy prosessual kodeksida fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan yoki kelib chiqishi mumkin bo`lgan hamda iqtisodiy sudga taalluqli bo`lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan, tadbirkorlik sudi qaror chiqargunga qadar hakamlik sudiga ko`rish uchun topshirilishi mumkinligi to`g`risida norma mavjud, shuning uchun amaldagi Iqtisodiy prosessual kodeksiga kiritilib, unda tadbirkorlik sudi tomonidan ko`riladigan hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog`liq ishlar doirasi ajratilib, ularga:

1) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to`g`risidagi arizalar bo`yicha ishlar;

2) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish to`g`risidagi arizalar bo`yicha ishlar kiritildi.

Takidlash joizki, O`zbekiston Respublikasi "Hakamlik sudlari to`g`risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan joylarda barcha savdo-sanoat palatalari huzurida va Toshkent shahrida joylashgan huquqiy muammolarni o`rganish Markazi mutaxassisleri Kengashi qarori bilan Markaz huzurida hakamlik sudi tashkil etilgan va uning Reglamenti, hakamlik sudi to`g`risida Nizom, hakamlik yig`imlari va chiqimlari to`g`risidagi Nizom, shuningdek uning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar tasdiqlangan.

---

<sup>33</sup> <https://lex.uz/docs/-26477>

Mazkur hakamlik sudlari Reglamentiga binoan, u fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, tadbirkorlik sudiga taalluqli bo`lgan, taraflarning kelishuvi bilan hakamlar sudi ko`rishiga kelishilgan nizolarni ko`radi. Hakamlik sudlariga yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar murojaat qilish huquqiga egadirlar. Qonunning mavjudligi esa tadbirkorlikni mamlakatimizda yanada rivojlanishini, qolaversa hakamlik sudlarining mustaqilligini taminlaydi.

Doimiy faoliyat ko`rsatadigan hakamlik sudlari O`zbekiston Respublikasining 29.08.2001 yildagi «Birjalar va birja faoliyati to`g`risida»gi qonuniga binoan, birjalar huzurida tuzilishi mumkin. Mazkur modda mazmuniga binoan, birja azolari, birja savdolarining ishtirokchilari va ularning mijozlari o`rtasida birja savdosi qoidalarida nazarda tutilgan masalalar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar birjaning hakamlik komissiyasi yoki sud tomonidan hal qilinadi. Nizolarni ko`rib chiqish uchun hakamlar komissiyasi tomonidan yig`im undirish taqiqlanadi. Ushbu modda birjalar huzurida hakamlik sudlari tashkil etish va ishtirokchilar o`rtasida birja faoliyati yuzasidan vujudga keladigan nizolarni ko`rib chiqib, hal etish imkoniyatini beradi. Qonun hujjatlari bilan bu kabi komissiya yoki hakamlar sudlari vakolatiga birja bitimlarini tuzish bilan bog`liq nizolarni ko`rib chiqish ham berilishi mumkin. Bir narsani takidlash joizki, birjaning hakamlik komissiyalari o`zlariga berilgan bunday vakolatlardan lozim darajada foydalana olmoqdalar, deyish qiyin.

O`zbekiston Respublikasi iqtisodiy prosessual kodeksining 25-moddasi ish nafaqat tadbirkorlik sudi ish yurituviga qabul qilinishidan oldin, balki birinchi instansiya sudi ish yurituvining istagan bosqichida ham, xattoki, qaror qabul qilingunga qadar ham, tomonlar ishni hakamlik sudiga berish to`g`risida bitim tuzishlari mumkinligini nazarda tutadi. Bunda IPKning 88-moddasi 2-bandiga binoan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlik sudiga ko`rish uchun topshirish to`g`risidagi kelishuvi bo`lib, hakamlik sudiga murojaat qilish imkoniyati yo`qolmagan bo`lsa va agar ishning tadbirkorlik sudida ko`rilishiga qarshi bo`lgan javobgar birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni



mazmunan hal etishni hakamlik sudiga topshirish to`g`risida iltimosnoma bilan murojaat qilsa, tadbirkorlik sudi davoni ko`rmasdan qoldiradi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 22 dekabrda qarori bilan mamlakatimiz 1958 yil 10 iyundagi “Xorijiy mamlakatlar hakamlar qarorlarini etirof etish va ijro etish to`g`risida”gi Nyu-York Konvensiyasini ratifikatsiya qildi. Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida “har bir ahdlashuvchi davlat taraflarning arbitraj muhokamasining predmeti bo`lishi mumkin bo`lgan aniq bir shartnomaviy yoki boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan yoxud kelib chiqishi mumkin bo`lgan barcha yoki bazi nizolarni arbitrajga berish majburiyati ko`rsatilgan yozma bitimni tan oladi” deb ko`rsatilgan. Shunday ekan, mazkur Konvensiyaga qo`shilish xorijiy hakamlar qarorlarini O`zbekiston hududida va aksincha, O`zbekiston hakamlar qarorlarini xorijiy mamlakatlar hududida tan olinishiga imkoniyat yaratadi.

### **Tadbirkorlik nizolarini sudsiz hal etish tartibi**

Qonun hujjatlari bilan nizolarni sudsiz hal etish tartibi nazarda tutilishi mumkin. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 297-sonli 2001 yil 12 iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarning xizmat ko`rsa-tuvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish va ularni bajarish tartibi to`g`risida”gi Nizomning “Tomonlarning javobgarligi va nizoli masalalarni hal etish” haqidagi 5-bobi 38-bandida “Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko`ra, mastaqil ravishda yoxud bosh inspeksiya va uning hududiy organlari ishtirokida ushbu kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni sudgacha hal etish choralarini ko`radilar” deb ko`rsatilgan. Tomonlar nizoli masalalarni sudgacha hal etish jarayonida kelishishga erishmagan taqdirda, tadbirkorlik sudiga murojaat qilishga haqlidirlar.

**Nizoni sudgacha hal etish.** Davogarning nizoni sudgacha hal etish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etishi qonun va shartnomada ko`zda tutilgan hollardagina majburiydir. Agarda bu tartib Nizom va qonun hujjatlarida ko`zda tutilgan bo`lsa, qonunda ularning qo`llanilishi haqida bevosita havola etilgan hollardan tashqari, taraflar uchun majburiy hisoblanmaydi. Ushbu qoida O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy

prosessual kodeksining 6-moddasida mustahkamlangan bo`lib, unda, agar qonunda ayrim toifadagi nizolar uchun ularni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi belgilangan yoxud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo`lsa, taraflar o`zaro munosabatlarini ixtiyoriy ravishda hal etish choralari ko`rgandan so`nggina, iqtisodiy sudda ish qo`zg`atish mumkin. Bunda prokuror, davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo`yicha ish qo`zg`atishni taraflar yuqoridagi choralarni ko`rganko`rmaganligidan qatiy nazar amalga oshiradilar.

O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 384-moddasi 2-qismiga muvofiq, shartnomani o`zgartirish va bekor qilish haqidagi talablar bo`yicha nizoni sudgacha hal etish tartibi shartnomaning o`zida ko`rsatilgan bo`lsa, taraflar talabnoma yuborish tartibini saqlagan holda sudda davo qo`llashga haqli bo`ladilar.

Talabnoma tadbirkorlik subyektning rahbari yoki rahbarning o`rinbosari tomonidan imzolanadi. Talabnoma buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek, talabnoma jo`natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda jo`natiladi yoxud tilxat olib topshiriladi.

Takidlash joizki, mazkur qonunning ushbu moddasi tadbirkorlik shartnomasi bo`yicha talabnomalar yuborish bilan bog`liq munosabatlarnigina tartibga soladi. Binobarin, yuklarni tashish va aloqa xizmatlari ko`rsatishga doir operasialardan kelib chiqadigan talabnomalarni transport va aloqa tadbirkorlik yurituvchi subyektlarga bildirish tartibi va muddatlari tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo`yiladi.

Tadbirkorlik shartnomasi bo`yicha o`ziga talabnoma bildirilgan tadbirkorlik yurituvchi subyekt talabnomani olgan kundan boshlab bir oy muddat ichida unga javob qaytarishi shart. Talabnomaga javob tadbirkorlik yurituvchi subyekt rahbari yoki rahbarning o`rinbosari tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi. Talabnomaga javob buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek talabnoma jo`natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini

ogohlantiradigan boshqa vositalardan foydalanilgan holda jo`natiladi yoki tilxat olib topshiriladi.

Talabnoma to`liq yoki qisman tan olingan taqdirda, tadbirkorlik yurituvchi subyekt arz qiluvchiga o`zi tan olgan summani ixtiyoriy ravishda o`tkazadi. Agar talabnomani tan olish to`g`risidagi javobda tan olingan summa o`tkazilishi haqida malumot bo`lmasa, talabnoma bildirilgan taraf javob olganidan so`ng yigirma kun muddat o`tgach, bank muassasiga qarzdor tan olgan summani so`zsiz tartibda o`tkazish to`g`risidagi farmoyishni taqdim etishga haqli. Farmoyishga qarzdorning javobi ilova qilinadi.

### **3-§. Tadbirkorlik nizolarini sud tartibida hal etish va sud hujjatlarini qayta ko`rish**

Yuqorudagi paragraflarda ko`rib chiqqanimizdek, tadbirkorlik soxasida kelib chiqadigan nizolar agar ular o`rtasida o`zaro kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv bo`lmasa nizolar iqtisodiy sudlar tomonidan ko`rib chiqiladi.

Iqtisodiy sud manfaatdor shaxslarning, prokurorning, qonun bo`yicha davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida xo`jalik yurituvchi sub`ektning yoxud davlat organlari va boshqa organlarning arizalariga asosan iqtisodiy sudlarda ish qo`zgatilishi mumkin.

Agar qonunda ayrim toifadagi nizolar uchun ularni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi belgilangan yoxud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo`lsa, taraflar o`zaro munosabatlarini ixtiyoriy ravishda hal qilish choralari ko`rganlaridan so`nggina tadbirkorlik sudida ish qo`zgatish mumkin. Bunda prokuror, davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo`yicha ish qo`zgatish taraflar yuqoridagi choralarni ko`rgan-ko`rmaganliklaridan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

Iqtisodiy sudlarida ishlar oshkora, ochiq, adolatli va qonuniy tartibda ko`rib chiqadi. Davlat sirini yoki tijorat sirini saqlash zarur bo`lgan taqdirda ishni yopiq sud majlisida ko`rishga yo`l qo`yiladi. Ishni yopiq sud majlisida ko`rish to`g`risida sud tomonidan ajrim chiqariladi.

**Taraflarning kelishuvi.** Nizolarni sudda hal etish jarayonida nizo taraflarning kelishuvi bilan ham hal etilishi mumkin. O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy prosessal kodeksining 16-bobida taraflarni yarashtirish tartib-taomillari belgilangan bo`lib, unga ko`ra, sud taraflarning kelishuvi uchun choralar ko`radi, ularga iqtisodiy sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida nizoni hal etishga ko`maklashadi. Shu bilan birga ushbu kodeksda da`vogar va javobgarlarning kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzish tartib taomillari keltirilgan, bunda taraflar nizoni kelishuv bitimini yoki mediativ kelishuvni tuzib hal etishi mumkin. Kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv da`vo tartibidagi har qanday ish bo`yicha tuzilishi mumkin.

Kelishuv bitimi iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida va sud hujjatini ijro etish jarayonida, mediativ kelishuv esa birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar taraflar tomonidan tuzilishi mumkin.

Kelishuv bitimi u sud tomonidan tasdiqlanganidan keyin tuzilgan hisoblanadi. Mazkur Kodeks 49-moddasining oltinchi qismi, 50-moddasining birinchi qismi, 63-moddasining birinchi qismida aniq ifoda etilgan.

Kelishuv bitimining shakli va mazmuni yozma shaklda tuziladi va kelishuv bitimini tuzgan shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanadi. Kelishuv bitimida taraflar tomonidan kelishilgan majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari haqidagi qoidalar ko`rsatilishi kerak.

Taraflar tomonidan kelishuv bitimi shartlari bo`yicha qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishi taraflarni bir-biriga yoki boshqa voqealarga (harakatlarga) bog`liq qilib qo`yishi mumkin emas.

Kelishuv bitimida javobgar tomonidan majburiyatlarni kechiktirib yoki bo`lib-bo`lib ijro etish to`g`risidagi, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish haqidagi, qarzdand to`liq yoki qisman voz kechish yoxud qarzni tan olish to`g`risidagi, sud xarajatlarini taqsimlash

haqidagi shartlar va qonunga zid bo‘lmagan boshqa shartlar ko‘rsatilishi mumkin.

Agar kelishuv bitimida sud xarajatlarini taqsimlash haqidagi shart mavjud bo‘lmasa, sud bu masalani kelishuv bitimini tasdiqlash chog‘ida, ushbu Kodeksda belgilangan umumiy tartibda hal etadi.

Kelishuv bitimi uni tuzgan shaxslar sonidan bitta ortiq nusxada tuziladi va imzolanadi. Ushbu nusxalardan biri ish materiallariga qo‘shib qo‘yiladi.

Iqtisodiy sudlarda birinchi instansiya bo‘yicha ishlar, qoida tariqasida, sudyaning yakka o‘zi tomonidan ko‘riladi. Davo arizasini qabul qilish masalasini sudyaning yakka o‘zi hal qiladi va qonun talablarga rioya etgan holda berilgan davo arizasini tadbirkorlik sudining ish yuritishiga qabul qiladi yoki uni rad etish yoxud davo arizasini qaytarish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Sudya ishni yuritish to‘g‘risida manfaatdor shaxslarni xabardor qiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni bajarishni, shu jumladan nizoni hal qilish uchun ahamiyatli hujjatlar va malumotlarni taqdim etishni taklif etadi. Ushbu bosqichda sudya ishda qatnashuvchi shaxslarga juda xilma-xil harakatlarni bajarishni taklif etishi mumkin. Masalan, hisob-kitoblarni pul talabnomalariga solishtirib chiqish, huquqiy pozisiyani aniqlash yoki belgilash, davo arizasiga javob berish, boshqa tomonga yoki bir-biriga ayrim hujjatlarni berish, ekspertiza o‘tkazilishida tushuntirilishi kerak bo‘lgan masalalarni taqdim etish va boshqalar. U taraflarni murosaga keltirish choralarni ko‘radi. Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash to‘g‘risidagi ajrim chiqarilgan kundan boshlab ish bir oydan ortiq bo‘lmagan muddatda ko‘rilishi va hal qiluv qarori qabul qilinishi kerak. Birinchi instansiya tadbirkorlik sudi nizoni mazmunan hal qilishda hal qiluv qarori qabul qiladi. Iqtisodiy sudning hal qiluv qarori qonuniy va asoslantirilgan bo‘lishi kerak.

Hal qiluv qarori prosessual huquq normalariga to‘liq rioya qilgan holda, moddiy huquq normalariga amal qilib, shu nizoli huquqiy munosabatlarni qo‘llash lozim yoki zarur bo‘lgan holatlarda asosli ravishda qonunni qo‘llash, mos keladigan munosabatlarni tartibga solish,

yohud qonun-chilikning umumiy, bosh va mazmunidan kelib chiqadigan bo`lsa, qonuniy hisoblanadi.

Iqtisodiy sud nizolarni O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek, O`zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalariga asosan hal qiladi. Agar halqaro shartnomada O`zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgandan boshqacha qoida o`rnatilgan bo`lsa, bunday hollarda halqaro shartnoma qoidalari qo`llaniladi.

Iqtisodiy sud O`zbekiston Respublikasi qonuni va halqaro shartnomalariga binoan chet el davlatlarining huquq normalarini qo`llaydi. Hal qiluv qarori qonuniy bo`lishi uchun tadbirkorlik sudi normativ hujjatlardan nizoli munosabatlarni tartibga soluvchi o`sha huquqiy normalarni topishi lozim. Buning uchun tomonlarning faktga asoslangan o`zaro munosabatlarni to`g`ri yuridik baholashi lozim.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori O`zbekiston Respublikasi nomi bilan qabul qilinadi. Iqtisodiy sudning hal qiluv qarori kirish, bayonnoma, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo`ladi. Iqtisodiy sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ijro etiladi. Davlat organlarining, fuqarolar o`zini o`zi boshqarish organlarining hujjatlarini haqiqiy emas deb topish to`g`risidagi hal qiluv qarorlari, shuningdek kelishuv bitimini tasdiqlash to`g`risidagi ajrimlar darhol ijro etiladi.

Iqtisodiy sudlarning hal qiluv qarorlarini qayta ko`rish sudining hal qiluv qarorlari ustidan iqtisodiy protsessual kodeksning 34-bobida belgilangan tartibda apellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibida qayta ko`rilishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlari to`g`risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellatsiya shikoyati berishga haqlidir.

Prokuror, yuqori turuvchi prokuror faqat prokuror ishtirokida ko`rilgan ish bo`yicha, shuningdek taraflarning murojaati mavjud bo`lgan

taqdirda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellatsiya protesti keltirishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellatsiya shikoyati berishga haqli, bundan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy nizolar, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan nizolar mustasno.

Sudning hal qiluv qarori ustidan to'liq yoki qisman shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Iqtisodiy sudlov ishlarini yuritishning tarkibiy qismi bo'lib, apellyasiya instansiyasida ishni birinchi instansiya sudida ko'rib chiqish qoidalari bo'yicha ko'rib chiqiladi, va bunda apellyasiyani ko'rib chiqishning mohiyatidan kelib chiqadigan ayrim istisnolar bo'lishi mumkin.

Apellyasiya shikoyatini ko'rib chiqishda qonunda belgilangan ishni birinchi instansiya sudida ko'rib chiqishni tartibga soluvchi meyorlar qo'llaniladi. Birinchi instansiya sudidan farqli o'laroq, apellyasiya sudi barcha ishlarni kollegial tartibda ko'rib chiqadi, bunda qoida tariqasida sud raisi yoki uning o'rinbosari yoxud biror sudya raislik qiladi. Apellyasiya sudi hal qiluv qarorini to'laligicha yoki qisman bekor qilishi va shikoyatni ko'rmasdan qoldirishi yoki ishni yuritishni tugatishi mumkin.

Birinchi instansiya sudi qonunda ko'rsatib o'tilgan holatlar bo'lgani holda ish yuritishni tugatmagan yoki davoni ko'rmasdan qoldirmagan bo'lsa va ishni mazmunan ko'rib, hal qiluv qarori chiqargan bo'lsa, apellyasiya instansiyasi sudi bunday qarorni to'la yoki qisman bekor qilishi hamda ishni yuritishni tugatishi yoxud davoni to'la yoki qisman ko'rmasdan qoldirishi mumkin.

Agar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori bekor qilinmasa va o'zgartirilmasa, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiradi va aynan u ijro etilishi kerak.

Qaror qabul qilingan kundan etiboran besh kunlik muddatda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshirilganligi malum qilinadigan buyurtma

xat orqali yuboriladi yoki tilxat bilan topshiriladi. Jo`natish uchun ajratilgan bu muddat IPKda apellyatsiya shikoyatini ko`rish uchun ajratilgan bir oylik muddatga kirmaydi.

Apellyasiya instansiyasining qarori ustidan kassasiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

**Iqtisodiy sud qarorlarini kassatsiya instansiya sudida qayta ko`rish** iqtisodiy sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori hamda apellyasiya instansiyasining qarori ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar kassatsiya shikoyati va prokurorning kassasiya protesti asosida qayta ko`rib chiqilishi mumkin.

Sud hujjatlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko`rish, qonunda ko`zda tutilgan tekshiruvlarning boshqa barcha shakllaridan farqli ravishda sud hujjatlari kassatsiya instansiyasi tomonidan faqat qonuniyligi jihatidan tekshiriladi.

Shikoyat qilish huquqini amalga oshirish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning erk irodalariga bog`liq. Qonunda belgilangan tartib va muddatda kassasiya shikoyatining berilishi ishning kassatsiya instansiyasi tomonidan albatta ko`rib chiqilishiga olib keladi.

Qarorning moddiy va prosessual huquq normalariga to`g`ri havola qilinganligi borasidagi asoslovchi qismi; chiqarilgan qo`shimcha qaror shikoyat berish uchun mustaqil predmet bo`lishi mumkin. Ajrimlar ustidan qonunda nazarda tutilgan holatlardagina shikoyat qilinishi mumkin. Qonun hal qiluv qarori (qaror) ustidan kassasiya shikoyati berish huquqini davogar, javobgar, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi yoki arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga, shuningdek qonunda sanab o`tilgan, ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarga beradi.

Davlat va jamoat manfaatlarini himoya qilib davo qo`zg`atuvchi prokuror, davlat organlari, mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlari va boshqa organlar sudning hal qiluv qarori (qarori) ustidan kassasiya tartibida tegish-licha protest va shikoyat keltirishlari mumkin. Kassatsiya instansiyasi sud hujjatlarini moddiy va prosessual huquq normalarini qo`llash va ularga rioya etishning to`g`riligi nuqtai nazaridan tekshiradi.



Kassatsiya shikoyatining maqsadi javobgar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo`lib, keyinchalik bekor qilingan yoki o`zgartirilgan noqonuniy qarorni ijro etish bilan zarar yetkazishning oldini oladi. Kassatsiya instansiyasi hal qiluv qarori (qaror)ni o`zgartirish, yangi qaror qabul qilish huquqiga ega. Shuning uchun, agar kassatsiya instansiyasi qarori birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori (yoki apellyasiya instansiyasining qarori) ijro etilganidan so`ng qabul qilinsa, mazkur sud hujjatlari bo`yicha olingan barcha narsalarni qaytarishlik faqatgina sud hujjatining qaytarma ijrosi institutidan foydalanish yo`li bilan mumkin bo`ladi. Bu esa ancha murakkab jarayondir. Bundan tashqari dastlabki davo bo`yicha javobgarga qaytarilish lozim bo`lgan pul mablag`i ham, mulk ham amalda qolmagan bo`lishi mumkin.

Moddiy yoki prosessual huquq normalarining buzi-lishi yoxud noto`g`ri qo`llanilishi tadbirkorlik sudining hal qiluv qarorini yoki qarorini o`zgartirish yoxud bekor qilish uchun asos bo`ladi.

Prosessual huquq normalarining buzilishi yoki noto`g`ri qo`llanilishi, agar bu buzilish noto`g`ri hal qiluv qarori yoki qarorni qabul qilinishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo`lsa, hal qiluv qarorini yoki qarorni o`zgartirish yoxud bekor qilish uchun asos bo`ladi.

Prosessual huquq normalarining buzilishi yoki noto`g`ri qo`llanilishi quyidagi hollarda hal qiluv qarorini yoki qarorni bekor qilish uchun asos bo`ladi:

ish iqtisodiy sud tomonidan noqonuniy tarkibda ko`rilgan bo`lsa; ish iqtisodiy sud tomonidan ishda ishtirok etuvchi, majlis vaqti va joyi to`g`risida tegishli ravishda xabardor qilinmagan shaxslardan birontasining yo`qligida ko`rilgan bo`lsa; ishni ko`rishda sud ishi yuritiladigan til to`g`risidagi qoidalar buzilgan bo`lsa; iqtisodiy sud hal qiluv qarorini yoki qarorni qabul qilishda qaysi qonun hujjatlariga amal qilganligi hal qiluv qarorida yoki qarorda ko`rsatilmagan bo`lsa; tadbirkorlik sudi ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to`g`risida hal qiluv qarori yoki qaror qabul qilgan bo`lsa; hal qiluv qarori yoki qaror sudyalardan biri tomonidan imzolanmagan bo`lsa yoxud hal qiluv qarori yoki qarorda ko`rsatilganidan boshqa sudyalar tomonidan imzolangan bo`lsa; hal qiluv

qarori ishni ko`rgan sud tarkibiga kirmagan sudyalardan tomonidan qabul qilingan bo`lsa; ishda sud majlisining bayonnomasi bo`lmasa yoki u qonunda ko`rsatilgan shaxs tomonidan imzolanmagan bo`lsa.

Iqtisodiy sudning dalillarni taminlash to`g`risidagi iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish haqidagi; davoni taminlash yoki davoni taminlashni rad etish to`g`risidagi; davoni taminlashni bekor qilish to`g`risidagi; ish yuritishni to`xtatish to`g`risidagi; ish yuritishni tugatish to`g`risidagi; davoni ko`rmasdan qoldirish to`g`risidagi; o`tkazib yuborilgan prosessual muddatni tiklashni rad etish to`g`risidagi; jarima solish to`g`risidagi; davo arizasini qabul qilishni rad etish to`g`risidagi; davo arizasini qaytarish to`g`risidagi; qo`shimcha hal qiluv qarorini qabul qilishni rad etish to`g`risidagi; hal qiluv qarorini tushuntirib berish va yozuvdagi xatolar, harfiy xatolar va hisob-kitobdagi yanglishishlarni tuzatish to`g`risidagi; yangi ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rish to`g`risidagi arizani qaytarish to`g`risidagi; yangi ochilgan holatlar bo`yicha ishni qayta ko`rish to`g`risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish haqidagi; ijro varaqasini ijroga taqdim etishning o`tkazib yuborilgan muddatini tiklash to`g`risidagi; sud hujjatining ijrosini kechiktirish yoki uni bo`lib-bo`lib ijro etish, ijro etish usulini va tartibini o`zgartirish yoki arizani qanoatlantirishni rad etish to`g`risidagi ajrimlariga kassasiya shikoyati keltirilishi mumkin.

Bundan tashqari, apellyasiya shikoyatini qaytarish to`g`risidagi va kassasiya shikoyatini (protestini) qaytarish to`g`risidagi ajrimlari faqat kassasiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Agar apellyasiya shikoyati ajrim bilan emas, balki xat bilan qaytarilgan bo`lsa, bu ushbu xatni olgan tomonni unga nisbatan kassasiya tartibida shikoyat keltirish huquqidan mahrum etmaydi. Amaldagi qonunda ilk bor xususiy ajrimlarga nisbatan shikoyat keltirish qoidasi nazarda tutilgan. Ajrimga nisbatan keltirilgan kassasiya shikoyati (protest)ni ko`rib chiqish muddatlari, tartibi tadbirkorlik sudning hal qiluv qarori va qarorlari ustidan kassasiya shikoyati (protesti) keltirish kabidir.

#### **4-§. Iqtisodiy sud hujjatlarining ijrosi**

Qonuniy kuchga kirgan har qanday sud hujjatlari O`zbekiston Respublikasining butun hududida barcha davlat organlari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan IPKda va boshqa qonunlarda belgilangan tartibda ijro etiladi.

Iqtisodiy sud hujjatlarining ijrosi O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, Sudlar to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan tartibda ya`ni “Sud hujjatlarining majburiyligi” asosida xamda O`zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to`g`risida”gi 29.08.2001 yildagi 258-II-sonli Qonuni asosida ijro etiladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O`zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo`ladi.

Iqtisodiy sudlarning sud hujjatlarini ijro etish IPKning beshinchi bo`limida nazarda tutilgan asoslarga ko`ra, ya`ni, “Sud hujjatlarini ijroga qaratish” asosida sud hujjatlari qonuniy kuchga kirgach ijroga qaratiladi, bundan qonunchilikda belgilangan tartibda darhol ijroga qaratish hollari mustasno<sup>34</sup>.

Da`voni ta`minlash bo`yicha choralar ko`rish, kelishuv bitimini tasdiqlash, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy tartibda ijroga qaratish uchun ijro varaqasini berish, chet davlat sudining, arbitrajning hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish to`g`risidagi ajrim darhol ijro etilishi lozim<sup>35</sup>.

Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa, sud hujjatining ijrosi sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

---

<sup>34</sup> O`zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O`RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

<sup>35</sup>(O`zbekiston Respublikasining 2022-yil 16-maydagi O`RQ-769-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma`lumotlari milliy bazasi, 17.05.2022-y., 03/22/769/0421-son)

Ijro varaqasi sud tomonidan berilib, undiruvchining sud hujjatini majburiy tartibda ijro ettirish huquqini tasdiqlovchi hujjat ijro varaqasidir<sup>36</sup>.

Ijro varaqasini berish tartibi xam ushbu kodeks tartiblari asosida berilib, unda agar sud hujjatini ijro etish turli joylarda yoxud bir nechta undiruvchi foydasiga amalga oshirilishi kerak bo'lsa, sud undiruvchilarning iltimosiga ko'ra ijro etish joyi yoxud sud hujjatining ushbu ijro varaqasi bo'yicha ijro etilishi lozim bo'lgan qismini ko'rsatgan holda bir nechta ijro varaqasini beradi.

Pul summalarini bir necha javobgardan undirish to'g'risidagi sud hujjati asosida javobgarlarning soni bo'yicha bir nechta ijro varaqasi beriladi. Bunda, agar solidar javobgarlardan undirish nazarda tutilayotgan bo'lsa, har bir ijro varaqasida undiruvning umumiy summasi ko'rsatilishi va solidar javobgar ekanligi ko'rsatilgan holda javobgarlarning hammasi sanab o'tilishi kerak. Ijro varaqasi sud hujjatini qabul qilgan sud tomonidan beriladi.

Sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan so'ng besh kun ichida ijro varaqasi undiruvchiga beriladi yoki uning iltimosnomasiga ko'ra davlat ijrochisiga ijro etish uchun yuboriladi. Budjetga mablag'larni undirish uchun ijro varaqasi qarzdor turgan joydagi davlat ijrochisiga sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan so'ng besh kun ichida yuboriladi. Ijro varaqasi elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin<sup>37</sup>.

Ijro varaqasining mazmunida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) ijro hujjatini bergan sudning nomi;
  - 2) ijro varaqasi berilgan ish va uning raqami;
  - 3) ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjati qabul qilingan sana;
- Oldingi tahrirga qarang.

---

<sup>36</sup> Qarang: Mazkur Kodeksning 336 — 338-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi, 7-moddasi birinchi qismining 1 — 4-bandlari.

<sup>37</sup> Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 06/196-sonli "Sud hujjatlarini ijro etishga oid qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qo'shma qarorining 3-bandi.

4) undiruvchi va qarzdorning nomi (famiyasi, ismi, otasining ismi), ularning joylashgan eri (pochta manzili) yoki yashash joyi, qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan jismoniy shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarning rekvizitlari), shuningdek qarzdor yuridik shaxsning soliq to‘lovchi identifikatsiya raqami;

5) sud hujjatining xulosa qismi;

6) ijro varaqasini ijro etish tartibi va usuli, agar bu haqda sud hujjatida ko‘rsatilgan bo‘lsa;

7) sud hujjati kuchga kirgan sana;

8) ijro hujjati berilgan sana va uni ijroga taqdim etish muddati.

Ijro varaqasi sudya tomonidan imzolanadi va sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

Ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddati, ijro varaqasi sud hujjati qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran yoki sud hujjatining ijrosi kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib ijro etilgan taqdirda, muddat tugagan kundan e‘tiboran uch yil ichida ijroga taqdim etilishi mumkin.

Agar sud hujjatining ijrosi to‘xtatib qo‘yilgan bo‘lsa, uning ijrosi to‘xtatib qo‘yilgan vaqt ijro varaqasini ijroga taqdim etish uchun belgilangan muddatga qo‘shib hisoblanmaydi.

Ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddatining uzilishi, agarda ijro varaqasi ijroga taqdim etilganda xamda ijro varaqasi qarzdor tomonidan qisman ijro etilganda uziladi.

Ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddati uzilganidan so‘ng muddatning o‘tish davri yangidan boshlanadi. Muddat uzilguniga qadar o‘tgan vaqt yangi muddatga qo‘shib hisoblanmaydi.

Ijro varaqasi uni to‘liq yoki qisman ijro etish imkoniyati yo‘qligi sababli undiruvchiga qaytarilgan taqdirda, ijro varaqasini muddat uzilganidan keyin ijroga taqdim etishning yangi muddati ijro varaqasi undiruvchiga qaytarilgan kundan e‘tiboran hisoblab chiqariladi.

Ijro varaqasini ijroga taqdim etishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklashga qonunchilikda yo‘l qo‘yiladi, unga muvofiq, agar ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddatini o‘tkazib yuborgan undiruvchi ijro varaqasini bergan sudga yoki u ijro etiladigan joydagi sudga o‘tkazib

yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Muddatni o'tkazib yuborish sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan taqdirda, o'tkazib yuborilgan muddat tiklanishi mumkin.

Undiruvchining ijro varaqasini ijroga taqdim etish muddatini tiklash to'g'risidagi arizasi u sudga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda sud majlisida ko'rib chiqiladi.

Undiruvchi, qarzdor sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida ariza kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay chiqarilgan sud ajrimi orqali, ushbu Kodeksning 127-moddasida nazarda tutilgan tartibda xabardor qilinadi. Sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan mazkur shaxslarning kelmaganligi arizani ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Arizani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqariladi, uning ko'chirma nusxasi undiruvchi va qarzdorga yuboriladi. Ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

### **5-§. Tadbirkorlik subyektlarining ishchanlik obro'sini himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari**

Xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirishda ro'y beradigan turli huquqbuzarliklar natijasida nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkiy manfaatlariga, balki ularni pok nomi, ishchanlik obro'siga ham jiddiy zarar va ziyon yetishi mumkin. Shu sababli ham Fuqarolik kodeksining 100-moddasida yakka tadbirkorni va yuridik shaxslarni ishchanlik obro'sini yuridik muhofaza qilish asoslari belgilab qo'yilgan. Sha'n va qadr-qimmatdan farqli ravishda ishchanlik obro'si tadbirkorlik subyektini tadbirkor sifatidagi xususiyatlari bilan ham, uning shaxsiy huquqlari bilan ham uzviy ravishda bog'liqdir.

Odatda *ishchanlik obro'si* deyilganda, tadbirkorlik subyektini professional malakasi, saviyasi darajasi, u tomonidan ishlab chiqarilgan tovar, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar sifati, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda o'zining kontragentlari bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishda qanday etik-ahloqiy tamoyillar asosida ish ko'rishi bo'yicha tasavvurlar tushuniladi.

Ko'p hollarda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mahsulotlarini yuqori sifatli bo'lishiga, boshqa subyektlar bilan bo'lgan munosabatlardan insofli, adolatli foy dalanishga intilish, turli xayr-ehson tadbirlarini amalga oshirish yo'li bilan o'z ishchanlik obro'sini yuqori darajada ushlab turishi, uni doimiy mustahkamlashga harakat qiladilar.

Ammo xo'jalik (tadbirkorlik) sohasida o'zaro munosa batlar har doim ham silliq va bir maromda ketavermaydi. Bozor tizimidagi kuchli raqobat bazi tadbirkorlik yurituvchi subyektlarni g'ayriahloqiy va g'ayriqonuniy usullardan foydalangan holda bozorda huddi shunday turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi boshqa subyektlar bo'lgan raqibini obro'sizlantirishga, uni ish- ishchanlik obro'sini yerga urib, u to'g'risida badnom qiluvchi malumotlar tarqatishga undashi mumkin. Bunday harakatlar uchun amaldagi qonunchilikda tegishli ravishda jinoiy-huquqiy, mamuriy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilab qo'yilgan. Xalqaro tadbirkorlik amaliyoti bo'yicha ham o'z raqibini ishchilik obro'sini g'ayriqonuniy usullar bilan yerga urish g'irrom raqobatni (noinsof raqobatni) bir ko'rinishi hisoblanadi.

Ishchilik obro'sini fuqarolik huquqiy tartibda himoya qilishda Fuqarolik kodeksining 100-moddasida belgilangan normalar qo'llaniladi. Bunga asosan, xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi malumotlar yuzasidan, basharti bunday malumotlarni tarqatgan shaxs ularni haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya berilishini talab qilishga haqli.

Basharti, tadbirkorlik subyektning ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi malumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim. Basharti, bunday malumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi lozim. Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi.

Tadbirkorlik subyekt ommaviy axborot vositalarida uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsituvchi malumotlar e'lon qilinganda, u ayni o'sha ommaviy axborot vositalari orqali chiqib, o'zini himoya qilish huquqiga ega. Agar, sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud

qoidabuzarga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga haqlidir. Jarimani to'lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi.

Tadbirkorlik yurituvchi subyektlar o'rtasida ishchanlik obro'siga dahl qilinganlik bilan bog'liq nizolar O'zbekiston Respublikasi IPKga muvofiq iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqib hal etiladi. Yakka tadbirkor bilan jismoniy shaxs o'rtasidagi bunday toifadagi nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqib hal etiladi.

Ishchanlik obro'si o'z mohiyati va xarakteriga ko'ra, ham mulkiy, ham shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi. Uning mulkiy xarakteri shunda namoyon bo'ladiki, ishchanlik obro'siga putur yetkazilganda tadbirkorlik yurituvchi subyektni mahsulot va tovarlariga bo'lgan talab keskin kamayadi yoki u bozorda o'tmay qoladi. Shuningdek, u bilan hech bir shaxs shartnomaviy munosabatlarga kirishmay qo'yadi yoki o'ta qattiq shartlar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. Tadbirkorlik munosabatlarida unga nisbatan ishonch keskin pasayib, uning mulkiy ahvoriga tasir ko'rsatishi tabiiy. Bunday holda yetkazilgan moddiy zararlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga muvofiq undiriladi. Ishonchlik obro'sini mulkiy huquq sifatida namoyon bo'lishi yana shunda yaqqol ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunida gudvill (ishchanlik obro'si) investitsiya sifatida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kiritilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Shunga qaramasdan ishchanlik obro'si shaxsiy nomulkiy huquq ekanligini etirof etmoq lozim. Chunki u yuqorida takidlanganidek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ahloqiy sifatlari bilan bog'liq. Binobarin, ishchanlik obro'siga putur yetganda ma'naviy zarar yetkazilishi ham tabiiy. Ma'naviy zarar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1022-moddasida subyektning jismoniy va ma'naviy azoblari tariqasida namoyon bo'ladi. Bu holat yakka tadbirkor bo'lgan jismoniy shaxslarda to'liq namoyon bo'ladi, ammo tijorat yuridik shaxslarida bu holat bevosita emas, balki bivosita tarzida o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxsga yetkazilgan manaviy zarar



uning ishchilik obro`sigga putur yetkazilishi sababli uning rahbarlari, xodimlari, jismoniy shaxs bo`lgan mulkdor muassislari jismoniy og`riqlari, azob-uqubatlari ko`rinishida ro`y beradi, deb aytish mumkin.

Ma'naviy zararni qoplash miqdori tadbirkorlik yurituvchi subyektga yetkazilgan jismoniy va manaviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek ayb tovon to`lashga asos bo`lgan hollarda zarar yetkazuvchining ayb darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi. Zararni qoplash miqdorini aniqlashda oqilonalik va adolatlilik talablari etiborga olinishi lozim.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1. Tadbirkorlik faoliyatida nizolarning kelib chiqishi va ularni bartaraf etish asoslari.
2. Tadbirkorlik nizolarini hal qiluvchi organlar
3. Tadbirkorlik nizolarini hal etish va sud hujjatlarini qayta ko`rish
4. Iqtisodiy sud hujjatlarining ijrosi.
5. Xo`jalik yurituvchi subyektlarining ishchanlik obro`sini himoya qilish tartibi.

## **10. BOB. TADBIRKORLIK MUNOSABATLARIDA JAVOBGARLIK MASALALARI**

1. Tadbirkorlik munosabatlarda javobgarlik tushunchasi. Javobgarlikning asoslari va turlari.

2. Tadbirkorlik munosabatlarda shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik.

3. Tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy, mamuriy va jinoiy javobgarlik.

4. Tadbirkorlik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish masalalari.

### **1. Tadbirkorlik munosabatlarda javobgarlik tushunchasi. Javobgarlikning asoslari va turlari.**

Tadbirkorlik munosabatlarda javobgarlik tushunchasi keng tushuncha bo'lib, uni xususiy huquqiy va ommaviy huquqiy javobgarlik shakllarga bo'lish mumkin. Xususiy huquqiy javobgarlik asosan shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadi. Ommaviy huquqiy esa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan yuzaga keladigan munosabatlarda yuzaga keladi. Bunga misol qilib, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, soliq, er ajratish, bank, sugurta, ekologiya, qurilish va h.k.

Tadbirkorlik munosabatlarida javobgarlik tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari tugrisidagi qonunda nazarda tutilgan majburiyatlardan vujudga kelib, bularga qo'yidagilarda o'z ifodasini topadi:

✓ o'zlari tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishi;

✓ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi;

✓ mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslarning mehnat haqini qonunchilikda Mehnatga haq to'lash [yagona tarif setkasining](#) birinchi razryadi bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lmagan miqdorda belgilashi, ular bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilishi,

shuningdek ish beruvchi sifatida o‘z fuqarolik javobgarligini sugurta qilishi;

✓ mehnatni muhofaza qilish hamda xavfsizlik texnikasi, ekologiya, sanitariya va gigiena sohasidagi qonunchilik va normativ hujjatlar talablariga rioya etishi;

✓ raqobat to‘grisidagi va iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish haqidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

✓ realizastiya qilinadigan mahsulot va xizmatlar uchun sertifikatlarga ega bo‘lishi;

✓ joylashgan yeri (pochta manzili) va boshqa rekvizitlari o‘zgarganligi to‘grisida tegishli davlat organlarini o‘z vaqtida xabardor qilishi;

✓ buxgalteriya, tezkor va statistika hisobini qonunchilik talablariga muvofiq yuritishi;

✓ o‘z faoliyati to‘grisidagi hisobotlarni tegishli davlat organlariga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etishi shart. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

✓

## **2. Tadbirkorlik munosabatlarda shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik.**

Tadbirkorlik munosabatlarda shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik asosan, shartnomaviy munosabatlar yuzasidan vujudga keladi. Shartnomalar mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga kelishining asosidir. Shunga kura shartnomalar tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda asosiy vosita sanaladi. Shartnoma shartlarini buzishlikni oldini olish hamda bartaraf etishning asosiy yo‘llaridan, vositalaridan biri huquqiy javobgarlik normalarini qo‘llash, shuningdek, bu xildagi huquqbuzarliklar uchun jazo choralaridan foydalanishdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim shartnoma majburiyatlarini bajaruvchilar ba’zan ularni bajarilishiga mas’uliyatsiz qaraydilar. Bunday hollarda

majburiyatni ma'lum huquqiy choralarni qo'llash vositasida majburan bajarilishi ta'minlanadi.

Javobgarlik - unda ko'rsatilgan sankstiyalarni qo'llash xavfi bilan shartnoma tomonlarini kerakli harakatlarni qilishga majburlaydi. Bu haqda chuqurroq tushunchaga ega bo'lish uchun H. R. Rahmonqulovning quyidagi fikriga to'xtalish o'rinlidir, „*shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari tashkilot, korxonalarining mulkiy manfaatdorligini himoya qilishni ta'minlaydi, buzilgan huquqlarini tiklash uchun imkoniyat yaratadi, bu huquqni buzganlarga qonuniy talablar bildirish imkoniyatini beradi*“. Huquqiy javobgarlik choralarni aniq va to'g'ri qo'llash shartnoma munosabatlari ishtirokchilarining qonun normalari hamda shartnoma shartlarini buzilishini oldini olishga, qonundan va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarini majburiy bajarilishini ta'min etishga, u yoki bu tomonning buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, xo'jalik shartnomalariga binoan tomonlar o'zlariga bir qator majburiyatlarni oladilar. Bular, molmulkdan, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, Fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning mustaqil turi bo'lib, huquqbuzarga nisbatan belgilanadigan sankstiya sifatida, huquqbuzarning qo'shimcha mulkiy xarajatni qilishga hamda yangi majburiyatni bajarishga majbur qiladi<sup>1</sup>.

Majburiyat yuzasidan qarzdor bo'lgan shaxs uni butunlay bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, majburiyatni bajarish yuzasidan belgilangan huquq normalariga rioya qilmasligi huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik hisoblanib, bu hol majburiyat buzilganligidan dalolat beradi. Ya'ni majburiyat yuzasidan qarzdor shaxs kreditorning subyektiv huquqini buzgan hisoblanadi. Chunonchi, sifatsiz mahsulot (tovar) etkazib berishda mahsulot sotuvchi tashkilot – qarzdor sifatida huquq normasini, ya'ni, FKning tegishli moddasida ko'rsatilgan qoidani buzish bilan birga mahsulot oluvchi korxonaning ya'ni kreditor tashkilot qarzdor tashkilotdan shartnomaga muvofiq, sifatli mahsulot (tovar)ning o'ziga topshirilishini talab qila oladi.

Yuqorida aytilganidek, qarzdorning harakatsizligi ham huquqqa xilof hisoblanishi mumkin. Bunday harakatsizlik qarzdorning shunday

xatti-harakatidan iborat bo‘lib ko‘rinadiki, bunda qarzdor o‘zi amalga oshirishi lozim bo‘lgan harakatni qilmaydi. Masalan, uy-joy ijarasi shartnomasi bo‘yicha tashkilotning uyida yashovchi fuqaro belgilangan ijara haqini to‘lamasligi bilan Uy-joy kodeksining 69-moddasida belgilangan qoidani buzadi. Shu bilan birga, shartnomaga muvofiq tarzda qarzdordan kvartira haqining o‘z vaqtida to‘lanishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan tashkilotning – ijaraga beruvchining, ya’ni kreditorning subyektiv huquqi ham buziladi.

Bozor munosabatlari sharoitlarida qarzdorning tadbirkorlik qoidalariga zid kelgan harakatlari yoki harakatsizligi, beparvoligi huquq normasini to‘gridanto‘gri buzish bilan bogliq bo‘lmasa ham, huquqqa xilof hisoblanishi mumkin.

Qarzdorning huquqqa xilof xatti-harakati huquq normalariga rioya qilmaslikni bildirganligi tufayli, chunonchi, qarzdor tomonidan olingan majburiyatning butunlay bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi va shu bilan shartnoma intizomining buzilishi – qonunchilikni buzish deb yuritiladi. Binobarin, shartnoma yuzasidan olingan majburiyatlarning, shuningdek boshqa majburiyatlarning bajarilishini ta’minlashga qaratilgan kurash – aynan shu vaqtning o‘zida qonunchilikka rioya qilish uchun bo‘lgan kurash deb hisoblanadi.

Qonunchilik xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozimligini normalamaydi. Chunki qarzdor tomonidan majburiyatning buzilishi, mazkur subyektlar tomonidan shartnoma intizomiga rioya qilmasligi davlat tomonidan belgilangan huquq normalariga rioya qilmaslikni bildiradi. Natijada tashkilotlarning mablaglari muomalada bo‘lishi birmuncha sekinlashadi; qurilishlar, korxonalar va tashkilotlarning izchil, uzluksiz ish olib borishlari buziladi.

Qishloq xo‘jalik mashinalarining va boshqa mahsulotlarning sanoat korxonalarini tomonidan qishloq xo‘jalik korxonalariga topshirilishi va ularning davlat buyurtmasi bo‘yicha qishloq xo‘jalik mahsulotlari topshirish yuzasidan olingan majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishi muhim ahamiyatga egadir.

Kreditorlar sifatida fuqarolar bo'lganida ham tegishli tashkilotlar o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni lozim darajada bajarishlari talab qilinadi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi hollarini nazarda tutib, qonun yoki shartnomada belgilangan sankstiyalar qo'llaniladi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatni bajarmagan qarzdor zimmasiga zararlarni, neustoykani kreditor foydasiga to'lash vazifasini yuklashdan iboratdir.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi majburiyatdagi sankstiya tushunchasidan birmuncha torroq ma'noda tushuniladi, chunki bunda qarzdorning javobgarligi barcha hollarda faqat mulkiy javobgarlik hisoblanadi. Chunonchi, birovga zarar etkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatlarda zarar etkazuvchi jabrlangan shaxsga etkazilgan zararning pul bilan hisoblangan miqdorini to'la ravishda to'laydi. Shartnoma bo'yicha olingan majburiyatlarning bajarilmasligi esa kreditorning ko'rgan zararlarni to'latish uchun ham, qarzdordan neustoykaning undirilishi uchun ham asos bo'ladi.

Qarzdorning majburiyatni lozim darajada bajarmasligi, ya'ni, majburiyatni shartnoma yoki qonunda ko'rsatilgan shartlarga muvofiq ravishda bajarmasligi; masalan, mahsulotning sifati, topshirish muddati, shartnomaning bajarilish joyi kabi shartlar buzilishidan iboratdir. Majburiyat qarzdor tomonidan butunlay bajarilmasa, kreditor sud orqali majburiyatning majburiy tartibda bajarilishini, birinchi navbatda, albatta real ravishda bajarilishini, agar majburiyat lozim darajada bajarilmagan bo'lsa, uning qonun yoki shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq bajarilishini talab qilishga haqli.

Yuqorida ko'rsatilgan har ikki holatda – **birinchisi** majburiyat butunlay bajarilmaganida ham, lozim darajada bajarilmaganida ham, ya'ni ayrim shartlari buzilganida ham kreditor qarzdordan qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan mulkiy jarimalarning undirilishini (ya'ni o'zi ko'rgan zararlarning qoplanishini, neustoykalarining to'lanishini) talab qila oladi. Shu bilan birga qarzdorni olgan majburiyatlarini bajarish uchun mumkin qadar ko'proq harakat qilishga majbur qiladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning belgilanishi turli subyektlar o'rtasidagi munosabatlarda shartnoma intizomining mustahkamlanishiga yordam beradi. Binobarin, fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatlarning real va tegishli darajada bajarilishiga yordam berib, katta yuksak tarbiyaviy rol o'ynaydi. Agar majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik natijasida kreditorga zarar etkazilgan bo'lsa, qarzdor bunday zararlarni to'lashga majbur bo'ladi. FKning 324 moddasida qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to'lashi shart deb ko'rsatiladi.

FKning 14-moddasi 2-qismida zarar tushunchasi normalangan. Bunga asosan, zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilinishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Kreditorning mulkiy zarariga misol qilib tashkilot tomonidan qilingan ishlarning sifatsiz bajarilishi sababli uni tuzatish bilan bogliq bo'lgan xarajatlarni yoki shartnomada belgilanmagan muddatda qarzdor tomonidan yuborilgan, masalan, muddatidan oldin yuborilgan mahsulotni saqlash xarajatlaridan kelgan zararni yoxud kreditor tomonidan boshqa tashkilotlarga to'langan jarimalarni ko'rsatsa bo'ladi. Kiyim tikuvchi atelening xizmatchisi tomonidan fuqaroga kostyum tikilishida u tomondan topshirilgan materiallarning noto'g'ri bichilishi natijasida ko'rgan zararni kreditor bo'lgan fuqaroning zararlariga misol qilib ko'rsatish mumkin.

**Ikkinchidan**, zarar sifatida kreditor tomonidan olinishi mumkin bo'lgan, ammo qarzdor majburiyatni bajarmagani tufayli olinmay qolgan daromadlar ham misol bo'la oladi. Masalan, kreditor bo'lgan davlat korxonasi qarzdor tashkilotning xom ashyolarni o'z vaqtida etkazib berilishini kechiktirmaganida, majburiyat o'z vaqtida bajarilgani holda olishi mumkin bo'lgan, ya'ni tayyor mahsulotni sotish natijasida olishi

mumkin bo'lgan foydaning qarzdor o'z majburiyatini bajarmaganligi sababli olinmagan daromadlari kreditorning ko'rgan zarari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining Plenumi qarori ham mavjud zarar tarkibiga faqatgina tegishli shaxs tomonidan aniq yetkazilgan zararlarnigina emas, balki shaxsning buzilgan huquqini tiklashi uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlar ham kirishini belgilaydi. Ayni paytda bunday xarajatlarning zaruriyligi va ularning taxminiy miqdori javobgarlik miqdorini belgilovchi tovar, ishdagi hamda xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga ketadigan smeta (kalkulyastiya) sifatidagi va majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik darajasini belgilovchi shartnoma, asoslantirilgan hisob-kitob kabi boshqa dalillar bilan tasdiqlangan bo'lishi ham kerak. Olinmay qolgan daromadning miqdori (boy berilgan foyda), agarda majburiyat bajarilgan bo'lganida, kreditor qilishi lozim bo'lgan oqilona xarajatlar hisobga olinib aniqlanadi.

Majburiyat huquqida zararning to'la ravishda to'lanishi (qoplanishi) tamoyili belgilanadi. Shu bilan birga, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda sud zararning undirilishi tartibini belgilashda har ikki tomonning mulkiy ahvolini, xususan, qarzdorning mulkiy ahvolini e'tiborga olib, majburiyatning bajarilishini kechiktirishga yoki uni bo'lib-bo'lib bajarilishini belgilashga ham haqli. Bu to'grisida Fuqarolik protessual qonunining tegishli moddasida qoida belgilangan. Unda alohida hollarda ish bo'yicha hal qiluv qarorini chiqargan sud yoki hal qiluv qarorini ijro etish joyidagi sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi bo'yicha taraflarning mulki ahvoliga yoki boshqa holatlarga qarab, hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib ijro etishga, shuningdek uni ijro etish usuli va tartibini o'zgartirishga haqli deb ko'rsatilgan.

Faqatgina bevosita zararlar undirilishi kerak, bilvositalari esa undirilishi lozim emas, chunki huquqbuzarlik va ularning yuzaga kelishi o'rtasidagi sababiy boglanish huquq tomonidan hisobga olish uchun etarli emas.

FKning 332-moddasiga asosan majburiyatning ayrim turlari bo'yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bogliq majburiyatlar bo'yicha



qonunda zararni to‘la qoplashga bo‘lgan huquq cheklab qo‘yilishi mumkin (cheklangan javobgarlik).

Masalan, yuk tashuvchi transport tashkiloti tashish uchun qabul qilgan mulkni yo‘qotganda, yuzaga kelgan zararni yuk jo‘natuvchiga yoki oluvchiga yo‘qotilgan ashyo qiymati baravarida to‘laydi. Agar yuk zararlantirilgan bo‘lsa, u holda zararlangan yukning qiymati qanchaga kamaygan bo‘lsa, shu summa miqdorida to‘laydi. Holbuki, yuk yuboruvchi yoki yuk oluvchining zararlari faqat yo‘qotilgan yukning qiymati yoki qiymatining kamayishi natijasida kelgan zarardangina iborat bo‘lmay, yana yuklarni saqlash uchun kerakli ombor binolarini ijaraga olish bilan bogliq xarajatlardan, xodimlarning bekor turgan davrida ularga to‘langan ish haqidan yuk tashuvchining aybi bilan materiallar va uskunalarning o‘z vaqtida olinmasligi natijasida sodir bo‘lgan boshqa zararlardan iborat bo‘lishi mumkin edi. Ammo transport tashkilotlariga nisbatan cheklangan javobgarlik belgilanganligi sababli keyingi zararlar e’tiborga olinmaydi.

Cheklangan javobgarlik transport tashkilotlari va ba’zi boshqa tashkilotlar uchun ham belgilanishi mumkin. Chunonchi, elektr quvvatini etarli miqdorida etkazib berolmagan elektr stanstiyasi faqat berilmagan elektr quvvati qiymati miqdorida javobgar bo‘lishi mumkin. Tashkilotlar o‘rtasidagi majburiyat munosabatlarida ko‘proq tatbiq etiladigan mulkiy sankstiya – neustoykadir.

Neustoykani undirish uchun faqat qarzdorning o‘z majburiyatini bajarmaganligi ko‘rsatilsa kifoya va bunday majburiyatning bajarilmasligi natijasida etkazilgan konkret moddiy zarar miqdorini isbotlash talab qilinmaydi. Agar muayyan majburiyat uchun belgilangan javobgarlik miqdori qonunda aniq ko‘rsatilgan bo‘lsa, bunday javobgarlikni cheklash to‘grisida o‘zaro kelishishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Majburiyat bo‘yicha javobgarlikning turlari ushbu majburiyatning xususiyatlari, qaysi maqsadni ko‘zlab va uni amalga oshirish uchun tuzilgan bo‘lishi, nimaga, ya’ni qaysi yuridik faktga asosan vujudga kelgan bo‘lishi bilan ifodalanadi. Masalan, majburiyat shartnomaga asoslangan yoki shartnomadan tashqari bo‘lishiga qarab javobgarlik shartnomaviy yoki noshartnomaviy, javobgarlik bir necha shaxslar

o'rtasida bo'lingan bo'lishiga qarab ulushli, solidar va subsidiar xarakterga ega bo'lishi mumkin.

**Shartnomaviy javobgarlik.** Bu javobgarlik shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlar buzilganligi hollarida yuzaga keladi hamda shartnomaga asoslangan majburiyat buzilganligi uchun qo'llaniladigan huquqiy chora sifatida ko'riladi. Shartnomadan tashqari javobgarlik jabrlanuvchi tarafga u bilan shartnoma munosabatlarida bo'lmagan shaxs tomonidan etkazilgan ziyon, zarar va boshqa oqibatlar tufayli paydo bo'ladi. Masalan, mahsulotni etkazib berish (postavka) shartnomasi bo'yicha mahsulot etkazib bermaslik, etkazib berish muddatlarini buzganlik, etkazib berilgan mahsulot sifati bo'yicha talabga javob bermasligi tufayli vujudga keladigan javobgarlik-shartnomaviy javobgarlikdan iborat.

FKning 1017-moddasi va O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'grisida"gi qonuniga muvofiq sotilgan tovarlarning nuqsonlari oqibatida iste'molchining zararni sotuvchi va tayyorlovchi (ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim. Bu erda sotuvchining javobgarligi shartnomaviy xarakterga ega, chunki u iste'molchi (sotib oluvchi) bilan bevosita shartnomaviy munosabatda bo'lgan. Tayyorlovchi (ijrochi)ning javobgarligi shartnomaviy xarakterga ega emas, chunki u iste'molchi (sotib oluvchi) bilan shartnomaviy munosabatda bo'lgan emas. Shartnomadan tashqari zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik barcha hollarda shartnomaviy xarakterga ega bo'lmaydi.

Noshartnomaviy javobgarlik shartnomadan tashqari majburiyatlar buzilishi oqibatida kelib chiqadigan javobgarlik hisoblanadi. Shartnomaviy javobgarlik bilan noshartnomaviy javobgarlikni bir-biridan ajratish muhim yuridik ahamiyatga ega. Shartnomadan tashqari javobgarlikning shakllari va hajmlari faqat qonun bilan belgilanadi, shartnoma majburiyatining shakllari va miqdori esa ham qonun bilan, ham tuzilgan shartnomaning shartlari bilan belgilanadi.

Masalan, agar zarar jabrlanuvchi bilan shartnomaviy munosabatlarda bo'lmagan shaxs tomonidan etkazilgan bo'lsa, bunday zarar FKning 985-1030-moddarida nazarda tutilgan qoidalarga asosan va

tartibda undiriladi. Agar zarar shartnomaga asosan o'z zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasini olgan shaxs tomonidan etkazilgan bo'lsa, bunday zarar Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga asosan undiriladi.

Umuman olganda delikt va asossiz bo'lylik ortirish oqibatida zarar yetkazilgan bo'lsa u holda javobgarlik shartnomadan tashqari javobgarlik sanaladi.

Ulushli javobgarlik. Qarzdorlarning har biri yoki umumiy mulk subyektlari orasidan bitta qarzdor qonun yoki shartnomada belgilangan muayyan ulushda javobgar bo'lishganda yuzaga keladi. Bu javobgarlik turi adabiyotlarda turlicha nomlanishi mumkin. Ayrim adabiyotlarda ulushli<sup>1</sup>, ayrimlarida esa xissali<sup>2</sup> javobgarlik tarzida qo'llaniladi. Lekin har ikki atama ham sinonim so'zlar bo'lganligi sababli xatolikni keltirib chiqarmaydi.

Ulushli javobgarlik umumiy ahamiyatga ega bo'lgan qoidadan iborat bo'lib, qonunda va shartnomada solidar va subsidiar javobgarliklar nazarda tutilmagan hollarda qo'llaniladi.

Bunday javobgarlik ulushlar asosida tashkil etilgan yuridik shaxslar, oddiy shirkat shartnomasi, oila mulki, umuman olganda umumiy mulk asosida bir necha shaxs mulkdor bo'lgan hollarda yuzaga kelgan majburiyat munosabatlarida uchrashi mumkin.

Masalan, tijorat vakili o'zining ishtirokida tuzilgan shartnomadagi turli taraflarning (masalan, tovarni sotib oluvchi va sotuvchining) manfaatlarini faqat bu taraflarning roziligi bilan ayni bir vaqtda ifodalashi mumkin. Shartnomaning taraflari tijorat vakili oldida unga shartlashilgan haqni va u topshiriqni bajarayotganda qilgan chiqimlarini teng ulushlarda to'lash bo'yicha javobgardirlar (FKning 133-moddasi).

Ulushli majburiyatda qarzdorlarning har biri o'zi uchun javob beradi va unga boshqa qarzdorlarning (harakati yoki harakatsizligi uchun) javobgarlik yuklatilmaydi. Agar majburiyat ashyosi (predmeti) bo'linadigan bo'lsa, ya'ni ulushlardan tashkil topgan bo'lsa, hamda qonunda va shartnomada boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, qarzdorlarning har biri teng ravishda javobgar bo'ladilar.

Solidar javobgarlik. Bir majburiyat bo'yicha bir necha shaxsning

birgalikdagi javobgarligi hisoblanadi.

Solidar degan tushuncha fuqarolik-huquqiy munosabatlarda sheriklikni, birgalikda harakat qilishni, biror bir vazifani, tadbirkorlik faoliyatini jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan o‘zaro kelishilgan xolda birgalikda amalga oshirish, bajarish majburiyatini olish, shuning bilan birga olingan majburiyat bajarilmagan taqdirda birgalikda yoki biri uchun ikkinchisi javob berish ma’nosini beradi.

Solidar qarzdorning biridan to‘liq qanoatlanmagan kreditor olaolmagan narsasini boshqa solidar qarzdorlardan talab qilish huquqiga ega. Solidar qarzdorlar majburiyat to‘la bajarilguncha burchli bo‘lib qolaveradilar.

Masalan, Oddiy shirkat shartnomasi bekor bo‘lgan paytdan boshlab uning ishtirokchilari uchinchi shaxslarga nisbatan bajarilmagan umumiy majburiyatlar bo‘yicha solidar javobgar bo‘ladilar (FKning 971-moddasi).

Subsidiar javobgarlik – qarzdor tomonidan majburiyat bo‘yicha qarzning qoplanmagan qismiga nisbatan uchinchi shaxsning qo‘shimcha javobgarligi hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda subsidiar javobgar kreditor oldida asosiy qarzdorning javobgarligiga nisbatan qo‘shimcha javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Kreditor dastlab majburiyat bo‘yicha javobgarlikni asosiy qarzdorga qaratadi, agar u bajarilmasa subsidiar qarzdor munosabatga jalb etiladi. Masalan, o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha voyaga etmaganning zararni qoplash uchun etarli mol-mulki yoki boshqa daromad manbalari bo‘lmagan taqdirda, zarar to‘ligicha yoki uning etishmagan qismi voyaga etmaganning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki homiysi tomonidan, agar ular zarar o‘zlarining aybi bilan etkazilmaganligini isbotlay olmasalar, to‘lanishi lozim (FKning 994-moddasi).

Subsidiar javobgarlik qonunda, boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilishi yoki shartnomaga asoslangan majburiyatning shartlaridan kelib chiqishi mumkin. Fuqarolik kodeksi 48-moddasining 4-qismiga binoan “Agar yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) shu yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalarni berish huquqiga ega bo‘lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki

mulkdorning gayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin".

Amaldagi fuqarolik qonun hujjatlarida subsidiar javobgarlikni qo'llash sohasi avvalgi qonun hujjatlariga nisbatan ancha kengaytirilgan. Bundan tashqari ko'pgina yuridik shaxslar bilan bogliq qonun hujjatlarda ham bu javobgarlik turiga keng e'tibor qaratilgan.

Uchinchi shaxslar harakatlari uchun javobgarlik FKning 334-moddasiga muvofiq qonun hujjatlari yoki shartnomada bevosita ijrochi bo'lgan uchinchi shaxsning javobgarligi belgilab qo'yilmagan bo'lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxsning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javob beradi. Qarzdorning uchinchi shaxslar harakatlari uchun javobgarligi majburiyatni ijro etish qarzdor tomonidan shartnomaga muvofiq ana shu uchinchi shaxs zimmasiga yuklatilgan va qonun hujjatlari, majburiyatning shartlari va mohiyatidan qarzdor majburiyatni shaxsan ijro etishi kerak degan mazmun kelib chiqmagani hollarda, umumiy qoida sifatida yuzaga keladi (FK. 241-modda).

FKning 324, 333-moddalari talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, qarzdorning uchinchi shaxslar harakatlari uchun javobgarligi fuqarolik-huquqiy javobgarlikning umumiy asoslari mavjud bo'lganida yuzaga keladi.

Qonun hujjatlarida bevosita uchinchi shaxs – majburiyatning ijrochisi javobgar bo'lishi nazarda tutilishi mumkin. Ayrim hollarda uchinchi shaxs-ijrochining to'g'ridan-to'g'ri javobgarligiga doir qoida shartnoma taraflarining kelishuvida nazarda tutilishi mumkin. Masalan, lizing oluvchi lizing shartnomasining narsasi bo'lgan mol-mulkni bevosita sotuvchiga (uchinchi shaxsga) sotuvchi bilan lizing beruvchi o'rtasida tuzilgan oldisotdi shartnomasidan kelib chiqadigan talablarni, xususan, mol-mulkning sifati va butligi, uni etkazib berish muddatlari haqidagi talablarni va shartnoma sotuvchi tomonidan zarur darajada bajarilmayotgan boshqa hollardan kelib chiqadigan talablarni qo'yishga haqli. Bunday hollarda qarzdor (lizing beruvchi) kreditor (lizing oluvchi)

oldida uchinchi shaxs, ya'ni mol-mulkni sotuvchining harakatlari uchun javobgar bo'lmaydi (FKning 598-moddasi).

Uchinchi shaxslarning harakati uchun javobgar bo'lgan qarzdor ana shu uchinchi shaxslar oldiga regress talab qo'yishga haqli. Bunday talab jabrlanuvchi oldida uchinchi shaxsning aybi uchun javobgar bo'lgan shaxs uchinchi shaxsdan o'zi ko'rgan zararlarni to'liq yoki qisman qoplashni talab qilishga haqli bo'lgan hollarda qo'yiladi.

Uchinchi shaxslarning harakatlari uchun javobgarlikning bir qator ko'rinishlari mavjud. Jumladan, yuridik shaxsning yoki fuqaroning o'z xodimi tomonidan etkazilgan zarar uchun javobgarligi, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan etkazilgan zarar uchun javobgarlik, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga hilof harakatlari tufayli etkazilgan zarar uchun javobgarlik, voyaga etmaganlar tomonidan etkazilgan zarar uchun javobgarlik, muomalaga layoqatsizlar tomonidan etkazilgan zarar uchun javobgarlik kabi. Ular aksariyat hollarda maxsus delikt asosidagi javobgarlikda uchraydi.

### **Qarzdorning zararni to'lash majburiyati**

FKning 324-moddasida qarzdor majburiyatni butunlay bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga etkazilgan zararni to'lashi shartligi normalangan. Qarzdorning majburiyatni bajarmasligi natijasida vujudga kelgan va to'lanishi lozim bo'lgan kreditorning xarajatlari deganda, kreditor tomonidan mazkur majburiyat yuzasidan qilingan xarajatlar va qarzdorning o'z vazifasini bajarmaganligi bilan bogliq xarajatlar tushuniladi. Chunonchi, mahsulot etkazib beruvchi tomonidan mahsulotning belgilangan muddatlarda etkazib berilmasligi tufayli mahsulot oluvchi korxonaning faoliyat ko'rsatib turishi vaqtida qilingan xarajatlar to'lanishi lozim.

Majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mulk shartnoma shartlariga muvofiq kelmaganda va kreditor bunday hollarda mulkni qarzdorga qaytarish yoki majbur bo'lganida kreditor zararlarining undirilishidan qat'i nazar, mulk uchun to'langan pul summalarining o'ziga qaytarilishini talab qilish huquqiga ega.

Kreditor qarzdorning o'z vazifasini bajarganligi tufayli yo'qotgan mulkining qiymatini yoki mulkning zararlanishi natijasida uning qiymati kamayishidan kelgan summalarning to'lanishini talab qilishi mumkin. Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida shartnomaviy narxlar amal qiladi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, ba'zi hollarda majburiyat vujudga kelgan paytdagi narx bilan zararni undirish vaqtidagi baholar o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Qonunda ushbu holatlar ham ko'zda tutiladi. FKning 324-moddasi 2-qismi mazmuniga ko'ra, agar qonun hujjatlari yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilmagan bo'lsa, da'vo qo'zgatilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.

Kreditor tomonidan olinmagan va to'lanilishi qarzdordan talab qilishga haqli bo'lgan daromadlar deganda, qarzdor o'z majburiyatini lozim darajada bajarmaganida kreditorning olishi mumkin bo'lgan daromadlar tushuniladi. Bu ayniqsa, pul majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashda yaqqol namoyon bo'ladi. FKning 337-moddasiga asosan boshqa shaxslarning pul mablaglarini gayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to'lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamgarish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablaglar summasiga foiz to'lanishi kerak.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan erida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi. Qarz sud tartibida undirib olinganida, sud kreditorning talabini da'vo qo'zgatilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab qondirishi mumkin. Ushbu qoidalar qonunda yoki shartnomada boshqa foiz miqdori belgilanmagan bo'lsa qo'llaniladi. Kreditorning pul mablaglaridan qonunsiz foydalanish tufayli unga etkazilgan zarar yuqorida ko'rsatilgan foizlar summasidan oshib

ketsa, kreditor qarzdordan zararning bu summadan ortiqcha bo'lgan qismini to'lashni talab qilishga haqli. Ushbu modda bilan bogliq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining qarori da ham tartibga solingan.

Zarar ko'rilganligini isbotlash va bunday zararning qarzdorning majburiyatni bajarmasligidan kelgan bo'lishini isbotlash, shuningdek zararning miqdorini hisoblab ko'rsatish vazifasi zararning undirilishi to'grisida talab qo'yadigan kreditorga yuklatiladi.

Qonunda kreditor qarzdordan yo'qotilgan ashyoning qiymatinigina talab qilishga haqli bo'lib, majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilmasligi natijasidan olinmay qolgan daromadlarni talab qilishga haqli bo'lmasligi hollari ham mavjud.

Qonun ba'zi hollarda zararlarni to'lagan qarzdorning majburiyatni asl holida bajarish burchini ham belgilaydi.

Qonunning 330-moddasiga asosan, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyat bajarilmagan taqdirda zararni qoplash va uning bajarilmaganligi uchun neustoyka to'lash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qiladi. Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyoni topshirish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari FKning 331-moddasida normalangan.

Agar ashyoni oluvchilar egaligiga topshirish to'grisida shartnoma tuzilmay, bu ashyoni kreditorga foydalanish uchun topshirish to'grisida ikki yoki bir necha shartnoma ketma-ket tuzilgan bo'lsa, ashyoning kreditordan biriga topshirilishi, avval shartnoma tuzgan kreditorlarning huquqini yo'qqa chiqaradi. Agar ashyo kreditor bilan birdek huquqqa ega bo'lgan uchinchi shaxsga topshirilgan bo'lsa, bu huquq bekor bo'ladi. Bunday holda avval shartnoma tuzgan kreditor ko'rgan zararlarning to'lanishi to'grisida da'vo qo'zgatishga haqli.

Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyoni egalikka o'tkazish yoki xo'jalik yuritishga, operativ boshqarishga yoxud foydalanish uchun topshirish to'grisidagi ketma-ket tuzilgan ikki yoki bir necha shartnomalar bo'lgani holda ashyo kreditorlardan hech qaysisiga topshirilmagan bo'lsa, kreditorlardan qaysi biri foydasiga ilgari



majburiyat vujudga kelgan bo'lsa, ya'ni ashyoni topshirish to'grisida kim bilan avval shartnoma tuzilgan bo'lsa, shunisi ustunlik huquqiga ega bo'ladi.

Agar ishning vaziyatlari bo'yicha majburiyatlarning qachon vujudga kelganligi, ya'ni shartnoma kim bilan avval tuzilganligini belgilash mumkin bo'lmasa, ashyoning topshirilishi to'grisida kim avval da'vo qo'zgatgan bo'lsa, bu shaxs imtiyozga ega bo'ladi.

Muayyan ishni bajarish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari 330 moddada belgilanganidek, majburiyatni real ravishda, aslicha bajarilishini ta'minlashga qaratiladi. FKning mazkur normasi qarzdor tomonidan majburiyatning bajarilmaganida shartnoma yuzasidan bajarilishi lozim bo'lgan ishni, birinchi navbatda, o'zi bajarishi yoki bajarishni boshqa shaxsga topshirishi va mazkur ishni bajarish uchun zarur xarajatlarning to'lanishini qarzdor zimmasiga qo'yish huquqini beradi.

Fuqarolik prostessual qonunlarda javobgarni muayyan harakatlar qilishga majbur etadigan da'volarning qilinishi va bu to'grida sud qarorining chiqarilishi nazarda tutiladi. Majburiyat bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni bevosita qilishga majbur etish mumkin bo'lmaganligi tufayli qonun, agar javobgar qarorni belgilangan muddatda bajarmasa, da'vogar bu harakatlarni javobgar hisobidan o'zi bajarishga va shu munosabat bilan qilingan zarur xarajatlarni undan undirishga haqli ekanligi to'grisida sud o'z qarorida ko'rsatishga haqli bo'ladi, deb ko'rsatma beradi. Agar qonun yoki shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiyatni bajarmagan qarzdor hisobiga ishning kreditor tomonidan bajarilishiga yoki u bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha boshqa shaxs tomonidan bajarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar qarzdor, ya'ni javobgar tomonidan bajarilmagan faqat uning tomonidagina bajarilishi mumkin bo'lsa, bunday harakatlarni qilishga qarzdorni majbur etadigan qarorda sud qarori ijro etilishi muddati belgilanadi, agar sud qarori belgilangan muddatda ijro etilmasa, javobgarga qonunda ko'rsatilgan tartibda jarima solinishi mumkin.

Ba'zi hollarda ishni ijro etish mumkin bo'lmaganida, kreditor majburiyatning qarzdor tomonidan bajarilmasligi tufayli o'ziga etkazilgan zararining to'lanishini talab qila oladi. Qarzdorning

javobgarlikdan ozod qilinishi asoslari Qarzdorning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uning aybisiz sodir bo'lganligi yoki bunday holat kreditorning aybi bilan bogliq bo'lsa, umumiy qoida bo'yicha qarzdor javobgarlikdan ozod bo'ladi. Qarzdor tomonidan majburiyatning aniq bajarilishiga to'sqinlik qilgan yuqorida ko'rsatilgan yuridik faktlardan birining bo'lishi – majburiyat bajarilishi mumkin bo'lmasligi tushunchasini bildiradi.

Oddiy tasodifiy holat – yuridik ma'noda majburiyatning qarzdor tomonidan uning va kreditorning aybi bo'lmay turib bajarilganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligini sodir qilgan holat hisoblanadi. Bunday holatlar uchinchi shaxslarning, chunonchi, boshqa shaxslarning harakatlari bilan ham bogliq bo'lishi mumkin. Masalan, begona bir shaxsning harakatlari natijasida qarzdor yo'qligida u tomondan oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha kreditorga topshirilishi lozim bo'lgan uyga o't tushib, yonib ketishini ko'rsatish mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ahamiyatini hisobga olgan holda tadbirkorlar uchun muhim kafolatni ko'zda tutadi. FKning 333-moddasi 3-qismiga asosan basharti, qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga engib bo'lmaydigan kuch, ya'ni, favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

Qarzdor tomonidan majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod bo'lishiga asos bo'luvchi holatlarga nazariya va amaliyotda “fors-major” deyiladi. Franstuz huquqida bu ibora “yengib bo'lmaydigan kuch” va “tasodif” tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.

Ayni vaqtda yengib bo'lmaydigan kuchga taalluqli hodisalarni ob'ektiv va subyektiv xarakteri bo'yicha yuridik adabiyotlarda yagona fikr mavjud emas. Qaytarib bo'lmas kuchning ob'ektiv xarakterini e'tirof etgan va subyektiv xarakterini tan olmaydigan mualliflar uning doirasiga tabiiy ofatlar – zilzila, to'fon, yongin va h.k., ijtimoiy turmush voqealari – urushlar, inqiloblar, qo'zgonlar, shuningdek davlat hokimiyatining

hujjatlari, masalan, eksport yoxud importning taqiqlab qo'yilishi va umuman majburiyatning bajarilishini istisno etadigan, qarzdorga nisbatan tashqi kuch hisoblangan, qarzdorning ham, uning o'rnida har qanday shaxsning ham erk-irodasiga bogliq bo'lmagan holatlarni kiritadilar. Boshqa nazariyotchilar, esa qaytarib bo'lmaydigan kuchni engish mutlaqo mumkin bo'lmashligi shart emas, bu nisbiy bo'lishi ham mumkin, masalan, bu kuchni bartaraf etish qarzdorni xonavayron qiladigan holatga keltirishi ham mumkin, deb hisoblaydilar<sup>1</sup>.

Qaytarish mumkin bo'lmagan kuch sifatida shu majburiyatda taraflar bo'lgan shaxs tomonidan, uning ixtiyoridagi barcha vositalar bilan oldini olish, qaytarish mumkin bo'lmagan favqulodda hodisa deb baholanadi.

Qaytarish mumkin bo'lmagan kuch oddiy tasodifiy hol kabi majburiyatni bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarmaganlikda taraflarning aybi bo'lmashligi va mazkur aniq holatlarda uni qaytarish mumkin bo'lmashligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, mazkur holat odatdan tashqari favqulodda sodir etilgan bo'lishi kerak. Amalda bunday holatlarda tabiiy ofat, masalan, suv toshqini, zilzila, kuchli bo'ron kabi tabiiy ofat hollari to'grisida so'z yuritiladi.

Sud qarorlarida majburiyatni butunlay bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan qarzdorni ozod qilishga asos bo'ladigan qaytarish mumkin bo'lmagan kuch holatlarini ko'rsatish kamdan-kam uchraydi.

Qaytarish mumkin bo'lmagan kuchni (zilzila, toshqin, yongin kabilarni) nisbiy tushuncha deb bilib, bunday holatlarni asos qilib, javobgarlikdan ozod qilishqilmaslik mazkur holatlarning qanday sharoitlarda, qanday joyda va davrda sodir bo'lganligi e'tiborga olinadi. Majburiyatni bajarishga to'sqinlik qilgan holat o'zining ichki, o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha qaytarish mumkin bo'lmagan kuch sifatida ko'rilmaydi, balki qator sharoit va muayyan holatlarning birgalikda kelishiga qarab belgilanadi. Qaytarib bo'lmaydigan kuch ta'siri natijasida zarar etkazilganligi isbotlanganda mulkiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Shu bilan birga, ayrim hollarda qaytarib bo'lmaydigan kuch ta'sirida etkazilgan zararining to'lanishi ham fuqarolik qonunchiligida

nazarda tutilgan. Chunonchi, havo transportidan foydalanishda yo'lovchilarning ko'rgan zararlari O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksiga muvofiq to'la ravishda to'lanadi.

Qaytarib bo'lmaydigan kuch tushunchasini aniqlash fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'grisidagi masalani to'g'ri hal qilish uchun zarur. Chunki qarzdor tasodifiy holat uchun javobgar bo'lganligi tufayli qaytarish mumkin bo'lmagan kuch mavjud bo'lganida, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Xususan, avtotransport orqali yuk yuboruvchi va yuk tashuvchi tashkilot yuk tashishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni tasodifiy holatlar sababli bajarmaganlarida javobgarlikka tortilsalar, ammo tabiiy hodisalar sodir bo'lganda javobgarlikdan ozod qilinadilar. Yengib bo'lmaydigan kuch ta'sirida majburiyatni bajarmaganlik uchun qarzdorni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda sodir bo'lsagina qo'llaniladi. Binobarin, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq bo'lmagan majburiyatlarga nisbatan FKning 333-moddasining 3-qismi normasi qo'llanilmaydi. Ayni vaqtda shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq bo'lgan majburiyatning bajarilmasligi qarzdorning shartnoma bo'yicha sheriklari tomonidan sodir etilib, bozorda majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning yo'qligi, qarzdorda pul mablaglari bo'lmaganligi sababli ro'y bergan hollarda ular engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati sifatida qaralmaydi va demak, qarzdorni 333-modda 3-qismi bilan javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo'lmaydi.

Kreditorning aybini ham aniqlash muhim ahamiyatga ega. FKning 335-moddasida aytilganidek, agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo'lmashligi yuk berishiga yoki bajarmaslik tufayli etkazilgan zarar miqdorining ko'payishiga ko'maklashgan bo'lsa, shuningdek kreditor majburiyatni bajarmaslikdan etkazilgan zararni kamayish choralarini qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko'rmagan bo'lsa, sud ishning holatlariga qarab to'lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to'lashni batamom rad etishga haqli.

FKning qoidasida majburiyatlarning qarzdor, shuningdek kreditor xatti-harakatlari tufayli bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi

to'grisida so'z boradi. Bunday hollarda qarzdorning javobgarligi hajmi ham kamaytirilishi mumkin. Mazkur holda sud har ikki tarafning aybi darajasini belgilashi va qarzdorning javobgarligi miqdorini tegishli kamaytirishi, kreditor ko'rgan zararlarni qisman to'lashga majbur qilishi, kreditorga to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka summasini kamaytirishi lozim.

Modomiki, majburiyatlarni bajarishda har ikki taraf o'zi uchun foydali, tejamli samaraga erishishni ko'zlab harakat qilgan ekan, kreditor o'z aybi bilan zarar kamayishi uchun choralar ko'rmasa, o'z majburiyatini bajarmagan hisoblanadi. Majburiyatni bajarmaslikdagi aybi keyinchalik majburiyatni lozim darajada bajara olmagan qarzdorning javobgar bo'lish darajasini belgilashda e'tiborga olinadi.

Majburiyatni bajarmaslikda har ikki taraf teng darajada aybli bo'lsa, ko'rilgan zarar taraflar o'rtasida bab-baravar taqsimlanishi zararning faqat yarminigina to'lashga majbur qilinadi. Zararning ikkinchi yarmi esa kreditorga to'lanmay qoladi. Ammo bunday javobgarlik barcha hollarda ham bir xil bo'lmaydi. Chunonchi, sud qarorlarida har ikki tarafning aybini taqqoslab ko'rib, to'lanadigan zarar summasi birmuncha kamaytirilishi hollari ko'riladi.

Ba'zi hollarda qarzdor majburiyatni bajarish uchun barcha choralarni ko'rsa ham kreditor o'zining harakatsizligi va beparvoligi bilan majburiyatning bajarilishiga to'sqinlik qiladi. Bunday holda sud qarzdorning majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik javobgarligidan ozod qiladi.

### **3. Tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik.**

O'zRsi Soliq Kodeksida soliq majburiyatlarini buzganlik uchun qo'yidagi moliyaviy jazo choralari belgilangan:

1) Yuridik shaxslar soliq organlarida ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlaganliklari uchun yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanayotgan jismoniy shaxslar ushbu xarakatlarni sodir etsa.

2) Daromad (foyda)ni yashirish.

3) Soliq bo'yicha deklarastiyalar hisob-kigoblar va qmsobotlarni taqdim etmaganlik yoki o'z vaqtida taqsimlamaganlik uchun.

4) Buxgalteriya hisobining yo'qligi yoki uni buzgan holda yuritganlik uchun.

5) Faoliyat turlari bilan listenziyasiz shugullanganlik uchun.

6) Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxs hisob-kitobga kirishmasdan ish bajarish, xizmat ko'rsatish, tovar sotish operastiyalarini o'tkazganlik uchun.

7) Soliq va yigimlar bo'yicha to'lov muddati o'tkazib yuborilganda.

### **Tadbirkorlik nizolarini mamuriy tartibda hal etish.**

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'grisidagi kodeksi (MJTK)da soliklar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash, shuningdek, soliq solinadigan ob'ektlarning hisobini olib bormaslik yoki kassa operastiyalarini yuritish tartibini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Tadbirkorlarni tabiiy ob'ektlardan foydalanish tartib va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Shuning uchun xam, tadbirkorlik faoliyatida tabiiy ob'ektlardan foydalanish talab va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning 'ziga xos xususiyatlari xam mavjud. Tadbirkorlarni tabiiy ob'ektlardan foydalanish tartib va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish uchun asos sifatida ma'muriy huquqbuzarlikni ya'ni nojo'ya xatti – xarakatni sodir etishi yetarli hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikda, tadbirkorlarni tabiiy ob'ektlardan foydalanish tartib va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish asosi va uning tushunchasi O'zbekiston Respublikasining MJTKda belgilangan. Ushbu kodeksning 10-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy,

aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi<sup>38</sup>.

Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni qasddan sodir etish, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi g'ayrihuquqiy ekanligini bilgan bo'lsa, uning zararli oqibatlariga ko'zi yetgan, yuz berishini istagan bo'lsa yoki bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikni ehtiyotsizlik orqasida sodir etish agarda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi zararli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'ra bilgan bo'lsa ham, lekin kaltabinlik bilan ularning oldini olish mumkin deb o'ylagan bo'lsa, yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbuzarlik ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, mazkur mazkur kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, shu jumladan tadbirkorlarni tabiiy ob'ektlardan foydalanish tartib va qoidalarini buzganlik uchun basharti bu huquqbuzarliklar o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatida tabiiy ob'ektlardan foydalanish tartib va qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortishdan asosiy maqsad – barcha tadbirkorlarning 'rjkjubr qonunlarni aniq va to'g'ri bajarishlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarni tadbirkorlik faoliyatida aniq va to'g'ri ijro etilishi, hurmat qilishi, tadbirkor yuridik va jismoniy shaxslardan lozim bo'lgan burch yoki majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishlarini, amalga oshirishlari, zero ular tabiiy ob'ektlardan

---

<sup>38</sup> (10-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

foydalanish bilan bogliq huquqbuzarlikni oldini olish va unga qarshi kurashishdan iboratdir.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, O‘zR MJTKda ko‘rsatilgan qo‘yidagi huquqbuzarlik turlarini sodir etganlik uchun **ma‘muriy javobgarlikka** tortiladilar:

Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish, yerdan, suvdan, o‘simlik yoki hayvonot dunyosidan o‘zboshimchalik bilan foydalanish yoxud yerga va boshqa tabiiy resurslarga (bundan yer osti boyliklari va yer osti suvlari mustasno) egalik huquqini bevosita yoki yashirin shaklda buzuvchi bitimlar tuzish yoki boshqa harakatlar sodir etish, tabiatdan maxsus foydalanish huquqini boshqalarga berish<sup>39</sup>.

Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish, shu jumladan ushbu yer uchastkalariga nisbatan qonuniy huquqlari mavjud bo‘lmagan holda ulardan foydalanish. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan, ajratilgan yer uchastkasiga tutash bo‘lgan va tutash bo‘lmagan yer uchastkalarida qurilish ishlarini amalga oshirish.

Sug‘oriladigan yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rmaslik, Sug‘oriladigan yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachi tomonidan choralar ko‘rilmaganligi, shu jumladan yer uchastkasi o‘zboshimchalik bilan egallab olinganligi fakti to‘g‘risida vakolatli organlar xabardor etilmaganligi.

Oz miqdorda talon-toroj qilish, Mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxonalar, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o‘g‘irlash, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish.

Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish, Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisiga mazkur xizmatchining

---

<sup>39</sup> Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 197, 202 — 204, 2291-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuni.



o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish.

Nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti xizmatchisining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi, — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Mulknini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, o‘zining mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, oz miqdorni tashkil etsa, — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘zining mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish ko‘p bo‘lmagan miqdorni tashkil etsa, — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Oz miqdor deganda bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha bo‘lgan doiradagi, ko‘p bo‘lmagan miqdor deganda esa, bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lgan doiradagi miqdor tushuniladi.

Ustav fondida davlat ulushi bo‘lmagan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mol-mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish faqat mazkur korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko‘ra javobgarlikka sabab bo‘ladi.

G‘ayriqonuniy ov, baliq ovlash mahsulotini, yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarni yig‘ish va tayyorlash mahsulotini qabul qilib olish. Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish Davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlarining qo‘riqlanadigan tegralarida, alohida

muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarda, shu jumladan o'zining tarixiy-madaniy qimmatiga ko'ra Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlarda va ularning qo'riqlanadigan tegralarida moddiy madaniy meros obyektlari hisoblanmagan binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarni belgilangan tartibda ruxsatnoma olmasdan qurish yoki buzish. Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish, Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, obyektlar qurish paytida unumdor qatlamni olmaslik, yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish, yerlarni foydalanishdan chiqarishga, hosildorlik pasayishiga, tuproqning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan boshqa harakatlarni sodir etish, shuningdek tanazzulga yuz tutgan qishloq xo'jaligi yerlarini konservatsiyalashning belgilangan tartibini buzish.

Yerga egalik qiluvchilar, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar tomonidan bir gektardan ortiq maydonga ega yer uchastkasida sug'oriladigan yerlarni yaxshilash hamda muhofaza qilish, shu jumladan yerlardan maqsadli, oqilona foydalanilishini, tuproqning qayta tiklanishini va hosildorligi oshirilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi.

Yer berish tartibini buzish, Yer berish tartibini buzish, xuddi shuningdek fermer yoki dehqon xo'jaligi yuritish uchun, yakka tartibda uy-joy qurish va turar-joy binosiga xizmat ko'rsatish, jamoa bog'dorchiligi va polizchiligi uchun fuqarolarga yer berilishiga to'sqinlik qilish, — mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Vaqtincha egallab turilgan yerlarni o'z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni o'z o'rnida foydalanish uchun yaroqli holga keltirmaslik.

Yer tuzish loyihalaridan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish, davlat yer kadastrini yuritish qoidalarini buzish, Tasdiqlangan yer tuzish loyiha hujjatlaridan tegishli ruxsat bo'lmay turib chetga chiqish, xuddi shuningdek tegishli organlar bilan kelishmay turib obyektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish va ularni foydalanishga topshirish, davlat yer kadastrini yuritish qoidalarini buzish, yerlardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni buzib ko'rsatish, axborotlarni berishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri axborot berish.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'z vaqtida murojaat etmaslik, Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organga yer uchastkasiga, bino va inshootga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'z vaqtida murojaat qilmaslik.

Chegara belgilarini, geodezik punktlarni va cheklov belgilarini yo'q qilish yoki shikastlantirish. Yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish talablarini buzish, foydali qazilmalar joylashgan maydonlarga o'zboshimchalik bilan imoratlar qurish, foydali qazilma konlarini ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda kon nazorati organlari bilan kelishmay turib ishga solish, yer osti boyliklaridan foydalanish talablari va tartibini buzish (bundan foydali qazilmalarni litsenziyasiz qazib olish mustasno), yer qa'ridan foydalanishda ishlarni olib borish xavfsizligi talablarini buzish, yer osti boyliklarini muhofaza qilish qoidalarini va tabiiy muhitni, binolar va inshootlarni yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlarning zararli ta'siridan muhofaza qilish talablarini bajarmaslik, yer osti suvlari rejimini kuzatish uchun qazilgan quduqlarni, marksheyderlik va geologik belgilarni yo'q qilish yoki shikastlantirish, xuddi shuningdek umumtarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish qoidalarini yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar tomonidan buzish.

Foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish, foydali qazilmalarni ruxsatnomasiz qazib olish, xuddi shuningdek oltin izlovchilar usulida ruxsatnomasiz qazib olish, bundan yer osti suvlari hamda daryolar o'zanlarida joylashgan foydali qazilmalar mustasno. Yer osti boyliklarini geologik jihatdan o'rganish ishlarini olib borish qoidalari va talablarini buzish. Suv resurslarini muhofaza qilish qoidalarini buzish, Suvlarni ifloslantirish yoki bulg'atish, suvto'plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish, shuningdek suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo'l qo'yish shartlari to'g'risidagi talablarni buzish.

Zararli moddalar va qorishmalarga oid operatsiyalarni kema hujjatlarida qayd etish majburiyatlarini bajarmaslik, Suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini buzish, tabiiy suv oqimlari (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar), suv havzalari (ko'llar, dengizlar) va boshqa tabiiy

suv obyektlaridan olinadigan suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalarini, suv olish limitlarini buzish, suvlarning hamda suv obyektlarining holatiga ta'sir ko'rsatuvchi gidrotexnika ishlarini va boshqa ishlarni o'zboshimchalik bilan bajarish, shuningdek loyihada nazarda tutilgan baliqlarni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalari bo'lmagan holda ulardan suv olishni amalga oshirish.

Suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, ulardan foydalanish qoidalarini buzish, O'rmon fondi yerlaridan foydalanish qoidalarini buzish, Kesiladigan o'rmon fondidan foydalanish tartibini buzish, O'simlik dunyosi obyektlarini yig'ish, tayyorlash va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlarini buzish, Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni yig'ish, Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish, O'rmon uchun foydali faunani yo'q qilib yuborish, O'rmonlarda yong'in xavfsizligi talablarini buzish.

Ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarni atmosfera havosiga chiqarib tashlash, unga zararli fizikaviy ta'sir ko'rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish. Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootidan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek undan foydalanmaslik. Ozon qatlamiga zararli ta'sir ko'rsatishning oldini olishga doir talablarni buzish.

Chiqindilarda ifloslantiruvchi moddalar normativdan ortiq bo'lgan transport va boshqa harakatlanuvchi vositalar va qurilmalarni tayyorlash hamda foydalanishga chiqarish. Atmosfera havosini muhofaza qilish talablariga rioya qilmaslik. O'simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni shuningdek kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarni hamda bug'lanuvchan birikmalarni tashish, saqlash va qo'llanish qoidalarini buzish, Sanoat chiqindilarini, maishiy chiqindilarni va boshqa chiqindilarni to'plash, tashish, joylashtirish, zararsizlantirish, saqlash, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, realizatsiya qilish chog'ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, Belgilanmagan joylarga qattiq maishiy chiqindilarni va qurilish chiqindilarini tashlash, shuningdek suyuq maishiy chiqindilarni to'kish, Sanitar tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha talablarni buzish.

### **Investitsiyaviy nizolarga oid ishlar**

Investitsiyaviy nizolar jumlasiga investorlar bilan ma'muriy organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi ular mansabdor shaxslarining investitsiya shartnomasi shartlariga rioya qilinishi bilan bogliq qarorlariga, harakatlariga (harakatsizligiga) doir ishlar kiradi.

#### **Raqobat to'risidagi ishlar**

Raqobat to'risidagi ishlar bo'lib yuridik shaxslar, shu jumladan chet ellik yuridik shaxslar, xo'jalik boshqaruvi organlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va monopoliyaga qarshi organ o'rtasida tovar hamda moliya bozorlarida raqobat sohasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan, ma'muriy sud sudloviga tegishli nizolar hisoblanadi.

**Ishlarning sudlovga tegishliligi** - sudga taalluqli ishlar tumanlararo ma'muriy sudlar tomonidan ko'riladi, bundan Qoraqalpoiston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishli ishlar mustasno.

Investitsiya nizolari bo'yicha yirik investorning, raqobat to'risidagi ishlar bo'yicha tomonlarning xohishiga ko'ra ushbu toifadagi ishlar bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan, qolgan investitsiyaviy nizolar investorning xohishiga ko'ra, Qoraqalpoiston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chiqiladi.

#### **Qoraqalpoiston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari sudloviga tegishli ishlar**

Qoraqalpoiston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari birinchi instansiya sudi sifatida davlat sirlari bilan bogliq ishlarni ko'radi. Qoraqalpoiston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari alohida holatlarga qarab, har qanday ishni tumanlararo ma'muriy suddan olib qo'yishga va uni birinchi instansiya bo'yicha o'zining ish yurituviga qabul qilishga, ishni bir suddan boshqasiga o'tkazishga haqli.

## **Sudlovga tegishlilikning umumiy qoidalari**

Fuqaroning yoki yuridik shaxsning arizasi (shikoyati) qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan ma'muriy organ joylashgan yer yoxud mansabdor shaxsning ish joyi bo'yicha sudga taqdim etiladi.

### **Arizachining tanlovi bo'yicha sudlovga tegishlilik**

Turli yerlarda joylashgan bir nechta javobgarga nisbatan ariza (shikoyat) arizachining tanlovi bo'yicha javobgarlardan biri joylashgan yerdagi sudga taqdim etiladi.

Yirik investor bo'lmagan investorning investitsiya faoliyati bilan bogliq da'vo arizalari (shikoyatlari) javobgar joylashgan erdagi tumanlararo ma'muriy sudga yoki Qoraqalpoiston Respublikasi ma'muriy sudiga, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlariga taqdim etilishi mumkin.

Yirik investorning investitsiya faoliyati bilan bogliq da'vo arizalari (shikoyatlari), shuningdek tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan da'vo arizalari tumanlararo ma'muriy sudga yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga taqdim etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, iqtisodiy nochor deb, "Iqtisodiy sud tomonidan etirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi" tushuniladi. Majburiy to'lovlarga soliqlar, yig'imlar va davlatning maqsadli fondlariga boshqa majburiy to'lovlar kiradi. Bankrotlik to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonunida o'rnatilgan tartibda xo'jalik subyekti tomonidan iqtisodiy sudga ariza bilan murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu alomatlar mavjud bo'lmagan taqdirda xo'jalik subyektini iqtisodiy nochor deb topish mumkin emas. Bankrotlikni yashirish deganda, o'zining to'lovga qodir emasligi to'g'risidagi malumotlarni bo'zib ko'rsatish yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan hujjatlarni kreditorlarga taqdim etish yoxud buxgalteriya hisobotlarini bo'zib ko'rsatish yoxud o'zining

iqtisodiy nochorligi haqidagi boshqa faktlarni berkitish tushiniladi. Shuni takidlab o'tish lozimki, yashirish faqatgina faktik vujudga kelgan holatlar bo'yicha yo'zaga kelgan munosabatlarga xosdir. Shuning uchun xo'jalik subyekting kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan qarzlarni to'lay olmasligi bilan bog'liq malumotlarni taqdim etmasligi bankrotlikning yashirilishi deb qaralishi mumkin emas. Bu o'rinda shunga alohida etibor berish lozimki, xo'jalik subyektini to'lovga qobiliyatsizligi faktini belgilashda faqatgina o'zaytirilgan qarzdorlik majburiyatlari inobatga olinishi lozim, chunki to'lash muddati yetib kelmagan majburiyatlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt qarzdor deb topilmaydi. Shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlikni belgilashda alohida etiborni xo'jalik subyektida mavjud (balansida ro'yxatda bo'lgan) mulkning tahliliga qaratmoq lozim, chunki bankrotlik naqd pul yoki naqd pulsiz shakldagi yuqori likvidli aktivlarga emas, balki faqatgina qarzdorlik bo'yicha to'lovga butun mol-mulki yetmaganda yo'zaga keladi.

### **Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini jinoiy javobgarlikka tortish asoslari.**

1. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik.
2. . Bankrotlik haqidagi qonun hujjatlarini hamda Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.
3. Soliq to'lovlarini to'lamaganligi uchun hamda budjetni notori yuritganligi uchun jinoiy javobgarlik.
4. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik.
5. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanganlik uchun jinoiy javobgarlik.
6. Faoliyatni lisenziyasiz amalga oshirganlik uchun va raqobatchini obrosizlantirganlik uchun jinoiy javobgarlik.

Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini bo'zganlik uchun jinoiy javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'grisida" gi 815-I-son, qonuni xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorda raqobatlanishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi, monopoliya faoliyati, yani monopoliyaga qarshi qonunga zid bo'lgan faoliyatning oldini olish va uni bartaraf qilishning huquqiy asoslarini

belgilaydi. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini boʻzishning ijtimoiy xavfliligi shundaki, ushbu jinoyatni sodir etish natijasida alohida xoʻjalik subyektlariga monopolistik faoliyatni amalga oshirish uchun real imkoniyat vujudga keladi. U bozor iqtisodiyoti faoliyatiga juda salbiy tasir etadi, chunki bozor iqtisodiyotini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri monopoliya bilan sigʻishmaydigan erkin raqobatdir. Raqobat shartlari barcha mulk shakllarining tengligi kapitalning bir muhitdan boshqa muhitga erkin oqib oʻtishini taminlovchi ishlab chiqilgan iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Iqtisodiy munosabat ishtirokchilarining iqtisodiy erkin boʻlishi shartdir. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini boʻzish bozorning yuqorida koʻrsatilgan muhim elementlariga, shuningdek, alohida fuqarolar, jamiyat va davlatga ham moddiy zarar yetkazadi.

Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini boʻzish jinoyatining obykti oʻrnatilgan tartib va bozorni samarali boshqarish qoidalari shaklidagi Oʻzbekiston iqtisodiyotining asoslari, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning oʻz huquq va imkoniyatlarini amalga oshirishlariga toʻsqinlik qiluvchi monopolistik faoliyatni amalga oshirishning oldini oluvchi munosabatlar hisoblanadi. Fakultativ obykti xoʻjalik subyekti sifatida faoliyat koʻrsatmaydigan alohida fuqarolar va davlatning qonun bilan qoʻriqlanadigan huquq va manfaatlari boʻlishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 183-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan harakatlar monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organga axborot bermaslikdan yoki bila turib haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan malumotlarni taqdim qilishdan iborat boʻladi.

### **Soxta tadbirkorlik uchun jinoiy javobgarlik.**

Soxta tadbirkorlik jinoyati korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi toʻzilmaning qonunda, oʻz Ustavida belgilangan faoliyatini taminlovchi ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqadi. Soxta tadbirkorlik tadbirkorlik faoliyati gʻoyasiga tajovoʻz qiladi. Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundaki, soxta tadbirkorlik nafaqat iqtisodiyot asoslariga, tadbirkorlik faoliyati gʻoyasining oʻziga



ham tajovo‘z qiladi, “odamlarning bozorga va uning boshqacha xo‘jalik yuritish usullaridan afzalligiga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazadi”.

Ushbu jinoyat tadbirkorlik Ustavida ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko‘zlamasdan, korxonalar yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarni to‘zishda ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40-moddasiga muvofiq, foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni maqsad qilib olmagan (tijoratchi bo‘lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo‘lishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs xo‘jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar hamda qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda to‘zishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-moddasida esa yuridik shaxs o‘zining tasis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyat maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquqi layoqatiga ega bo‘ladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati, uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilangan bo‘ladi.

Har bir to‘zilgan korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik to‘zilmasi faqat o‘z Ustavida ko‘rsatilgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi kerak. Soxta tadbirkorlikda esa uni to‘zuvchilar o‘z Ustavida ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko‘zlamaydi, balki korxonalar boshqa maqsadlarni ko‘zlab to‘ziladi.

Tijoratchi tashkilotni to‘zish deganda, to‘ziladigan tijoratchi tashkilotning kerakli tasis hujjati va uni vakolatli organlardan ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kerak bo‘lgan hujjatlarni yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan tashkilotchilik jarayoni (masalan, bozor tashkil etish uchun hokimiyatning roziligi talab etiladi) tushuniladi. Tijoratchi tashkilot davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab to‘zilgan hisoblanadi<sup>3</sup>. Agar tashkilot aybdorga bog‘liq bo‘lmagan holda davlat ro‘yxatidan o‘tmagan bo‘lsa, uning harakatlarini JK 25-moddasi 2-bandi va JK 179-moddasi bilan ustavda ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirmaslik maqsadida tashkilot to‘zish (soxta tadbirkorlik) jinoyatiga suiiqasd deb kvalifikasiya qilinadi. Biroq bunda aybdorning ustav faoliyatini amalga oshirmaslik qasdini aniqlash zarur, aks holda uning harakatlari Jinoyat kodeksining ushbu moddasi bilan kvalifikasiya qilinmaydi. Korxonani to‘zish

(vujudga keltirish) faktining o'zi to'la qonunga asoslangan bo'ladi, uning Ustavi, zaruriy tasis hujjatlari qabul qilinadi, ro'yxatdan o'tkaziladi, biroq ishni boshlash vaqti kelganda, bunday korxonada o'z Ustavida ko'rsatilgan faoliyat bilan umuman shug'ullanmaydi yoki Ustavida ko'rsatilmagan faoliyat bilan shug'ullanadi. Ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish maqsadining yo'qligi tasis hujjatlarida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslikda namoyon bo'ladi. Ustavda ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan korxonada yoki boshqa tadbirkorlik to'zilmesi to'zilgan paytdan etiboran jinoyat tamom bo'lgan deb topiladi.

Soxta tadbirkorlik jinoyati qasddan qonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaslik va qarz-kredit olish – foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (pasaytirish) yoki boshqa mulkiy naf ko'rish jinoyat maqsadining zaruriy alomati hisoblanadi.

Ustav faoliyati deganda, faoliyatning shunday turi tushuniladiki, tadbirkorlik tashkiloti tomonidan uni amalga oshirish uchun barpo etiladi va bu uning tasis hujjatlarida qayd etiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, tasis hujjatining turi va shaklidan qati nazar, unda qayd etilgan faoliyat turlari ustavga oid hisoblanadi. Niyat yo'qligini, sodir etilgan harakatlar haqiqiy emasligini aniqlashning o'ziga xosligi va murakkabligi fuqarolik-huquqiy bitimning haqiqiy emasligini baholashda yo'zaga keladigan shu kabi tegishli masalalarga monand bo'lib, ustav faoliyatini amalga oshirishni ko'zlamay yuridik shaxsni tashkil etishni ham amalda xuddi shunday deb atash mumkin. Bu kabi niyat mavjudligidan yuridik shaxsning tasis hujjatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni O'zbekiston Respublikasi FK 6-moddasida tartibga solingan ish muomalasi odatlariga muvofiq, zarur va yetarli bo'lgan vaqt mobaynida bajarmaslik ham dalolat beradi.

Soxta tadbirkorlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishda shaxsning tasis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirmay turib noqonuniy kreditlar olish, soliqlardan ozod bo'lish, egallashga huquqi bo'lmagan boshqa mulkiy foyda ko'rish maqsadini ko'zlaganligi hisobga olinishi lozim. Bunday maqsadning aniqlanishi shaxsning xatti-harakatlarini Jinoyat kodeksining 179-moddasi hamda talon-toroj etishga suiqasd

qilish va soliq to'lovlari to'lashdan bo'yin tovlash va hokazolar uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi moddalari majmui bilan kvalifikasiya qilishga asos bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, subyektiv jihat quyidagi tarkibiy qismlar birligidan iborat bo'ladi:

- 1) tashkilotni to'zishdan bevosita ko'zlangan niyat;
- 2) tashkilot ro'yxatga olingunga qadar paydo bo'lgan niyat, – ustav faoliyatini amalga oshirmaslik niyati;
- 3) alohida maqsad – mulkiy foyda olish niyatining mavjudligi.

Sanab o'tilgan tarkibiy qismlardan birortasi mavjud bo'lmas ekan, aybdor harakatlarining ijtimoiy xavfliligini takidlash mumkin bo'lmaydi. Bunda mazkur jinoyat sabablari, odatda, g'arazli ekanligiga qaramay, boshqacha bo'lishi ham mumkin. Jinoyatga baho berishda ular tasir ko'rsatmaydi.

Ushbu jinoyat yo'zasidan 16 yoshga to'lgan va soxta tadbirkorlik bilan shug'ullangan har qanday shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar soxta tadbirkorlik bilan shug'illanish maqsadida to'zilgan korxonalar va tashkilotlarga raxbarlikni amalga oshirish yuklatilgan raxbarlari xam bilganlari xolda faoliyat amalga oshiriladigan taqdirda raxbarlari xam jinoyatning subyektlari bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 179-moddasiga ko'ra, soxta tadbirkorlik jinoyatini sodir etgan shaxslar eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yo'z baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yilgacha ahloq to'zatishtish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Soxta tadbirkorlik tashkiloti aybdor foydasiga g'ayriqonuniy mol-mulkni egallash, aldash va ishonchni suiistemol qilish yo'li bilan mol-mulkni tortib olish harakatlarini amalga oshirish uchun to'zilgan bo'lsa, aybdor JK 168-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi, chunki bu firibgarlik hisoblanadi.

Soliq to'lashdan ozod etilgan soxta tadbirkorlik tashkilotining tasischilari va rahbarlari, JK 184-moddasi – soliq to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati bo'yicha javobgarlikka tortilishi kerak. Agar soxta tadbirkorlik jamiyatini to'zishdan maqsad taqiqlangan faoliyatni (diniy

talimotlar berish, orden va medal, muhr va shtamplar, giyohvand, qattiq tasir qiluvchi va zaharli moddalarni tayyorlash va boshqalarni) amalga oshirish bo'lsa, aybdor shaxs jinoyatlar majmui tariqasida JK 179-moddasi va tegishli jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan javobgarlikka tortiladi.

### **Bankrotlikni yashirganlik uchun jinoiy javobgarlik.**

Tahlil etilayotgan jinoyat bozor iqtisodiyoti sharoitida bankrotlikni amalga oshirishning belgilab qo'yilgan tartibini, belgilovchi hamda taminlovchi ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundaki, u sodir etilishi bilan bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlari bo'ziladi, xalq xo'jaligining normal faoliyat ko'rsatishi izdan chiqadi, bozor iqtisodiyotining rivojlanishida to'siqlar vujudga keladi, xo'jalik subyekti faoliyati chalkashadi, asoslanmagan tavakkalchilikka yo'l qo'yiladi. Bankrotlikni yashirish, soxta bankrotlik kabi, aholining ko'z o'ngida amalga oshirilayotgan islohotlarni moliyaviy mablag'dan mahrum qiladi va ayrim holatlarda, iqtisodiyotning davlat darajasida makroiqtisodiy tanazzuliga olib kelishi mumkin. Ushbu jinoyat xo'jalik yurituvchi subyektning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan malumot yoki hujjatlarni taqdim etish, buxgalteriya hisobotlarini bo'zib ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qodir emasligini yoki iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lishda ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 181-moddasi 1-qismiga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan malumot va hujjatlarni taqdim etish, buxgalterlik hisobotlarini bo'zib ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qodirligini yo'qotganligi yoki iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yo'z baravaridan ikki yo'z baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha ahloq to'zatishtish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Obyektiv tomondan jinoyat xo'jalik yurituvchi subyektning haqiqatga to'g'ri

kelmaydigan malumot yoki hujjatlarni taqdim etishi, buxgalteriya hisobotlarini boʻzib koʻrsatish yoʻli bilan iqtisodiy jihatdan oʻzining toʻlovga qodir emasligini (iqtisodiy nochorligini) yoki boshqacha tarzda yashirishida ifodalanadi. Amaldagi qonunchilikka koʻra, “xoʻjalik subyekti (firma, birlashma, tashkilot, korxonalar, xususiy korxonalar)ning toʻlovga qobiliyatsizligi deganda, qarzdorning oʻz qarz majburiyatlarini oʻzoq vaqt mobaynida tugata olmasligi va toʻlanishi lozim boʻlgan mablagʻlarni 60 kun mobaynida kirita olmasligini tushunish lozim”.

#### **4. Tadbirkorlik sohasidagi huquqbuzarliklar uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish masalalari.**

2021yil 21 avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning *“Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir”* mavzusida mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda soʻzlagan nutqida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun yanada qulay imtiyozlar yaratish buyicha oʻz takliflarini bildirdi. Xususan, ikkinchi yoʻnalish – soliq tizimini takomillashtirish, biznesga soliq yukini imkon qadar kamaytirishga oid.

Maʼlumki, soʻnggi uch yilda soliqlar turi 16 tadan 9 taga qisqardi.

Koʻpchilikning esidan chiqqan boʻlishi mumkin, yaqinlashgan Pensiya, Maktab va Yoʻl jamarmalariga biznes uchun oir yuk boʻlgan 3,2 foizli yiimlar toʻlanar edi. Ushbu yiimlar korxonalarining foydasidan qatʼi nazar, oborotdan olinib, ularning miqdori korxonalarining kamida 20-25 foiz foydasiga teng boʻlgan.

Byudjetdan tashqari jamarmalarga mazkur yiimlarni bekor qilish hisobidan 7 mingga yaqin korxonalar har yili oʻrtacha 6 trillion soʻm soliq toʻlashdan ozod boʻldi. Masalan, birgina “Andijonkabel” korxonasi ixtiyorida 11 milliard soʻm, “Lactalis Agro” qoʻshma korxonasida esa 3 milliard soʻm mabla qoladigan boʻldi. Mol-mulk, daromad solii va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi.

Aniq misollar bilan gapiradigan boʻlsak, transport sohasida soliq yuki – 3 barobar, oziq-ovqat sanoatida – 2 barobar, toʻqimachilik va elektr texnikasi sanoatida esa, 20 foizgacha kamaydi.

Ayniqsa, pandemiya davrida xarajatlarimiz keskin oshganiga qaramasdan, qo‘shilgan qiymat solii 20 foizdan 15 foizga tushirildi, ko‘proq zarar ko‘rgan tarmoqlarga ijtimoiy soliq 12 foizdan 1 foizga pasaytirilib, mol-mulk va yer soliqlari to‘lovlaridan butkul voz kechildi. Bu esa, o‘z navbatida, tadbirkorlar ixtiyorida qolgan 2 trillion so‘m mablani biznes faoliyatiga sarflash imkonini berdi. Lekin soliq stavkalari va soliq ma‘murchiligi bo‘yicha tadbirkorlar tomonidan ko‘tarilayotgan haqli savollar hali juda ko‘p.

**Birinchidan,** o‘tgan yili yangi Soliq kodeksi amalga kiritilganidan keyin 23 ta maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari avvalgi imtiyozlarimiz saqlanib qoladimi yoki yo‘qmi, deb bezovta bo‘lmoqda. Ushbu masalada maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari bo‘lgan Sirdaryodan – “AWP” qo‘shma korxonasi (Komil Mirzayev), Toshkent viloyatidagi – “Steel Pipe Company” (Azizxon Hafizxonov) kabi 70 dan ziyod korxonalar vakillari murojaat qilgan.

Bu borada bir fikrni aniq qilib aytmoqchiman: 2020 yil fevral oyida “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘risida”gi qonun qabul qilingunga qadar iqtisodiy zonalarda ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlarga berilgan imtiyozlar saqlab qolinadi. Bunga qonun bilan kafolat berilgan. Jumladan, ushbu tadbirkorlar investitsiya miqdoridan kelib chiqib, mol-mulk, yer va suv soliqlaridan 10 yilgacha ozod qilingan edi.

Endi ushbu imtiyozlarga foyda solii ham qo‘shiladi va korxonalar ixtiyorida yiliga qariyb 300 milliard so‘m mabla qoladi. Masalan, “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasidagi “Temur Med Farm” korxonasi o‘tgan 6 oyda 4 milliard so‘m foyda solii to‘lagan bo‘lsa, ikkinchi yarim yillikda esa kamida shuncha mabla uning o‘zida qoladi. Shuningdek, ichki bozorda teng raqobat bo‘lishi uchun eksport mahsulotlari ishlab chiqarishga olib kelingan xomashyo import bojidan ozod etiladi.

Misol uchun, “Jizzax” erkin iqtisodiy zonasida joylashgan “Jizzax Toshtepa Textile” korxonasi mahsulotini to‘liq eksportga sotadi. Bu imtiyoz evaziga ushbu korxonalar olib kelgan 1 million dollarlik xomashyo va yarim tayyor mahsulotga 2,2 milliard so‘mlik bojxona imtiyozi beriladi.

Ayni paytda bir narsani aniq tushunib olish lozim. Biz qo'shilgan qiymat soliining uzluksiz zanjirini yaratish bo'yicha katta islohotlarni olib boryapmiz. Shu bois maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga qo'shilgan qiymat soliining ortiqcha qismini 7 kun ichida qaytarib berish tartibi joriy qilinadi. Bunday tartib tadbirkorlarga bir yilda o'rtacha 350 milliard so'm qo'shilgan qiymat soliini qisqa muddatda qaytarib olish va aylanma mablaglarini ko'paytirish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, chetdan olib kelingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat soliini 120 kun davomida bo'lib-bo'lib to'lashda tadbirkorlarga foiz hisoblanmaydi va garov talab etilmaydi.

**Ikkinchidan,** mamlakatimizda qurilish sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha Toshkent shahridagi "Shah-Polan M", Faronadagi "Farona Yasin Qurilish Mollari" kabi 50 dan ziyod qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalaridan takliflar kelib tushgan. Masalan, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq sementning tannarxida – 14 foiz, asfaltda – 10 foiz, qum-shaal aralashmasida – 7 foizni tashkil etadi. Shu bois noruda qazilmalarga (qum-shaal, ohaktosh, gips, dolomit kabi) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 2 barobar kamaytiriladi. Buning hisobidan 1,5 mingga yaqin korxonalar ixtiyorida yiliga 500 milliard so'm mabla qoladi. Masalan, "Huaxin Cement Jizzakh" qo'shma korxonasi o'z ixtiyorida qolgan 27 milliard so'm mablani o'z faoliyatini yanada kengaytirishga sarflashi mumkin bo'ladi.

**Uchinchidan,** biz xizmatlar sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratyapmiz. Qisqa muddatda yangi ish o'rinlarini yaratadigan sohalardan biri ham servis sohasi hisoblanadi. Mana, pandemiya hanuz davom etyapti va bu xizmatlar sohasi, ayniqsa, umumiy ovqatlanish va turizm korxonalarini uchun qanchalik oir bo'layotganini barchamiz ko'rib turibmiz, albatta. Bu borada umumiy ovqatlanish va turizm korxonalaridan o'tgan yili berilgan imtiyozlarni uzaytirish bo'yicha 300 dan ortiq murojaatlar kelib tushgan. Shu bois jami 13 mingta umumiy ovqatlanish korxonasini yil yakuniga qadar yer va mulk soliidan ozod qilamiz. Bu imkoniyat ularga 30 milliard so'm qo'shimcha ko'mak deganidir. Ularning boshqa soliqlardan mavjud 35 milliard so'm qarzlari

bo'yicha to'lov muddatlari joriy yil yakunigacha uzaytiriladi, kreditlarini qaytarish ham kechiktiriladi. Shu bilan birga, turizm kompaniyalari va mehmonxonalarni turistik yil muddatga ozod qilsak, nima deysizlar? Bu – hozirgi qiyin sharoitda tushumi kamayib ketgan 2 ming nafar tadbirkor ixtiyorida 150 milliard so'm qoladi, degani.

**To'rtinchidan,** bugungi kunda 5 mingga yaqin tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha debitor qarzdorligi mavjud. Pandemiya sababli ushbu tadbirkorlarga jarima solish va hozirgi paytgacha qo'llangan 6 trillion so'mlik jarimalarni undirish joriy yil yakuniga qadar to'xtatiladi.

**Beshinchidan,** soliq ma'murchiligini soddalashtirish, soliq idoralarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish yuzasidan jiddiy choralarni amalga oshirishimiz zarur. Kelgusi yil 1 yanvardan boshlab soliq idoralari o'z elektron dasturlari orqali biznes subyektlariga hisobotlarini shakllantirish xizmatini yo'lga qo'yadi. Hozirgi vaqtda 228 mingta kichik tadbirkorlarda buxgalter yo'q. Oqibatda soliq hisobotlarini kamchiliklar bilan topshirgan 32 mingga yaqin tadbirkorga moliyaviy jarima solingan. Hisobotlarni kechiktirib topshirish bilan bogliq moliyaviy sanksiyalarni qo'llash tartibi esa to'liq bekor qilinadi.

Shuningdek, soliq idoralari qo'llayotgan ayrim jarimalar soni va miqdorining ortgani meni xavotirga solmoqda. O'tgan yili kameral nazorati natijasida 336 ta korxonaga 51 milliard so'm moliyaviy jarima qo'llangan bo'lsa, joriy yilning 6 oyida 3 mingdan ziyod tadbirkorlarga 900 milliard so'mdan ortiq jarima belgilangan.

**Oltinchidan,** amaldagi tartibga binoan, tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solii bo'yicha hisobot topshirish bilan birga, undagi farqni qaytarish uchun soliq idoralariga alohida murojaat qilishga majbur. Bu – 14 ming tadbirkorning faoliyatiga bevosita bogliq bo'lib, ular uchun qo'shimcha vaqt, ortiqcha sarsongarchilik, degani.

**Yettinchidan,** "SAG Agro" korxonasi rahbari Kamol Abdullayev va boshqa 200 dan ortiq tadbirkorlar soliq va bojxona idoralariga to'langan qo'shilgan qiymat solini "zachyot"ga olish, ya'ni o'zaro hisob-kitob qilish imkoniyatini so'ragan.



“SAG Agro” korxonasi soliq bazasida 700 million so‘m ortiqcha to‘lovi bo‘laturib, bojxonada 1,4 milliard so‘m to‘lashga majbur bo‘lgan. Shuning uchun kelgusi yildan boshlab qo‘shilgan qiymat solini hisobga olishda soliq va bojxona idoralarining elektron bazalari o‘zaro bolanadi. Ya’ni, soliq idoralarida qo‘shilgan qiymat solii bo‘yicha mavjud ortiqcha to‘lovlar bojxona to‘lovlarini amalga oshirayotganda ham inobatga olinadi. Ushbu yengillikdan 10 mingdan ziyod tadbirkor foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Tadbirkorlarni eng ko‘p qiynayotgan muammolardan yana biri – yer ajratish masalasi bo‘yicha 4 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan. Joriy yilda ushbu yo‘nalishda katta islohotlarni boshladik. Bu borada Oliy Majlis palatalari tomonidan ma’qullangan qonunni kuni kecha imzoladim. Bu hujjatning qabul qilinishi mamlakatimizning yangi tarixida islohotlar yo‘lidagi eng katta qadamlardan biri bo‘ldi, deb hech bir mubolaasiz ayta olamiz. Mana shu islohotlarning ma’no-mazmunini tarmoq va hudud rahbarlari ham, tadbirkorlar ham, aholimiz ham yaxshi tushunib olishlari zarur.

### ***Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar***

1. Tadbirkorlik munosabatlarda javobgarlik tushunchasi. Javobgarlikning asoslari va turlari.
2. Tadbirkorlik munosabatlarda shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik.
3. Tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy, mamuriy va jinoiy javobgarlik.
4. Tadbirkorlik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish masalalari.

### **MUSTAQIL TA’LIM UCHUN TAVSIYALAR**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish” to‘g‘risidagi 2009 yil 14 avgustdagi 286 sonli buyrug‘iga ko‘ra oliy ta’lim muassasalari talabalarida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish, kerakli

ma'lumotlarni izlab topish va tahlil qilishga o`rgatish hamda shu asosda mas'uliyatli eychimlar qabul qilish ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, barcha bakalavriat ta'lim yo`nalishlari va magistratura mutaxassisliklari davlat ta'lim standartlarida ko`zda tutilgan talaba mustaqil ishi uchun belgilangan o`quv yuklamani to`liq bajarish va ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifasi amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda ushbu fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan amalga oshiriladi:

- ✓ Ayrim nazariy mavzularni o`quv adabiyotlari yordamida mustaqil o`zlashtirish; berilgan mavzu bo`yicha axborot (referat) tayyorlash;

- ✓ seminar va amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rish;

- ✓ nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash, dars ishlanmalarini tayyorlash;

- ✓ nazariy bilimlar asosida chizmalar, diagrammalar tayyorlash;

- ✓ amaliy mashg`ulotlarda interfaol usullardan foydalanish;

- ✓ qonunni sharhlash;

- ✓ huquq ijodkorligini amalga oshirishga o`rganish;

- ✓ amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

- ✓ ilmiy maqola, anjumanlarga ma'ruza tezislarini tayyorlash;

- ✓ kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;

- ✓ malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;

- ✓ huquqiy tahlil qilish (yuridik gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalarni huquqshunoslikning sohalariga tegishli ruknlariga ajratib olishni o`rganish;

- ✓ yuridik gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalarning mazmunini tushunish va ushbu maqola bo`yicha fikr-mulohaza bildira olishga erishish;

- ✓ ilmiy tilni tushunish va fikrning yozma ilmiy uslubiga o`z mulohazasini bildirish; muallif haqida ma'lumotga ega bo`lish;

- ✓ maqolada ko`tarilgan muammoning eychimi bo`yicha ham o`z fikrini bildirish va h.k.

Huquqiy tahlil jarayonida tanqidiy fikrlar ham bildirilishi mumkin.

Mustaqil ish muayyan fandan o`quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o`zlashtirilishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakaning ma'lum bir qismi bo`lib, o`qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Ushbu bo`limda talabalar mustaqil ishini bajarish yuzasidan kafedra tomonidan savol va topshiriqlar hamda ularni bajarish bo`yicha metodik tavsiyalar beriladi.

### **Talaba mustaqil ishni tayyorlashga oid shakllardan foydalanish bo`yicha tavsiyalar.**

1. Darslik va o`quv qo`llanmalarining boblari va mavzularini o`rganish. Bunday tashkiliy shakl, o`tilgan mavzular bo`yicha mustaqil bilim olishda konspekt usulidan foydalaniladi.

2. Tarqatma materiallar bo`yicha ma`ruza qismini o`zlashtirish. Bunda o`qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo`ladi. Tarqatma materiallar xajmi har bir ma`ruza uchun 5 - 6 sahifa bo`lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

3. Fanning boblari va ma`ruzalari ustida ishlash. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya va maqolalar), refsratlar, bitiruv malakaviy ishlargsh bajarish choida amalga oshiriladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

4. Fanlar bo`yicha adabiyotlarni o`rganish va tahlil qilish, qo`shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o`rganish. Bu ish ham barcha semestrlarda amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

5. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bogliq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o`rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

6. Faol o`qitish metodidan foydalaniladigan o`quv mashulotlari. Talabalar tomonidan ta`lim, fan va texnologiyalarning dolzarb muammolari bo`yicha tayyorlangan faol o`qitish metodlarini (munozara, aqlni charhlash, bumerang, klaster va b.) qo`llagan dars mashulotlari nazarda tutiladi.

### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Tadbirkorlik huquqining tushunchasi, predmeti va printsiplari.
2. Tadbirkorlik huquqining manbalari.
3. Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillari.
4. Tadbirkorlik (tadbirkorlik) huquqiy munosabat tushunchasi, belgilari va tarkibiy qismlari.
5. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.
6. Xususiylashtirishning usullari va shakllari
7. Tadbirkorlik (tadbirkorlik) huquqi subyektlarini faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish tartibi va asoslari
8. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari va ularning turlari
9. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish tartibi
10. Bankrotlikning huquqiy asoslari
11. Raqobatning huquqiy taminlanishi
12. Tovar va moliya bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash.
13. Monopolistik faoliyatni amalga oshirishning oqibatlarini va javobgarlik turlari.
14. O'zbekistonda tadbirkorlik (tadbirkorlik) faoliyatini soliqlar vositasida boshqarish, uning asosiy funksiyalari, Tamoyillari
15. Tadbirkorlik faoliyatiga soliqlar orqali tasir etish maqsadi, tushunchasi va vositalari.
16. Tadbirkorlik faoliyatining mulkiy asoslari
17. Tadbirkorlik faoliyatida shartnomalar
18. Investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish.
19. Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish
20. Fond birjalari, ularning tuzilishi va vazifalari
21. Tadbirkorlik subyektlarini moliyalash va kreditlash asoslari
22. Kredit shartnomasi tushunchasi, taraflari, kredit shartnomasining shakli
23. Auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari
24. Tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati
25. Tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

26. Iqtisodiyot sohasidagi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik
  27. Tadbirkorlik huquqi alohida huquq sohasi
  28. Tadbirkorlik nizolari tushunchasi va uning kelib chiqish asoslari
  29. Tadbirkorlik yurituvchi subyektlarni ishchanlik obro`sinini himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari
  30. Tadbirkorlik subyektlarining huquq va majburiyatlari
  31. Tadbirkorlik yurituvchi subyektlar huquqiy himoya tizimining mohiyati, shakllari va uning tashkiliy mexanizmi
  32. Birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solish
- Mustaqil o`zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.*

## GLOSSARIY

1. **Biznes** – bu ruxsat etilgan, jamiyat a`zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shuullanib, pul, daromad topishni bildiradi.
2. **Tadbirkorlik** – bu yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko`rsatish) yo`li bilan tavakkal qilib, o`z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati.
3. **Biznesmen** – bu biznes bilan shuullanuvchi shaxs.
4. **Tadbirkor** – bu yuridik shaxs bo`lmasdan doimiy asosda tadbirkorlik bilan shuullanuvchi jismoniy shaxs.
5. **Biznes qilishdan maqsad** foyda olish va uni muttasil oshirib boorish va xarajatdan ko`ra ko`proq daromad olishdir.
6. **Tadbirkorlik siri** yangi texnologiyani qo`llashning maxfiy tutishi.
7. **Tadbirkorlik nufuzi** - tadbirkorlik doirasida obro` - e`tiborli bo`lish.
8. **“Kichik va xususiy”** tadbirkorlikni rivojlantirishni rabatlantirish to`risida O`zbekiston Respublikasining qonuni 1995 yil 21 dekabr.
9. **“Kichik va xususiy”** tadbirkorlikni rivojlantirishni rabatlantirish to`grisida O`zbekiston Respublikasining qonuniga kiritilgan o`zgarish 1998 yil 9 aprelda qabul qilingan.
10. **Yollanib ishlash** orqali pul toppish, yerni ijaraga berib, renta orqali pul toppish, pulni bankka qo`yib, foiz orqali pul topish yo`llari tadbirkorlik hisoblanmaydi.
11. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning afzalliklari** moslashuvchanlik va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati, mahalliy shartsharoitlarga tez ko`nikma hosil qilish, tezlik bilan moddiy yutuqqa erishish imkoniyati hisoblanadi.
12. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kamchiliklaridan biri** -mehnat resurslarining kamroq jalb qilinishi.
13. **Kichik korxonalar** - O`zbekistonda sanoat va qurilishda kichik korxonalar turkumiga odatda hisobot davrida ulardagi xodimlarning o`rtacha soni 50 nafardan oshmasligi lozim.
14. **Noishlab chiqarish sohasida kichik korxonalar** - O`zbekiston Respublikasi qonunlarida - turkumiga odatda hisobot davrida

ulardagi hodimlarning o`rtacha soni 10 nafardan oshmagan korxonalar kiradi.

15. **Chakana savdoda kichik korxonalar** - O`zbekiston Respublikasi Qonunlariga ko`ra turkumiga odatda hisobot davrida ulardagi xodimlarning o`rtacha soni 10 nafardan oshmagan korxonalar kiradi.
16. **Tadbirkorni mulkiy javobgarlikka tortish asosi** - agar tadbirkor qonunda man qilingan faoliyat bilan shuullansa.
17. **Tadbirkorlik faoliyatini to`xtatish** – tadbirkorlik faoliyati subyekti tomonidan amaldagi qonunchilik buzilganda ular faoliyati sud orqali to`xtatiladi.
18. **Jismoniy shaxs** – bu mamlakatning huquqli bo`lish qobiliyatiga ega bo`lgan fuqarosidir.
19. **Yuridik shaxs** – bu o`z mulki, balansi, muhri, nomi, ta`sischilari, ustaviga ega bo`lgan korxonalar.
20. **Tadbirkor maqomi** – tadbirkorlik maqomini olish uchun asos korxonaning davlat ro`yxatidan o`tkazilganligi haqidagi qaror hisoblanadi.
21. **Tadbirkorlik litsenziyasi** - tadbirkorlik faoliyatiga litsenziya berishi mumkin bo`lgan organlar - O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Moliya Vazirligi va Markaziy bank.
22. **Tadbirkorlik faoliyatida maxsus litsenziya** – tadbirkorlik faoliyatining qimmatbaho metallari va noyob er osti metallari bilan bogliq faoliyatga O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi litsenziya beradi.
23. **Korxonalar** – bu yuridik shaxs huquqiga ega bo`lgan mustaqil xo`jalik yurituvchi sub`ekt, mehnat jamoasi.
24. **Korxonalar turi** - mulk shakllariga qarab korxonalar xususiy korxonalar, jamoa korxonalar, davlat korxonalar, aralash korxonalar kabi turlarga bo`linadi.
25. **Korxonalar shakllari** - ish ko`lamiga qarab korxonalar yirik korxonalar, o`rta korxonalar, kichik korxonalar shakllariga bo`linadi.

26. **Faoliyat sohasi va ixtisoslashuviga qarab korxonalar** - qishloq xo`jaligi korxonalari, sanoat korxonalari, qurilish korxonalari, xizmat ko`rsatish korxonalari kabi turlarga bo`linadi.
27. **Konsern** – bu korxonalarining faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turlarining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko`p tarmoqli korporatsiya.
28. **Konsorsium** – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarining muvaqqat birlashmasi
29. **Sindikatsiya** – bu monopolistik birlashmaning bir shakli bo`lib, bir tarmoq korxonalarining birlashmasi.
30. **Kooperativ** – bu yuridik shaxs huquqiga ega bo`lgan mustaqil xo`jalik yurituvchi sub`ekt, kooperatsiyaning birlamchi bo`ini.
31. **Shirkat, firma** - bir necha sohalarning mulkini birlashtirishga asoslangan korxonalar tushuniladi.
32. **Tadbirkorlik shakllari** - yakka tartibdagi tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, jamoa tadbirkorligi, aralash tadbirkorlik.
33. **Yakka tartibdagi tadbirkorlik** - bu shunday faoliyatki uning egasi butun daromad va tavakkalchilikni to`la o`z zimmasiga oluvchi bir shaxsdir.
34. **Xususiy tadbirkorlik** – xususiy tadbirkorlikning yakka tartibda faoliyat ko`rsatayotgan tadbirkorlikdan farqi shundaki, bu erda faoliyat ko`rsatuvchilar o`z faoliyatini yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradi.
35. **Kichik firmalar** - kooperatsiyalashgan va ixtisoslashgan qismlar va detallar ishlab chiqarish asosida faoliyat ko`rsatadi.
36. **Aksiyadorlik jamiyati** – bu jismoniy shaxslar kapitallarining birlashuvi bo`lib u aksiyalar chiqarish yo`li bilan tashkil etiladi.
37. **Mas`uliyati cheklangan shirkatning mas`uliyati cheklanmagan shirkatdan farqi** bu - jamiyat qatnashchilari o`zlari qo`shgan ulushlari doirasida javobgar bo`lishidir.
38. **Xolding kompaniyasi** – bu ko`p taraflama qo`shma korxonalar
39. **Xolding kompaniyasini tashkil etish** - uchun asos qilib - yuridik jihatdan mustaqil korxonalarining aksiya paketlarini birlashtirish yo`li olinadi.



40. **Xolding kompaniyasining turlari** - moliyaviy xolding va aralash xolding kiradi.
41. **Xolding kompaniyalarining vazifasi** - xolding kompaniyalarining asosiy vazifasi sof boshqaruvchilikdan iborat.
42. **Xolding kompaniyalarni tashki etish** - ushbu kompaniyalar monopoliyaga qarshi kurashish organning ruxsati bilan tashkil etiladi.
43. **Xorijiy korxonalar** - O`zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, aksiyalari yoki nizom jamarmasining 100 foizini xorijiy investitsiyalar tashkil etgan korxonalariga aytiladi.
44. **Qo`shma korxonalar** - milliy va xorijiy kapital asosida tashkil topgan korxonalar tushuniladi.
45. **Injinerlik korxonalar** - Muxandislik maslahat xizmatlarini tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiruvchi korxonalar tushuniladi.
46. **Venchur korxonalar** - yangi texnika, texnologiya, tovar namunalari yaratuvchi korxonalar tushuniladi.
47. **Konsalting firma** - ishlab chiqarishga ish yuzasidan maslahat xizmati ko`rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan shuullanuvchi korxonalar tushuniladi.
48. **Auditor firma** - xo`jalik faoliyatini tekshirish, taftish va tahlil etish bilan shuullanuvchi korxonalar.
49. **Kartel** - monopolistik birlashma shaklidagi korxonalar.
50. **Biznes reja tuzish** - bu bozor ehtiyojlari mavjud resurslar imkoniyatidan kelib chiqib korxonalar va firmalar faoliyatini joriy hamda kelgusi davrga rejalashtirish.
51. **Biznes reja tuzish muddati** – biznes reja muddatsiz hisoblanadi.
52. **Biznes rejaning tuzilishi** – biznes reja 5 - 18 bo`limdan iborat bo`ladi.
53. **Marketing rejasi** - maqsadlar, marketing strategiyasi, marketing kompleksi dasturi, sotish dasturi hamda iqtisodiy xisob kitoblar yoritilgan xujjat.
54. **Marketing kompleksi** - bozorga tovar etkazib berish uchun zarur bo`lgan marketing elementlarining optimal kombinatsiyadir.

55. **Marketingda boshqarish** – m/b/ jarayonlari bozor tahlili, maqsadli bozorlarni tanlash, marketing kompleksini ishlab chiqarish hamda marketing choratadbirlarini hayotga tatbiq etishdan iborat.
56. **Narx siyosati** - talabni, taklifni, tovar sifatini, iste`molchining xarid quvvatidan iborat.
57. **“Zararsizlik nuqtasi”** bu nuqta xarajatlarni qoplash uchun zarur bo`lgan minimal oborot hajmini yoki minimal tushum hajmini ko`rsatadi.
58. **Kon`yunktura** - bu bozorda ma`lum bir vaqtda yuzaga kelgan talab va taklif o`rtasidagi munosabatdan iborat.
59. **Soliqlarning asosiy vazifalari** - yo`naltiruvchi, taqsimlovchi, nazorat va xisob-kitob, cheklash, rabatlantirish, iste`mol va jamarma o`rtasidagi mutanosiblikni ushlab turuvchi.
60. **Qimmatbaho qooz turlari** - aksiya, banknotlar, veksellar, sertifikat, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlar.
61. **Kredit berish tamoyillari** - qaytarib berish foizi bilan, maqsadli, muddatli.
62. **Tadbirkor kapitali** – t.k. xususiy kapital hisoblanadi.
63. **Tadbirkorning xususiy kapitali** - t.x.k. korxonada foydasi evaziga shakllanadi.
64. **Tadbirkorning qarz kredit kapitali** – t.q.k.k. bankdan olinadigan kreditlar evaziga shakllanadi.
65. **Maxalliy soliqlar** - mahalliy soliqlarga mol-mulk solii kiradi.
66. **Qo`shilgan qiymat solii stavkasini** belgilash – q.q.s.s. Davlat soliq qo`mitasi belgilaydi.
67. **Aksiz solii stavkasini** - Davlat soliq qo`mitasi belgilaydi.
68. **Tadbirkorlik subyektlarini tekshirish** - joylarga chiqib tadbirkorlik sub`ektlarining moliya-xo`jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) davlat soliq inspeksiya tomonidan amalga oshiriladi.
69. **Auditorlik, veterinariya, tibbiyot, farmatsevtika, suurta, birja, turizm, lombard, ulgurji savdo, qimmatbaho tosh va metallaridan zargarlik buyumlari tayyorlash faoliyatiga litsenziya berish muddati** - O`zbekiston Respublikasi

Prezidentning 21.09.2005 yildagi PQ-186 – sonli Qaroriga asosan auditorlik, veterinariya, tibbiyot, farmatsevtika, suurta, birja, turizm, lombard, ulgurji savdo, qimmatbaho tosh va metallaridan zargarlik buyumlari tayyorlash faoliyatiga litsenziya cheklanmagan muddatga beriladi.

70. **Yangi tashkil qilingan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo`jaliklarining moliya-xo`jalik faoliyatini tekshirish** - O`zbekiston Respublikasi Prezidentning 05.10.2005 yildagi PF-3665 – sonli farmoniga ko`ra, yangi tashkil qilingan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo`jaliklarining moliya-xo`jalik faoliyatida ular davlat ro`yhatiga olingan paytdan boshlab 4 yil mobaynida reja asosida tekshirish o`tkazilmasligi belgilangan.
71. Ulgurji savdoga litsenziya berilganligi uchun davlat boji undirish - O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.11.2005 yildagi 242 – sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to`risida”gi Nizomiga asosan ulgurji savdoga litsenziya berilganligi uchun davlat boji undirilmaydi.
72. **Kasanachilar faoliyatini tekshirish** - O`zbekiston Respublikasi Prezidentning 05.01.2006 yildagi “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o`rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rabatlantirish chora-tadbirlari to`risida”gi Farmoniga ko`ra kasanachilar faoliyati tekshirilmaydi.
73. **Qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash bilan shuullanuvchi kichik korxonalarda ishlovchi xodimlar soni** - 25 kishi bo`lishi mumkin.
74. **Kichik biznes sub`ektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish ariza berilgan vaqtdan boshlab** - 0.3 soatda amalga oshirilishi kerak.
75. **Mikrofirma** - ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo`lgan xodimlar soni 20 kishidan, xizmat ko`rsatish sohasida 10 kishidan oshmagan kichik biznes sub`ekti.
76. **Chorvachilik maxsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo`jaligini tashkil etish** - kamida 30 shartli bosh chorva moli bo`lgan taqdirda tashkil etilishi mumkin.

77. **Yakka tartibdagi tadbirkorlikni tashkil etish** - shaxsiy tadbirkorlik, birgalikdagi tadbirkorlik shakllarda tashkil etilishi mumkin.
78. **Tadbirkorlik tamoyillari** - mulkka egalik qilish, foyda olishga intilish, erkinlik, ma`suliyat, tavakkalchilik, qonunga buysunish, raqobatda qatnashish, uz uzini boshkarish tamoyillarga asoslanadi.
79. **Mulkchilik turlari** - mulkchilikning shaxsiy va xususiy mulk, jamoa mulki, davlat mulki, aralash mulk, kushma korxonalar mulki turlari mavjud.
80. **Tadbirkorlikni faoliyatini amalga oshirish shakllari** - yakka tadbirkorlik, xususiy, jamoa, aralash tadbirkorlik shakllari mavjud.
81. **Tadbirkorlikda rejalashtirish muddati turlari** - muddati bo`yicha rejalashtirishning uzok muddatli, urta muddatli, kiska muddatli rejalashtirish turlari mavjud.
82. **Biznes - reja** biznes - reja bu firmaning rivojlanishi strategiyasini belgilab beradigan asosiy xujjat.
83. **Mulk shakliga asoslangan korxonalar turlari** - xususiy korxonalar, jamoa korxonalar, davlat korxonalar, kushma korxonalar turlarga bulinadi.
84. **Korxonalar turlari** - Ish kulami va boshkarish tartibiga kura korxonalar kichik, urta, yirik korxonalar turlarga bo`linadi.
85. **Bozor** - bu oldi - sotdi jarayoni amalga oshiriladigan joy.
86. **Bozor segmentatsiyasi** – bu bozorni xar xil xaridorlar guruxlariga bulish, ajratish, tabakalashtirish.
87. **Yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar, mikrofirmalarning moliya-xo`jalik faoliyatini rejali tartibda tekshirish** – ushbu korxonalar 4 yilda ko`pi bilan 1 marta tekshirishga ruxsat beriladi.
88. **Kichik (biznes) tadbirkorlik sub`ektlari** - yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar.
89. **Non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar** -10 ta fuqoro bilan uy mehnatini tashkil etgan korxonalar qonun-hujjatlarda belgilangan imtiyozlardan foydalana oladi, agarda fuqarolar bilan mehnat shartnomasi tuzilgan bo`lsa.

90. **Raqobat** – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida oʻz mavqeini mustahkamlash uchun kurash.
91. **Inflyatsiya** - bu pulning qadrsizlanishi.
92. **Birja turlari** - birjaning tovar birjasi, kimmatbaxo kogozlar birjasi, fond birjasi, valyuta birjasi turlari mavjud.
93. **Birja va auditorlik firmalarini roʻyxatdaqn oʻtkazish** – ushbu firmalar Respublika Adliya vazirligida roʻyxatdan oʻtadi.
94. **Tadbirkorlik qonuni** - xususiy va jamoat manfaatlarini, tashkilot sohasidagi munosabatlarni, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni va uni boshqarishni birlashtirish asosida murakkab birlashgan huquq sohasi, tartibga soluvchi huquqiy normalar toʻplami.
95. **Huquqning asosiy tarmoqlari** - Konstitutsiyaviy huquq Ma'muriy huquq Ma'muriy protsessual huquq Fuqarolik huquqi Fuqarolik protsessual qonuni Arbitraj protsessual qonuni Jinoyat qonuni Jinoyat protsessual qonuni Jinoyat ijro etuvchi qonuni Oila qonuni Mehnat qonuni Moliya qonuni Er qonuni Uy-joy qonuni.
96. **Huquqning murakkab tarmoqlari** - Tadbirkorlik qonuni (Tijorat qonuni) Bojxona qonuni, Munitsipal qonunchilik, Harbiy qonun, Ijtimoiy ta'minot toʻrisidagi qonun, Atrof-muhit toʻrisidagi qonun, Raqobat toʻrisidagi qonun.
97. **Sub-sektorlar va huquqlar** - Tijorat qonuni, Soliq qonuni, Byudjet qonuni, Bank qonuni, Axborot qonuni, Korxonalar qonuni, Transport qonuni, Antitrust qonun, Oʻrmon huquqi, Mualliflik huquqi, Patent toʻrisidagi qonun Ittifoq qonuni Ixtiro qonuni.
98. **Xalqaro huquq** - Xalqaro ommaviy huquq, Xalqaro xususiy huquq, Yevropa huquqi.
99. **Tadbirkorlik huquqining manbalari** - tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarni oʻz ichiga olgan turli xil davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari.
100. **Biznes odatlari** - qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan har qanday sohada (shu jumladan biznesda) oʻzini tutish qoidalari oʻrnatilgan va keng qoʻllanilgan qoidalar.
101. **Tijorat faoliyati** - Savdo bilan bogliq boʻlgan tadbirkorlik faoliyatining bir turi. *Commercium* (lat.) Savdo.

<https://fotochlenov.ru/uz/civildisputes/predprinimatelskoe-pravo-predmet-metody-principy/>

102. **Tadbirkorlik huquqining predmeti** - o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tadbirkorlik huquqiy munosabatlarida qatnashadigan yoki ishtirok etishi mumkin bo'lgan shaxs, fuqarolar-tadbirkorlar, tijorat va tijorat bo'lmagan yuridik shaxslar, Rossiya Federatsiyasi, Rossiya Federatsiyasi ta'sis sub'ektlari, mahalliy hokimiyat organlari, muassasalar va tashkilotlar va boshqalar. hech kim bilan tadbirkorlik (iqtisodiy) huquqiy munosabatlarga kirishmaslik vaqti. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar har doim o'ziga xos bo'lib, ularga biznes sohasida javobgarlik va huquqlar beriladi.
103. **Xususiy mulk** – fuqarolar va tadbirkorlarga egalik qilish, foydalanish hamda sotish, ayirboshlash, ijara va foydalanishga berish huquqi bilan tegishli bo'lgan pul, bino-inshoot, transport vositalari, daraxt, hayvonlar, akstiyalar, qimmatli qogozlar, asbob-uskunalar va boshqalar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

### 1. Rahbariy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlarva-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>.

1. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b.

2. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.-104 b.

3. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. <http://lex.uz/>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

7. Mirziyoev Sh. M. 2020 yil Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili. //Xalq so‘zi. 1-5b. 25.01.20y.

## **2.Normativ - huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi.Toshkent. O‘zbekiston. 2021. - 48 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Mulkchilik to‘grisida qonuni. 1990 yil 31 oktyabr, 152-XII-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. (2021 yil 1 oktyabrgacha bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) – T.: «Yuridik adabiyotlar publish”, 2021 y. - 608 b.

4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik prostessual Kodeksi. – Toshkent. 2008. - 318 b.

5. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prostessual Kodeksi. 24 01.2018 y. <https://lex.uz/docs/3523891>.

6. O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘grisidagi Qonuni O‘zR Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2012 yil, 2may. № 5-6, 140-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘grisidagi Qonuni. //O‘zR Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, 670-1-son, 9-son, 170-modda.

8. Tadbirkorlik subektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisidagi O‘zR Prezidentining Farmoni //Savdogar, 2005 yil 17 iyun, № 24.

9. Tadbirkorlik subektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganligi uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘grisidagi O‘zR Prezidentining qarori. //Xalq so‘zi, 2005 yil 17 iyun. № 116

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘grisida 2016 yil 28 oktyabr, PQ-2646-son qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘grisida» 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-



son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘grisida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevral, 66-son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori asosida tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘grisida NIZOM.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘grisida 25.08.2011 y. PQ-1604-son Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘grisida 2017 yil 29 avgust, O‘RQ – 440 - son Qonuni. <https://lex.uz/docs/3321352>.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘grisida 15.03.2019 y. PF-5690 - son Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Aholini Tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘grisida 13.10.2020 y. PQ-4862 - son Qarori.

17. Listenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘grisida O‘zbekiston respublikasining 14.07.2021y. O‘RQ-701-sonli qonuni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘grisida»gi 27.07.2022 y. PF - 178-son Farmoni.

### **Xalqaro huquqiy hujjatlar va xorijiy davlatlar normativ hujjatlari:**

1. “O Predpriyatiyax i predprinimatelskoy deyatelnosti”. Zakon RSFSR ot 25 dekabrya 1990 g. -№ 445-1 s izm. i dop. ot 24 iyunya 1992 g. -№3119-1.

2. Grajdanskiy kodeks Rossiyskoy Federastii. Chasti pervaya i vtoraya. – M.: Izdatelstvo “Novaya volna”, 1996, - 512 s.

3. О Gosudarstvennoy registrastii yuridicheskix list i individualnyx predprinimateley. Federalniy zakon ot 8 avgusta 2001 g. - № 129 –FZ s izm. i dop. ot 23 iyunya 2003 g. -№ 76 – FZ. (SZ RF. 2001. № 33.)

4. “О Krestyanskom (Fermerskom) xozyaystve” Federalniy zakon ot 11 iyunya 2003 g. № 74 FZ. (SZ RF. 2003. -№ 24.)

5. “О Registrastionnom sbore s fizicheskix lis, zanimayushixsya predprinimatelskoy deyatel'nostyu, i poryadke ix registrastii” Zakon RSFSR ot 7 dekabrya 1991 g. № 2000 -1 (BNA RF. 1992. -№ 4-5.)

6. Zakon O Federalnoy trgovoy komissi (Federal Trade Comission Act) Zakon SShA 1914 g. (Samuelson P.E., Nordxaus V.D. Ekonomika. M.: SPb.: Kiev, 2001. S. 296) [www http://Allpravo.ru](http://Allpravo.ru)

7. Yedinoobrazniy Torgoviy kodeks SShA (The uniform commercial code of USA) Kodeks SShA 1952 g. c izm. i dop. ot 1990 g. (Mejdunarodnyy stentr finansovo-ekonomicheskogo razvitiya. M.: 1996). [www http://Allpravo.ru](http://Allpravo.ru)

### **Sud amaliyoti materiallari:**

1. Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'grisidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqidagi O'zRsi Oliy xo'jalik sudi Plenumi Qarori. //O'zRsi Oliy xo'jalik sudi Axborotnomasi 2007 yil, № 11.

2. Fuqarolik prostessual qonun hujjatlari ayrim normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi haqidagi O'zRsi Oliy Sudi Plenumining Qarori. 2003 yil 19 dekabr, -№19. O'zRsi Oliy Sudining Axborotnomasi 2003 yil, -№4.

3. Tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq qonunchilikni qo'llash sud amaliyoti

to'grisidagi O'zRsi Oliy Sudining 2000 yil 28 apreldagi 84-sonli Qarori. //Xo'jalik va huquk, 2000 yil, -№ 8.

4. Tadbirkorlik faoliyati bilan bogliq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'grisida O'zbekiston respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori. 2013 yil 11 dekabr, 20-son. <https://lex.uz/docs/2307198>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik Sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘grisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining Qarori. 2020 yil 19 dekabr, 37-son. <https://lex.uz/docs/5294278>.

### **Ilmiy adabiyotlar:**

#### **a) Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar:**

1. Aliev G.N. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari. (o‘quv qo‘llanma), -Andijon: “Andijon nashriyot matbaa” “OAJ”, 2006. 78 b.

2. Baratov M.X. Davlat – fuqarolik huquqining subyekti sifatida. – TDYuI, 2005. -111 b.

3. Vasileva M.L. Kommercheskoe pravo. Kratkiy kurs. 2 oe izdanie. SPb. Piter, 2005. – 240 s.

4. Vagastuma S., T. Aridzumi. Grajdanskoe pravo Yaponii. Kniga pervaya – M.:1983.

5. Vitryanskiy V.V., Gerasimenko S.A., Gemofeev V.V. Praktika primeniya xozyaystvennogo zakonadatelstva: predprinimatelstvo otnosheniya sobstvennosti arenda i dogovora. – M.: “Ekonomika i pravo” 1991. – S.91

6. Griбанov V.P. Osushestvlenie i zashita grajdanskix prav. Izd. 2-e, stereotip. – M.: “Statut”, 2001. – 411 s. (Klassika rossiyykoy sivilistiki).

7. Gudoshnikov L.M. Правовые аспекты modernizastii v KNR – M.: Nauka,1990. –316 s.

8. Grajdanskoe pravo: uchebnik v 3-x tomax. T.1. – 6 –e izd. pererab. i dop. N.D. Egorov, I.V. Eliseev i dr. Otv. Red.A.P. Sergeev, Yu.K. Tolstoy. – M.: TK Velbi, izd.vo. Prospekt, 2006. –776 s.

9. Grajdanskoe pravo: v 4 -x tomax. T.1. Obщaya chast: uchebnik. Otv. Red. Prof.E.A. Suxanov. -3-e izd. Pererab. i dop. – M.: Volters Kluver, 2005. – 720 s.

10. Grajdanskoe pravo: uchebnik dlya vuzov. Pod. Red. Prof.V.V. Zalesskogo, M.M. Rassola. – M.: YuNITI – DANA, Zakon i pravo. 2002. –703 s.

11. Grajdanskoe pravo: Uchebnik. Pod red. S.P. Grishaeva. – M.: Yurist, 1999. – 484 s.
12. Gafarli M.S. A.Ch. Kasaev. Rivojlanishning o‘zbek modeli, tinchlik va barqarorlik taraqqiyot asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2001.
13. Golovanov N.M. Obyazatelstvennoe pravo: uchebnik. SPb: PITER, 2002. –448 s.
14. Gatin A.M. Grajdanskoe pravo: uchebnoe posobie. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya “Dashkov I K”, 2008. – 384 s.
15. Grudstina L.Yu. Spravochnik po grajdanskomu pravu ot A do Ya / L.Yu. Grudstina, A.A. Spektor. Rostov n/D: Feniks, 2007. – S.109-129.
16. Doynikov I.V. Xozyastvennoe (predprinimatelskoe) pravo: Uchebnik noviy kurs. – M.: Izd-vo PRIOR, 2001. –512 s.
17. Ershova I.V, Ivanova T.M. Predprinimatelskoe pravo. – M.: Yurisprudenstiya, 1999. – 336 s.
18. Malein N.S. Imushestvennaya otvetstvennost v xozyastvennix otnosheniyax. –M: Nauka, 1968. – 263 s.
19. Mushinskiy V.O. Grajdanskoe pravo. – M.: FORUM: INFRA 2002. – 214 s.
20. Mustaqillik izohli ilmiy - ommabop lugat. –Toshkent, 1998. – 204 b.
21. Jilinskiy S.E. Predprinimatelskoe pravo (pravovaya osnova predprinimatelskoy deyatelnosti): Uchebnik dlya vuzov. – 3-e izd., i dop. – M.: Izdatelstva Norma. 2002, –672 s.
22. Zokirov I.B. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. Darslik. –T.: TDYuI. 2006. – 416 bet.
23. Ibratov B. Tadbirkorlik huquqi. Darslik –T.:2001 yil, – 268 b.
24. Ioffe O.S. Izbrannyye trudy po grajdanskomu pravu: Iz istorii stivilisticheskoy mysli. Grajdanskoe pravootnoshenie. Kritika teorii “xozyastvennogo prava”. – M.: “Statut”, 2000. – 777s. (Seriya “Klassika rossiyskoy stivilistiki”).
25. Oleynik O.M. Predprinimatelskoe (Xozyastvennoe) pravo. T-1.- M.:1999. –727 s.

26. Oygenzixt V.A. Problema riska v grajdanskom prave. (Chast obshaya), Izd-vo "IRFON" – Dushanbe, 1972. – S.39.
27. Oqyulov O. Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqining dolzarb muammolari. (o‘quv qo‘llanma) –Toshkent: TDYuI, 2007. -147 b.
28. Sindorov K.O., I. Jumanazarov. Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishning huquqiy asoslari. –Toshkent. Yangi asr avlodi, 2006. – 289 b.
29. Serebrovskiy V. Straxovoy risk. Sbornik statey kafedri "Problema sovremennogo prava" pravovogo fakulteta Xarkovskogo inst. narod. xozyastva. Posvyashennoy pamyati akad. M.Gordona. 1927. -189 s.
30. Topildiev V.R. Ta'xis shartnomalarining nazariy va amaliy muammolari. – T.: 2006. -112 b.
31. Predprinimatelskoe pravo: uchebnik. Pod. red. N.M. Korshunova., N.D. Eriashvili – M.: 2000. – 253 s.
32. Predprinimatelskoe pravo RF. Sbornik normativno-pravovix aktov. E.P. Gubin., Parashuk S.A. MGU im. M.V Lomonosova. – M.: Yurist, 2003. –847s.
33. Predprinimatelstvo. Uchebnik dlya vuzov. Pod red. prof. V.Ya. Gorfikelya., prof. G.B. Polyana. z-e izd. – M.: YuNITI-DANA, 2001. – 581 s.
34. Puginskiy B.I. Strukturnye faktory sovershenstvovaniya mexanizma. - M: IGP AN SSSR. 1987. - 231 s.
35. Rahmonqulov H.R., S.S. Gulyamov. Korporativ huquq. Huquqshunoslik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: TDYuI, 2007. – 512 b.
36. Rahmonqulov X.R. Xususiy mulk va tadbirkorlik. – Toshkent, Adolat, 2001. –70 b.
37. Raxmonqulov X.R. Obyazatelstvennoe pravo. –Tashkent, TGYuI, 2005. – 305 s.
38. Ro‘zinazarov Sh.N. Tadbirkorlik huquqi (umumiy qism). Darslik. –Toshkent, 2002. –672 b.

39. Fokov A.P. Grajdanskoe pravo. Obщaya i osobennaya chasti: uchebnik /A.P. Fokov., Yu.G. Poponov., I.L. Cherkashina., V.A. Cherkashina. otv. Red.A.P. Fokov. – M.: KNORUS, 2005. – 688 s.
40. Khanka S.S. Entrepreneurial development. New Delhi –2005. –405s
41. Shodmanov F.Yu. Bozor iqtisodiyotida shartnoma munosabatlari. Samarqand., 1997. - 10 b.
42. Shodmanov F.Yu. Qishloq xo‘jaligida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik. (O‘quv qo‘llanma) – T.:2004. - 94 b.
43. Egamberdieva N.X. Fuqarolik-huquqiy jaavobgarlikning asoslari va shakllari. TDYuI, 2007. - 99 b.
44. Enneksterus L. Kurs Germanskogo grajdanskogo prava. Tom–1 –M.:1950. –434 s.
45. Erkaev B.A., Karimova G.I. Bozor iqtisodiyoti – izohli lugat. – Toshkent, Sharq, 1997.
46. Elliot I. Klayman. Irrwins Busneus law: conceps, analysis, prespectives – USA.: 1994.
47. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (Biznes) huquqi. Darslik - Toshkent: TDYU -2018. 31-69 betlar.
48. Muxamadiev Ayub Abduramanovich. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. T.: TDYuI nashriyoti, 2010. – 258 bet.
49. Ruziev Rustam Djabbarovich., Topildiev Voxidjon Raximovich. Fuqarolik huquqi (o‘quv qullanma) umumiy qism. T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot – matbaa uyi, 2011 yil. – 624 bet.
50. Topildiev Voxidjon Raximovich, Fuqarolik huquqi II qism. “Universitet”. -T.: 2014 yil. – 288 bet.

**b) Ilmiy maqolalar:**

1. Abdullaev A., T. Mo‘minov. Tadbirkorlik faoliyati subektlari huquq va majburiyatlari. //Xo‘jalik va huquq. 2000.- № 4.
2. Adilxodjaeva S. Podderjka predprinimatelstva prioritetnoe napravlenie gosudarstvennoy strategii. //Davlat va huquq. 2000. -№ 2.

3. Andreev V. Sozдание akstionernix obshestv i kontrol za yego deyatelnostyu. //Xozyastvo i pravo. 1996. - № 4. – S.95.
4. Bekmuratov T. O‘zbekiston Respublikasida jamoa tadbirkorligi asosidagi jamoa korxonalari. //Xo‘jalik va huquq. 2000. -№ 4. – B.56.
5. Baratov M. X. Kompleks tadbirkorlik listenziyasi (franshizing) shartnomasi. //Ilmiy maqolalar to‘plami, 2005. TDYuI. № 2. –B. 67-44.
6. Anortoev I. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini tartibga soladigan qonunchilik va uni takomillashtirish masalalari. //O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudining Axborotnomasi. – T.:2005. -№ 4. – B.29-32.
7. Kan I. O vidax predprinimatelskoy deyatelnosti. //Davlat va huquq. 2001. - №1.
8. Malein N.S. Nesotvorimost i individualizatsiya otvetstvennosti. //Sovetskoe gosudarstvo i pravo. 1982. № 11. – S.47.
9. Laptev V.V. Obzor materialov Konferentsii “Razvitie xozyastvennogo zakonadatelstva na sovremennom etape” // Gosudarstvo i pravo. – M.:2005. -№ 2. – S.116.
10. Okyulov O. Pravovoy status individualnogo predprinimatelya. //Vestnik Visshego xozyastvennogo suda Respubliki Uzbekistan. 2005. - № 7. – S.56-61.
11. Okyulov O. Ponyatie i osnovnie priznaki predprinimatelskoy deyatelnosti. // Xozyastvo i pravo. – Toshkent. 2004. № 5. – S.74-75.
12. Ro‘zinazarov Sh.N. Tadbirkorlik huquqi subektlari va ularni huquqiy holati. // Xo‘jalik va huquq. 2001. -№ 8.
13. Rahmonqulov. X.R. Tadbirkorlikning mulkiy va huquqiy asoslari to‘grisida. //Xo‘jalik va huquq. 2000. -№ 11.
14. Rustamboev M.H., O. Oqyulov. Tadbirkorlikning huquqiy himoyasi. Muammo va echimi, taraqqiyot tayanchi. // Hayot va qonun. 2002. -№ 5. –B. 18-20.
15. Sindorov K.O. I.Jumanazarov. Shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik oqibatida etkazilgan zararni qoplashning ayrim

xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik Sudining Axborotnomasi 2005. - № 5, –B. 30-33.

16. Shayxov A. 11 Barerov, tormozyashix predprinimatelstvo. //Pravda Vostoka. - № 79. 21.04.2005.

17. Yuridik ensiklopediya. /Yuridik fanlari doktori, professor U. Tadjixanovning umumiy tahririda. – Toshkent: “Sharq”, 2001. - 656 b.

18. Feygena L.G. Nekotoriye aspekti nesovershenstva grajdanskogo prostessualnogo zakonadatelstva Kirgizskoy Respubliki. //Pravo i predprinimatelstvo. – Kirgiziya, 2005. № 5. – S. 17-19.

19. Xamroev S. S. Pravovoy status listenzii v gornix otnosheniyax. // Gosudarstvo i pravo. Dushanbe: 2000, № 3. – S.39-43.



## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
<b>I BOB. TADBIRKORLIK HUQUQI FANI TUSHUNCHASI</b> .....	<b>10</b>
1. Tadbirkorlik huquqining tushunchasi, predmeti va tamoyillari. ....	10
2. Tadbirkorlik huquqining boshqa huquqiy fanlardan farqi. ....	21
3. Tadbirkorlik huquqining manbalari va uning turlari. ....	25
4. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va tarkibiy qismlari. ....	26
<i>Mavzuni mustaxkamlashga oid savollar</i> .....	35
<i>Bobni o'zlashtirish uchun testlar</i> .....	36
<b>2-BOB. TADBIRKORLIK HUQUQI SUBYEKTLARI</b> .....	<b>38</b>
1. Tadbirkorlik huquqi subyektlari tushunchasi, belgilari va tasnifi. ....	38
2. Tadbirkorlik huquqi subyektlari faoliyatini tashkil qilish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish.....	46
3. Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida. ....	67
4. Tadbirkorlik huquqining subyekti sifatida davlat.....	70
<i>Mavzuni mustaxkamlashga oid savollar</i> .....	72
<i>Bobni o'zlashtirish uchun testlar</i> .....	72
<b>3-BOB. TADBIRKORLIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISHNING HUQUQIY ASOSLARI</b> .....	<b>75</b>
1. Tadbirkorlik (biznes) huquqi subyektlarini qayta tashkil etish tushunchasi va uni amalga oshirish usullari.....	75
2. Tadbirkorlik (biznes) huquqi subyektlarini tugatish tartibi va asoslari.....	88
<i>Bobni o'zlashtirish uchun testlar</i> .....	100
<b>4. BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BANKROTLIGI</b> ..	<b>101</b>
1. Bankrotlik tushunchasi va uning normativ huquqiy asoslari.....	101
2. Sudgacha sanatsiya qilish, kuzatuv va sud sanatsiyasi.....	108
3. Tashqi boshqaruv.....	138
4. Bankrotlik to'g'risidagi ishni sudda ko'rishga tayyorlash, uni hal etish.....	160
5. Yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining xususiyatlari.....	178

6. Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillari.....	185
<i>Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.....</i>	<i>186</i>
<i>Bobni o'zlashtirish uchun testlar.....</i>	<i>187</i>

## **5.BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MULKIY**

<b>ASOSLARI.....</b>	<b>190</b>
1.Mulk huquqi tadbirkorlik faoliyatining asosi sifatida.....	190
2.Xususiy mulk asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish.....	185
3.Xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning xususiyatlari.....	215
4.Tadbirkorlik subyektlarining mol-mulki ob'ektlari.....	217
<i>Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.....</i>	<i>219</i>
<i>Bobni o'zlashtirish uchun testlar.....</i>	<i>219</i>

## **6.BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUQUQ VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH .....**

<b>222</b>	
1.Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish tushunchasi.....	222
2.Tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy tizimi....	229
3.Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoya tizimini huquqiy ta'minlash... ..	237
4.Xo'jalik (tadbirkorlik) subyektlarini nazorat qilishda huquqiy himoya tizimining amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari. ....	243
<i>Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.....</i>	<i>249</i>
<i>Bobni o'zlashtirish uchun testlar.....</i>	<i>249</i>

## **7.BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI USTIDAN DAVLAT NAZORATI .....**

<b>251</b>	
1.Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati tushunchasi, printsiplari va huquqiy asoslari.....	251
2.Nazorat qiluvchi organlar va ularning vakolatlari.....	259
3.Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ustidan davlat nazorati shakllari.....	265
4.Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish turlari.....	280
<i>Mavzuni mustaxkamlas uchun savollar.....</i>	<i>287</i>
<i>Bobni o'zlashtirish uchun testlar.....</i>	<i>287</i>

## **8.BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR.....**

1. Tadbirkorlik shartnomasi tushunchasi, subyektlari va ahamiyati.....	288
2. Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, o`zgartirish va bekor qilish....	291
3. Tadbirkorlik shartnomalarini bajarish.....	308
4. Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan taminlanishini tashkil etish va nazorat qilish.....	311
5. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.....	314
<i>Mavzuni mustaxkamlas uchun savollar.....</i>	<i>321</i>
<i>Bobni o`zlashtirish uchun testlar.....</i>	<i>321</i>
<b>9.BOB. TADBIRKORLIK NIZOLARINI HAL QILISH .....</b>	<b>324</b>
1. Tadbirkorlik nizolari tushunchasi va uning kelib chiqish asoslari.....	324
2. Tadbirkorlik nizolarini hal qiluvchi organlar. ....	326
3. Tadbirkorlik nizolarini hal etish va sud hujjatlarini qayta ko`rish.....	339
4. Tadbirkorlik sudi hujjatlarining ijrosi.....	347
5. Tadbirkorlik yurituvchi subyektlarni ishchanlik obro`sinini himoya qilishning o`ziga xos xususiyatlari.....	350
<i>Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.....</i>	<i>353</i>
<i>Bobni o`zlashtirish uchun testlar.....</i>	<i>353</i>
<b>10 - BOB. TADBIRKORLIK MUNOSABATLARIDA JAVOBGARLIK .....</b>	<b>354</b>
1. Tadbirkorlik munosabatlarda javobgarlik tushunchasi. Javobgarlikning asoslari va turlari.....	354
2. Tadbirkorlik munosabatlarda shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik.....	355
3. Tadbirkorlik faoliyatida moliyaviy, mamuriy va jinoiy javobgarlik.....	373
4. Tadbirkorlik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish masalalari.....	389
<i>Mavzuni mustaxkamlash uchun savollar.....</i>	<i>393</i>
<i>Bobni o`zlashtirish uchun testlar .....</i>	<i>393</i>
<b>Mustaqil ta`limni bajarishga oid tavsiyalar.....</b>	<b>393</b>
<b>Mustaqil ta`lim mavzulari.....</b>	<b>396</b>
<b>Glossariy.....</b>	<b>398</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....</b>	<b>407</b>

**Z.O. KUVANDIKOV**

# **TADBIRKORLIK(BIZNES) HUQUQI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligi tomonidan 5380100 yurisprudenstiya bakalavriat ta’lim  
yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qullanma sifatida tavsiya etilgan*

Muharrir  
Musahhih  
Texnik muharrir

N. Choriyev  
O. Sharapova  
B.Egamberdiyev

**ISBN 978-9943-9350-9-9**

2023-yil 15 martda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2023-yil 23 martda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturasini.

Offset qog‘ozi. Shartli bosma tabog‘i – 26,0.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma №461

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

